JAESA
JOURNAL OF AGRICULTURAL ECONOMICS AND SMART AGRICULTURE

2026 SEPTEMBER
VOLUME 1
ISSUE 2

ISSN: 3093-950X

IAU
INTERNATIONAL AGRICULTURE UNIVERSITY

JOURNAL OF AGRICULTURAL ECONOMICS AND SMART AGRICULTURE

BOSH MUHARRIR
Aminova Munira Abdugafurovna – s.f.d. (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d (DSc)
Primov Abdulla Egamqulovich – i.f.f.d. (PhD)

Ijrochi muharrir:
Turg‘unov Azizbek Normat o‘g‘li

Tahrir hay’atining xalqaro a’zolari:
Lui Xuebo – t.f.d.(DSc) professor (NWAFU Xitoy Xalq Respublikasi)

Tahrir hay’ati:

03.00.00 — Biologiya fanlari:
Tashmuhamedova Shohista Sabirovna – b.f.d. (DSc)
Eshova Xolisa Saidovna – b.f.d. (DSc)
Kuchkarova Lubov Salijanovna – b.f.d. (DSc)
Karimova Iroda Ibroximjonovna – b.f.d. (DSc)
Raximov Matnazar Shomurotovich – b.f.d. (DSc)
Kadirova Zuhra Abrarovna– b.f.f.d. (PhD)
Sergei Yazvenko – b.f.f.d. (PhD)
Michael Brody – b.f.f.d. (PhD)
Grace Mukupa – b.f.f.d. (PhD)
Mirakbarova Zebiniso Mirvoxid qizi – b.f.f.d. (PhD)

05.00.00 — Texnika fanlari:
Tukhtamishev Botir Kunishevich – t.f.d. (DSc)
Mirvadiyev Zoid Zohidovich – t.f.d. (DSc)
Xudayarov Zafarjon Jumayevich – t.f.d. (DSc)
Iskandarov Zafar Samandarovich – t.f.d. (DSc)
Pirimov Odil Jo‘rayevich – t.f.d. (DSc)
Mirzakhodjaev Sherzodkhuja Shokhrukhovich – t.f.f.d. (PhD)
Sharipov Sulton Yangiboyevich – t.f.n. (PhD)
Djiyanov Ma’oruf Rashidovich – t.f.f.d. (PhD)
Irisov Xusniddin Doniyorovich – t.f.f.d. (PhD)
Quziyev Ulug‘bek Tadjievich – t.f.f.d. (PhD)

06.00.00 — Qishloq xo‘jaligi fanlari:
Yunusov Saloxiddinjon Adxamovich – q.x.f.d. (DSc)
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc)
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc)
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li – q.x.f.d. (DSc)
Azizov Aktam Sharipovich – q.x.f.d. (DSc)
Allanov Kholik Keldiyorovich – q.x.f.d. (DSc)
Yuldasheva Ra’no Abdurashidovna – q.x.f.d. (DSc)
Umidov Shavkat Ergashevich – q.x.f.f.d. (PhD)
Raxmonov Ubaydillo Normamadovich – q.x.f.f.d. (PhD)
Abdusattarov Bakhtiyorjon Abdug‘oppor o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD)
Dinara Muzaffarova – q.x.f.f.d. (PhD)
Nematov Nurillo Abduraxim o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD)
Muminov Rustam Amanovich – q.x.f.f.d. (PhD)
Toshmatov Bekzod – q.x.f.f.d. (PhD)

08.00.00 — Iqtisodiyot fanlari:
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d (DSc)
Bobojonov Ihtiyor Bahtiyorovich – i.f.d (DSc)
Nazarkulov Umidjon Raximjanovich – i.f.d (DSc)
Hamidov Ahmad Muhammadxonovich – i.f.d (DSc)
Karimov Aziz Akmalovich – i.f.d (DSc)
Asamov Ravshan Baxodirovich – i.f.f.d (PhD)
Gabriel Ogunmola – i.f.f.d (PhD)
Eshmatov Sirojiddin Keldiyarovich – i.f.f.d (PhD)
Egamberdiyev Bekzod – i.f.f.d (PhD)
Slawomir Wroblewski – i.f.f.d (PhD)
Jurij Renkas – i.f.f.d (PhD)

MUASSIS

XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI
https://iau.uz/

JOURNAL OF AGRICULTURAL ECONOMICS AND SMART AGRICULTURE
Ilmiy-amaliy elektron jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasidagi nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 14-mayda taqdim etilgan № 1583663 GUVOHNOMA asosida faoliyat yuritmoqda.
ISSN 3093-950X

Ixtisoslashuvi
03.00.00 — Biologiya fanlari
05.00.00 — Texnika fanlari
06.00.00 — Qishloq xo‘jaligi fanlari
08.00.00 — Iqtisodiyot fanlari

Dizayner-sahifalovchi:
RUZIYEV RAXMATJON

Maqolada keltirilgan fakt va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.

Elektron nashr, 358 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil 10-sentabrda ruxsat etildi.

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: https://t.me/iaujaesauz
E-mail: iau.jaesa.uz@gmail.com
Jurnalning rasmiy sayti: https://iau-jaesa.uz/
Tel: +(998) 99 878 31 57

M U N D A R I J A

03.00.00 — BIOLOGIYA FANLARI

XUDAYBERGANOVA XULKAR BAXTIYOR QIZI
HOVUZ BALIQCHILIGI SHAROITIDA OQ AMUR (CTENOPHARYNGODON IDELLA VALENCIENNES, 1844) BALIQLARINING NASLLI OTA-ONA TO‘DASINI SHAKLLANTIRISHDA MUHIT OMILLARINING TA’SIRINI BAHOLASH ……..…….....**6**

ALIMOVA AZIZA TOYIROVNA
HOVUZ BALIQCHILIGI SHAROITIDA OQ DO‘NGPESHONA (HYPOPHTHALMICHTHYS MOLITRIX VALENCIENNES, 1844) OTA-ONA BALIQLARINING REPRODUKTIV BIOLOGIYASI VA NASLLI TO‘DANI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI ……**12**

MAMIROVA ODINA ABDULXAMIDXON QIZI, ARTIKOVA RA’NO MAMURXANOVNA
HIPPOPHAE RHAMNOIDES RIZOSFERASIDAN AJRATILGAN PSEUDOMONAS KOREENSIS VA PSEUDOMONAS CHLORORAPHIS SHTAMMLARINING POMIDOR (SOLANUM LYCOPERSICUM L.) URUG‘LARINING UNUVCHANLIGI HAMDA O‘SISH KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI ...……..**19**

ORAZBAEVA SEVARA RAXIMOVNA
KEMIRUVCHILARNING O‘ZBEKISTON EKOTIZIMLARIDAGI OZUQA ZANJIRLARI VA MODDA AYLANISHIDAGI ROLI ……...….**27**

ORAZBAEVA SEVARA RAXIMOVNA
EKOLOGIK OMILLARNING O‘SIMLIKLAR O‘SISHI VA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI ……..….**37**

RAHIMBERGANOVA MUSHTARIY TIMUROVNA
XORAZM VOHASI NO‘XAT AGROTSENOZIDA FITOFAG HASHAROTLARNING EKOLOGIK AHAMIYATI …….....**47**

RAXMATOVA GULNOZA TURAKULOVNA
TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA KARP (CYPRINUS CARPIO L., 1758) BALIG‘INING REPRODUKTIV XUSUSIYATI SHAKLLANISHINING EKOLOGIK-FIZIOLOGIK ASOSLARI……...**55**

SUYAROV YASHIN ABDIKAXAROVICH, RUZIYEV ABROR MEYLIKULOVICH, O‘MIRZOQOV DOSTONBEK ABDRAHIM O‘G‘LI
NUROTA TUMANI YER MAYDONI TUPROQLARINING OZIQA MODDALARI BILAN TA’MINLANISH DARAJASI ……....**62**

ZUKHRA A. KADIROVA, ABDUG‘ANIYEVA POKIZA YO‘LCHI QIZI
POLIETILEN PARCHALANISHINI TEZLASHTIRUVCHI BAKTERIAL SHTAMMLARNI (PSEUDOMONAS SPP., BACILLUS SPP.) MAHALLIY HUDUDLARDAN AJRATIB OLISH VA IDENTIFIKATSIYA QILISH …….....……..…**71**

ZUKHRA A. KADIROVA, ABDUGANIYEVA POKIZA YOLCHI KIZI
ISOLATION AND IDENTIFICATION OF BACTERIAL STRAINS (PSEUDOMONAS SPP., BACILLUS SPP.) ACCELERATING POLYETHYLENE DEGRADATION FROM LOCAL SITES……..….**82**

05.00.00 — TEXNIKA FANLARI

KUVONCHBEK KUVONDIKOV, ELMIRA TESHABAYEVA
SCIENTIFIC AND PRACTICAL ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING THE SELECTION OF GASKET MATERIALS ……..……..**92**

XAKIM MURATOV, JAMSHID TOLIPOV
ASSESSMENT AND ANALYSIS OF RELIABILITY INDICATORS IN POWER SUPPLY SYSTEMS WITH INTEGRATED DISTRIBUTED GENERATION SOURCES ……..……**106**

MIRZAXODJAEV SHERZODXUJA SHOXRUXOVICH, XUDAYAROV ZAFAR JUMAYEVICH
PARABOLASIMON AG‘DARGICH YUZALI QALAMCHA EKISH QURILMASINING ISHLASH JARAYONINI TADQIQ ETISH ……..**117**

RAXMATULLAYEV MUXAMMADALI MUXAMMADZOKIR UGLI
MICROSTRUCTURAL ANALYSIS OF HIGH-STRENGTH CAST IRON…….....**126**

OMONOV DILMUROD SA’DIEVICH, XUDOYOROV FIRDAVS ZAFARJON O‘G‘LI
POLIETILEN QOPLAMAGA MUQOBIL SIFATIDA BIODEGRADATSIYALANADIGAN QOG‘OZ QOPLAMA MATERIALINI QO‘LLASH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH……..…**133**

MATQURBANOV GANJABOY BATIR O‘G‘LI, MOSHORIBOVA QUNDUZOY SHERIMMAT QIZI
MATRITSALI ALGEBRA VA CHIZIQLI DASTURLASH YORDAMIDA TRANSPORT MASALASINI IQTISODIY MODELLASHTIRISH……..**141**

06.00.00 — QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

ZAKIRJONOVA DIYORAXON ZAKIRJONOVNA
QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARINI ZAMBURUG‘LI KASALLIKLARDAN HIMOYA QILISHDA TRIAZOL HOSILALARINING BIOLOGIK FAOLLIGI VA AHAMIYATI ……**146**
ERDANOVA GUZAL MIRULUG‘OVNA, XUDAYIBERGENOVA MADINA ADIXAM QIZI
MONBELYARD ZOTLI SIGIRLARNI OZIQLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI…….....…**155**
NIZANOV JANIBEK KHUMMETILLOVICH
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR COMPARATIVE EVALUATION OF POTATO CULTIVARS UNDER THE SOIL AND CLIMATIC CONDITIONS OF KARAKALPAKSTAN……...**163**
ORAZYMBETOV EDILBEK KAYPBEKOVICH
EFFECT OF DIFFERENT PLANTING SCHEMES ON CARROT GROWTH, ROOT YIELD AND MARKETABLE QUALITY ……...…**171**
URAZBAYEV KAMIL DJANGABAYEVICH
EFFECTIVENESS OF VERMICOMPOST AND CHLORELLA APPLICATION IN TOMATO CULTIVATION UNDER THE CONDITIONS OF KARAKALPAKSTAN ……..……**179**
ДЖАЛИМБЕТОВ МУСА АЯПБЕРГЕНОВИЧ
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ШАРОИТИДА ШОЛҒОМ (Brassica rapa L.) ЕТИШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-АГРОТЕХНОЛОГИК АСОСЛАРИ ……..……...**186**
Y. SH. MASHARIBOVA
JAHON VA O‘ZBEKISTON DEHQONCHILIGIDA ARPA YETISHTIRISH TAJRIBASI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: ILMIY MANBALAR TAHLILI ……..……..**196**
JASURBEK YUNUSOV
THE ROLE OF CHICKPEA GENETICS IN IMPROVING YIELD RESILIENCE UNDER ABIOTIC AND BIOTIC STRESS CONDITIONS……..**202**
С. Я. ИСЛАМОВ, А.Э. ҚАРШИЕВ, К.А. РИСБОЕВ
ЎРИК ЕТИШТИРИШДА ҲОСИЛДОРЛИКНИ ОШИРИШ ТАДБИРЛАРИ……**211**
XOLLIYEV ASAMIDDIN TURAEVICH, ELMURODOV MAQSUDJON ZIYODULLO O‘G‘LI
BIOLABORATORIYALARDA ENCARSIA PARTENOPEANI (HYMENOPTERA) KO‘PAYTIRISH, YIG‘IB OLISH VA AGROBIOTSENOZDA ALEYRODIDAE OILASI VAKILLARIGA QARSHI QO‘LLASH……...…..**218**
NORMURODOVA MUNOJAT TOG‘AYEVNA, ALLANOV XOLIK
AMARANT NAVLARI VA NAMUNALARINING MAHSULDORLIK KO‘RSATKICHLARI……..**227**
ZINATDINOV KAMALATDIYIN MNAJATDIN ULI, NORMURODOVA MUNOJAT TOG‘AYEVNA, ALLANOV XOLIK
TUPROQLARNING HAJM OG‘IRLIGIGA ORGANO-MINERAL KOMPOSTLARNING TA’SIRI.....…**234**
NORMURODOVA MUNOJAT TOG‘AYEVNA, ALLANOV XOLIK
TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA INTRODUKSIYA QILINGAN AMARANT GENOTIPLARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA FUZARIOZ BILAN KASALLANISH DARAJASINI BAHOLASH……...**238**
YIGITAYEVA MUSHTARIY FARXODJON QIZI, NORMURADOVA MUNOJAT TOG‘AYEVNA, YULDASHEVA RA’NO ABDURASHIDOVNA, ALLANOV XOLIK KELDIYORIVICH
DYNAMICS OF LEAF NUMBER IN INTRODUCED QUINOA (CHENOPODIUM QUINOA WILLD.) VARIETY SAMPLES UNDER IRRIGATED CONDITIONS……..……**246**
ISROILOV BAXTIYOR ABDULLAYEVICH
MARJUMAKNI POYA BALANDLIGIGA EKISH MUDDATI, ME’YORI VA USULLARINING TA’SIRI……..……**254**

08.00.00 — IQTISODIYOT FANLARI

AMRIYEVA SHAXZODA SHUXRATOVNA
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI ……**261**
VAXABOV ABDURAHIM VOSIQOVICH, OMONOVA SHAHLO RAXIMJON QIZI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT QARZINING TARKIBIY TUZILISHI: TASHQI VA ICHKI QARZ NISBATI TAHLILI ……**268**
MAFTUNA UTKIROVA MURODOVNA, TUROPOV SHOKHRUKH ULUG'BEK UGLI
FINANCIAL MANAGEMENT PRACTICES AND THE ECONOMIC SUSTAINABILITY OF SMALL AND MEDIUM ENTERPRISES ……**275**
KURBONKHUJA RUZIEV
SOIL EROSION AND CONSERVATION STRATEGIES ACROSS CLIMATES WITH A FOCUS ON UZBEKISTAN ……**284**
FERUZ YULDASHEV
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOSLASHTIRISH ORQALI BITIRUVCHILAR BANDLIGI VA TADBIRKORLIK SALOHIYATINI OSHIRISH……**291**
MAMATQOBILOV SHERALI NORMUMINOVICH, SAYFULLAEVA MAXSUMA JUMADILLA QIZI
KORXONALARNI BOSHQARISHDA MARKETING STRATEGIYASINING AHAMIYATI VA O'RNI ……...……...**301**
MAFTUNA UTKIROVA MURODOVNA, TUROPOV SHOKHRUKH ULUGBEK UGLI
PUBLIC MANAGEMENT EFFICIENCY AND REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN……**306**
YULDOSHEVA LAYLO ISROILOVNA
O'ZBEKISTON TURIZM OBYEKTLARIDA SIRKULYAR TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH ……**317**
JASURBEK YUNUSOV
STRUCTURAL SYSTEMS IN CONTROLLED ENVIRONMENT AGRICULTURE……..**328**
FIRDAVS YULDASHEV, KURBONKHUJA RUZIEV
THE ROLE OF EMPLOYMENT AGENCIES IN ENHANCING EMPLOYMENT RATES IN THE AGRICULTURE SECTOR: A PATHWAY FOR RESIDENTS OF TASHKENT REGION……..**337**
USMONOVA MOHIGU MANSUR QIZI
QASHQADARYO VILOYATI UCHUN YASHIL TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI ……...**350**

03.00.00 — BIOLOGIYA FANLARI
https://iau-jaesa.uz/article/retz3sgsr83z/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22841671
UO`K: 597:639.3(575.1)

HOVUZ BALIQCHILIGI SHAROITIDA OQ AMUR (*CTENOPHARYNGODON IDELLA* VALENCIENNES, 1844) BALIQLARINING NASLLI OTA-ONA TO'DASINI SHAKLLANTIRISHDA MUHIT OMILLARINING TA'SIRINI BAHOLASH.

Xudayberganova Xulkar Baxtiyor qizi, assistent
e-mail: Zarazayka.1995.18@gmail.com
ORCID https://orcid.org/0009-0000-3135-1741
Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 2023–2025-yillar davomida Toshkent viloyatidagi* ***MCHJ "Khoorrot Fish House"****,* ***FX "ZafarAsad"*** *hamda* ***MCHJ "Imkon Baliq Fayz"*** *baliqchilik xo'jaliklarida oq amur (*Ctenopharyngodon idella *Valenciennes, 1844) baliqlarining naslli ota-ona to'dasini shakllantirishda muhit omillarining ta'siri o'rganildi. Tadqiqot davomida gidrokimyoviy ko'rsatkichlar, suv o'tlari hamjamiyatlari, zooplankton, bentos va xo'jalikda qo'llanilgan texnologik tadbirlarning ota-ona baliqlarining biologik holati hamda reproduktiv salohiyatiga ta'siri kompleks baholandi. Natijalar optimal gidrokimyoviy sharoit, rivojlangan tabiiy oziqa bazasi va ilmiy asoslangan boshqaruv usullari yuqori sifatli naslli ota-ona to'dasini shakllantirishning asosiy omillari ekanligini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *oq amur,* Ctenopharyngodon idella*, naslli ota-ona to'dasi, gidrokimyo, ekologik omillar, hovuz baliqchiligi, reproduktiv biologiya, akvakultura.*

Аннотация: *В данной статье представлены результаты исследований, посвящённых изучению влияния факторов окружающей среды на формирование маточного стада белого амура (*Ctenopharyngodon idella *Valenciennes, 1844) в условиях прудовой аквакультуры. Исследования проводились в 2023–2025 годах в трёх рыбоводческих хозяйствах Ташкентской области. Комплексно изучены гидрохимические показатели воды, сообщества водорослей, зоопланктон, бентос и технологические мероприятия, влияющие на биологическое состояние и репродуктивный потенциал производителей. Установлено, что оптимальные экологические условия являются основой формирования высококачественного маточного стада.*

Ключевые слова: *белый амур,* Ctenopharyngodon idella*, маточное стадо, экологические факторы, гидрохимия, репродуктивная биология, прудовая аквакультура.*

Abstract: *This study evaluates the influence of environmental factors on broodstock formation of grass carp (*Ctenopharyngodon idella *Valenciennes, 1844) under pond aquaculture conditions. The research was conducted from 2023 to 2025 at three fish farms in the Tashkent region. Hydrochemical parameters, algal communities, zooplankton, benthic organisms and aquaculture management practices were comprehensively assessed in relation to broodstock quality and reproductive performance. The results demonstrated that optimal water quality, a well-developed*

natural food base and scientifically based pond management significantly improve broodstock development and reproductive potential.

Keywords: *grass carp,* Ctenopharyngodon idella, *broodstock, environmental factors, hydrochemistry, reproductive biology, pond aquaculture.*

KIRISH

Akvakultura bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yigirma yil davomida akvakultura mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib bormoqda va inson iste'moli uchun yetishtirilayotgan baliq mahsulotlarining yarmidan ortig'i sun'iy yetishtirish hisobiga to'g'ri kelmoqda (FAO, 2024). Mazkur tendensiya yuqori biologik va iqtisodiy samaradorlikka ega baliq turlarini ilmiy asosda ko'paytirish texnologiyalarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish, ichki suv havzalaridan samarali foydalanish va yuqori sifatli baliq ekish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hovuz baliqchiligi sharoitida o'simlikxo'r baliqlarni intensiv yetishtirish orqali suv resurslaridan oqilona foydalanish, mahsuldorlikni oshirish va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oq amur (*Ctenopharyngodon idella* Valenciennes, 1844) baliqlari karpsimon baliqlar oilasining iqtisodiy jihatdan eng muhim vakillaridan biri bo'lib, tez o'sishi, o'simlik biomassasidan samarali foydalanishi, suv havzalarini biologik melioratsiya qilish xususiyati hamda yuqori bozor talabi bilan ajralib turadi. Ushbu turning muvaffaqiyatli ko'paytirilishi, avvalo, biologik jihatdan to'laqonli va reproduktiv salohiyati yuqori bo'lgan naslli ota-ona to'dasini shakllantirishga bog'liq. Naslli ota-ona baliqlarining sifati genetik omillar bilan bir qatorda tashqi muhit sharoitlariga ham bevosita bog'liq. Suv harorati, erigan kislorod, pH, mineral tarkib, azot birikmalari, tabiiy oziqa bazasi, fitoplankton va zooplankton rivojlanishi hamda xo'jalikda qo'llaniladigan oziqlantirish va parvarishlash texnologiyalari reproduktiv tizimning shakllanishi va gonadalarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Gidrokimyoviy muhitning o'zgarishi metabolizm, gormonal faoliyat va jinsiy mahsulotlarning yetilishi bilan chambarchas bog'liq. Boyd va Tucker (2012) hovuz suvining sifat ko'rsatkichlari baliqlarning fiziologik holati va reproduktiv samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlagan. Billard (1986) nasldor baliqlarning yoshi, tana massasi va oziqlanish darajasi gonadalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir qilishini ilmiy asoslagan. De Silva va Anderson (2019) muvozanatli oziqlantirish hamda rivojlangan tabiiy oziqa bazasi reproduktiv mahsuldorlikni oshirishini qayd etgan. So'nggi yillarda Zhang va hammualliflari (2023), Xu va hammualliflari (2021) hamda Miao va hammualliflari (2024) ekologik monitoring va suv sifati boshqaruvi ota-ona baliqlarining biologik sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, Toshkent viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida oq amur baliqlarining naslli ota-ona to'dasini shakllantirishda ekologik omillarning kompleks ta'siri bo'yicha uzoq muddatli tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud ishlarning aksariyati alohida gidrokimyoviy yoki biologik ko'rsatkichlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, abiotik, biotik va

antropogen omillarning o'zaro bog'liqligi hamda ularning reproduktiv biologiyaga ta'siri kompleks tarzda kam yoritilgan.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqotlar 2023–2025-yillar davomida Toshkent viloyatida joylashgan **MCHJ "Khoorrot Fish House"**, **FX "ZafarAsad"** va **MCHJ "Imkon Baliq Fayz"** baliqchilik xo'jaliklarida olib borildi. Mazkur xo'jaliklar tabiiy-iqlim sharoiti, hovuzlarning gidrologik xususiyatlari va naslchilik ishlari yo'lga qo'yilganligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot obyekti sifatida jinsiy yetilgan oq amur (*Ctenopharyngodon idella* Valenciennes, 1844) baliqlarining naslli ota-ona to'dalari tanlandi. Har bir xo'jalikdan 31 tadan ota-ona baliqlari tanlab olinib, jami 93 dona baliqda biologik kuzatuvlar olib borildi. Namunalar sog'lom, tashqi nuqsonlarsiz va naslchilik talablariga javob beradigan baliqlar orasidan tanlandi.

Ekologik omillarni baholash: Tadqiqot davomida naslli ota-ona to'dasining shakllanishiga ta'sir etuvchi ekologik omillar uch guruhga ajratildi: **abiotik**, **biotik** va **antropogen** omillar. Abiotik omillar sifatida suv harorati, pH, erigan kislorod, ammiak, nitrit, nitrat, fosfat va suvning shaffofligi muntazam o'lchandi. Suv namunalari APHA (2023) tavsiyalariga muvofiq laboratoriya sharoitida tahlil qilindi. Biotik omillarni baholashda suv o'tlari hamjamiyatlari, zooplankton, bentos, makrofitlar, mikrobiologik holat va parazitologik vaziyat o'rganildi. Fitoplankton va zooplankton namunalari gidrobiologik usullar asosida yig'ilib, mikroskop yordamida identifikatsiya qilindi. Antropogen omillar sifatida oziqlantirish texnologiyasi, hovuzlarning baliq bilan yuklanish darajasi, suv almashinuvi, organik o'g'itlash, veterinariya-profilaktika ishlari hamda ekologik monitoring tizimi baholandi. Biologik tadqiqotlar: har bir baliqda tana uzunligi (TL), standart uzunligi (SL), tana vazni (W), Fulton semizlik koeffitsienti, gonadalarning rivojlanish bosqichi va umumiy fiziologik holati aniqlandi. Morfometrik o'lchovlar elektron tarozi va ixtiologik o'lchov taxtasi yordamida amalga oshirildi. Statistik tahlil: olingan natijalarga Microsoft Excel 2021 va IBM SPSS Statistics dasturlarida statistik ishlov berildi. O'rtacha qiymat (M), standart og'ish (SD), standart xatolik (SE), variatsiya koeffitsienti (CV), Pearson korrelyatsiya koeffitsienti hamda dispersion tahlil (ANOVA) hisoblandi. Statistik ishonchlilik **P<0,05** darajasida baholandi.

1-JADVAL. HOVUZ SUVINING GIDROKIMYOVIY KO'RSATKICHLARI

KO'RSATKICH	Me'yor	Khoorrot Fish House	ZafarAsad	Imkon Baliq Fayz	Baholash
SUV HARORATI (°C)	20–28	22,8	22,4	23,1	Optimal
PH	7,0–8,5	7,53	7,60	7,50	Optimal
ERIGAN KISLOROD (MG/L)	≥5,0	5,33	5,40	5,20	Optimal
NITRIT (MG/L)	≤0,02	0,01	0,02	0,01	Me'yorida
MINERALLASHUV (G/L)	0,3–1,0	0,32	0,56	0,31	Me'yorida

2-JADVAL. MUHIT OMILLARINING OTA-ONA BALIQLARINING BIOLOGIK HOLATIGA TA'SIRI

MUHIT OMILI	Biologik ta'siri	Reproduktiv ahamiyati
OPTIMAL HARORAT	Moddalar almashinuvi faollashadi	Gonadalar rivojlanishi tezlashdi
PH ME'YORIDA	Fermentativ jarayonlar yaxshilanadi	Urug'lanish sifati yaxshilandi
YUQORI KISLOROD	Energiya almashinuvi yaxshilanadi	Gametalar yetilishi jadallashdi
RIVOJLANGAN TABIIY OZIQA	O'sish sur'ati ortadi	Serpushtlik oshdi
SIFATLI OZIQLANTIRISH	Semizlik koeffitsienti me'yorlashadi	Nasldorlik sifati yaxshilandi

NATIJALAR VA MUNOZARA

Oq amur (*Ctenopharyngodon idella* Valenciennes, 1844) baliqlarining naslli ota-ona to'dasining biologik sifati va reproduktiv salohiyati ko'p jihatdan suv muhitining ekologik holatiga bog'liq. Shu sababli tadqiqotlar davomida suvning asosiy gidrokimyoviy ko'rsatkichlari muntazam nazorat qilinib, ularning ota-ona baliqlarining fiziologik holati bilan o'zaro bog'liqligi baholandi. 2023–2025-yillar davomida Toshkent viloyatidagi **MCHJ "Khoorrot Fish House"**, **FX "ZafarAsad"** va **MCHJ "Imkon Baliq Fayz"** baliqchilik xo'jaliklarida o'tkazilgan kuzatuvlar suv haroratining vegetatsiya davrida 22–24 °C oralig'ida saqlanganligini ko'rsatdi. Mazkur harorat oq amur baliqlarining moddalar almashinuvi, oziqlanish faolligi va gonadalar rivojlanishi uchun qulay hisoblanadi. Haroratning optimal diapazonda bo'lishi fermentativ jarayonlarni jadallashtirib, jinsiy mahsulotlarning yetilishi uchun zarur fiziologik sharoitni yaratdi. Suv muhitining vodorod ko'rsatkichi (pH) 7,4–8,2 oralig'ida kuzatildi. Ushbu qiymatlar suv organizmlarining aksariyati, jumladan oq amur baliqlari uchun fiziologik me'yor hisoblanadi. Neytralga yaqin ishqoriy muhit mineral elementlarning o'zlashtirilishini yaxshilab, reproduktiv tizim faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Erigan kislorod miqdori barcha xo'jaliklarda 6 mg/L dan yuqori bo'lib, baliqlarning nafas olishi va energiya almashinuvining uzluksiz kechishini ta'minladi. Kislorod tanqisligi kuzatilmagani sababli metabolik stress holatlari qayd etilmadi, bu esa ota-ona baliqlarining umumiy fiziologik holati barqarorligini ta'minladi. Nitrit va ammiak konsentratsiyasining me'yoriy darajada saqlanishi suv muhitining toksik yuklamasi past ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, nitrit miqdorining 0,02 mg/L dan oshmaganligi gemoglobinning metgemoglobinga aylanishi xavfini kamaytirib, qon orqali kislorod tashilishining me'yorida kechishiga xizmat qildi. Boyd va Tucker (2012), APHA (2023) hamda FAO (2024) tavsiya etgan me'yorlar bilan qiyoslanganda tadqiqot o'tkazilgan xo'jaliklardagi gidrokimyoviy ko'rsatkichlar xalqaro tavsiyalarga mos kelishi aniqlandi. Bu holat naslli ota-ona to'dasining biologik sifati yuqori bo'lishining asosiy ekologik omillaridan biri sifatida baholandi. Biotik omillarning ta'siri Tabiiy oziqa bazasining rivojlanganligi oq amur baliqlarining biologik mahsuldorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Tadqiqot davomida suv o'tlari hamjamiyatlari, zooplankton va bentos tarkibi o'rganildi. Suv o'tlari tarkibida **Bacillariophyta** va **Chlorophyta** bo'limlari ustunlik qilgani kuzatildi. Diatomalar va

yashil suv o'tlari suv ekotizimining birlamchi mahsuldorligini ta'minlab, zooplanktonning rivojlanishi uchun oziqa bazasini shakllantirdi. Bu esa yosh baliqlar va naslli ota-ona baliqlarining oziqlanish zanjirini barqarorlashtirdi. Zooplankton tarkibida Rotifera, Cladocera va Copepoda guruhlari muntazam uchradi. Mazkur organizmlar suv havzasining biologik mahsuldorligini oshirib, tabiiy oziqlanish tizimini qo'llab-quvvatladi. Bentos tarkibida Chironomidae lichinkalari, Oligochaeta va boshqa tub organizmlar uchragani suv havzasining ekologik muvozanati saqlanayotganini ko'rsatdi. Makrofitlarning me'yoriy rivojlanishi oq amur baliqlarining tabiiy oziqlanish ehtiyojini qisman qondirdi va suv havzalarining biologik meliorativ holatini yaxshiladi. Natijada baliqlarning oziqa izlashga sarflaydigan energiyasi kamayib, o'sish va reproduktiv jarayonlarga ko'proq energiya yo'naltirildi.

Antropogen omillarning ta'siri: Naslli ota-ona to'dasining sifatini shakllantirishda xo'jaliklarda qo'llanilgan boshqaruv texnologiyalari ham muhim rol o'ynadi. Barcha xo'jaliklarda baliqlar tana vaznining belgilangan ulushi asosida oziqlantirildi, suv almashinuvi muntazam amalga oshirildi va veterinariya-profilaktika tadbirlari o'z vaqtida bajarildi. Hovuzlarning me'yoriy baliq zichligida saqlanishi suv sifatining keskin yomonlashishiga yo'l qo'ymadi. Organik va mineral o'g'itlardan oqilona foydalanish tabiiy oziqa bazasining rivojlanishini rag'batlantirdi. Ekologik monitoringning muntazam olib borilishi suv sifatidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini berib, zarur boshqaruv choralarini ko'rishga xizmat qildi. Bu esa ota-ona baliqlarining biologik ko'rsatkichlari va reproduktiv salohiyatining barqaror saqlanishiga yordam berdi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari hovuz baliqchiligi sharoitida oq amur (*Ctenopharyngodon idella* Valenciennes, 1844) baliqlarining naslli ota-ona to'dasini shakllantirishda ekologik omillarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot o'tkazilgan baliqchilik xo'jaliklarida suvning gidrokimyoviy ko'rsatkichlari me'yoriy chegaralarda saqlanib, ota-ona baliqlarining o'sishi, fiziologik holati va reproduktiv salohiyatini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratgani aniqlandi. Suv o'tlari hamjamiyatlari, zooplankton va bentosning yetarli darajada rivojlanganligi tabiiy oziqa bazasining barqarorligini ta'minlab, baliqlarning oziqlanishi va gonadalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, muvozanatli oziqlantirish, suv almashinuvi, veterinariya-profilaktika tadbirlari va ekologik monitoring kabi antropogen omillar naslli ota-ona to'dasining biologik sifatini saqlashda muhim rol o'ynashi tasdiqlandi. Baliqchilik xo'jaligida olib borilgan kuzatuvlar ekologik omillarni kompleks boshqarish oq amur baliqlarining naslli ota-ona to'dasini shakllantirishning asosiy sharti ekanligini ko'rsatdi. Suv muhitining barqarorligi, rivojlangan tabiiy oziqa bazasi va ilmiy asoslangan boshqaruv tadbirlari reproduktiv ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga hamda yuqori sifatli nasldor baliqlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari respublika baliqchilik xo'jaliklarida naslchilik ishlarini takomillashtirish, ekologik monitoring tizimini kuchaytirish va yuqori sifatli baliq ekish materiallari yetishtirish texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. **Huet M.** *Textbook of Fish Culture: Breeding and Cultivation of Fish*. – 2nd ed. – Oxford: Fishing News Books Ltd., 1970. – 436 p.

2. **Jhingran V.G.** *Fish and Fisheries of India*. – 3rd ed. – New Delhi: Hindustan Publishing Corporation, 1991. – 727 p.

3. **Boyd C.E., Tucker C.S.** *Pond Aquaculture Water Quality Management*. – Boston: Springer Science+Business Media, 2020. – 700 p.

4. **FAO.** *The State of World Fisheries and Aquaculture 2024: Blue Transformation in Action*. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2024. – 266 p.

5. **Le Cren E.D.** The length-weight relationship and seasonal cycle in gonad weight and condition in perch (*Perca fluviatilis*) // *Journal of Animal Ecology*. – 1951. – Vol. 20, No. 2. – P. 201–219.

6. **Froese R.** Cube law, condition factor and weight–length relationships: History, meta-analysis and recommendations // *Journal of Applied Ichthyology*. – 2006. – Vol. 22, No. 4. – P. 241–253.

7. **Miao W., Yuan Y., Li J.** Advances in broodstock management and selective breeding of freshwater cyprinids // *Reviews in Aquaculture*. – 2023. – Vol. 15, No. 4. – P. 1865–1884.

8. Камилов Б.Г., Курбанов Р.Б. **Балиқчилик.** Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009. – 240 б.

9. Курбанов Р.Б. **Ҳовуз балиқчилиги асослари.** Тошкент: ТошДАУ нашриёти, 2012. – 180 б.

10. Мирзаев У.Т., Камилов Б.Г. Ихтиофауна внутренних водоемов Узбекистана // **Ўзбекистон биология журнали.** 2008. № 2. С. 32–38.

https://iau-jaesa.uz/article/o258g5lxx7pn/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22841693
UO'K: 597:639.3(575.1)

HOVUZ BALIQCHILIGI SHAROITIDA OQ DO'NGPESHONA (*HYPOPHTHALMICHTHYS MOLITRIX* VALENCIENNES, 1844) OTA-ONA BALIQLARINING REPRODUKTIV BIOLOGIYASI VA NASLLI TO'DANI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI.

Alimova Aziza Toyirovna, assistent
e-mail: alimovaaziza1983@gmail.com
ORCID https://orcid.org/0009-0004-8280-0358

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 2023–2025-yillarda Toshkent viloyatidagi uchta baliqchilik xo'jaligida oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix *Valenciennes, 1844) balig'ining naslli ota-ona to'dasini shakllantirishning biologik va ekologik asoslari o'rganildi. Ota-ona baliqlarining morfobiologik ko'rsatkichlari, reproduktiv holati hamda naslchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi abiotik, biotik va antropogen omillar kompleks baholandi. Tadqiqot natijalari hovuz ekotizimini ilmiy asosda boshqarish, suv sifatini barqaror saqlash va muvozanatli oziqlantirish yuqori mahsuldor naslli ota-ona to'dasini shakllantirishning muhim omillari ekanligini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *oq do'ngpeshona,* Hypophthalmichthys molitrix, *naslli ota-ona to'dasi, reproduktiv biologiya, hovuz baliqchiligi, ekologik omillar, akvakultura.*

Аннотация: *В данной статье представлены результаты исследований, проведённых в 2023–2025 годах в трёх рыбоводческих хозяйствах Ташкентской области, посвящённых биологическим и экологическим основам формирования маточного стада белого толстолобика (*Hypophthalmichthys molitrix *Valenciennes, 1844). Комплексно оценены морфобиологические показатели, репродуктивное состояние рыб, а также влияние абиотических, биотических и антропогенных факторов на качество маточного стада. Установлено, что стабильные гидрохимические условия, сбалансированное кормление и научно обоснованная технология выращивания обеспечивают формирование высокопродуктивного маточного стада.*

Ключевые слова: *белый толстолобик,* Hypophthalmichthys molitrix, *маточное стадо, репродуктивная биология, прудовая аквакультура, экологические факторы, рыбоводство.*

Abstract: *This article presents the results of a study conducted during 2023–2025 at three fish farms in the Tashkent region on the biological and ecological principles of broodstock formation in silver carp (Hypophthalmichthys molitrix Valenciennes, 1844). Morphobiological characteristics, reproductive status, and the influence of abiotic, biotic, and anthropogenic factors on broodstock quality were comprehensively evaluated. The findings demonstrate that stable water quality, balanced feeding, and scientifically based pond management are the key factors ensuring the development of highly productive broodstock under pond aquaculture conditions.*

Keywords: *silver carp, Hypophthalmichthys molitrix, broodstock, reproductive biology, pond aquaculture, ecological factors, fish farming.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyo aholisining sifatli oqsil manbalariga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi akvakultura tarmog'ini jadal rivojlantirishni taqozo etmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yilliklarda akvakultura oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi va ichki suv havzalarida biologik resurslardan oqilona foydalanish ushbu sohaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi (FAO, 2024). Shu nuqtai nazardan, o'simlikxo'r baliqlar, ayniqsa oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix* Valenciennes, 1844)ning biologik imkoniyatlaridan samarali foydalanish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Oq do'ngpeshona karpsimonlar (Cyprinidae) oilasiga mansub bo'lib, tabiiy sharoitda asosan fitoplankton bilan oziqlanadigan yuqori mahsuldor filtrator baliq hisoblanadi. Ushbu tur tez o'sishi, yemdan samarali foydalanishi, suv havzalarining biologik melioratsiyasidagi o'rni va polikultura tizimlarida boshqa baliq turlari bilan yaxshi moslashishi sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng yetishtiriladi. Ayniqsa Xitoy, Hindiston, Vetnam, Rossiya, Qozog'iston va Markaziy Osiyo davlatlarida oq do'ngpeshona akvakultura mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Naslli ota-ona to'dasining sifati baliqchilik xo'jaliklarida olinadigan avlodning hayotchanligi, o'sish sur'ati, kasalliklarga chidamliligi va umumiy mahsuldorligini belgilovchi asosiy biologik omillardan biridir. Sifatli ota-ona baliqlarini tanlash va ularni ilmiy asosda parvarishlash reproduktiv samaradorlikni oshirish bilan birga, yuqori sifatli baliq ekish materialini olish imkonini beradi. Shu sababli ota-ona to'dasini shakllantirishda baliqlarning yoshi, tana massasi, morfometrik ko'rsatkichlari, fiziologik holati, oziqlanish darajasi hamda tashqi muhit omillarining kompleks baholanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'plab tadqiqotchilar suv muhitining gidrokimyoviy ko'rsatkichlari, tabiiy oziqa bazasi va oziqlantirish texnologiyasi nasldor baliqlarning reproduktiv biologiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. Boyd va Tucker (2012) suv harorati, erigan kislorod va pH ko'rsatkichlarining me'yorida saqlanishi moddalar almashinuvi hamda jinsiy mahsulotlarning rivojlanishini ta'minlashini ko'rsatgan. Billard (1986) va Jhingran (1991) ota-ona baliqlarining morfofiziologik holati serpushtlik va urug'lanish ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlagan. De Silva va Anderson (2019) esa muvozanatli oziqlantirish va tabiiy oziqa bazasining rivojlanganligi reproduktiv salohiyatni oshirishda muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan.

O'zbekiston sharoitida o'simlikxo'r baliqlarni yetishtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, oq do'ngpeshona naslli ota-ona to'dasini shakllantirishning biologik asoslari, ekologik omillar bilan bog'liqligi hamda turli baliqchilik xo'jaliklari sharoitida ularning reproduktiv holatini kompleks baholash bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa Toshkent viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida ekologik omillarning ota-ona baliqlari biologiyasiga ta'sirini uzoq muddatli kuzatuvlar asosida baholash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi 2023–2025-yillarda Toshkent viloyatidagi

uchta baliqchilik xo'jaligida oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix* Valenciennes, 1844) balig'ining naslli ota-ona to'dasini shakllantirishning biologik asoslarini o'rganish, ota-ona baliqlarining morfobiologik va reproduktiv ko'rsatkichlarini baholash hamda abiotik, biotik va antropogen omillarning ularning reproduktiv salohiyatiga ta'sirini kompleks tahlil qilishdan iborat.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqotlar 2023–2025-yillar davomida Toshkent viloyatining hovuz baliqchiligi rivojlangan hududlarida joylashgan **MCHJ "Khoorrot Fish House"**, **FX "ZafarAsad"** hamda **MCHJ "Imkon Baliq Fayz"** baliqchilik xo'jaliklarida olib borildi. Mazkur xo'jaliklar Toshkent viloyatining tabiiy-iqlim sharoiti, suv bilan ta'minlanish manbalari, hovuzlarining texnologik xususiyatlari hamda naslchilik ishlari yo'lga qo'yilganligi sababli tadqiqot obyekti sifatida tanlandi. Hudud mo"tadil kontinental iqlim mintaqasiga kirib, yoz oylarida suv haroratining 22–28 °C, bahor va kuz mavsumlarida esa 18–24 °C oralig'ida bo'lishi o'simlikxo'r baliqlarni parvarishlash va naslchilik ishlarini olib borish uchun qulay sharoit yaratadi. Hovuzlar asosan sug'orish kanallari va kollektor-drenaj tizimlari orqali suv bilan ta'minlanadi. Tadqiqot davomida barcha xo'jaliklarda suv sifati, ekologik holat va baliqlarni parvarishlash texnologiyasi muntazam nazorat qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida **oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix* Valenciennes, 1844)** balig'ining naslli ota-ona to'dalari tanlandi. Tadqiqot uchun tashqi morfologik belgilari yaxshi rivojlangan, sog'lom, mexanik shikastlanishlarsiz va kasallik alomatlari kuzatilmagan jinsiy yetilgan baliqlar jalb qilindi. Har bir baliqchilik xo'jaligidan **30 tadan** naslli ota-ona baliqlari tanlab olinib, jami **90 bosh** baliq biologik tadqiqot obyekti sifatida o'rganildi. Namunalar vegetatsiya davrining asosiy bosqichlarida muntazam ravishda kuzatilib, ularning biologik, morfometrik, reproduktiv va ekologik ko'rsatkichlari baholandi.

1-jadval, 2023–2025-yillarda tadqiqot o'tkazilgan baliqchilik xo'jaliklarining tavsifi

Ko'rsatkich	MCHJ "Khoorrot Fish House"	FX "ZafarAsad"	MCHJ "Imkon Baliq Fayz"
Joylashgan hududi	Toshkent viloyati	Toshkent viloyati	Toshkent viloyati
Tadqiqot yillari Tadqiqot obyekti	2023–2025	2023–2025	2023–2025
Tanlangan baliqlar soni	Oq do'ngpeshona ota-ona to'dasi	Oq do'ngpeshona ota-ona to'dasi	Oq do'ngpeshona ota-ona to'dasi
Tanlangan baliqlar soni	30 bosh	30 bosh	30 bosh
Umumiy namuna soni	-	-	90 dona

2-jadval, tadqiqotning umumiy sxemasi

Tadqiqot bosqichi	Amalga oshirilgan ishlar
I bosqich	Xo'jaliklarni tanlash, hovuzlarni o'rganish, ota-ona baliqlarini saralash
II bosqich	Morfometrik o'lchovlar, fiziologik va reproduktiv ko'rsatkichlarni aniqlash
III bosqich	Gidrokimyoviy va gidrobiologik tahlillar
IV bosqich	Statistik ishlov berish, natijalarni qiyosiy baholash va ilmiy tahlil

3-jadval, tadqiqot obyektining asosiy tavsifi

Ko'rsatkich	Tavsifi
Tur	Oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix* Valenciennes, 1844)
Oila	Cyprinidae
Ekologik guruhi	Chuchuk suv, filtrator baliq
Oziqlanish tipi	Asosan fitoplankton bilan oziqlanuvchi
Tadqiqot davri	2023–2025-yillar
Tadqiqot xo'jaliklari	3 ta
Har bir xo'jalikdagi namuna	30 dona
Jami namuna	90dona

NATIJALAR VA MUNOZARA

2023–2025-yillar davomida Toshkent viloyatidagi **MCHJ "Khoorrot Fish House"**, **FX "ZafarAsad"** hamda **MCHJ "Imkon Baliq Fayz"** baliqchilik xo'jaliklarida olib borilgan tadqiqotlar oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix* Valenciennes, 1844) naslli ota-ona to'dasini shakllantirish biologik, ekologik va texnologik omillarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshishini ko'rsatdi. Uchala xo'jalikda jami 90 bosh ota-ona baliqlari biologik va ekologik jihatdan baholanib, ularning morfobiologik holati, reproduktiv salohiyati hamda tashqi muhit omillariga moslashish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi.

Morfobiologik ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili: Tadqiqot davomida barcha xo'jaliklarda tanlangan ota-ona baliqlari tashqi morfologik belgilari, tana proporsiyalari va fiziologik holati bo'yicha naslchilik talablariga javob berishi aniqlandi. Tana uzunligi va tana vazni ko'rsatkichlari jinsiy yetilgan baliqlarga xos me'yoriy chegaralarda bo'lib, baliqlarning naslchilik uchun yaroqliligini tasdiqladi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tana massasi yuqori bo'lgan individlarda gonadalarning rivojlanish darajasi ham nisbatan yuqori bo'lib, bu reproduktiv salohiyat bilan musbat bog'liqlik

mavjudligini ko'rsatadi. Fulton semizlik koeffitsientining me'yoriy qiymatlarda bo'lishi ota-ona baliqlarining oziqlanish holati va fiziologik zaxiralari yetarli ekanligini tasdiqladi. Bu ko'rsatkichlar reproduktiv davrda gonadalarning normal rivojlanishi uchun muhim biologik omil hisoblanadi.

Gidrokimyoviy omillarning ta'siri: Tadqiqot yillarida uchala xo'jalik hovuzlarida suv harorati, pH va erigan kislorod miqdori oq do'ngpeshona biologiyasi uchun tavsiya etilgan me'yorlarda saqlandi. Suv haroratining vegetatsiya davrida 22–26 °C oralig'ida bo'lishi metabolizm faolligi va jinsiy mahsulotlarning shakllanishiga qulay sharoit yaratdi. Erigan kislorodning me'yoriy darajada saqlanishi baliqlarda aerob almashinuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlab, fiziologik stressning oldini oldi. pH ko'rsatkichining neytral-ishqoriy muhitda barqaror bo'lishi fermentativ reaksiyalar va oziqa moddalarning o'zlashtirilishini yaxshiladi. Ammiak va nitrit konsentratsiyalarining ruxsat etilgan me'yorlardan oshmaganligi baliqlarda toksik ta'sirlarning kuzatilmaganligini ko'rsatdi. Mazkur natijalar Boyd va Tucker (2012) hamda APHA (2023) tomonidan tavsiya etilgan gidrokimyoviy me'yorlar bilan mos keladi. Ularning fikriga ko'ra, suv sifatining barqarorligi nasldor baliqlarning reproduktiv biologiyasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Biotik omillarning ahamiyati: Fitoplankton tarkibida Bacillariophyta va Chlorophyta guruhlarining ustunligi qayd etildi. Oq do'ngpeshona filtrator baliq bo'lganligi sababli ushbu mikroalgalar uning tabiiy oziqlanishida muhim o'rin egalladi. Fitoplankton biomassasining yetarli darajada rivojlanganligi zooplankton populyatsiyasining ham barqaror saqlanishiga yordam berdi. Zooplankton tarkibida Rotifera, Cladocera va Copepoda guruhlarining mavjudligi hovuz ekotizimining biologik mahsuldorligini tavsifladi. Bentos organizmlarining uchrashi va suv makrofitlarining me'yoriy rivojlanishi suv havzalarining ekologik barqarorligini saqlashga xizmat qildi. Ushbu natijalar De Silva va Anderson (2019) hamda Wetzel (2001) tomonidan fitoplankton mahsuldorligi va baliq biologiyasi o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha keltirilgan ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi.

Antropogen omillarning ta'siri: Uchala xo'jalikda muvozanatli oziqlantirish, suv almashinuvining muntazam amalga oshirilishi va veterinariya-profilaktika tadbirlarining tizimli tashkil etilishi ota-ona baliqlarining biologik sifatini saqlashda muhim omil bo'ldi. Omuxta yemlardan ilmiy asoslangan me'yorlarda foydalanish baliqlarning oziqlanish holatini yaxshilab, reproduktiv davrga zarur energiya zaxirasini shakllantirdi. Hovuzlarda baliq zichligining me'yoriy darajada saqlanishi stress omillarining kamayishiga, ekologik monitoringning muntazam olib borilishi esa gidrokimyoviy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. Natijada ota-ona baliqlarining reproduktiv salohiyati yuqori darajada saqlanib qoldi. Bu natijalar FAO (2024), Lucas va Southgate (2019) hamda Timmons va Ebeling (2022) tomonidan tavsiya etilgan zamonaviy akvakultura texnologiyalari bilan uyg'unlik kasb etadi.

XULOSA

2023–2025-yillar davomida Toshkent viloyatidagi **MCHJ "Khoorrot Fish House"**, **FX "ZafarAsad"** va **MCHJ "Imkon Baliq Fayz"** baliqchilik xo'jaliklarida olib borilgan tadqiqotlar asosida oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix*

Valenciennes, 1844) balig'ining naslli ota-ona to'dasini shakllantirishning biologik xususiyatlari kompleks baholandi va quyidagi xulosalarga kelindi: Oq do'ngpeshona naslli ota-ona to'dasining biologik sifati baliqlarning morfometrik ko'rsatkichlari, fiziologik holati hamda tashqi muhit omillarining o'zaro uyg'un ta'siri bilan shakllanishi aniqlandi. Naslchilik uchun tanlangan baliqlarda tana proporsiyalari, umumiy fiziologik holat va jinsiy yetilish darajasi me'yoriy ko'rsatkichlarga mos keldi. Tadqiqot olib borilgan xo'jaliklarda suvning gidrokimyoviy ko'rsatkichlari, jumladan harorat, pH, erigan kislorod, ammiak va nitrit miqdori oq do'ngpeshona biologiyasi uchun tavsiya etilgan me'yorlar doirasida saqlanganligi sababli baliqlarning o'sishi, moddalar almashinuvi va reproduktiv jarayonlari uchun qulay ekologik muhit shakllandi. Hovuzlarda fitoplanktonning, ayniqsa *Bacillariophyta* va *Chlorophyta* guruhlarining ustunligi, zooplankton hamda boshqa gidrobiontlarning me'yoriy rivojlanishi tabiiy oziqa bazasini mustahkamlab, ota-ona baliqlarining oziqlanishi va reproduktiv salohiyatini qo'llab-quvvatladi. Muvozanatli oziqlantirish, muntazam suv almashinuvi, me'yoriy baliq zichligini saqlash, veterinariya-profilaktika tadbirlarini tizimli amalga oshirish va ekologik monitoringni uzluksiz olib borish naslli ota-ona baliqlarining biologik sifati va reproduktiv barqarorligini ta'minlovchi asosiy antropogen omillar ekanligi aniqlandi. Uchta baliqchilik xo'jaligida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, naslli ota-ona to'dasini muvaffaqiyatli shakllantirish ekologik omillarni alohida boshqarish emas, balki gidrokimyoviy, gidrobiologik va texnologik jarayonlarni yagona tizim sifatida kompleks boshqarishni talab etadi. Bunday yondashuv baliqlarning reproduktiv imkoniyatlarini to'liq namoyon etish va sifatli baliq ekish materialini olishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari Toshkent viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida oq do'ngpeshona naslli ota-ona to'dasini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish, naslchilik ishlarining biologik samaradorligini oshirish hamda baliqchilik xo'jaliklarida ilmiy asoslangan ekologik monitoring tizimini joriy etish uchun amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. APHA (American Public Health Association). **Standard Methods for the Examination of Water and Wastewater.** 24th ed. Washington, DC: APHA, AWWA, WEF, 2023. – 1549 p.

2. Billard R. **Reproduction of Chinese carps.** In: *Aquaculture of Cyprinids*. Paris: INRA, 1986. – P. 97–116.

3. Boyd C.E., Tucker C.S. **Pond Aquaculture Water Quality Management.** New York: Springer Science+Business Media, 2012. – 700 p.

4. De Silva S.S., Anderson T.A. **Fish Nutrition in Aquaculture.** 2nd ed. Dordrecht: Springer Nature, 2019. – 650 p.

5. FAO. **The State of World Fisheries and Aquaculture 2024. Blue Transformation in Action.** Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2024. – 266 p.

6. Jhingran V.G. **Fish and Fisheries of India.** 3rd ed. New Delhi: Hindustan Publishing Corporation, 1991. – 727 p.

7. Kamilov B.G., Urchinov J.U. **Ichthyofauna of Uzbekistan and Prospects for Fisheries Development.** Tashkent: Fan, 2015. – 312 p.

8. Lucas J.S., Southgate P.C. **Aquaculture: Farming Aquatic Animals and Plants.** 3rd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2019. – 640 p.

9. Li S., Xie S., Zhu X. Broodstock management and reproductive performance of silver carp (*Hypophthalmichthys molitrix*) in freshwater aquaculture. **Aquaculture Research.** 2022;53(11):4025–4038.

10. Miao W., Yuan Y., Wang Y. Advances in broodstock management and artificial propagation of Chinese carps. **Reviews in Aquaculture.** 2024;16(2):845–867.

11. Nikolsky G.V. **The Ecology of Fishes.** London: Academic Press, 1963. – 352 p.

12. Timmons M.B., Ebeling J.M. **Recirculating Aquaculture.** 4th ed. Ithaca: Cayuga Aqua Ventures, 2022. – 990 p.

https://iau-jaesa.uz/article/tkaos0auwkn6/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22841723
UDK: 579.64:631.53.01:635.64

HIPPOPHAE RHAMNOIDES RIZOSFERASIDAN AJRATILGAN PSEUDOMONAS KOREENSIS VA PSEUDOMONAS CHLORORAPHIS SHTAMMLARINING POMIDOR (SOLANUM LYCOPERSICUM L.) URUG‘LARINING UNUVCHANLIGI HAMDA O‘SISH KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Tayanch doktorant
Mamirova Odina Abdulxamidxon qizi
e-mail: odinaxonmamirova135@gmail.com
tel: +998903094418
b.f.n. dotsent **Artikova Ra‘no Mamurxanovna**
Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turli ekologik sharoitlarda Chakanda-(Hippophae rhamnoides.L) o‘simligi rizobakteriyalarining pomidor (Solanum lycopersicum L.) urug‘lariga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot davomida Hippophae rhamnoides L. (chakanda) rizosferasidan rizobakteriyalar ajratildi hamda MALDI-TOF MS usuli yordamida identifikatsiya qilindi. Identifikatsiya natijasiga ko‘ra Pseudomonas koreensis va Pseudomonas chlororaphis shtammlari aniqlandi va pomidor (Solanum lycopersicum) urug‘larining unishi va boshlang‘ich o‘sish ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi. Laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan tajribalar natijasida, ushbu shtammlar bilan ishlov berilgan urug‘larning unish energiyasi nazoratga nisbatan 20-30 foizga ortishi aniqlandi. Olingan natijalar P. koreensis va P. chlororaphis shtammlarining o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi (PGPR) xususiyatlarini tasdiqlaydi va ulardan qishloq xo‘jaligida istiqbolli biostimulyatorlar sifatida foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘z. *Hippophae rhamnoides, Pseudomonas, MALDI-TOF MS, pomidor, unuvchanlik, PGPR shtammlar, in-vitro.*

Аннотация. *В данной статье изучено влияние ризобактерий растения облепихи (Hippophae rhamnoides L.), произрастающего в различных экологических условиях, на семена томата (Solanum lycopersicum L.). В ходе исследования ризобактерии были выделены из ризосферы Hippophae rhamnoides L. (облепихи) и идентифицированы с использованием метода MALDI-TOF MS. По результатам идентификации были выявлены штаммы Pseudomonas koreensis и Pseudomonas chlororaphis, после чего было изучено их влияние на всхожесть семян и начальные показатели роста томата (Solanum lycopersicum L.). В результате лабораторных экспериментов установлено, что энергия прорастания семян, обработанных данными штаммами, увеличилась на 20–30 % по сравнению с контролем. Полученные результаты подтверждают ростостимулирующие свойства штаммов P. koreensis и P. chlororaphis как представителей PGPR (plant growth-promoting rhizobacteria) и демонстрируют перспективность их использования в качестве биостимуляторов в сельском хозяйстве.*

Ключевое слово. *Hippophae rhamnoides, Pseudomonas, maldi-TOF MS, помидоры, всхожесть, штаммы pgpr, in vitro.*

Abstract. *This article investigated the effect of rhizobacteria isolated from sea buckthorn (Hippophae rhamnoides L.) growing under different ecological conditions on tomato (Solanum lycopersicum L.) seeds. During the study, rhizobacteria were isolated from the rhizosphere of Hippophae rhamnoides L. (sea buckthorn) and identified using the MALDI-TOF MS method. Based on the identification results, the strains Pseudomonas koreensis and Pseudomonas chlororaphis were identified, and their effects on tomato (Solanum lycopersicum L.) seed germination and initial growth parameters were subsequently investigated. Laboratory experiments demonstrated that the germination energy of seeds treated with these strains increased by 20–30% compared with the control. The obtained results confirm the plant growth-promoting rhizobacteria (PGPR) properties of P. koreensis and P. chlororaphis strains and demonstrate their potential for use as promising biostimulants in agriculture.*

Keywords. *Hippophae rhamnoides, Pseudomonas, MALDI-TOF MS, tomato, mucilage, PGPR strains, in-vitro.*

KIRISH

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot Toshkent viloyati sharoitida karp (Cyprinus carpio L., 1758) balig'ining reproduktiv xususiyatlari shakllanishiga ta'sir etuvchi ekologik va fiziologik omillarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotlar MCHJ "Khoorrot Fish House", FX "ZafarAsad" hamda MCHJ "Imkon Baliq Fayz" baliqchilik xo'jaliklarida olib borildi. Har bir xo'jalikdan 35 tadan, jami 105 dona jinsiy yetilgan karp baliqlari tanlab olinib, ularning biologik, morfometrik va fiziologik ko'rsatkichlari baholandi.Tadqiqot davomida tana massasi, uzunligi, gonadosomatik indeks, gepatosomatik indeks, mutlaq va nisbiy serpushtlik, shuningdek, ayrim gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Natijalar suv muhiti, oziqlantirish sharoiti va parvarish texnologiyasi karp baliqlarining reproduktiv rivojlanishi hamda fiziologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Olingan ma'lumotlar Toshkent viloyati baliqchilik xo'jaliklarida naslli baliqlarni tanlash, reproduktiv samaradorlikni oshirish va sun'iy ko'paytirish texnologiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *karp, reproduksiya, ekologiya, fiziologiya, serpushtlik, gonadosomatik indeks, baliqchilik, Toshkent viloyati.*

Аннотация: *Настоящее исследование посвящено изучению экологических и физиологических факторов, влияющих на формирование репродуктивных особенностей карпа (*Cyprinus carpio *L., 1758) в условиях Ташкентской области. Исследования проводились в рыбоводческих хозяйствах MCHJ «Khoorrot Fish House», фермерском хозяйстве «ZafarAsad» и MCHJ «Imkon Baliq Fayz». В каждом хозяйстве было отобрано по 35 половозрелых особей карпа, всего 105 рыб, у которых были изучены биологические, морфометрические и физиологические показатели.*

В ходе исследования были проанализированы масса и длина тела, гонадосоматический индекс, гепатосоматический индекс, абсолютная и относительная плодовитость, а также отдельные гематологические и биохимические показатели. Полученные результаты показали, что условия водной среды, уровень кормления и технология выращивания оказывают существенное влияние на репродуктивное развитие и физиологическое состояние карпа. Полученные данные могут служить научной основой для отбора производителей, повышения репродуктивной эффективности и совершенствования технологий искусственного воспроизводства карпа в рыбоводческих хозяйствах Ташкентской области.

Ключевые слова: *карп,* Cyprinus carpio*, репродукция, экология, физиология, плодовитость, гонадосоматический индекс, рыбоводство, Ташкентская область.*

Abstract: *This study investigates the ecological and physiological factors influencing the formation of reproductive characteristics of common carp (*Cyprinus carpio *L., 1758) under the conditions of the Tashkent region. The research was conducted at the fish farming enterprises LLC "Khoorrot Fish House", Farm Enterprise "ZafarAsad", and LLC "Imkon Baliq Fayz". A total of 105 sexually mature common carp were examined, with 35 fish randomly selected from each farm. Their biological, morphometric, and physiological parameters were comprehensively evaluated.*

The study analyzed body weight, total body length, gonadosomatic index (GSI), hepatosomatic index (HSI), absolute and relative fecundity, as well as selected hematological and biochemical parameters. The results demonstrated that water quality, feeding conditions, and aquaculture management practices significantly influence the reproductive development and physiological status of common carp. The obtained findings provide a scientific basis for the selection of broodstock, improvement of reproductive performance, and optimization of artificial breeding technologies in fish farming enterprises of the Tashkent region.

Keywords: *common carp,* Cyprinus carpio*, reproduction, ecology, physiology, fecundity, gonadosomatic index, aquaculture, Tashkent region.*

KIRISH

XXI asrda dunyo aholisining jadal sur'atlarda o'sib borishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va hayvon oqsiliga bo'lgan ehtiyojning ortishi akvakultura tarmog'ining jadal rivojlanishini taqozo etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yilliklarda akvakultura oziq-ovqat ishlab chiqarishning eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi va dunyoda iste'mol qilinayotgan baliq mahsulotlarining yarmidan ortig'i sun'iy yetishtirish hisobiga to'g'ri kelmoqda. Shu bois baliqchilikda yuqori mahsuldor, ekologik sharoitga moslashuvchan va reproduktiv salohiyati yuqori bo'lgan baliq turlarini ko'paytirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish, ichki bozorda sifatli baliq mahsulotlari ulushini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda intensiv va yarim intensiv akvakultura texnologiyalarini joriy etish, baliqchilik xo'jaliklarini zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash, yuqori mahsuldor naslli baliqlarni ko'paytirish va seleksiya ishlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini cheklovchi omillar, xususan ona gala baliqlarining reproduktiv salohiyatidan to'liq foydalanilmayotgani, ekologik omillarning ta'siri hamda fiziologik jarayonlarning hududiy xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmaganligi ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishni talab etadi. Karp (*Cyprinus carpio* L., 1758) dunyo akvakulturasida iqtisodiy jihatdan eng muhim chuchuk suv baliqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tur tez o'sishi, turli ekologik sharoitlarga yuqori moslashuvchanligi, sun'iy ko'paytirishga qulayligi va yuqori

xo'jalik ahamiyati bilan ajralib turadi. Respublikamiz baliqchilik xo'jaliklarida ham karp asosiy xo'jalik ahamiyatiga ega turlardan biri bo'lib, ko'plab hovuz xo'jaliklarida polikultura tizimining asosiy komponenti sifatida yetishtiriladi. Biroq karpning reproduktiv biologiyasi, ayniqsa Toshkent viloyatining tabiiy-iqlim sharoitida ekologik va fiziologik omillar ta'sirida shakllanish qonuniyatlari hali to'liq o'rganilmagan. Baliqlarning reproduktiv tizimi organizmning eng murakkab biologik tizimlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi irsiy omillar bilan bir qatorda tashqi muhit ta'siriga ham bog'liqdir. Suv harorati, erigan kislorod miqdori, gidrokimyoviy ko'rsatkichlar, oziqlanish sifati, saqlash zichligi, yorug'lik rejimi va boshqa ekologik omillar gonadalar rivojlanishi, gametogenez, jinsiy yetilish hamda serpushtlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning o'zgarishi baliqlarning fiziologik holatida aks etib, reproduktiv samaradorlikning pasayishi yoki ortishiga sabab bo'ladi. Shu sababli reproduktiv biologiyani ekologik-fiziologik nuqtayi nazardan kompleks o'rganish zamonaviy akvakulturaning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda dunyo olimlari tomonidan baliqlar reproduktiv tizimini molekulyar biologiya, fiziologiya, endokrinologiya va ekologiya nuqtayi nazaridan chuqur o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlar natijasida gipotalamus–gipofiz–gonada tizimi faoliyati, gonadosomatik indeks, steroid gormonlar sintezi, vitellogenez jarayonlari hamda tashqi muhit omillarining gametogenezga ta'siri haqida muhim ilmiy ma'lumotlar olingan. Biroq bu natijalarning aksariyati mo"tadil yoki nam iqlim mintaqalarida olib borilgan bo'lib, Markaziy Osiyoning keskin kontinental iqlim sharoitida yashovchi karp populyatsiyalariga to'liq tatbiq etib bo'lmaydi. Ayniqsa, yoz oylarida suv haroratining yuqori bo'lishi, suv sathining mavsumiy o'zgarishi va gidrokimyoviy ko'rsatkichlarning dinamikasi karp reproduktiv biologiyasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Toshkent viloyati O'zbekistonning baliqchilik rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda intensiv va yarim intensiv usulda faoliyat yuritayotgan ko'plab baliqchilik xo'jaliklari mavjud bo'lib, ularda karp baliqlarini sun'iy ko'paytirish va yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Shunga qaramay, ushbu xo'jaliklarda ona gala baliqlarining biologik va fiziologik holati, reproduktiv ko'rsatkichlari hamda ekologik omillarning ularning jinsiy yetilishiga ta'siri bo'yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Natijada reproduktiv salohiyatni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Toshkent viloyati sharoitida faoliyat yuritayotgan uchta yirik baliqchilik xo'jaligida karp baliqlarining reproduktiv xususiyatlari ilk bor ekologik va fiziologik ko'rsatkichlar bilan kompleks bog'liq holda baholandi. Olingan natijalar hudud sharoitida reproduktiv samaradorlikni belgilovchi asosiy ekologik omillarni aniqlash, ona gala baliqlarini tanlash mezonlarini takomillashtirish hamda sun'iy ko'paytirish texnologiyalarini optimallashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari nafaqat Toshkent viloyati, balki O'zbekistonning boshqa baliqchilik xo'jaliklari uchun ham ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ular naslchilik ishlarini samarali tashkil etish, ekologik monitoringni takomillashtirish, reproduktiv samaradorlikni oshirish va baliq mahsuldorligini ko'paytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari karp baliqlarining ekologik-fiziologik

moslanish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga hamda respublikada akvakultura sohasining barqaror rivojlanishiga ilmiy hissa qo'shadi.

MATERIAL VA USULLAR

Toshkent viloyatida faoliyat yurituvchi MCHJ **“Khoorrot Fish House”**, fermer xo‘jaligi **“ZafarAsad”** hamda MCHJ **“Imkon Baliq Fayz”** baliqchilik xo‘jaliklarida yetishtirilayotgan karp (*Cyprinus carpio L., 1758*) baliqlari ustida olib borildi. Toshkent viloyati sharoitida karp balig‘ining reproduktiv xususiyatlari shakllanishiga ta’sir etuvchi ekologik va fiziologik omillarni aniqlash hamda xo‘jaliklar kesimida biologik ko‘rsatkichlarning o‘zgarish qonuniyatlarini baholashdan iborat bo‘ldi va xo‘jaliklarda sun’iy sharoitda yetishtirilayotgan jinsiy yetilgan karp baliqlari tanlab olindi. Har bir xo’jalikdan tajriba uchun olingan **karp** (*Cyprinus carpio L., 1758*) **baliqlaridan** biologik va fiziologik tahlillar uchun olindi. Namuna olish jarayonida baliqlarning yoshi, jinsiy yetuklik darajasi, tana o‘lchamlari va umumiy fiziologik holati hisobga olindi. Baliqlarni tanlashda reproduktiv davrga yaqin yoki reproduktiv faol bosqichdagi individlarga ustuvor ahamiyat berildi.

Karp (*Cyprinus carpio L., 1758*) baliqlarning **biologik, morfometrik, fiziologik va reproduktiv ko‘rsatkichlari** kompleks ravishda o‘rganildi. Baliqlarning umumiy uzunligi (sm), tana massasi (g), tana semizlik koeffitsiyenti, ichki organlar massasi hamda jinsiy bezlarning rivojlanish holati aniqlandi. Morfometrik o‘lchash ishlari umumqabul qilingan ixtiologik usullar asosida amalga oshirildi.

Tuxum hujayralarini hisoblashda gravimetrik usuldan foydalanildi. Bunda tuxumdonning turli qismlaridan olingan namunalar laboratoriya sharoitida tortilib, tuxum hujayralari soni aniqlash orqali umumiy serpushtlik hisoblab chiqildi. Baliqlarning fiziologik holatini baholash uchun gematologik va biokimyoviy tahlillar amalga oshirildi. Qon namunalaridan foydalanib, eritrotsitlar va leykotsitlar miqdori, gemoglobin darajasi, qonning umumiy fiziologik holatini ifodalovchi ayrim ko‘rsatkichlar aniqlandi. Shuningdek, qon zardobida oqsil almashinuvi va energetik holat bilan bog‘liq ayrim biokimyoviy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Baliqlarni oziqlantirish sharoitlari ham tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Xo‘jaliklarda qo‘llanilayotgan oziqlantirish tizimi, yem tarkibi, oziqlantirish me’yorlari va parvarish texnologiyalari tahlil qilindi. Oziqa moddalarning, ayniqsa oqsil, lipid, vitamin va mineral komponentlarning reproduktiv jarayonlarga ta’siri baholandi.

Olingan eksperimental ma’lumotlar biologik statistika usullari yordamida qayta ishlandi. Statistik tahlilda o‘rtacha qiymat (M), standart og‘ish (±m), variatsiya koeffitsiyenti (Cv) hamda guruhlar o‘rtasidagi farqlarning ishonchlilik darajasi aniqlandi. Ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanildi.

Mazkur metodik yondashuv orqali karp baliqlarining reproduktiv potensiali, nasldorlik sifatlari va sun’iy ko‘paytirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur ma’lumotlar shakllantirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Karp (*Cyprinus carpio L., 1758*) balig'ining reproduktiv xususiyati shakllanishining ekologik-fiziologik asoslari bo’yicha olingan natijalar shuni

ko‘rsatadiki, Toshkent viloyati sharoitida karp balig‘ining reproduktiv xususiyatlari shakllanishi ekologik va fiziologik omillarning kompleks ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy qonuniyat shundan iboratki, qulay suv sharoiti, sifatli oziqlantirish va optimal parvarish texnologiyasi baliqlarning tana rivojlanishi, gonadalar yetilishi hamda serpushtlik ko‘rsatkichlarini oshiradi.

Xo‘jaliklar kesimida tahlil qilinganda, **MCHJ “Khoorrot Fish House”** va **MCHJ “Imkon Baliq Fayz”** xo‘jaliklarida GSI qiymatlari nisbatan yuqori bo‘lib, bu xo‘jaliklarda oziqlantirish va suv sifatining reproduktiv rivojlanish uchun qulay sharoit yaratganligini ko‘rsatdi. FX **“ZafarAsad”** xo‘jaligida esa ayrim davrlarda suv harorati va oziqa bazasidagi farqlar sababli reproduktiv ko‘rsatkichlarda biroz pasayish kuzatildi. GSI ning yuqori qiymatlari baliqlarning reproduktiv faolligi yuqori ekanligini ko‘rsatib, sun’iy ko‘paytirish jarayonlarida naslli baliqlarni tanlash uchun muhim biologik indikator hisoblanadi.Tadqiqot davomida urg‘ochi karp baliqlarining mutlaq va nisbiy serpushtlik ko‘rsatkichlari ham aniqlandi. Olingan natijalar baliqlarning serpushtligi ularning tana kattaligi, yoshi, oziqlanish darajasi va ekologik sharoitlar bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Yirik tana massasiga ega urg‘ochi baliqlarda tuxum hujayralari soni ko‘proq bo‘lib, nisbiy serpushtlik ko‘rsatkichi ham yuqori bo‘ldi. Bu holat karp baliqlarida reproduktiv potensialning shakllanishida tana energetik holati asosiy omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Tuxumdonlarning rivojlanishi davomida oositlarda sariqlik moddalari to‘planishi natijasida tuxum hujayralarining hajmi va sifati oshgan. Ushbu jarayon suv harorati, oziqa tarkibi va metabolik faollik bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oqsil va energiyaga boy yemlar bilan oziqlantirilgan baliqlarda tuxumdonlarning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan. Bu holat baliqchilik xo‘jaliklarida naslli baliqlar ratsionini optimallashtirish reproduktiv samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. Karp balig‘i ekologik jihatdan plastik tur hisoblanadi va turli suv sharoitlariga moslasha oladi. Biroq reproduktiv jarayonlarning normal kechishi uchun suv harorati, kislorod miqdori va gidrokimyoviy ko‘rsatkichlarning optimal darajada bo‘lishi zarur. Tadqiqot olib borilgan xo‘jaliklarda suv harorati mavsum davomida karp baliqlarining biologik talablariga mos kelgan. Bahor oylarida suv haroratining 18–22°C gacha ko‘tarilishi gonadalar yetilish jarayonining jadallashishiga sabab bo‘lgan.Yozgi davrda yuqori harorat sharoitida baliqlarning metabolik faolligi oshgan, biroq suvdagi erigan kislorod miqdorining pasayishi ayrim hollarda stress holatini yuzaga keltirgan. Stress omillari esa gipotalamus-gipofiz-gonada tizimi faoliyatiga ta’sir qilib, reproduktiv jarayonlarni sekinlashtirishi mumkin.

Suvning pH ko‘rsatkichi va minerallashuv darajasi ham baliqlarning fiziologik holatiga ta’sir qiluvchi muhim omillar sifatida qayd etildi. Optimal gidrokimyoviy sharoitlarda baliqlarning o‘sishi, oziq moddalarni o‘zlashtirishi va jinsiy mahsulotlarning shakllanishi yaxshiroq kechgan.

XULOSA

Toshkent viloyatidagi MCHJ “Khoorrot Fish House”, FX “ZafarAsad” va MCHJ “Imkon Baliq Fayz” baliqchilik xo‘jaliklarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida karp (*Cyprinus carpio L., 1758*) balig‘ining reproduktiv xususiyatlari

shakllanishining ekologik-fiziologik asoslari kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqotlar davomida har bir xo‘jalikdan jinsiy yetilgan karp baliqlari tanlab olinib, ularning biologik, morfometrik, fiziologik va reproduktiv ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Toshkent viloyati sharoitida karp balig‘ining biologik ko‘rsatkichlari xo‘jaliklarning ekologik va texnologik sharoitlariga bog‘liq holda shakllanishi aniqlandi. Baliqlarning tana massasi, uzunligi va semizlik koeffitsiyenti o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, yaxshi oziqlantirish va qulay suv muhiti sharoitida baliqlarning o‘sishi hamda reproduktiv rivojlanishi yuqori darajada kechishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, karp baliqlarining reproduktiv holatini baholashda gonadosomatik indeks (GSI) muhim biologik indikator hisoblanadi. Urg‘ochi baliqlarda GSI ko‘rsatkichlari erkak baliqlarga nisbatan yuqori bo‘lib, bu tuxum hujayralarining shakllanishi va vitellogenez jarayonlarining yuqori energetik talab qilishi bilan izohlanadi. Karp baliqlarining mutlaq va nisbiy serpushtlik ko‘rsatkichlari ularning tana o‘lchamlari, fiziologik holati va oziqlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tana massasi yuqori bo‘lgan urg‘ochi baliqlarda tuxum hujayralari soni va reproduktiv mahsuldorlik ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ldi. Baliqlarning reproduktiv rivojlanishiga suv muhitining asosiy ekologik omillari — harorat, erigan kislorod miqdori, pH va suvning umumiy gidrokimyoviy holati sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bahor oylarida suv haroratining optimal darajaga ko‘tarilishi gonadalar rivojlanishini jadallashtirgan bo‘lsa, yozgi davrda yuqori harorat va kislorod miqdorining pasayishi ayrim fiziologik stress holatlarini yuzaga keltirishi mumkinligi qayd etildi.

Tadqiqotlar davomida karp balig‘ining reproduktiv faoliyati nafaqat tashqi muhit omillari, balki organizmning ichki fiziologik holati bilan ham belgilanadi. Qonning gematologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari baliqlarning metabolik holati va reproduktiv imkoniyatlarini baholashda muhim mezon bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Toshkent viloyati sharoitida karp balig‘ining reproduktiv xususiyatlari shakllanishi ekologik omillar, metabolik holat va parvarish texnologiyalarining o‘zaro ta’siri natijasi ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Абдуллаев М.А., Мирзаев У.Т. Ўзбекистон сув ҳавзалари ихтиофаунаси ва улардан оқилона фойдаланиш масалалари. – **Тошкент: Fan, 2018. – 220 б.**

2. Салимов Б.С., Каримов Б.К. Ўзбекистонда балиқчиликни ривожлантиришнинг биологик асослари. – **Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2020. – 180 б.**

3. Ахмедов А.А. Аквакультура асослари ва балиқларни сунъий кўпайтириш технологияси. – **Тошкент: Navro‘z, 2021. – 240 б.**

4. Кирпичников В.С. Генетические основы селекции карпа. – **Москва: Наука, 1979. – 391 с.**

5. Шакиров Ш.К., Юлдашев Б.Ю. Ўзбекистонда интенсив балиқ етиштириш технологиялари. – **Тошкент: Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали нашриёти, 2020. – 156 б.**

6. Linnaeus C. Systema Naturae per Regna Tria Naturae, Secundum Classes, Ordines, Genera, Species, cum Characteribus, Differentiis, Synonymis, Locis. Tomus I. Editio Decima Reformata. **– Holmiae: Laurentius Salvius, 1758. – 824 p.**

7. FAO Fisheries and Aquaculture Department. Cultured Aquatic Species Information Programme: Cyprinus carpio (Linnaeus, 1758). **– Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2004. – 12 p.**

8. Froese R., Pauly D. (eds.). FishBase: Cyprinus carpio (Common carp). **– World Wide Web electronic publication, 2025.**

9. Zhou J., Wu Q., Wang Z., Ye Y. Genetic variation and phylogenetic relationships of common carp (Cyprinus carpio L.) populations. **// *Aquaculture*. – 2003. – Vol. 219. – P. 263–275.**

10. Xu P., Zhang X., Wang X. et al. Genome sequence and genetic diversity of the common carp, Cyprinus carpio. **// *Nature Genetics*. – 2014. – Vol. 46. – P. 1212–1219.**

https://iau-jaesa.uz/article/4g84s7vdibqs/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845181
UO'K: 631.416

NUROTA TUMANI YER MAYDONI TUPROQLARINING OZIQA MODDALARI BILAN TA'MINLANISH DARAJASI

Suyarov Yashin Abdikaxarovich,
bosh muhandis,
e-mail: yashin.suyarov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-7154-0887

Ruziyev Abror Meylikulovich
bo'lim boshlig'i,
e-mail: abror001848@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-3145-0354

O'mirzoqov Dostonbek Abdrahim o'g'li,
mutaxassis,
e-mail: dostonbekumirzoqov93@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-3538-9087
"Tuproq tahlil markazi" davlat muassasasi

Annotasiya: *Tadqiqotda Nurota tumani sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydoni tuproqlarining oziqa moddalari bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari hudud tuproqlarining oziqa moddalari bilan o'rtacha-past darajada ta'minlanganligini ko'rsatdi: gumus miqdori ko'rsatkichi umumiy 4190,40 gektar maydonning 46,53 % qismi o'rtacha darajada, 41,88 % qismi kam darajada hamda 9,58 %, 1,27% va 0,75 % qismi mos ravishda ko'proq, juda kam va ko'p darajada ta'minlangan. Harakatchan fosfor (P_2O_5) miqdori esa 57,91 % qismi juda kam darajada, 40,64 % qismi kam darajada hamda 1,10 % va 0,35 % qismi mos ravishda o'rtacha va ko'proq darajada ta'minlangan. Shuningdek, almashinuchan kaliy (K_2O) miqdori ham 36,67 % qismi, o'rtacha darajada, 24,89 % qismi kam darajada hamda 20,92 % va 17,51 % qismi mos ravishda ko'proq va ko'p darajada ta'minlangan. Olingan natijalar asosida tuproqlarning unumdorlik darajasini oshirish uchun mineral va organik o'g'itlardan oqilona foydalanish, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri tashkil etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish, yer resurslaridan samarali foydalanish hamda tuproq degradatsiyasining oldini olish uchun foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *sug'oriladigan yerlar, oziqa moddalari, fosfor, kaliy, gumus, agrokimyoviy tahlil, o'g'itlash tizimi, mineral o'g'itlar, harakatchan elementlar.*

Аннотация: *В исследовании изучался уровень обеспеченности почв питательными веществами на орошаемых сельскохозяйственных угодьях Нуротинского района. Результаты исследования показали, что почвы региона умеренно и слабо обеспечены питательными веществами: 46,53% от общей*

площади 4190,40 гектаров имеют умеренное содержание гумуса, 41,88%-слабое, а 9,58%, 1,27% и 0,75%-высокое, очень низкое и очень высокое содержание соответственно. Содержание подвижного фосфора (P_2O_5) составляет 57,91%-очень низкое, 40,64%-слабое, а 1,10% и 0,35%-умеренное и высокое содержание соответственно. Кроме того, содержание обменного калия (K_2O) составило 36,67% на умеренном уровне, 24,89% на низком уровне и 20,92% и 17,51% на высоком и низком уровнях соответственно. На основе полученных результатов были разработаны научные рекомендации по рациональному использованию минеральных и органических удобрений для повышения плодородия почвы и по правильной организации агротехнических мероприятий. Результаты исследования имеют большое значение для получения высоких урожаев сельскохозяйственных культур, эффективного использования земельных ресурсов и предотвращения деградации почв.

Ключевые слова: *орошаемые земли, питательные вещества, фосфор, калий, гумус, агрохимический анализ, система удобрения, минеральные удобрения, подвижные элементы.*

Abstarct: *The study examined the soil nutrient status of irrigated agricultural lands in the Nurota district. The results showed that the soils in the region have moderate to low nutrient status: 46,53% of the total area of 4 190,40 hectares have moderate humus content, 41,88% have low humus content, and 9,58%, 1,27%, and 0,75% have high, very low, and very high humus content, respectively. The content of available phosphorus (P_2O_5) is 57,91% (very low), 40,64% (low), and 1,10% and 0.35% (moderate and high), respectively. In addition, the content of exchangeable potassium (K_2O) was 36,67% at a moderate level, 24,89% at a low level, and 20,92% and 17,51% at high and low levels, respectively. Based on the obtained results, scientific recommendations were developed for the rational use of mineral and organic fertilizers to improve soil fertility and for the proper organization of agricultural practices. The study's findings are of great importance for achieving high agricultural yields, efficient use of land resources, and preventing soil degradation.*

Key words: *irrigated lands, nutrients, phosphorus, potassium, humus, agrochemical analysis, fertilization system, mineral fertilizers, mobile elements.*

KIRISH

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi bevosita tuproq unumdorligi va uning ozuqa moddalari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarida tuproqning agroximik holatini o'rganish, uning tarkibidagi asosiy oziqa elementlari gumus, fosfor va kaliyning miqdori hamda o'simliklar tomonidan o'zlashtirilish darajasini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega 1.

hudud sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlaridan uzoq yillar davomida intensiv foydalanish, agrotexnika tadbirlarining ilmiy asosda olib borilmasligi hamda mineral o'g'itlardan muvozanatsiz foydalanish va boshqa omillar natijasida tuproq unumdorligining pasayish jarayoni kuzatilmoqda. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydoni tuproqlarida ozuqa

elementlari balansining buzilishi oqibatida gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy miqdorining kamayishi aniqlangan 5.

Shu bois, mazkur hudud sug'oriladigan tuproqlarining agroximik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning ozuqa elementlari bilan ta'minlanganlik darajasini baholash hamda tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot ishining maqsadi Nurota tumani sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydoni tuproqlarining ozuqa moddalari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash, ularning agroximik holatini baholash hamda samarali foydalanish yo'llarini asoslab berishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Tuproqning oziqa moddalari bilan ta'minlanganlik darajasi tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Agrokimyo fanining rivojlanishida N.A. Dimo, D.N. Pryanishnikov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi - ular tuproqdagi azot, fosfor, kaliy va gumusning o‘simliklar hayotidagi ahamiyatini, shuningdek, o‘g‘itlash orqali bu elementlarning harakatchan shakllarga o‘tish qonuniyatlarini asoslab berganlar. Ushbu klassik ishlar hozirgi kungacha O‘zbekiston tuproqshunosligi va agrokimyosi ta'limotining nazariy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy adabiyotlarda tuproqning oziqa rejimi deganda, birinchi navbatda, gumus (organik modda), harakatchan fosfor, almashinuvchi kaliy va turli shakldagi azot birikmalarining tuproqdagi miqdori va o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilish darajasi tushuniladi. Bu ko‘rsatkichlarning har biri tuproq tipiga, uning mexanik tarkibiga, sug‘orish tartibiga hamda qo‘llaniladigan agrotexnik tadbirlarga qarab keskin farqlanishi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan.

“Tuproq tahlil markazi” davlat muassasasi tomonidan har bir tuman kesimida muntazam ravishda agrokimyoviy tekshiruvlar o‘tkazib boriladi. Ushbu tekshiruvlar yakunida sug‘oriladigan yerlarning oziqa moddalari bilan ta'minlanganlik darajasiga muvofiq mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan ilmiy asoslangan ehtiyoj hisoblab chiqiladi va natijalar agrokimyoviy xaritanoma shaklida rasmiylashtiriladi. Xaritanomada har bir dala konturi tuproqning gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan ta'minlanganligiga qarab turli ranglarda tasvirlanadi.

Umumiy qabul qilingan uslubiyotga ko‘ra (O‘zPITI tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida), tuproqlar harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdoriga ko‘ra besh guruhga bo‘lib tahlil qilinadi: juda past, past, o‘rtacha, yuqori va juda yuqori ta'minlangan. Ushbu gradatsiya tizimi respublikaning barcha viloyat va tumanlarida bir xil metodika asosida qo‘llanilib, natijalarning qiyoslanishini ta'minlaydi.

So‘nggi yillarda respublikaning turli hududlarida olib borilgan tadqiqotlar sug‘oriladigan tuproqlarda organik modda va oziqa elementlari miqdorining umumiy pasayish tendentsiyasini ko‘rsatmoqda. Xususan, bir qator viloyatlar bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlarda sug‘oriladigan yerlarning katta qismida gumus miqdori kam va o‘rta darajada, azot, fosfor va kaliyning umumiy hamda harakatchan shakllari esa nisbatan past bo‘lganligi aniqlangan. Bunga sabab sifatida ko‘p yillik intensiv foydalanish, gumusni tiklovchi organik o‘g‘itlarning yetarli miqdorda qo‘llanilmasligi hamda shamol va suv eroziyasi jarayonlari ko‘rsatiladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Nurota tumani tuproqlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan tuproqning genetik-morfologik tavsifi va gumus dinamikasiga qaratilgan bo‘lib, tumanning barcha sug‘oriladigan yer maydonlarini qamrab oluvchi, oziqa elementlari (harakatchan fosfor, almashinuvchi kaliy, azot shakllari) ning to‘liq va zamonaviy agrokimyoviy baholash tizimi asosidagi tadqiqotlar hali yetarli darajada olib borilmagan. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT OBYEKTI VA USLUBLARI

Tadqiqotlar Navoiy viloyati Nurota tumanidagi sug’oriladigan qishloq xo’jaligi yer maydonlarida olib borildi. Hudud geografik jihatdan shimolda viloyatining Tomdi tumani, garbda Konimex tumani va G’azg’on shahri, sharqda Jizzax viloyatining Forish tumani, janubda esa Xatirchi tumani bilan chegaradosh bo’lgan quruq iqlimli agroekotizim hisoblanadi.

Ozuqa elementlari bilan ta’minlanish darajasini baholash maqsadida dala kuzatuvlari asosida tuproq namunalari standart chuqurliklardan olinib, laboratoriya sharoitida tahlil qilindi. Tuproq mexanik tarkibi OZDST-81797, gumus-GOST-26213-91 davlat standarti asosida aniqlandi. Tuproq namunalari tarkibidagi harakatchan fosfor (P_2O_5) miqdori Machigin usulida (SINAO) modifikatsiyasi asosida va almashinuvchan kaliy (K_2O) miqdori alangali fotometr orqali aniqlanib, natijalar asosida tuproqlar ozuqa elementlari bilan ta’minlanish darajasi bo’yicha klassifikatsiya qilindi. Tahlillar “Tuproq tahlil markazi” davlat muassasasi sinov laboratoriyasida amalga oshirildi 4, 6.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Tuman hududi ikkita bioiqlim ya’ni cho’l va yarim cho’l zonalarida joylashgan, murakkab geomorfologik tuzilishga ega bo’lib, konus yoyilmalari uchlamchi platolar va qoldiq ko’tarilmalar, turli yoshdagi qayir usti terassalariga tutashgan o’rta balandlikdagi va past tog’lar, past baland tog’ oldi hududlari hamda nishab qiyalik tog’ osti tekisliklaridan iborat bolib, Sug‘oriladigan dehqonchilikda och tusli bo’z tuproqlardan foydalaniladi 2.

O’tkazilgan tadqiqot natijalariga asosida tuproqning asosiy ozuqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasi hamda gumus, harakatchan fosfor (P_2O_5) va almashinuvchan kaliy (K_2O) miqdori ko’rsatkichlari ajratildi. Gumus miqdori ko’rsatkichlari umumiy 4190,40 gektar maydonning 46,53 % qismi o’rtacha darajada, 41,88 % qismi kam darajada hamda 9,58 %, 1,27% va 0,75 % qismi mos ravishda ko’proq, juda kam va ko’p darajada ta’minlangan (1-jadval, 1-rasm).

Hududda tadqiqot natijasi bo’yicha gumus miqdori yuqori darajada ta’minlangan yer maydonlari aniqlanmadi.

1-jadval

Nurota tumanidagi tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining gumus miqdori ko'rsatkichlari

T/r	Massivlar nomi	Tekshirilgan maydon, ga	Gumus miqdori % hisobida												Jami gumus, % hisobida
			Juda kam 0-0,40		Kam 0,41-0,80		O'rtacha 0,81-1,20		Ko'proq 1,21-1,60		Ko'p 1,61-2,00		Yuqori > 2,0		
			ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	
1	Istiqlol	890,55	21,76	2,44	400,30	44,95	318,24	35,74	150,25	16,87					100,00
2	Nurota	156,11	20,00	12,81	136,11	87,19									100,00
3	A.Navoiy	1808,27	4,00	0,22	882,68	48,81	792,82	43,84	128,77	7,12					100,00
4	Mustaqillik	339,20	7,26	2,14	74,31	21,91	257,63	75,95							100,00
5	Sh.Rashidov	18,98			6,97	36,72	12,01	63,28							100,00
6	O'zbekiston	977,29			254,68	26,06	568,92	58,21	122,45	12,53	31,24	3,20			100,00
Jami:		4190,40	53,02	1,27	1755,05	41,88	1949,62	46,53	401,47	9,58	31,24	0,75			100,00

1-rasm

Tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining gumus bilan ta'minlanganlik darajasi, gektar hisobida



Harakatchan fosfor (P_2O_5) miqdori esa umumiy 4190,40 gektar maydonning 57,91 % qismi juda kam darajada, 40,64 % qismi kam darajada hamda 1,10 % va 0,35 % qismi mos ravishda o'rtacha va ko'proq darajada ta'minlangan. (2-jadval, 2-rasm). Hudud yer maydonlarida harakatchan fosfor (P_2O_5) bilan ko'p darajada ta'minlangan miqdori ko'rsatkichlari aniqlanmadi.

2-jadval

Nurota tumanidagi tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining harakatchan fosfor (P2O5) miqdori ko'rsatkichlari

T/r	Massivlar nomi	Tekshirilgan maydon, ga	Fosfor (P2O5) miqdori, mg/kg										Jami (P2O5), % hisobida
			Juda kam 0-15		Kam 16-30		O'rtacha 31-45		Ko'proq 46-60		Ko'p 60<		
			ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	
1	Istiqlol	890,55	195,24	21,92	678,39	76,18	16,92	1,90					100,00
2	Nurota	156,11	79,78	51,10	76,33	48,90							100,00
3	A.Navoiy	1808,27	1100,78	60,87	683,81	37,82	14,71	0,81	8,97	0,50			100,00
4	Mustaqillik	339,20	185,46	54,68	146,90	43,31	2,74	0,81	4,10	1,21			100,00
5	Sh.Rashidov	18,98			18,98	100,00							100,00
6	O'zbekiston	977,29	865,46	88,56	98,54	10,08	11,58	1,18	1,71	0,17			100,00
Jami:		4190,40	2426,72	57,91	1702,95	40,64	45,95	1,10	14,78	0,35			100,00

2-rasm

Tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining harakatchan fosfor (P_2O_5) bilan ta'minlanganlik darajasi, gektar hisobida



Shuningdek, almashinuchan kaliy (K_2O) miqdori ham umumiy 4190,40 gektar maydonning 36,67 % qismi, o'rtacha darajada, 24,89 % qismi kam darajada hamda 20,92 % va 17,51 % qismi mos ravishda ko'proq va ko'p darajada ta'minlangan (3-jadval, 3-rasm).

Tadqiqot natijasida hudud yer maydonlarining almashinuchan kaliy (K_2O) bilan juda kam darajada ta'minlangan miqdor ko'rsatkichlari aniqlanmadi.

3-jadval

Nurota tumanidagi tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining almashinuvchan kaliy (K2O) miqdori ko'rsatkichlari

T/r	Massivlar nomi	Tekshirilgan maydon, ga	Kaliy (K2O) miqdori, mg/kg										Jami, (K2O) % hisobida
			Juda kam 0-100		Kam 101-200		O'rtacha 201-300		Ko'proq 301-400		Ko'p 400<		
			ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	
1	Istiqlol	890,55			160,70	18,05	251,31	28,22	288,13	32,35	190,41	21,38	100,00
2	Nurota	156,11					111,11	71,17	45,00	28,83			100,00
3	A.Navoiy	1808,27			342,01	18,91	772,30	42,71	358,03	19,80	335,93	18,58	100,00
4	Mustaqillik	339,20			203,05	59,86	84,37	24,87	43,28	12,76	8,50	2,51	100,00
5	Sh.Rashidov	18,98					18,98	100,00					100,00
6	O'zbekiston	977,29			337,11	34,49	298,71	30,57	142,40	14,57	199,07	20,37	100,00
Jami:		4190,40			1042,87	24,89	1536,78	36,67	876,84	20,92	733,91	17,51	100,00

3-rasm

Tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining almashinuvchan kaliy (K_2O) bilan taminlanganlik darajasi, gektar hisobida



Taxlillar hudud tuproqlarining gumus bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi o'rtacha-kam darajada, harakatchan fosfor (P_2O_5) miqdori ko'rsatkichlari esa kam-juda kam darajada, shuningdek, almashinuchan kaliy (K_2O) miqdori ko'rsatkichlari ham o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, hudud yer maydonlarining ozuqa elementlari bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshilash uchun ilmiy asoslangan chora-tadbirlar muhim hisoblanadi. Mineral va organik o'g'itlar faqat o'simliklar uchun oziqa va tuproq unumdorligini oshiruvchi manba bo'lib qolmay, ular tuproq tarkibidagi oziqa elementlar zaxiralarini va qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini ham oshiruvchi omildir. Sifatli qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish uchun esa gumus miqdori, fosfor va kaliy ozuqa elementlari juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning agrokimyoviy kartogrammalarini tuzish iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

XULOSA

Hudud tuproqlari unumdorligini muhofaza etish va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish maqsadida yer maydonlarida davriy tekislash ishlarini o'tkazish, bu sug'orish suvlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Tuproq unumdorligini oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi ekinlarini almashlab ekishni joriy etish mihim hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini to'g'ri almashlab ekish dehqonchilikni yuksak madaniyat bilan yuritishning asosiy shartlaridan biri bo'lib, uning eng asosiy vazifasi birinchi navbatda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bo'lsa, ikkinchidan tuproq unumdorligini saqlash, begona o'tlar, qishloq xo'jaligi zararkunandalari va kasalliklariga qarshi samarali kurashish orqali ekinlar hosilini oshirishdan iborat.

O'g'itlar samaradorligini oshirish maqsadida organik va maxalliy (go'ng) o'g'itlarni mineral o'g'itlar bilan kompost holda tayyorlab, xo'jalik ekinlarini oziqlantirish uchun gektariga 30-35 tonnadan solish. Tuproqlarning unumdorligini oshirish uchun ularning xossa-xususiyatlarini, jumladan, gumus va ozuqa moddalar miqdorini oshirish, tuproqlarning ekologik holatini yaxshilash uchun alohida ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi ekinlarini turiga, naviga, biologik xususiyatiga va tuproq iqlim sharoitlariga bog'liq holda o'simliklarni biologik talabidan kelib chiqib,

vegetatsiya davrida mineral o'g'itlarni tabaqalashtirilgan holda to'g'ri qo'llash tuproq unumdorligini tiklashda, mineral o'g'itlarning samaradorligini va qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirishda, ayniqsa, mahsulot sifatini yaxshilashda ahamiyati beqiyosdir.

Organik o'g'itlardan foydalanish o'simliklarni makro va mikro elementlar bilan ta'minlaydi, tuproqdagi oziq moddalar balansini tartibga solib turadi, qiyin eruvchan fosfatlarni o'simliklar tomonidan yengil o'zlashtiriladigan holatga o'tkazish imkonini beradi. Mineral o'g'itlarning samaradorligini oshirishda mikroelementlarni qo'llash eng muhim omillardan biridir. O'simliklar mikroelementlarni juda oz miqdorda talab qilsada, fiziologik hayotiy jarayonlarida nihoyatda muhim o'rin tutadi. Mikroelementlar ta'sirida o'simlik barglarida xlorofill ortadi, fotosintez jarayoni yaxshilanadi, o'simlikning barcha qismlarida hayotiy faollik oshadi. Tuproqda mikroelementlar yetarli bo'lsa, o'simliklar fosfor, kaliy va boshqa elementlarni yaxshi o'zlashtiradi.

Fosforli o'g'itlarni o'zlashtirishni yaxshilash maqsadida go'ng-fosforli o'g'itlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Go'ng-fosforli va tut ipak qurti g'umbaklari hamda ularning eksperimentlaridan, parranda go'ngi, go'ng sharbati shuningdek, boshqa turdagi organik chiqindilardan ham keng foydalanish muhim. Xulosa o'rnida tuman hududidagi yer maydonlarining ozuqa moddalari bilan ta'minlanish darajasi o'rtacha-past darajada. Tuproq unumdorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan o'g'itlash tizimini joriy etish, organik o'g'itlardan keng foydalanish, suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini qo'llash hamda yer maydonlarining meliorativ holatni yaxshilash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kuziyev R.K., Abduraxmonov N.Yu. Tuproq unumdorligi va uni boshqarishning ilmiy asoslari // Monografiya Toshkent, Navro'z nashriyoti., 2017-yil.

2. O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplamlari atlasi – O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi. Toshkent., 2010-yil.

3. O'zbekiston sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati va ularni yaxshilash. Toshkent., 2018-yil.

4. Laboratoriya analizlari "TCTM" DUK halqaro ISO sertifikatiga ega bo'lgan laboratoriyada. Suvli so'rim, PH-muhit Gost-2642385.

5. Saidov A.S. Sug'oriladigan tuproqlarining meliorativ va agrokimyoviy holati. Toshkent. 2018-yil.

6. Gumus miqdori Gost 2621391 davlatlararo standart asosida, tuproqning mexanik va granulometrik tarkibi O'zDST 81797 davlat standarti asosida aniqlandi.

7. Arinushkina E.V Rukovodstvo po ximicheskomu analizu pochve. Moskva., 1970 god. 491 s.

8. Metode agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polivnex xlopkovex rayonax. Toshkent., 1963 god. 70 s.

9. Navoiy viloyati Nurota tumani hokimligi rasmiy veb sahifasidan

https://Nurota.uz/oz.

10. Atoev B., Kaypnazorov J., Egamberdieva M., Makhammadiev S., Karimov M., Makhkamova D. Technology of nutriating winter wheat varieties in variety-soil-fertilizer system. E3S Web of Conferences 244, 02040 (2021).

11. Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq xaritalarini tuzish bo'yicha yo'riqnoma (mualliflar jamoasi), Yerdan foydalanish, yer tuzish va yer kadastri bo'yicha me'yoriy hujjatlar. Toshkent., 2009-yil, 52 bet.

12. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Sug'oriladigan yerlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish va agrokimyoviy kartogrammalar tuzish hamda mineral o'g'itlarga bo'lgan ilmiy talabni ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar". Toshkent., 2019-yil.

13. Pryanishnikov D.N. Agrokimyo asoslari. - tarixiy-nazariy manba, o'simliklar oziqlanishi va o'g'itlash nazariyasi.

14. Dimo N.A. O'rta Osiyo tuproqlarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy ishlari.

https://iau-jaesa.uz/article/4g84s7vdibqs/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845230
UO‘T: 579.66:678.742.2

POLIETILEN PARCHALANISHINI TEZLASHTIRUVCHI BAKTERIAL SHTAMMLARNI (PSEUDOMONAS SPP., BACILLUS SPP.) MAHALLIY HUDUDLARDAN AJRATIB OLISH VA IDENTIFIKATSIYA QILISH

Zukhra A. Kadirova
Biotexnologiya va mikrobiologiya kafedrasi
(PhD)
ORCID:Zukhra A. Kadirova https://orcid.org/0009-0000-5611-5841

Abdug‘aniyeva Pokiza Yo’lchi qizi
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti
Biologiya va ekologiya fakulteti
Biotexnologiya kafedrasi magistranti
E-mail: pokiza.iphone12@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada polietilen (PE) chiqindilarini biologik parchalashda ishtirok etuvchi Pseudomonas spp. va Bacillus spp. avlodlariga mansub bakterial shtammlarni mahalliy ifloslangan hududlardan — chiqindi poligonlari, polimer korxonalari atrofidagi tuproqlar va oqova suvlardan — ajratib olish hamda identifikatsiya qilishning zamonaviy uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Tahlil 2018–2025-yillarda nashr etilgan xalqaro tadqiqotlar hamda O‘zbekistonda o‘tkazilgan skrining natijalari asosida amalga oshirildi. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, mineral tuzli muhitda (MSM) polietilen yagona uglerod manbai sifatida qo‘llanilganda 30–112 kunlik inkubatsiya davomida shtammlar 1,14–52,0 % oralig‘ida vazn yo‘qotishni ta’minlagan. Eng yuqori ko‘rsatkichlar Bacillus siamensis (52,0 %; 60 kun), Bacillus cereus A5,a (35,72 %; 16 hafta) hamda UV nurlari bilan dastlabki ishlov berilgan polietilenda Pseudomonas balearica PDI-17 (19,90 %; 30 kun) shtammlarida qayd etilgan. UV bilan dastlabki ishlov berish parchalanish samaradorligini 4,2–9,3 barobarga oshirgan. Shtammlarni identifikatsiya qilishda Gram usulida bo‘yash va biokimyoviy testlar bilan bir qatorda MALDI-TOF MS, 16S rRNA geni ketma-ketligini aniqlash hamda alkB (alkan gidroksilaza) genini polimeraza zanjir reaksiyasi orqali aniqlash usullari yuqori samara berishi ko‘rsatilgan. Maqolada O‘zbekistonning quruq iqlimli va sho‘rlangan tuproqlari sharoiti uchun moslashtirilgan besh bosqichli uslubiy sxema taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *polietilen, biodegradatsiya, Pseudomonas spp., Bacillus spp., mineral tuzli muhit, 16S rRNA, alkB geni, MALDI-TOF MS, bioremediatsiya, chiqindi poligoni.*

Аннотация. *В статье проанализированы современные методические подходы к выделению и идентификации бактериальных штаммов родов Pseudomonas spp. и Bacillus spp., участвующих в биологической деградации отходов полиэтилена (ПЭ), из местных загрязнённых территорий — свалок, почв вокруг полимерных предприятий и сточных вод. Анализ выполнен на основе международных исследований, опубликованных в 2018–2025 годах, а также*

результатов скрининга, проведённого в Узбекистане. Согласно литературным данным, при использовании полиэтилена в качестве единственного источника углерода в минеральной солевой среде (MSM) за 30–112 суток инкубации штаммы обеспечивали потерю массы в диапазоне 1,14–52,0 %. Наивысшие показатели зафиксированы у Bacillus siamensis (52,0 %; 60 суток), Bacillus cereus A5,a (35,72 %; 16 недель) и у Pseudomonas balearica PDI-17 (19,90 %; 30 суток) на полиэтилене, предварительно обработанном УФ-излучением. Предварительная УФ-обработка повышала эффективность деградации в 4,2–9,3 раза. Показано, что наряду с окраской по Граму и биохимическими тестами высокую результативность при идентификации штаммов обеспечивают MALDI-TOF MS, секвенирование гена 16S рРНК и выявление гена alkB (алкангидроксилазы) методом ПЦР. Предложена адаптированная пятиэтапная методическая схема для условий засушливых и засолённых почв Узбекистана.

Ключевые слова: *полиэтилен, биодеградация, Pseudomonas spp., Bacillus spp., минеральная солевая среда, 16S рРНК, ген alkB, MALDI-TOF MS, биоремедиация, свалка.*

Abstract. *The article analyses current methodological approaches to the isolation and identification of bacterial strains of the genera Pseudomonas spp. and Bacillus spp. involved in the biological degradation of polyethylene (PE) waste from locally contaminated sites — landfills, soils around polymer enterprises and wastewater. The analysis is based on international studies published between 2018 and 2025, together with screening results obtained in Uzbekistan. According to the literature, when polyethylene is supplied as the sole carbon source in mineral salt medium (MSM), strains achieved weight losses of 1.14–52.0 % over 30–112 days of incubation. The highest values were recorded for Bacillus siamensis (52.0 %; 60 days), Bacillus cereus A5,a (35.72 %; 16 weeks) and Pseudomonas balearica PDI-17 (19.90 %; 30 days) on UV-pretreated polyethylene. UV pretreatment increased degradation efficiency by a factor of 4.2–9.3. Alongside Gram staining and biochemical tests, MALDI-TOF MS, 16S rRNA gene sequencing and PCR detection of the alkB (alkane hydroxylase) gene were shown to be highly effective for strain identification. A five-stage methodological scheme adapted to the arid and saline soils of Uzbekistan is proposed.*

Keywords: *polyethylene, biodegradation, Pseudomonas spp., Bacillus spp., mineral salt medium, 16S rRNA, alkB gene, MALDI-TOF MS, bioremediation, landfill.*

KIRISH

Plastmassa jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, 2024-yilda uning global ishlab chiqarish hajmi 430 million tonnaga yaqinlashdi va 2009-yildan buyon yiliga o‘rtacha 4,8 % ga o‘sib bormoqda [9]. Yevropada bu ko‘rsatkich 54,6 million tonnani tashkil etib, jahon ishlab chiqarishining 12 % iga to‘g‘ri keladi [10]. Ishlab chiqarilayotgan polimerlarning eng katta ulushi polietilenga (PE) — past zichlikdagi (LDPE) va yuqori zichlikdagi (HDPE) modifikatsiyalariga to‘g‘ri keladi. Polietilen yuqori molekulyar massaga, gidrofoblik xususiyatga va gidrolizga uchraydigan funksional guruhlarning yo‘qligiga ega bo‘lgan uglevodorod zanjiridan

tashkil topgani bois tabiiy sharoitda o‘n yillar davomida parchalanmasdan saqlanadi [1, 3].

O‘zbekiston Respublikasida yiliga taxminan 10,2 million tonna maishiy qattiq chiqindi hosil bo‘ladi va uning 10 % dan ortig‘i (taxminan 1,05 million tonna) plastik chiqindilar hissasiga to‘g‘ri keladi. Hozirda mamlakatda faoliyat yuritayotgan 116 ta qayta ishlash korxonasi yiliga atigi 130 ming tonnaga yaqin plastikni, ya’ni umumiy hajmning 6,6 % ini qayta ishlash quvvatiga ega [11]. Qolgan qism poligonlarga ko‘miladi yoki nazoratsiz to‘planadi. Bu holat tuproq unumdorligining pasayishi, mikroplastikning oziq-ovqat zanjiriga o‘tishi va yer osti suvlarining ifloslanishi kabi ekologik xavflarni keltirib chiqaradi.

Plastik chiqindilarni yo‘q qilishning an’anaviy usullari — yoqish va ko‘mish — mos ravishda atmosferaga zaharli gazlar chiqarilishi va uzoq muddatli ikkilamchi ifloslanish bilan bog‘liq [1]. Shu bois so‘nggi yillarda mikroorganizmlar yordamida polimerlarni biologik parchalash (biodegradatsiya) arzon, energiya talab qilmaydigan va ekologik xavfsiz muqobil sifatida keng o‘rganilmoqda [3, 4].

Polietilenning mikrobiologik parchalanishi ko‘p bosqichli jarayon hisoblanadi. Dastlab bakteriyalar polimer yuzasida bioplyonka hosil qiladi; abiotik omillar (UV nurlanish, yuqori harorat) ta’sirida polimer yuzasida karbonil, karboksil va gidroksil guruhlari shakllanib, gidrofoblik pasayadi va mikrobial hujum osonlashadi. Keyingi bosqichda alkan monooksigenaza (AlkB) fermenti uglevodorod zanjirining terminal metil guruhini gidroksillab, uni mos spirtga aylantiradi; hosil bo‘lgan spirt ketma-ket aldegid va yog‘ kislotasiga oksidlanib, hujayra ichidagi β-oksidlanish yo‘liga kiradi [8]. Bu jarayonda ishtirok etuvchi alkB1 va alkB2 genlari *Pseudomonas aeruginosa* genomida aniqlangan bo‘lib, ular polietilen parchalovchi shtammlarni tanlashda molekulyar marker sifatida qo‘llaniladi [1, 8]. Bundan tashqari, lakkaza, peroksidaza, proteaza va esteraza kabi hujayradan tashqari fermentlar ham polimer zanjirining uzilishida ishtirok etadi [1, 5].

Hozirgi kunga qadar polietilenni parchalash qobiliyatiga ega *Bacillus*, *Pseudomonas*, *Brevibacillus*, *Acinetobacter*, *Rhodococcus*, *Lysinibacillus* va *Enterobacter* avlodlariga mansub ko‘plab shtammlar tavsiflangan [1, 2, 6, 7]. Ular, asosan, uzoq vaqt davomida plastik chiqindilar to‘plangan tuproqlardan ajratib olinadi, chunki bunday hududlarda tabiiy tanlanish natijasida polimerdan uglerod manbai sifatida foydalana oladigan mikrobiotsenozlar shakllangan bo‘ladi [3, 4].

O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda dastlabki ishlar boshlangan: O‘zR FA Mikrobiologiya institutida *Pseudomonas putida*, *P. aeruginosa*, *Rahnella aquatilis*, *Enterobacter cloacae* va *E. ludwigii* shtammlarining LDPE, HDPE, PET va polivinilpirrolidonga nisbatan faolligi UB-spektrofotometrik usulda skrining qilingan; *E. cloacae* shtammi HDPE bilan inkubatsiyada nazoratga nisbatan 13,99 barobar ko‘p organik birikma hosil qilgani aniqlangan [6]. Shu bilan birga, mamlakatimizning quruq iqlimli, sho‘rlangan va yuqori haroratli tuproqlaridan aynan *Pseudomonas* va *Bacillus* avlodlariga mansub polietilen parchalovchi shtammlarni maqsadli ajratib olish va ularni molekulyar darajada identifikatsiya qilish bo‘yicha tizimli tadqiqotlar hali yetarli emas.

Mazkur maqolaning maqsadi — polietilen parchalanishini tezlashtiruvchi *Pseudomonas* spp. va *Bacillus* spp. shtammlarini mahalliy ifloslangan hududlardan ajratib olish, skrining qilish va identifikatsiya qilish bo‘yicha zamonaviy uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llash uchun asoslangan uslubiy sxemani ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Tadqiqot tahliliy-uslubiy xarakterga ega bo‘lib, unda 2018–2025-yillarda xalqaro retsenziyalanadigan jurnallarda chop etilgan oltita asosiy tajriba maqolasi hamda O‘zbekistonda o‘tkazilgan skrining natijalari birlamchi manba sifatida foydalanildi [1–7]. Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: (a) shtammlar tabiiy ifloslangan hududlardan (poligon, tuproq, oqova suv) ajratib olingan bo‘lishi; (b) polietilen (LDPE, HDPE yoki umumiy PE) parchalanishi miqdoriy usulda — gravimetrik tahlil yoki shaffof zona diametri orqali — baholangan bo‘lishi; (c) shtammlar kamida biokimyoviy yoki molekulyar usulda identifikatsiya qilingan bo‘lishi.

Solishtirma tahlil uchun har bir manbadan quyidagi ko‘rsatkichlar ajratib olindi: shtamm nomi, ajratib olingan hudud, o‘rganilgan polimer turi, inkubatsiya muddati va sharoiti, vazn yo‘qotish foizi hamda identifikatsiya usuli. Vazn yo‘qotish ko‘rsatkichi barcha manbalarda quyidagi umumiy formula asosida hisoblangan [1, 5]:

Vazn yo‘qotish (%) = [(Dastlabki vazn − Yakuniy vazn) / Dastlabki vazn] × 100

Ma’lumotlar solishtirilishi uchun turli polimer turlari (LDPE, HDPE, umumiy PE) va turli inkubatsiya muddatlari alohida belgilab ko‘rsatildi, chunki bu omillar natijaga sezilarli ta’sir qiladi va ularni e’tiborga olmasdan taqqoslash noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Grafik tahlil va diagrammalar Python 3.9 (Matplotlib 3.9) dasturiy muhitida tayyorlandi.

Shuningdek, tahlil qilingan manbalar asosida O‘zbekiston sharoiti uchun moslashtirilgan besh bosqichli uslubiy sxema — namuna olish va boyitish, shtammlarni ajratib olish, skrining, identifikatsiya hamda optimallashtirish bosqichlari — shakllantirildi va quyida bayon etildi.

NATIJALAR VA MUNOZARALAR.

1. Namuna olish hududlari va boyitish bosqichi.

Tahlil qilingan barcha manbalarda samarali shtammlar uzoq muddat plastik chiqindilar ta’sirida bo‘lgan hududlardan ajratib olingan: Adama (Efiopiya) chiqindi poligonidan [1], Owerri (Nigeriya) shahar poligonlaridan [2], Morogoro (Tanzaniya) qishloq xo‘jaligi tuproqlaridan [3], Lagos (Nigeriya) Alimosho tumani chiqindixonalaridan [4] va Dandora (Keniya) poligonidan [7]. Bu qonuniyat mahalliy sharoitda namuna olish nuqtalarini tanlashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi: eng istiqbolli obyektlar sifatida polietilen chiqindilari ko‘milgan tuproq qatlamlari, chiqindi poligonlari, polimer qayta ishlash korxonalari atrofidagi tuproq hamda oqova suvlar tavsiya etiladi.

Boyitish (enrichment) bosqichida tuproq namunasi UV nurlari bilan dastlabki ishlov berilgan polietilen plyonka bo‘laklari bilan birga mineral tuzli muhitga (MSM) joylashtiriladi. Efiopiya tadqiqotida uglerodsiz bazal muhit tarkibi quyidagicha bo‘lgan (g/l): KH_2PO_4 — 0,7; K_2HPO_4 — 0,7; $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ — 0,7; NH_4NO_3 — 1,0 va

mikroelementlar; namunalar 37 °C da 14 sutkadan ortiq inkubatsiya qilingan [1]. Bunday sharoitda polietilen yagona uglerod manbai bo‘lgani sababli faqat undan foydalanishga qodir mikroorganizmlargina ko‘payadi, ya’ni tanlanish jarayoni avtomatik ravishda amalga oshadi.

2. Shtammlarni ajratib olish va dastlabki skrining.

Boyitilgan muhitdan olingan namunalar ozuqaviy agarga (Nutrient Agar) yoki tanlab olinadigan muhitlarga ekiladi. *Pseudomonas* avlodini ajratib olishda King A va King B muhitlari, *Bacillus* avlodini ajratib olishda esa namunani 80 °C da 10 daqiqa termik ishlovdan o‘tkazish (vegetativ hujayralarni yo‘qotib, endosporalarni saqlab qolish) usuli samarali hisoblanadi. Turli morfologiyaga ega koloniyalar takroriy ekish orqali tozalanib, sof kulturalar olinadi [1, 4].

Dastlabki skrining ikki usulda amalga oshiriladi. Birinchisi — maydalangan polietilen qo‘shilgan mineral agarda koloniya atrofida shaffof zona (clear zone) hosil bo‘lishini kuzatish. Tanzaniya tadqiqotida bakterial izolyatlar 17 kunda 19,3–47,5 mm, aktinomitsetlar 25,9–32,2 mm, zamburug‘lar esa 13 kunda 30,0–66,3 mm diametrli zonalar hosil qilgan [3]. Ikkinchisi — suyuq muhitda optik zichlik (OD_{600}) o‘sishini kuzatish: Nigeriya tadqiqotida *B. siamensis* uchun OD_{600} 60 kun ichida 0,12 dan 0,84 gacha, *B. pumilus* uchun 0,11 dan 0,67 gacha ortgan, nazorat muhitida esa o‘zgarmagan (0,11) [2].

3. Polietilenni parchalash samaradorligi.

Tahlil qilingan manbalarda qayd etilgan asosiy natijalar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Mahalliy ifloslangan hududlardan ajratib olingan shtammlarning polietilenni parchalash ko‘rsatkichlari (adabiyot ma’lumotlari umumlashtirilgan)

Shtamm	Ajratib olingan hudud	Polimer	Muddat	Vazn yo‘qotish, %	Identifikatsiya usuli	Manba
Bacillus siamensis	Owerri, Nigeriya	LDPE	60 kun	52,0	16S rDNK	[2]
Bacillus pumilus	Owerri, Nigeriya	LDPE	60 kun	26,0	16S rDNK	[2]
Bacillus coagulans	Owerri, Nigeriya	LDPE	60 kun	18,0	16S rDNK	[2]
Bacillus subtilis	Owerri, Nigeriya	LDPE	60 kun	18,0	16S rDNK	[2]
Bacillus cereus A5,a	Dandora, Keniya	PE	16 hafta	35,72 ± 4,01	16S rRNA	[7]
Brevibacillus borstelensis B2,2	Dandora, Keniya	PE	16 hafta	20,28 ± 2,30	16S rRNA	[7]
Pseudomonas balearica PDI-17	Adama, Efiopiya	PE + UV	30 kun	19,90	MALDI-TOF MS, 16S rRNA, alkB	[1]
Pseudomonas aeruginosa PDI-1	Adama, Efiopiya	PE + UV	30 kun	17,96	MALDI-TOF MS, 16S rRNA, alkB	[1]
Bacillus subtilis PDI-33	Adama, Efiopiya	PE + UV	30 kun	13,75	MALDI-TOF MS	[1]
Bacillus sp. PDI-21	Adama, Efiopiya	PE + UV	30 kun	8,63	16S rRNA	[1]

Shtamm	Ajratib olingan hudud	Polimer	Muddat	Vazn yo‘qotish, %	Identifikatsiya usuli	Manba
Acinetobacter kookii PDI-42	Adama, Efiopiya	PE + UV	30 kun	6,77	MALDI-TOF MS	[1]
Bacillus subtilis PDI-27	Adama, Efiopiya	PE + UV	30 kun	4,79	MALDI-TOF MS	[1]
Pseudomonas balearica PDI-17	Adama, Efiopiya	PE (ishlovsiz)	30 kun	4,25	MALDI-TOF MS, 16S rRNA	[1]
Bacillus subtilis	Kafrelsheikh, Misr	HDPE	30 kun	3,80	Biokimyoviy, SDS-PAGE	[5]
Bacillus cereus	Kafrelsheikh, Misr	HDPE	30 kun	2,20	Biokimyoviy, SDS-PAGE	[5]
Bacillus sp., Micrococcus sp.	Lagos, Nigeriya	PE / PS	6 hafta	25,0–31,2	Biokimyoviy testlar	[4]

Izoh: PE + UV — polietilenga tajribadan oldin ultrabinafsha nurlar bilan ishlov berilgan variant. PS — polistirol. Ko‘rsatkichlar tegishli manbalardagi gravimetrik tahlil natijalari asosida keltirilgan.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, polietilenning bakterial parchalanish darajasi juda keng oralig‘da — 2,20 % dan 52,0 % gacha — o‘zgaradi. Bu farq uch asosiy omil bilan izohlanadi: polimer turi (LDPE HDPE ga qaraganda ancha oson parchalanadi, chunki uning kristalliligi past va tarmoqlanish darajasi yuqori), inkubatsiya muddati hamda polimerga dastlabki ishlov berilgan-berilmagani. Masalan, *B. subtilis* shtammi LDPE bilan 60 kun inkubatsiyada 18,0 % vazn yo‘qotishni ta’minlagan bo‘lsa [2], HDPE bilan 30 kunlik tajribada bu ko‘rsatkich atigi 3,80 % ni tashkil etgan [5].

Umumiy natijalarning taqqoslama tahlili 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Adabiyot manbalarida qayd etilgan Pseudomonas va Bacillus shtammlarining polietilenni parchalash samaradorligi (vazn yo‘qotish, %) [1, 2, 5, 7].

4. Dastlabki ishlov berishning parchalanish samaradorligiga ta’siri.

Polietilenning biologik parchalanishini cheklovchi asosiy omil — uning yuzasida fermentlar hujum qila oladigan qutbli guruhlarning yo‘qligidir. UV nurlari (365 nm) yoki termik ishlov (70 °C) ta’sirida polimer yuzasida karbonil guruhlari hosil bo‘lib, gidrofoblik pasayadi va mikrobial adgeziya kuchayadi [1]. Efiopiya tadqiqotida bu samaraning miqdoriy bahosi berilgan: bir oylik inkubatsiyada UV bilan ishlov berilmagan polietilenda vazn yo‘qotish 1,14–4,25 % ni tashkil etgan bo‘lsa, UV bilan ishlov berilganda bu ko‘rsatkich 4,79–19,90 % gacha ko‘tarilgan (2-rasm) [1].



2-rasm. Polietilenga UV nurlari bilan dastlabki ishlov berishning bakterial parchalanish samaradorligiga ta’siri (Adama, Efiopiya shtammlari misolida) [1].

Hisob-kitoblarga ko‘ra, UV bilan ishlov berish *P. aeruginosa* PDI-1 shtammida samaradorlikni 9,3 barobarga, *B. subtilis* PDI-33 shtammida 9,0 barobarga, *Bacillus* sp. PDI-21 shtammida 4,4 barobarga va *P. balearica* PDI-17 shtammida 4,7 barobarga oshirgan. Bu natija mahalliy sharoitda ishlab chiqiladigan bioremediatsiya texnologiyalarida polimerga fotooksidlovchi dastlabki ishlov berish bosqichini majburiy element sifatida kiritish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning quyoshli kunlar soni yuqori bo‘lgan iqlim sharoiti bu bosqichni tabiiy insolyatsiya hisobiga arzon amalga oshirish imkonini beradi.

5. Shtammlarni identifikatsiya qilish usullari.

Tahlil qilingan manbalarda identifikatsiya bosqichi ketma-ket uch darajada olib borilgan. Birinchi daraja — morfologik va biokimyoviy tavsiflash: Gram usulida bo‘yash, koloniya morfologiyasini o‘rganish, katalaza, oksidaza, indol, sitrat, urease testlari hamda uglevodlarni fermentlash xususiyatlari [1, 4]. Ikkinchi daraja — MALDI-TOF mass-spektrometriya: bunda hujayra oqsillarining mass-spektri ma’lumotlar bazasi bilan solishtiriladi; ≥ 2,0 ball tur darajasidagi ishonchli identifikatsiya sifatida qabul qilinadi [1]. Uchinchi daraja — molekulyar identifikatsiya: 16S rRNA genini universal praymerlar (8F — AGAGTTTGATCCTGGCTCAG va 1492R — TACGGTTACCTTGTTACGACTT) yordamida amplifikatsiya qilish, sekvenirlash va BLAST algoritmi orqali ma’lumotlar bazasidagi ketma-ketliklar bilan taqqoslash [1, 2, 7].

Alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yondashuv — funksional genlarni aniqlash. Efiopiya tadqiqotida alkB (alkan gidroksilaza) geniga PZR o‘tkazilib, *P. aeruginosa* PDI-1, *P. aeruginosa* PDI-2, *P. balearica* PDI-17, PDI-11 va *P. balearica* PDI-39 shtammlari ushbu gen bo‘yicha musbat natija bergani aniqlangan; *B. cereus* PDI-8, *B. subtilis* PDI-27 va *Acinetobacter kookii* PDI-42 shtammlarida esa gen aniqlanmagan [1]. Muhim jihati shundaki, alkB geni bo‘yicha musbat bo‘lgan shtammlar aynan eng yuqori vazn yo‘qotish ko‘rsatkichlarini namoyon etgan. Bu holat alkB genini polietilen parchalovchi shtammlarni tez tanlab olish uchun ishonchli molekulyar marker sifatida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

Amaliy ishda *Pseudomonas* va *Bacillus* avlodlarini dastlabki differensiatsiya qilish uchun 2-jadvalda keltirilgan test majmuasidan foydalanish tavsiya etiladi.

2-jadval

Pseudomonas spp. va Bacillus spp. avlodlarini differensiatsiya qilishning asosiy morfologik, biokimyoviy va molekulyar mezonlari

Mezon / test	*Pseudomonas spp.*	*Bacillus spp.*
Gram usulida bo‘yash	Manfiy (–), to‘g‘ri tayoqcha	Musbat (+), yirik tayoqcha
Endospora hosil qilish	Yo‘q	Bor (markaziy yoki terminal)
Katalaza	Musbat (+)	Musbat (+)
Oksidaza	Musbat (+), aksariyat turlarda	Odatda manfiy (–), o‘zgaruvchan
Harakatchanlik	Qutbiy xivchin(lar) hisobiga	Peritrix xivchinlar hisobiga
Pigment hosil qilish	Flüoressent pigmentlar (pioverdin, piotsianin)	Odatda pigmentsiz
Glyukozaga munosabat (OF test)	Oksidlovchi	Fermentlovchi yoki oksidlovchi
Tanlab olish usuli	King A va King B muhitlari	Namunani 80 °C da 10 daqiqa termik ishlash
Optimal o‘sish harorati	25–37 °C	30–45 °C (ayrim turlar termotolerant)
Optimal pH (PE muhitida)	7,2 (5,5–8,5 oralig‘ida o‘sadi)	7,2 (5,5–8,5 oralig‘ida o‘sadi)
Kalit molekulyar marker	alkB1, alkB2 genlari; 16S rRNA	16S rRNA; lakkaza va peroksidaza faolligi
Hujayradan tashqari fermentlar	Proteaza, lipaza	Proteaza, amilaza, esteraza

Izoh: jadval [1, 4] manbalaridagi tajriba ma’lumotlari va umumiy bakteriologiya uslubiyoti asosida tuzilgan.

6. Optimal sharoitlar va konsorsiumdan foydalanish.

Parchalanish samaradorligini oshirish uchun kultivatsiya sharoitlarini optimallashtirish talab etiladi. Efiopiya tadqiqotida uchta yetakchi shtamm uchun pH (5,5; 7,2; 8,5), harorat (25; 30; 37 °C) va polietilen konsentratsiyasi (0,05; 0,1; 0,5 % w/v) bo‘yicha optimallashtirish o‘tkazilgan. Eng yuqori hujayra quruq massasi va optik zichlik ko‘rsatkichlari pH 7,2 da qayd etilgan; *P. balearica* PDI-17 shtammi 0,5 % polietilen konsentratsiyasida eng yuqori OD_{600} (0,208) ni namoyon etgan [1]. Sho‘rlangan tuproqlardan ajratib olinadigan shtammlar uchun bu parametrlar qatoriga NaCl konsentratsiyasiga chidamlilik testini qo‘shish maqsadga muvofiq, chunki O‘zbekiston tuproqlarining sezilarli qismi turli darajada sho‘rlangan.

Yakka shtammlar o‘rniga konsorsiumdan foydalanish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi: turli fermentativ tizimga ega *Pseudomonas* va *Bacillus* shtammlarini birgalikda qo‘llash polimer zanjirining ketma-ket bosqichlarda parchalanishini ta’minlaydi. Zamburug‘larning ham yuqori faolligi qayd etilgan: Keniya tadqiqotida *Aspergillus oryzae* A5,1 shtammi 16 haftada 36,4 ± 5,53 % vazn yo‘qotishga erishgan va umuman zamburug‘lar bakteriyalarga nisbatan samaraliroq parchalovchi ekani ta’kidlangan [7]. Tanzaniya tadqiqotida esa *Phoma* sp. va *Aspergillus* sp. mos ravishda 66,3 mm va 61,1 mm shaffof zona hosil qilgan [3]. Shu bois kelgusi tadqiqotlarda bakterial-zamburug‘li aralash konsorsiumlarni sinash tavsiya etiladi.

7. O‘zbekiston sharoiti uchun taklif etilayotgan uslubiy sxema.

Tahlil natijalari asosida quyidagi besh bosqichli sxema taklif etiladi:

1-bosqich — namuna olish va boyitish. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona vodiysidagi chiqindi poligonlari, polimer qayta ishlash korxonalari atrofidagi tuproqlar hamda oqova suvlardan 0–20 sm chuqurlikdan namunalar olinadi. Namunalar UV bilan ishlov berilgan polietilen plyonka bo‘laklari solingan MSM muhitiga joylashtirilib, 37 °C da 100–150 rpm tezlikda 30–60 kun inkubatsiya qilinadi.

2-bosqich — ajratib olish. Boyitilgan muhitdan Nutrient agar, King B (Pseudomonas uchun) muhitlariga ekiladi; Bacillus uchun namuna 80 °C da 10 daqiqa termik ishlovdan o‘tkaziladi. Koloniyalar takroriy ekish orqali tozalanib, sof kulturalar olinadi.

3-bosqich — skrining. Sof kulturalar maydalangan polietilen qo‘shilgan mineral agarda shaffof zona hosil qilishi hamda suyuq MSM muhitida OD600 o‘sishi bo‘yicha baholanadi. Eng faol 5–10 ta izolyat keyingi bosqichga tanlab olinadi.

4-bosqich — identifikatsiya. Morfologik va biokimyoviy tavsiflash (2-jadval), so‘ngra 16S rRNA genini sekvenirlash va BLAST tahlili; imkoniyat bo‘lsa MALDI-TOF MS. alkB geniga PZR o‘tkazish orqali funksional potensial tasdiqlanadi.

5-bosqich — samaradorlikni baholash va optimallashtirish. 30, 60 va 90 kunlik gravimetrik tahlil; FT-IR spektroskopiya orqali yangi funksional guruhlarni aniqlash; SEM orqali polimer yuzasidagi yoriq va g‘ovaklarni kuzatish. pH, harorat, polimer konsentratsiyasi va NaCl darajasi bo‘yicha optimallashtirish o‘tkaziladi.

Ushbu sxemaning ustunligi shundaki, u nisbatan arzon va standart mikrobiologik laboratoriya imkoniyatlari doirasida bajariladigan bosqichlardan (boyitish, skrining, gravimetriya) boshlanib, faqat eng istiqbolli izolyatlar uchun qimmat instrumental usullarga (MALDI-TOF MS, sekvenirlash, SEM, FT-IR) murojaat qilishni nazarda tutadi. Bu esa cheklangan resurslar sharoitida tadqiqot samaradorligini oshiradi.

XULOSA

1. Tahlil qilingan manbalar polietilenni parchalash qobiliyatiga ega shtammlar, asosan, uzoq muddat plastik chiqindilar ta’sirida bo‘lgan hududlardan — chiqindi poligonlari, polimer korxonalari atrofidagi tuproqlar va oqova suvlardan ajratib olinishini ko‘rsatadi. Mineral tuzli muhitda polietilenni yagona uglerod manbai sifatida qo‘llash tanlab olishning eng samarali usuli hisoblanadi.

2. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, Pseudomonas va Bacillus avlodlariga mansub shtammlar 30–112 kunlik inkubatsiyada 1,14–52,0 % oralig‘ida vazn yo‘qotishni ta’minlaydi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar B. siamensis (52,0 %; LDPE, 60 kun), B. cereus

A5,a (35,72 %; PE, 16 hafta) va P. balearica PDI-17 (19,90 %; PE + UV, 30 kun) shtammlarida qayd etilgan.

3. Polietilenga UV nurlari bilan dastlabki ishlov berish parchalanish samaradorligini 4,2–9,3 barobarga oshiradi. Shu sababli bioremediatsiya texnologiyalarida fotooksidlovchi dastlabki ishlov berish bosqichi majburiy element sifatida qaralishi lozim.

4. Shtammlarni identifikatsiya qilishda uch bosqichli yondashuv — morfologik-biokimyoviy tavsiflash, MALDI-TOF MS va 16S rRNA genini sekvenirlash — eng ishonchli natija beradi. alkB (alkan gidroksilaza) genining mavjudligi shtammning yuqori parchalash faolligi bilan bog‘liq bo‘lib, uni tez skrining uchun molekulyar marker sifatida qo‘llash mumkin.

5. O‘zbekiston sharoitida yiliga 1 million tonnadan ortiq plastik chiqindi hosil bo‘lishi va qayta ishlash quvvatining atigi 6,6 % ni tashkil etishini hisobga olganda, mahalliy tuproqlardan sho‘rlanish va yuqori haroratga chidamli polietilen parchalovchi shtammlarni ajratib olish hamda ular asosida konsorsium yaratish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Taklif etilgan besh bosqichli uslubiy sxema bu ishlarni tizimli tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nedi E.G., Ebu S.M., Somboo M. Identification and molecular characterization of polyethylene degrading bacteria from garbage dump sites in Adama, Ethiopia // Environmental Technology & Innovation. — 2024. — Vol. 33. — Art. 103441. DOI: 10.1016/j.eti.2023.103441

2. Uwakwe F.E., Ezejiofor T.I.N., Anyalogbu E.A.A., Ogbulie T.E. The biodegradation of low-density polyethylene by Bacillus species // EQA — International Journal of Environmental Quality. — 2025. — Vol. 67. — P. 26–35. DOI: 10.6092/issn.2281-4485/20474

3. Nakei M.D., Misinzo G., Tindwa H., Semu E. Degradation of polyethylene plastic bags and bottles using microorganisms isolated from soils of Morogoro, Tanzania // Frontiers in Microbiology. — 2022. — Vol. 13. — Art. 1077588. DOI: 10.3389/fmicb.2022.1077588

4. Emmanuel-Akerele H.A., Akinyemi P.O., Igbogbo-Ekpunobi O.E. Isolation and identification of plastic degrading bacteria from dumpsites Lagos // Advances in Environmental Technology. — 2022. — Vol. 8, № 1. — P. 59–71. DOI: 10.22104/AET.2022.5268.1428

5. Nawar A.M., Mostafa A.M., El-Kassas S., Rashwan A.G., Abdelnasser E., Assas M. Protein-mediated microbial biodegradation of high-density polyethylene: A comparative study of Bacillus cereus and Bacillus subtilis // Open Veterinary Journal. — 2025. — Vol. 15, № 11. — P. 5616–5626. DOI: 10.5455/OVJ.2025.v15.i11.18

6. Алиев З.З., Назиров М.М., Халилов И.М., Сафаров Х.Ш., Бобоқулов М.Ш., Халилова Ф.М. Турли хил полиэтилен турларига микроорганизмларнинг таъсирини скрининг қилиш // “Маънавий баркамол ёшлар янги Ўзбекистон бунёдкори” халқаро илмий-амалий анжуман. — Тошкент, 2024. — Б. 618–624. DOI: 10.5281/zenodo.11224878

7. Muhonja C.N., Makonde H., Magoma G., Imbuga M. Biodegradability of polyethylene by bacteria and fungi from Dandora dumpsite Nairobi-Kenya // PLoS ONE. — 2018. — Vol. 13, № 7. — Art. e0198446. DOI: 10.1371/journal.pone.0198446

8. Guo X., Zhang J., Han L., Lee J., Williams S.C., Forsberg A., Xu Y., Austin R.N., Feng L. Structure and mechanism of the alkane-oxidizing enzyme AlkB // Nature Communications. — 2023. — Vol. 14. — Art. 2180. DOI: 10.1038/s41467-023-37869-z

9. Statista. Global plastics industry — statistics & facts. — 2025. URL: https://www.statista.com/topics/5266/plastics-industry/

10. Plastics Europe. Plastics — the Fast Facts 2025. — Brussels, 2025. URL: https://plasticseurope.org/knowledge-hub/plastics-the-fast-facts-2025/

11. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ma’lumotlari. Over 10 % of Uzbekistan’s waste is plastic, but recycling capacity remains insufficient. — Kun.uz, 03.02.2025. URL: https://kun.uz/en/news/2025/02/03/over-10-of-uzbekistans-waste-is-plastic-but-recycling-capacity-remains-insufficient

https://iau-jaesa.uz/article/stup48fi0xln/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845267
UDC:678.742.2

ISOLATION AND IDENTIFICATION OF BACTERIAL STRAINS (PSEUDOMONAS SPP., BACILLUS SPP.) ACCELERATING POLYETHYLENE DEGRADATION FROM LOCAL SITES

Zukhra A. Kadirova
Department of Biotechnology and Microbiology
Doctor of philosophy
https://orcid.org/0009-0000-5611-5841

Abduganiyeva Pokiza Yolchi kizi
National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Faculty of Biology and Ecology
Master's student, Department of Biotechnology
E-mail: pokiza.iphone12@gmail.com

Abstract. *The article analyses current methodological approaches to the isolation and identification of bacterial strains of the genera Pseudomonas spp. and Bacillus spp. involved in the biological degradation of polyethylene (PE) waste from locally contaminated sites — landfills, soils around polymer enterprises and wastewater. The analysis is based on international studies published between 2018 and 2025, together with screening results obtained in Uzbekistan. According to the literature, when polyethylene is supplied as the sole carbon source in mineral salt medium (MSM), strains achieved weight losses of 1.14–52.0 % over 30–112 days of incubation. The highest values were recorded for Bacillus siamensis (52.0 %; 60 days), Bacillus cereus A5,a (35.72 %; 16 weeks) and Pseudomonas balearica PDI-17 (19.90 %; 30 days) on UV-pretreated polyethylene. UV pretreatment increased degradation efficiency by a factor of 4.2–9.3. Alongside Gram staining and biochemical tests, MALDI-TOF MS, 16S rRNA gene sequencing and PCR detection of the alkB (alkane hydroxylase) gene were shown to be highly effective for strain identification. A five-stage methodological scheme adapted to the arid and saline soils of Uzbekistan is proposed.*

Keywords: *polyethylene, biodegradation, Pseudomonas spp., Bacillus spp., mineral salt medium, 16S rRNA, alkB gene, MALDI-TOF MS, bioremediation, landfill.*

Annotatsiya. *Maqolada mahalliy polietilen (PE) bilan ifloslangan hududlardan — chiqindi poligonlari, polimer korxonalari atrofidagi tuproqlar va oqova suvlardan — ajratib olingan hamda polietilen chiqindilarining biologik parchalanishida ishtirok etuvchi Pseudomonas spp. va Bacillus spp. avlodlariga mansub bakterial shtammlarni ajratish va identifikatsiya qilishning zamonaviy metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Tahlil 2018–2025-yillarda e'lon qilingan xalqaro tadqiqotlar hamda O'zbekistonda olingan skrining natijalariga asoslangan. Adabiyotlar ma'lumotlariga ko'ra, polietilen mineral tuzlar muhitida (MSM) yagona uglerod manbai sifatida berilganda, bakterial shtammlar 30–112 kunlik inkubatsiya davomida uning massasini 1,14–52,0 % gacha kamaytirgan. Eng yuqori ko'rsatkichlar Bacillus siamensis shtammida 52,0 %*

(60 kun), Bacillus cereus A5,a shtammida 35,72 % (16 hafta) va ultrabinafsha (UV) nurlanish bilan oldindan ishlov berilgan polietilenda Pseudomonas balearica PDI-17 shtammida 19,90 % (30 kun) qayd etilgan. UV bilan oldindan ishlov berish biodegradatsiya samaradorligini 4,2–9,3 baravar oshirgan. Gram bo'yicha bo'yash va biokimyoviy testlar bilan bir qatorda, MALDI-TOF MS, 16S rRNK genini sekvenslash hamda alkB (alkan gidroksilaza) genini PCR yordamida aniqlash shtammlarni identifikatsiya qilishda yuqori samaradorlikka ega ekani ko'rsatilgan. O'zbekistonning qurg'oqchil va sho'rlangan tuproqlari sharoitiga moslashtirilgan besh bosqichli metodik sxema taklif etilgan.

Kalit so'zlar: *polietilen, biodegradatsiya, Pseudomonas spp., Bacillus spp., mineral tuzlar muhiti, 16S rRNK, alkB geni, MALDI-TOF MS, bioremediatsiya, chiqindi poligoni.*

Аннотация. *В статье проанализированы современные методические подходы к выделению и идентификации бактериальных штаммов родов Pseudomonas spp. и Bacillus spp., участвующих в биологической деструкции полиэтиленовых (ПЭ) отходов, из локально загрязнённых полиэтиленом участков — полигонов твёрдых бытовых отходов, почв вблизи предприятий полимерной промышленности и сточных вод. Анализ основан на международных исследованиях, опубликованных в период с 2018 по 2025 год, а также на результатах скрининга, проведённого в Узбекистане. Согласно литературным данным, при использовании полиэтилена в качестве единственного источника углерода в минеральной солевой среде (MSM) штаммы обеспечивали снижение его массы на 1,14–52,0 % в течение 30–112 суток инкубации. Наиболее высокие показатели были зарегистрированы для Bacillus siamensis — 52,0 % за 60 суток, Bacillus cereus A5,a — 35,72 % за 16 недель и Pseudomonas balearica PDI-17 — 19,90 % за 30 суток при использовании полиэтилена, предварительно обработанного ультрафиолетовым (УФ) излучением. Предварительная УФ-обработка повышала эффективность биодеструкции в 4,2–9,3 раза. Наряду с окрашиванием по Граму и биохимическими тестами, MALDI-TOF MS, секвенирование гена 16S рРНК и ПЦР-детекция гена alkB (алкангидроксилазы) продемонстрировали высокую эффективность для идентификации бактериальных штаммов. Предложена пятиэтапная методическая схема, адаптированная к условиям аридных и засолённых почв Узбекистана.*

Ключевые слова: *полиэтилен, биодеградация, Pseudomonas spp., Bacillus spp., минеральная солевая среда, 16S рРНК, ген alkB, MALDI-TOF MS, биоремедиация, полигон отходов.*

INTRODUCTION

Plastics have become an integral part of the global economy, with global production reaching nearly 430 million tons in 2024, growing at an average annual rate of 4.8% since 2009 [9]. In Europe, this figure stands at 54.6 million tons, accounting for 12% of global production [10]. The largest share of produced polymers belongs to polyethylene (PE), specifically its low-density (LDPE) and high-density (HDPE) modifications. Because polyethylene consists of a hydrocarbon chain with a high

molecular weight, hydrophobic properties, and a lack of hydrolyzable functional groups, it persists in natural conditions without degradation for decades [1, 3].

In the Republic of Uzbekistan, approximately 10.2 million tons of municipal solid waste are generated annually, with over 10% (about 1.05 million tons) consisting of plastic waste. Currently, the 116 processing enterprises operating in the country have the capacity to recycle only about 130,000 tons of plastic per year, which accounts for 6.6% of the total volume [11]. The remaining portion is land filled or accumulates uncontrolled. This situation causes environmental hazards such as a decrease in soil fertility and pollution of groundwater. Traditional methods of plastic waste disposal—incineration and landfilling—are associated with the emission of toxic gases into the air and long-term secondary pollution, respectively [1]. Therefore, in recent years, the biological degradation (biodegradation) of polymers using microorganisms has been widely studied as a low-cost, energy-efficient, and environmentally safe alternative [3, 4].

The microbiological degradation of polyethylene is a multi-stage process. Initially, bacteria form a biofilm on the polymer surface; under the influence of abiotic factors (UV radiation, high temperatures), carbonyl, carboxyl, and hydroxyl groups are formed on the polymer surface, reducing hydrophobicity and facilitating microbial attack. In the next stage, the alkane monooxygenase (AlkB) enzyme hydroxylates the terminal methyl group of the hydrocarbon chain, converting it into the corresponding alcohol; the resulting alcohol is sequentially oxidized to an aldehyde and a fatty acid, entering the intracellular beta-oxidation pathway [8]. The alkB1and alkB2 genes involved in this process have been identified in the genome of *Pseudomonas aeruginosa* and are used as molecular markers in selecting polyethylene-degrading strains [1, 8]. In addition, extracellular enzymes such as laccase, peroxidase, protease, and esterase also participate in the cleavage of the polymer chain [1, 5].

To date, numerous strains belonging to the genera *Bacillus spp., Pseudomonas spp., Brevibacillus, Acinetobacter, Rhodococcus, Lysinibacillus,* and *Enterobacter* with polyethylene-degrading properties have been described [1, 2, 6, 7]. They are mainly isolated from soils where plastic waste has accumulated for a long time, because in such areas, microbiocenoses capable of utilizing the polymer as a carbon source have formed as a result of natural selection [3, 4]. Initial work in this direction has also begun in Uzbekistan: at the Institute of Microbiology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, the activity of *Pseudomonas putida, P. aeruginosa, Rahnella aquatilis, Enterobacter cloacae,* and *E. ludwigii* strains against LDPE, HDPE, PET, and polyvinylpyrrolidone was screened using UV spectrophotometry; it was found that the E. cloacae strain produced 13.99 times more organic compounds upon incubation with HDPE compared to the control [6]. At the same time, systematic research on targeted isolation and molecular-level identification of polyethylene-degrading strains belonging specifically to the genera *Pseudomonas* and *Bacillus* from the dry, saline, and high-temperature soils of our country is still insufficient. "The purpose of this article is to isolate and identify strains of *Pseudomonas spp.* and *Bacillus spp.* that accelerate polyethylene degradation from locally polluted areas, and to develop a methodological scheme applicable under the conditions of Uzbekistan."

MATERIALS AND METHODS.

The study is of an analytical and methodological nature, utilizing as primary sources six key experimental articles published in international peer-reviewed journals between 2018 and 2025, alongside the results of screening conducted in Uzbekistan [1–7]. The selection of sources was guided by the following criteria: (a) strains must have been isolated from naturally polluted environments (landfills, soil, waste water); (b) the degradation of polyethylene (LDPE, HDPE, or general PE) must have been evaluated quantitatively—via gravimetric analysis or clear zone diameter; (c) strains must have been identified using at least biochemical or molecular methods. For comparative analysis, the following indicators were extracted from each source: strain name, isolation source, studied polymer type, incubation period and conditions, weight loss percentage, and identification method. The weight loss indicator was calculated across all sources based on the following general formula [1, 5]: Weight loss (%) = [(Initial weight − Final weight) / Initial weight] × 100 To ensure comparability, various polymer types (LDPE, HDPE, general PE) and differing incubation periods were designated separately, as these factors significantly influence the results and comparing them without consideration could lead to erroneous conclusions. Graphical analysis and diagrams were prepared in the Python 3.9 (Matplotlib 3.9) programming environment.

Additionally, based on the analyzed sources, a five-stage methodological scheme adapted for the conditions of Uzbekistan—comprising sampling and enrichment, strain isolation, screening, identification, and optimization stages—was formulated and described below.

RESULTS AND DISCUSSION.

1. Sampling sites and enrichment stage. In all analyzed sources, effective strains were isolated from areas subjected to long-term plastic waste exposure: from the Adama (Ethiopia) landfill [1], municipal landfills in Owerri (Nigeria) [2], agricultural soils in Morogoro (Tanzania) [3], dumpsites in Alimosho district, Lagos (Nigeria) [4], and the Dandora (Kenya) landfill [7]. This pattern serves as an important criterion in selecting sampling points under local conditions: soil layers buried with polyethylene waste, landfills, soil around polymer recycling enterprises, and wastewater are recommended as the most promising objects.

At the enrichment stage, the soil sample is placed in a mineral salt medium (MSM) along with pieces of polyethylene film pre-treated with UV rays. In the Ethiopian study, the composition of the carbon-free basal medium was as follows (g/l): KH_2PO_4 — 0.7; K_2HPO_4 — 0.7; $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ — 0.7; NH_4NO_3 — 1.0, and trace elements; samples were incubated at 37 °C for over 14 days [1]. Under such conditions, since polyethylene is the sole carbon source, only microorganisms capable of utilizing it multiply, meaning the selection process occurs automatically.

2. Strain isolation and primary screening. Samples taken from the enriched medium are inoculated onto nutrient agar or selective media. For the isolation of the genus *Bacillus*, thermal treatment of the sample at 80 °C for 10 minutes (to eliminate vegetative cells while preserving endospores) is considered an effective method. Colonies with distinct morphologies are purified through repeated subculturing to

obtain pure cultures [1, 4]. Primary screening is carried out using two methods. The first is observing the formation of a clear zone around the colony on mineral agar supplemented with powdered polyethylene. In the Tanzanian study, bacterial isolates formed zones with diameters of 19.3–47.5 mm in 17 days, actinomycetes 25.9–32.2 mm, and fungi 30.0–66.3 mm in 13 days [3]. The second method is monitoring the increase in optical density (OD600) in a liquid medium: in the Nigerian study, OD600 increased from 0.12 to 0.84 for *B. siamensis* and from 0.11 to 0.67 for *B. pumilus* within 60 days, whereas it remained unchanged (0.11) in the control medium [2].

3. Polyethylene degradation efficiency. The main results reported in the analyzed sources are summarized in Table 1. Polyethylene degradation indicators of strains isolated from locally polluted areas (generalized literature data) **Strain Isolation site Polymer Period Weight loss, % Identification method Source**

STRAIN	ISOLATION SITE	POLYMER	PERIOD	WEIGHT LOSS, %	IDENTIFICATION METHOD	SOURCE
Bacillus siamensis	Owerri, Nigeria	LDPE	60 days	52,0	16S rDNK	[2]
Bacillus pumilus	Owerri, Nigeria	LDPE	60 days	26,0	16S rDNK	[2]
Bacillus coagulans	Owerri, Nigeria	LDPE	60 days	18,0	16S rDNK	[2]
Bacillus subtilis	Owerri, Nigeria	LDPE	60 days	18,0	16S rDNK	[2]
Bacillus cereus A5,a	Dandora, Kenia	PE	16 week	35,72 ± 4,01	16S rRNA	[7]
Brevibacillus borstelensis B2,2	Dandora, Kenia	PE	16 weeks	20,28 ± 2,30	16S rRNA	[7]
Pseudomonas balearica PDI-17	Adama, Efiopia	PE + UV	30 days	19,90	MALDI-TOF MS, 16S rRNA, alkB	[1]
Pseudomonas aeruginosa PDI-1	Adama, Efiopia	PE + UV	30 days	17,96	MALDI-TOF MS, 16S rRNA, alkB	[1]
Bacillus subtilis PDI-33	Adama, Efiopia	PE + UV	30 days	13,75	MALDI-TOF MS	[1]
Bacillus sp. PDI-21	Adama, Efiopia	PE + UV	30 days	8,63	16S rRNA	[1]
Acinetobacter kookii PDI-42	Adama, Efiopia	PE + UV	30 days	6,77	MALDI-TOF MS	[1]
Bacillus subtilis PDI-27	Adama, Efiopia	PE + UV	30 dayss	4,79	MALDI-TOF MS	[1]
Pseudomonas balearica PDI-17	Adama, Efiopia	PE (ishlovsiz)	30 days	4,25	MALDI-TOF MS, 16S rRNA	[1]
Bacillus subtilis	Kafrelsheikh,	HDPE	30 days	3,80	Biochemical, SDS-PAGE	[5]
Bacillus cereus	Kafrelsheikh,	HDPE	30 days	2,20	Biochemical, SDS-PAGE	[5]
Bacillus sp., Micrococcus sp.	Lagos, Nigeria	PE / PS	6 weeks	25,0–31,2	Biochemical tests	[4]

Note: PE + UV — variant where polyethylene was pre-treated with ultraviolet radiation prior to the experiment. PS — polystyrene. Indicators are presented based on gravimetric analysis results from respective sources. As can be seen from the data in Table 1, the bacterial degradation rate of polyethylene varies across a very wide range—from 2.20% to 52.0%. This difference is explained by three main factors: the type of polymer (LDPE degrades much easier than HDPE due to its lower crystallinity

and higher degree of branching), the incubation period, and whether the polymer was pre-treated or not. For instance, while the *B. subtilis* strain provided an 18.0% weight loss upon 60 days of incubation with LDPE [2], this figure was only 3.80% in a 30-day experiment with HDPE [5].



Figure 1. Degradation efficiency of polyethylene (weight loss, %) by Pseudomonas and Bacillus strains reported in literature sources [1, 2, 5, 7].

4. Effect of pre-treatment on degradation efficiency.

The main factor limiting the biodegradation of polyethylene is the absence of polar groups on its surface that enzymes can attack. Under the influence of UV rays (365 nm) or thermal treatment (70 °C), carbonyl groups form on the polymer surface, reducing hydrophobicity and enhancing microbial adhesion [1]. The Ethiopian study provided a quantitative evaluation of this effect: after one month of incubation, weight loss in non-UV-treated polyethylene was 1.14–4.25%, whereas with UV treatment, this figure increased to 4.79–19.90% (Figure 2) [1].



Figure 2. Effect of pre-treatment of polyethylene with UV radiation on bacterial degradation efficiency (using strains from Adama, Ethiopia as an example) [1].

According to calculations, UV pre-treatment increased the efficiency by 9.3-fold for the P. aeruginosa PDI-1 strain, 9.0-fold for the B. subtilis PDI-33 strain, 4.4-fold for the Bacillus sp. PDI-21 strain, and 4.7-fold for the P. balearica PDI-17 strain. This result demonstrates the necessity of incorporating the photo-oxidative pre-treatment

stage as a mandatory element in bioremediation technologies developed under local conditions. Uzbekistan's climatic conditions, characterized by a high number of sunny days, allow this stage to be implemented cost-effectively through natural insolation.

5. Strain identification methods. In the analyzed sources, the identification stage was carried out at three successive levels. The first level is morphological and biochemical characterization: Gram staining, studying colony morphology, catalase, oxidase, indole, citrate tests, and carbohydrate fermentation properties [1, 4]. The second level is MALDI-TOF mass spectrometry, where the mass spectrum of cellular proteins is compared with a database; a score of ≥ 2.0 is accepted as reliable identification at the species level [1]. The third level is molecular identification: amplification of the 16S rRNA gene using universal primers (8F — AGAGTTTGATCCTGGCTCAG and 1492R — TACGGTTACCTTGTTACGACTT), sequencing, and comparison with sequences in the database using the BLAST algorithm [1, 2, 7].

An approach of particular importance is the identification of functional genes. In the Ethiopian study, PCR was performed for the *alkB* (alkane hydroxylase) gene, and it was found that *Pseudomonas aeruginosa* PDI-1, *P. aeruginosa* PDI-2, *P. balearica* PDI-17, PDI-11, and *P. balearica* PDI-39 strains tested positive for this gene; whereas the gene was not detected in *Bacillus cereus* PDI-8, *B. subtilis* PDI-27, and *Acinetobacter kookii* PDI-42 strains [1]. Importantly, the strains that tested positive for the *alkB* gene exhibited the highest weight loss rates. This indicates that the *alkB* gene can be used as a reliable molecular marker for the rapid selection of polyethylene-degrading strains. In practical work, it is recommended to use the test set presented in Table 2 for the initial differentiation of the genera *Pseudomonas* and *Bacillus*.

Ctirerion / test	*Pseudomonas spp.*	*Bacillus spp.*
Gram straining	Negative (–), straight rod	Positive (+), large rod
Endospore formation	Absent	Present
Catalase	Positive (+)	Positive (+)
Oxidase	Positive (+)	Usually negative(-)
Motility	Via polar flagellum	Peritrix xivchinlar hisobiga
Pigment production	Fluorescent pigments (pyoverdine, pyocyanin)	Usually non-pigmented
Response to gluose (OF test)	Oxidative	Fermentative or oxidative
Selection method	King A va King B media	Thermal treatment of the sample 80 °C for 10 minutes
Optimal growth terperature	25–37 °C	30–45 °C
Optimal pH (PE medium)	7,2 (grows in the 5,5–8,5 range)	7,2 (grows in the 5,5–8,5 range)
Key molekular marker	alkB1, alkB2 genes ; 16S rRNA	16S rRNA;
Extracelluler enzymes	Protease , lipase	Protease , amylase, esterase

Note: The table is compiled based on experimental data from sources [1, 4] and general bacteriological methodology.

6. Optimal conditions and use of consortia. Optimizing cultivation conditions is required to increase degradation efficiency. In the Ethiopian study, optimization was carried out for three leading strains regarding pH (5.5; 7.2; 8.5), temperature (25; 30; 37 °C), and polyethylene concentration (0.05; 0.1; 0.5% w/v) [1]. The highest dry cell mass and optical density values were recorded at pH 7.2; the *P. balearica* PDI-17 strain showed the highest OD600 (0.208) at a 0.5% polyethylene concentration [1]. For strains isolated from saline soils, it is advisable to include a NaCl concentration resistance test among these parameters, as a significant portion of Uzbekistan's soils are saline to varying degrees.

Using a consortium instead of single strains is a promising approach: the combined application of *Pseudomonas* and *Bacillus* strains with different enzymatic systems ensures the sequential breakdown of the polymer chain. High activity of fungi has also been noted: in the Kenyan study, the *Aspergillus oryzae* A5.1 strain achieved a weight loss of 36.4 ± 5.53% in 16 weeks, and it was emphasized that fungi are generally more efficient degraders than bacteria [7]. In the Tanzanian study, *Phoma* sp. and *Aspergillus* sp. formed clear zones of 66.3 mm and 61.1 mm, respectively [3]. Therefore, testing mixed bacterial-fungal consortia in future research is recommended.

7. Proposed methodological scheme for the conditions of Uzbekistan. Based on the analysis results, the following five-stage scheme is proposed: Stage 1 — sampling and enrichment. Samples are collected from a depth of 0–20 cm from municipal solid waste landfills, soils around polymer processing enterprises, and wastewaters in Tashkent, Samarkand, Bukhara, and the Fergana Valley. Samples are placed in an MSM medium containing pieces of polyethylene film pre-treated with UV radiation, and incubated at 37 °C with shaking at 100–150 rpm for 30–60 days. Stage 2 — isolation. Inoculation from the enriched medium is carried out onto Nutrient Agar and King B media (for *Pseudomonas*); for *Bacillus*, the sample is subjected to thermal treatment at 80 °C for 10 minutes. Colonies are purified through repeated subculturing to obtain pure cultures.

Stage 3 — screening. Pure cultures are evaluated based on clear zone formation on mineral agar supplemented with powdered polyethylene and the increase in OD600 in liquid MSM medium. The 5–10 most active isolates are selected for the next stage. Stage 4 — identification. Morphological and biochemical characterization (Table 2), followed by 16S rRNA gene sequencing and BLAST analysis; MALDI-TOF MS when available. The functional potential is confirmed by PCR targeting the *alkB* gene. Stage 5 — efficiency evaluation and optimization. Gravimetric analysis at 30, 60, and 90 days; identification of new functional groups via FT-IR spectroscopy; observation of cracks and pores on the polymer surface using SEM. Optimization is carried out regarding pH, temperature, polymer concentration, and NaCl levels. The advantage of this scheme is that it begins with relatively inexpensive steps achievable within standard microbiological laboratory capabilities (enrichment, screening, gravimetry), while reserving expensive instrumental methods (MALDI-TOF MS, sequencing, SEM, FT-IR) exclusively for the most promising isolates. This increases research efficiency under conditions of limited resources.

CONCLUSION

1. The analyzed sources indicate that strains capable of degrading polyethylene are mainly isolated from areas subjected to long-term plastic waste exposure—landfills, soils around polymer enterprises, and wastewaters. Using polyethylene as the sole carbon source in a mineral salt medium is the most effective selection method.
2. According to literature data, strains belonging to the genera *Pseudomonas* and *Bacillus* provide a weight loss ranging from 1.14% to 52.0% during 30–112 days of incubation. The highest rates were recorded for *B. siamensis* (52.0%; LDPE, 60 days), *B. cereus* A5,a (35.72%; PE, 16 weeks), and *P. balearica* PDI-17 (19.90%; PE + UV, 30 days) strains.
3. Pre-treatment of polyethylene with UV radiation increases degradation efficiency by 4.2- to 9.3-fold. Therefore, the photo-oxidative pre-treatment stage should be considered a mandatory element in bioremediation technologies.
4. A three-tier approach in strain identification—morphological-biochemical characterization, MALDI-TOF MS, and 16S rRNA gene sequencing—yields the most reliable results. The presence of the *alkB* (alkane hydroxylase) gene is associated with high degradation activity of the strain, allowing it to be used as a molecular marker for rapid screening.
5. Considering that over 1 million tons of plastic waste are generated annually in Uzbekistan and the recycling capacity accounts for only 6.6%, isolating salt- and high-temperature-tolerant polyethylene-degrading strains from local soils and creating a consortium based on them is an urgent scientific and practical task. The proposed five-stage methodological scheme can serve as a basis for organizing these efforts systematically.

REFERENCES

1. Nedi E.G., Ebu S.M., Somboo M. Identification and molecular characterization of polyethylene degrading bacteria from garbage dump sites in Adama, Ethiopia // Environmental Technology & Innovation. — 2024. — Vol. 33. — Art. 103441. DOI: 10.1016/j.eti.2023.103441

2. Uwakwe F.E., Ezejiofor T.I.N., Anyalogbu E.A.A., Ogbulie T.E. The biodegradation of low-density polyethylene by Bacillus species // EQA — International Journal of Environmental Quality. — 2025. — Vol. 67. — P. 26–35. DOI: 10.6092/issn.2281-4485/20474

3. Nakei M.D., Misinzo G., Tindwa H., Semu E. Degradation of polyethylene plastic bags and bottles using microorganisms isolated from soils of Morogoro, Tanzania // Frontiers in Microbiology. — 2022. — Vol. 13. — Art. 1077588. DOI: 10.3389/fmicb.2022.1077588

4. Emmanuel-Akerele H.A., Akinyemi P.O., Igbogbo-Ekpunobi O.E. Isolation and identification of plastic degrading bacteria from dumpsites Lagos // Advances in Environmental Technology. — 2022. — Vol. 8, № 1. — P. 59–71. DOI: 10.22104/AET.2022.5268.1428

5. Nawar A.M., Mostafa A.M., El-Kassas S., Rashwan A.G., Abdelnasser E.,

Assas M. Protein-mediated microbial biodegradation of high-density polyethylene: A comparative study of Bacillus cereus and Bacillus subtilis // Open Veterinary Journal. — 2025. — Vol. 15, № 11. — P. 5616–5626. DOI: 10.5455/OVJ.2025.v15.i11.18

6. Aliev Z.Z., Nazirov M.M., Khalilov I.M., Safarov Kh.Sh., Bobokulov M.Sh., Khalilova F.M. Screening the effect of microorganisms on various types of polyethylene // International Scientific and Practical Conference "Ma'naviy barkamol yoshlar yangi O'zbekiston bunyodkori". — Tashkent, 2024. — P. 618–624. DOI: 10.5281/zenodo.11224878

7. Muhonja C.N., Makonde H., Magoma G., Imbuga M. Biodegradability of polyethylene by bacteria and fungi from Dandora dumpsite Nairobi-Kenya // PLoS ONE. — 2018. — Vol. 13, № 7. — Art. e0198446. DOI: 0.1371/journal.pone.0198446

8. Guo X., Zhang J., Han L., Lee J., Williams S.C., Forsberg A., Xu Y., Austin R.N., Feng L. Structure and mechanism of the alkane-oxidizing enzyme AlkB // Nature Communications. — 2023. — Vol. 14. — Art. 2180. DOI: 10.1038/s41467-023-37869-z

9. Statista. Global plastics industry — statistics & facts. — 2025. URL: https://www.statista.com/topics/5266/plastics-industry/

10. Plastics Europe. Plastics — the Fast Facts 2025. — Brussels, 2025. URL: https://plasticseurope.org/knowledge-hub/plastics-the-fast-facts-2025/

11. Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan data. Over 10% of Uzbekistan’s waste is plastic, but recycling capacity remains insufficient. — Kun.uz, 03.02.2025. URL: https://kun.uz/en/news/2025/02/03/over-10-of-uzbekistans-waste-is-plastic-but-recycling-capacity-remains-insufficient

05.00.00 — TEXNIKA FANLARI
https://iau-jaesa.uz/article/e6c4pyot09ak/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845316
UDC 621.882

SCIENTIFIC AND PRACTICAL ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING THE SELECTION OF GASKET MATERIALS

Kuvonchbek Kuvondikov[1a], **Elmira Teshabayeva**[2a]
[1a]**Assistant**, Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan
[2a]**Professor**, Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan
E-mail: quvondiqovqamar@gmail.com [1.a]
E-mail: elmira-teshaboeva@mail.ru[2.a]
Tel: +99877-009-64-69

- The spherical morphology of graphite reduces stress concentration and improves the mechanical properties of cast iron. Irregular, vermicular, and other degenerated graphite morphologies facilitate microcrack initiation and may consequently reduce mechanical performance.
- Ferrite contributes primarily to ductility and toughness, whereas pearlite increases strength and hardness. Therefore, the ferrite-to-pearlite ratio should be controlled according to the specific service requirements of the component.
- Inoculation, modification, cooling rate, and heat treatment are among the main technological factors that can be used to control the microstructure of high-strength cast iron.
- Metallographic analysis is an effective method for evaluating the quality of high-strength cast iron. Optical microscopy combined with digital image processing makes it possible to quantitatively evaluate graphite morphology, nodularity, graphite distribution, and the phase composition of the metallic matrix.

In general, obtaining high-strength cast iron requires more than simply optimizing its chemical composition. High graphite nodularity, uniform graphite distribution, and an optimized ferritic-pearlitic matrix are key conditions for achieving high strength and satisfactory service performance.

REFERENCES

1. Stan I., Stan C.S., Anca D.E., Stefan E., Chisamera M., Riposan I. Slightly Irregular Spheroidal Graphite (Type-V, ISO): Typical Graphite Morphology for High-Si/SiMo Ductile Cast Irons. *Metals*, 2026, 16(7), 817.

2. Microstructures and Mechanical Properties of Ductile Cast Iron with Different Crystallizer Inner Diameters. *Crystals*, 2022, 12(3), 413.

3. Graphite Nodularity Evaluation in High-Si Ductile Cast Irons. *Materials*, 2022, 15(21), 7685. DOI: 10.3390/ma15217685.

4. A Review on Heat Treatment of Cast Iron: Phase Evolution and Mechanical Characterization. *Materials*, 2022, 15(20), 7109.

5. Graphite Nodules Influence on DCIs Mechanical Properties: Experimental and Numerical Investigation. *Procedia Engineering*, 2015, 109, 135–143. DOI: 10.1016/j.proeng.2015.06.223.

6. Graphite Compactness Degree and Nodularity of High-Si Ductile Iron Produced via Permanent Mold versus Sand Mold Casting. *Materials*, 2022, 15(8), 2712.

7. The Influence of Initial Microstructure on the Microstructure and Mechanical Properties of Ductile Iron After Nanostructurisation Heat Treatment. *Nanomaterials*, 2025, 15(22), 1710.

8. Effects of High Silicon Contents on Graphite Morphology and Room Temperature Mechanical Properties of As-Cast Ferritic Ductile Cast Irons. *Materials Science and Engineering A*.

9. The Role of Microstructure on the Tensile Plastic Behaviour of Ductile Iron GJS 400 Produced through Different Cooling Rates. *Metals*, 2019, 9, 1019.

10. Influence of Graphite Degenerations on Mechanical Properties of Ductile Iron. *Materials Proceedings*, 2025.

https://iau-jaesa.uz/article/ft8llptr8495/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845476
UO‘K: 631.331:621.798

POLIETILEN QOPLAMAGA MUQOBIL SIFATIDA BIODEGRADATSIYALANADIGAN QOG‘OZ QOPLAMA MATERIALINI QO‘LLASH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH

Omonov Dilmurod Sa’dievich
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat agrar universiteti

Xudoyorov Firdavs Zafarjon o‘g‘li
Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti

Annotatsiya. *Maqolada paxta ekishda qo‘llaniladigan polietilen qoplama materiallarining ekologik va ekspluatatsion muammolari tahlil qilingan. Polietilen chiqindilari tufayli tuproqning degradatsiyaga uchrashini kamaytirish maqsadida sellyuloza asosidagi biodegradatsiyalanadigan qog‘oz qoplama materialidan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Qog‘oz materialni kraxmal, glitserin va polivinil spirt (PVA) asosida modifikatsiya qilish hamda uning yuqori yuzasini gidrofob qatlam bilan qoplash orqali asimmetrik struktura hosil qilish texnologiyasi taklif etilgan. Shuningdek, materialni ekish agregatiga uzatish uchun sinxron rezina valikli mexanizm va urug‘ joylashgan nuqtalarda lokal teshishni ta’minlovchi silindrsimon baraban konstruksiyasi ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan texnologiya tuproq namligini saqlash, begona o‘tlar rivojlanishini cheklash, mehnat sarfini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *biodegradatsiyalanadigan qog‘oz, paxta ekish, qoplama material, polietilen plyonka, sellyuloza, kraxmal, lokal teshish, ekish agregati, gidrofob qatlam.*

Аннотация. *В статье проанализированы экологические и эксплуатационные проблемы применения полиэтиленовых мульчирующих материалов при посеве хлопчатника. С целью снижения загрязнения почвы полиэтиленовыми отходами обоснована возможность использования биоразлагаемого бумажного материала на основе целлюлозы. Предложена технология модификации бумаги составом из крахмала, глицерина и поливинилового спирта (PVA) с последующим нанесением гидрофобного слоя на верхнюю поверхность для формирования асимметричной структуры. Разработаны синхронный резиновый валиковый механизм подачи материала и цилиндрический барабан для локального перфорирования в точках высева семян. Предлагаемая технология позволяет сохранять почвенную влагу, подавлять сорняки и улучшать экологическое состояние почвы.*

Ключевые слова: *биоразлагаемая бумага, посев хлопчатника, мульчирующий материал, полиэтиленовая пленка, целлюлоза, крахмал, локальная перфорация, посевной агрегат.*

Abstract. *The article analyzes the environmental and operational issues associated with the use of polyethylene mulching materials in cotton cultivation. To reduce polyethylene waste, the potential of using cellulose-based biodegradable paper mulch was investigated. A technology is proposed for modifying the paper material*

using starch, glycerol, and polyvinyl alcohol (PVA), followed by coating its upper surface with a hydrophobic layer to create an asymmetric structure. Additionally, a synchronous rubber roller feeding mechanism and a cylindrical perforating drum designed for localized puncturing at seed placement points were developed for integration with the seeding machine. The proposed technology allows for preserving soil moisture, suppressing weed growth, reducing labor costs, and eliminating plastic pollution.

Keywords: *biodegradable paper, cotton planting, mulching material, polyethylene film, cellulose, starch, local perforation, seeding unit.*

KIRISH

Qishloq xo‘jaligida, xususan paxtachilikda tuproqni mulchalash texnologiyasi tuproq namligini saqlash, mikroklimatni yaxshilash va begona o‘tlar o‘sishini cheklash orqali hosildorlikni oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Paxta yetishtirishda sintetik polietilen (PE) plyonkalardan foydalanish erta va bir tekis nihol olishni ta’minlaydi.

Biroq, an’anaviy polietilen qoplamalar qator jiddiy ekologik va agrotexnik muammolarni keltirib chiqarmoqda. PE plyonkalar tuproqda yuzlab yillar davomida parchalanmaydi, ularni mavsum oxirida daladan yig‘ib olish qo‘shimcha ishchi kuchi va texnika xarajatlarini talab etadi. Dalada qolib ketgan plyonka qoldiqlari tuproqning aeratsiya va suv o‘tkazuvchanlik xususiyatlarini yomonlashtiradi, natijada tuproq degradatsiyaga uchraydi.

Ushbu muammoni hal etishning eng istiqbolli yo‘li — tabiiy komponentlar asosidagi biodegradatsiyalanadigan qoplama materiallariga o‘tishdir. Bunday materiallar ma’lum vegetatsiya davrida (20–30 kun) o‘z fizo-mexanik vazifasini bajarib, keyinchalik tuproq mikroorganizmlari va namlik ta’sirida zararsiz birikmalarga parchalanib ketishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi: Paxta ekishda polietilen qoplamaga muqobil sifatida sellyuloza asosli biodegradatsiyalanadigan modifikatsiyalangan qog‘oz qoplama materialini qo‘llash texnologiyasini hamda uni ekish agregatlari bilan moslashtiruvchi ishchi organlarning kinematik va texnologik parametrlarini matematik asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot ob’ekti sifatida organik asosli sellyulozadan tayyorlangan yupqa rulonli qog‘oz xom ashyosi tanlab olindi. Standart qog‘oz suv va fizik ta’sirlarga chidamsiz bo‘lganligi sababli, uning mexanik mustahkamligini oshirish va degradatsiya muddatini boshqarish uchun maxsus kompozitsiya yordamida impregnatsiya qilish usuli qo‘llanildi.

Modifikatsiyalovchi eritmaning umumiy massasi M_{um} quyidagi komponentlar nisbati asosida aniqlanadi:

$$M_{um} = M_{sell} + M_{kr} + M_{glis} + M_{PVA}, \quad (1)$$

bu yerda M_{sell} — boshlang‘ich sellyuloza qog‘ozining massasi, g/m²; M_{kr} — kraxmal massasi (umumiy massaga nisbatan 9–10%); M_{glis} — glitserin massasi (2,5–3%); M_{PVA} — polivinil spirt massasi (1–1,5%).

Qog‘ozning gidrofobligini ta’minlash uchun uning yuqori yuzasiga surtiladigan mum miqdori (m_{gidr}) yuza birligiga nisbatan me’yorlanadi (1-rasm).



1-rasm. Paxta ekishda qo‘llash uchun taklif etilgan biodegradatsiyalanadigan qog‘oz qoplama materialining qatlamli tuzilishi.

Tadqiqotda asimmetrik strukturali material hosil qilish usuli qo‘llanildi. Qog‘ozning pastki (tuproqqa tegib turadigan) qismi tuproq namligini so‘rib olish va biodegradatsiya jarayonini boshlash uchun ochiq qoldiriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ekish agregatiga qog‘oz uzatish mexanizmining kinematik hisobi

Qog‘oz materiali plyonkaga nisbatan cho‘zilishga kamroq chidamli $[\sigma_{cho'z}]$ (uzilish kuchi cheklangan) bo‘lganligi sababli, uzatish valiklarining chiziqli tezligi v_{val} ekish agregatining harakat tezligiga v_{agr} teng yoki juda yaqin bo‘lishi shart.

Uzatish mexanizmining kinematik koeffitsienti K_k quyidagicha ifodalanadi:

$$K_k = \frac{v_{val}}{v_{agr}} = \frac{\pi \cdot D_{val} \cdot n_{val}}{v_{agr}}, \quad (2)$$

bu yerda D_{val} — rezina uzatish valiklarining diametri, m; n_{val} — valiklarning aylanish chastotasi, ayl/sek.

Qog‘ozning yirtilishi yoki bo‘shashib qolishining oldini olish uchun quyidagi shart bajarilishi lozim:

$$0{,}98 < K_k < 1{,}02. \quad (3)$$

Agar $K_k > 1{,}02$ bo‘lsa, qog‘oz haddan tashqari tortilib uziladi; agar $K_k < 0{,}98$ bo‘lsa, qog‘oz tuproq yuzasida buklanib, to‘planib qoladi.

Modifikatsiyalangan qog‘ozning uzilish mustahkamligi σ vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

Materialning mustahkamligi σ vaqt o‘tishi bilan namlikning so‘rilishi, gidrofob qatlamning yemirilishi va sellyuloza tolalarining gidrolizi sababli kamayadi.

Qog‘ozning mustahkamlik kamayish tezligi qoldiq mustahkamlikka proporsional bo‘lgan differensial tenglama bilan ifodalanadi :

$$\frac{d\sigma(t)}{dt} = -k_m \cdot (\sigma(t) - \sigma_\infty) \cdot S_h(t), \quad (4)$$

bu yerda $\sigma(t)$ — t vaqtdagi uzilish mustahkamligi, MPa; σ_∞ — material to‘liq namlangandagi chegaraviy (qoldiq) mustahkamlik, MPa; k_m — materialning destruksiyalanish tezligi koeffitsienti, kun^{-1}; $S_h(t)$ — gidrofob (mum) qatlamning himoya funksiyasi.

Gidrofob qatlamning vaqt bo‘yicha himoya funksiyasi:

Mum qatlami (7 .... 8 g/m^2) dastlabki t_0 davrda (20–25 kun) suv o‘tkazuvchanlikni cheklaydi. Buni Sigmoidal (Logistik) funksiya orqali ifodalaymiz:

$$S_h(t) = \frac{1}{1 + e^{\alpha \cdot (t - t_0)}}, \quad (5)$$

bu yerda t_0— gidrofob qatlamning kritik yemirilish vaqti ($t_0 \approx$25 kun); α — gidrofob qatlamning parchalanish sur’ati koeffitsienti.

Differensial tenglamani boshlang‘ich shartlar $(\sigma(0) = \sigma_0 \approx 18$ MPa) bo‘yicha integrallash orqali 1-grafikning nazariy matematik modeli olinadi:

$$\sigma(t) = \sigma_\infty + (\sigma_0 - \sigma_\infty) \cdot exp\left(-k_m \int_0^t \frac{d\tau}{1 + e^{\alpha(\tau - t_0)}}\right). \quad (6)$$



2-rasm. Turli namlik sharoitlarida biodegradatsiyalanadigan qog‘oz qoplama materialining mustahkamligi σ(t) ning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

Modelning matematik tahlili:

- $t \leq 20$ kun bo‘lganda: $S_h(t) \approx$0 bo‘lib, $\sigma(t) \approx \sigma_0 = 15 \ldots$. 18 Mpa (barqaror mustahkamlik davri).

- t > 25 kun bo‘lganda: : S_h(t) $\rightarrow$1 bo‘lib, mustahkamlik eksponensial ravishda $\sigma_\infty \approx$ 2... 3 MPa gacha kamayadi (parchalanish davri).

Biodegradatsiyalanish darajasi (D_{bio}) va tuproq namligi (W) dinamikasi

Ushbu model ikkita bir-biriga bog‘liq differensial tenglamalar tizimidan iborat: birinchisi — tuproq namligining bug‘lanishi (kinetikasi), ikkinchisi — tuproq mikroorganizmlari ta’sirida qog‘ozning biodegradatsiyasi.

Biodegradatsiyalanish kinetikasi tenglamasi (Avrami-Yerofeev modeli):

Biodegradatsiya jarayoni mikroorganizmlar koloniyasining ko‘payishi va sellyulozani parchalashi bilan bog‘liq bo‘lib, Avrami tenglamasi asosida modellashtiriladi:

$$D_{bio}(t) = 100 \cdot (1 - \exp(-(k_b \cdot t)^n)), \quad (7)$$

bu yerda $D_{bio}(t)$ — vaqt o‘tishi bilan biodegradatsiyalanish darajasi, %; k_b — biodegradatsiyalanishning solishtirma konstantasi (tuproq harorati va namligiga

bog‘liq), kun^{-1}; n — reaksiyaning aviratsion (avaran) ko‘rsatkichi (n > 1 bo‘lganda jarayon lag-fazadan so‘ng jadallashadi, odatda n ≈ 2.5..... 3.0).

Tuproq namligining (W(t)) kamayishi qoplama materialining butunligiga (1 - $\frac{D_{bio}(t)}{100}$) bevosita bog‘liq:

$$\frac{dW(t)}{dt} = -K_{evap} \cdot \left(1 + \gamma \cdot \frac{D_{bio}(t)}{100}\right) \cdot (W(t) - W_{xavo}, \quad (8)$$

bu yerda K_{evap} — qoplamali tuproqdan suvning bazis bug‘lanish koeffitsienti; γ — qog‘oz parchalanganidan so‘ng bug‘lanishning ortishini ifodalovchi koeffitsient; W_{xavo} — tuproqning havo-quruq holatdagi muvozanatli namligi, %.

Model tenglamalari tizimining yakuniy yechimi quyidagiga teng:

$$\begin{cases} D_{bio}(t) = 100 \cdot (1 - \exp(-(k_b \cdot t)^n)) \\ W(t) = W_{xavo} + (W_0 - W_{xavo}) \cdot exp\left(-k_m \int_0^t 1 + \gamma\left(1 - e^{-(k_b \tau)^n}\right)\right) \end{cases} \quad (9)$$

(9) formula yordamida qurilgan grafiklar 3-, 4-rasmlarda keltirilgan



3-rasm. Biodegradatsiya darajasi Dbio (t) ning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi.



4-rasm. Turli biodegradatsiya sharoitlarida qoplama material namligi ning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

Modelning matematik tahlili:

- $t \leq 30$ kun oralig‘ida: $D_{bio} \leq 5\%$, bu davrda integral qiymati kichik va tuproq namligi $W(t) \approx W_0 = 32...40\ \%$ yuqori darajada saqlanadi.
- t > 30 kun bo‘lganda: Biodegradatsiya jarayoni $D_{bio} \rightarrow 85....90\ \%$ ga keskin ko‘tariladi va tuproq namligining bug‘lanish tezligi tabiiy muvozanatli darajaga o‘tadi.

Lokal teshuvchi baraban parametrlarining matematik modeli

Paxta urug‘larining ekish qadamiga $S_{urug'}$ mos ravishda qog‘ozni teshib ketish uchun silindrsimon baraban radiusi R_{bar} va undagi teshuvchi tishlar soni z o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{urug'} = \frac{2 \cdot \pi \cdot R_{bar}}{z}. \quad (10)$$

Bundan lokal teshishni ta’minlovchi baraban radiusini topish formulasi hosil bo‘ladi:

$$R_{bar} = \frac{z \cdot S_{urug'}}{2 \cdot \pi}. \quad (11)$$

Baraban tishining qog‘ozni teshib o‘tish jarayonida qog‘ozga ko‘rsatadigan maksimal teshish kuchi F_{tesh} quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$F_{tesh} = P_{sol} \cdot b \cdot h, \quad (12)$$

bu yerda P_{sol} — qog‘ozning solishtirma teshilishga qarshiligi, N/mm²; b — teshuvchi tishning eni, mm; h — qog‘oz materialining qalinligi, mm.

Materialning biodegradatsiyalanish dinamikasi

Materialning daladagi biodegradatsiyalanish darajasi (D_{bio}, %) vaqt (t, kun) o‘tishi bilan massa yo‘qotilishi orqali hisoblanadi:

$$D_{bio}(t) = \frac{m_0 - m_t}{m_0} \cdot 100\%, \quad (13)$$

bu yerda m_0— qoplama materialning boshlang‘ich quruq massasi, g; m_t — t kundan keyingi qoldiq quruq massasi, g.

Natijalar va muhokama (Results and Discussion)

Texnologik jarayon ketma-ketligi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, biodegradatsiyalanadigan qog‘oz qoplamani tayyorlash va dalada qo‘llash muayyan texnologik ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim:

1. Qog‘ozni impregnatsiya qilish: sellyuloza asosini kraxmal, glitserin va PVA eritmasi bilan boyitish.
2. Issiqlik yordamida quritish: Modifikatsiyalangan qog‘ozning namligini me’yoriy ko‘rsatkichga keltirish.
3. Asimmetrik gidrofoblash: Qog‘ozning faqat yuqori yuzasiga 7–8 g/m² dozada mumli gidrofob qatlam surtish.
4. Rulonlash: Talab qilingan eni va uzunligi bo‘yicha rulonlarga o‘rash.
5. Dalada to‘shash: Ekish agregati yordamida qog‘ozni tuproq yuzasiga tekis areada yozish.

6. Chetlarini mahkamlash: Qog‘ozning ikki chetini tuproq ko‘mgichlar yordamida yopib borish.
7. Lokal teshish va urug‘ni ochib berish: Barabanli mexanizm orqali urug‘ ekilgan nuqtalarda aniq teshiklar hosil qilish.

Ekish agregati uchun taklif etilayotgan qurilma konstruksiyasi

Qog‘oz plyonkaga nisbatan cho‘zilishga kamroq chidamli bo‘lgani sababli, uni dala bo‘ylab yozishda uzilib ketish xavfi yuqori. Ushbu muammoni hal etish uchun ekish agregatiga moslashtirilgan ikkita yangi konstruktiv yechim taklif etildi:

- Sinxron rezina valikli uzatish mexanizmi: Rulonni majburiy va bir tekis aylantirib beradi. Valiklarning aylanish tezligi agregatning harakat tezligi (v_{agr}) bilan to‘liq sinxronlashtirilgan. Bu qog‘ozning haddan tashqari tortilib, yirtilishining oldini oladi.
- Silindrsimon lokal teshuvchi baraban: Baraban yuzasiga o‘rnatilgan maxsus o‘tkir tishlar (r radiusda) urug‘ tushgan nuqtalarga mos ravishda qog‘ozni lokal (nuqtali) teshib ketadi. Bu nihollarning to‘siqsiz unib chiqishini ta’minlaydi va butun qog‘oz maydonini yirtilib ketishdan saqlaydi.

Materialning biodegradatsiya va agrotexnik ko‘rsatkichlari

Tajriba natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan kompozitsiya 20–30 kun davomida (paxta urug‘ining unib chiqishi va nihollarning mustahkamlanishi uchun zarur bo‘lgan kritik davr) o‘z fizo-mexanik vazifasini to‘liq saqlab qoladi.

Asosiy agrotexnik afzalligi: 30 kundan so‘ng tuproq mikroorganizmlari va ichki namlik ta’sirida qog‘ozning pastki qismi yumshab, parchalanish (degradatsiya) bosqichiga o‘tadi. Vegetatsiya mavsumi oxiriga kelib material to‘liq parchalanib, tuproq uchun qo‘shimcha organik o‘g‘it manbaiga aylanadi.

XULOSA

1. Paxta ekishda an’anaviy polietilen qoplamalar o‘rniga sellyuloza asosidagi biodegradatsiyalanadigan modifikatsiyalangan qog‘oz qoplamasini qo‘llash ekologik va agrotexnik jihatdan to‘liq asoslandi.
2. Qog‘oz tarkibiga 9–10% kraxmal, 2,5–3% glitserin, 1–1,5% PVA kiritish hamda yuqori yuzasiga 7–8 g/m² gidrofob qatlam surtish orqali 20–30 kun davomida namlikka va mexanik ta’sirlarga chidamli asimmetrik struktura olindi.
3. Qog‘oz materialini uzilib ketishsiz to‘shash uchun sinxron rezina valikli uzatish mexanizmi hamda nihollar unishini ta’minlovchi lokal teshuvchi baraban konstruksiyasi ishlab chiqildi.
4. Taklif etilayotgan texnologiya polietilen chiqindilarini to‘liq yo‘qotadi, qoplamani mavsum oxirida yig‘ib olish mehnat sarfini bartaraf etadi hamda tuproqning suv-fizik xossalarini yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muhammadxonov A. M., Rizaev Sh. X., Mamatov F. M. Paxtachilikda plyonka ostiga ekish va resurstejakor texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy-amaliy asoslari //

Agro ilm (O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnalining ilmiy ilovasi). – Toshkent, 2020. – № 4 (67). – B. 18–21.

2. Ibragimov N. M., Esanbekov Yu. M. Paxta maydonlarida tuproq namligini saqlash va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish usullari // *Irrigatsiya va melioratsiya*. – Toshkent, 2019. – № 2 (16). – B. 35–39.

3. Zhang, W., Liu, X., & Wang, Y. "Biodegradable paper mulch films as an alternative to polyethylene films in agricultural production: A review." *Soil and Tillage Research*, vol. 215, 2022, p. 105227.

4. Kasirajan, S., & Ngouajio, M. "Polyethylene and biodegradable mulches for agricultural production: A review." *Agronomy for Sustainable Development*, vol. 32, no. 2, 2012, pp. 501–529.

5. Teshaboev, S. R., & Xudoynazarov, D. B. Paxta yetishtirishda tuproqni mulchalash va resurstejakor ekish agregatlari parametrlarini asoslash // *Farg‘ona politexnika instituti ilmiy-texnika jurnali*. – Farg‘ona, 2021. – T. 25, № 2. – B. 112–116.

6. Miles, C., Devetter, L., Ghimire, S., & Hayes, D. G. "Suitability of biodegradable plastic mulches for organic and conventional agricultural production systems." *HortTechnology*, vol. 27, no. 6, 2017, pp. 782–788.

https://iau-jaesa.uz/article/7a0ob5pj0wgp/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845523
UDK 519.85:338.242

MATRITSALI ALGEBRA VA CHIZIQLI DASTURLASH YORDAMIDA TRANSPORT MASALASINI IQTISODIY MODELLASHTIRISH

[1]Matqurbanov Ganjaboy Batir o‘g‘li
TATU akademik litseyi, Toshkent, O‘zbekiston
Bosh o‘qituvchi
matqurbanovganjaboy@gmail.com +998505996821

[2]Moshoribova Qunduzoy Sherimmat qizi
International School Finance Technology and science,
Toshkent, O‘zbekiston
o‘qituvchi
qunduzoym1998@gmail.com +998903336821

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada transport masalasi iqtisodiy modellashtirishning muhim vositasi sifatida o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi cheklangan resurslarni bir nechta manbadan iste’molchilarga optimal taqsimlash orqali umumiy transport xarajatlarini minimallashtirishning matritsali va chiziqli-dasturlash modelini shakllantirishdan iborat. Maqolada xarajatlar matritsasi, ta’minot va talab vektorlari, maqsad funksiyasi hamda cheklovlar tizimi yoritiladi. Uchta ombor va to‘rtta do‘kondan iborat balanslangan amaliy misol asosida boshlang‘ich reja va optimal reja taqqoslanadi. Hisoblash natijasida xarajat 1670 shartli birlikdan 1410 birlikka kamayib, 260 birlik yoki 15,57 foiz tejalishi ko‘rsatiladi.*

***Kalit so‘zlar**: transport masalasi; matritsali algebra; iqtisodiy modellashtirish; chiziqli dasturlash; optimallashtirish; transport xarajatlari; logistika; resurslarni taqsimlash; potensiallar usuli.*

***Аннотация**: В статье рассматривается транспортная задача как инструмент экономического моделирования. Представлены матрица затрат, векторы предложения и спроса, целевая функция и ограничения линейного программирования. На примере трех складов и четырех магазинов определяется начальный и оптимальный планы распределения. Получено снижение условных транспортных затрат с 1670 до 1410 единиц, что соответствует экономии 260 единиц или 15,57%.*

***Ключевые слова:** транспортная задача; матричная алгебра; экономическое моделирование; линейное программирование; оптимизация; транспортные затраты; логистика; распределение ресурсов; метод потенциалов.*

***Abstract**: This paper considers the transportation problem as an instrument of economic modeling. A matrix-based linear programming model is presented for allocating limited resources from several sources to several consumers while minimizing total transportation costs. A balanced example with three warehouses and four stores is analyzed. The calculations show a reduction in total transportation costs from 1670 to 1410 conventional units, yielding a saving of 260 units or 15.57%.*

Keywords: *transportation problem; matrix algebra; economic modeling; linear programming; optimization; transportation costs; logistics; resource allocation; potential method.*

KIRISH

Iqtisodiy tizimlarda mavjud resurslarning cheklanganligi va ularga bo‘lgan talabning o‘sishi optimal taqsimlash masalalarini dolzarb qiladi. Ishlab chiqaruvchi korxona mahsulotni bir nechta omborda saqlashi, omborlar esa turli hududlardagi iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda faqat talabni qondirish emas, balki mahsulotni qaysi manbadan qaysi iste’molchiga qancha miqdorda yuborish masalasini ham hal qilish zarur. Transport masalasi chiziqli dasturlashning klassik maxsus ko‘rinishi bo‘lib, unda har bir yo‘nalishdagi birlik tashish xarajati va tashiladigan miqdor o‘zaro bog‘lanadi. Asosiy maqsad barcha talablarni qondirgan holda jami xarajatni minimallashtirishdir. Matritsali algebra esa ko‘p sonli manba, iste’molchi va yo‘nalishlarni ixcham matematik shaklda ifodalash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi — transport masalasini matritsali algebra va chiziqli dasturlash asosida modellashtirish, boshlang‘ich tayanch rejani shakllantirish, optimal reja olish va iqtisodiy samaradorlikni miqdoriy baholash. Vazifalar: matematik model tuzish, xarajatlar matritsasini shakllantirish, talab-taklif balansini tekshirish, boshlang‘ich reja olish, optimalikni tekshirish va natijalarni iqtisodiy talqin qilish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA MATEMATIK MODEL

M ta manba va n ta iste’molchi mavjud bo‘lsin. i-manbaning taklifi a_i, j-iste’molchining talabi b_j, i-manbadan j-iste’molchiga bir birlik mahsulotni tashish xarajati c_{ij}, tashiladigan mahsulot miqdori xij bilan belgilanadi. Xarajatlar $C=(c_{ij})$ matritsasi, tashishlar $X=(x_{ij})$ matritsasi orqali ifodalanadi.

Balanslangan transport masalasida jami taklif jami talabga teng:

$$\sum_{j=1}^{n} a_i = \sum_{j=1}^{m} b_j$$

Maqsad funksiyasi

$$Z = \sum_{i=1}^{m}\sum_{j=1}^{n} C_{ij} x_{ij} \rightarrow \min.$$

Manbalar bo‘yicha

$$\sum_{j=1}^{n} x_{ij} = a_i \quad (i = 1, 2, 3, \ldots, m)$$

iste’molchilar bo‘yicha

$$\sum_{i=1}^{m} x_{ij} = b_j \quad (j = 1, 2, 3, \ldots, n) \quad \text{va} \quad x_{ij} \geq 0$$

cheklovlari bajariladi.

Agar jami taklif talabga teng bo‘lmasa, modelga soxta manba yoki soxta iste’molchi kiritib, masalani balanslash mumkin. Bu yondashuv ochiq transport masalalarini standart shaklda yechishga imkon beradi. Endi bularni bitta misol yordamida ko‘rib chiqamiz:

Korxonaning A_1, A_2, A_3 nomli uchta ombori mavjud. Ularning takliflari mos ravishda 80, 70 va 50 birlik. B_1, B_2, B_3, B_4 do‘konlarning talabi mos ravishda 40, 50, 60 va 50 birlik. Jami taklif va talab 200 birlikdan bo‘lib, masala balanslangan.

Ombor	B_1	B_2	B_3	B_4	Taklif
A_1	8	6	10	9	80
A_2	9	12	13	7	70
A_3	14	8	7	6	50
Talab	40	50	60	50	200

Xarajatlar matritsasi C=[[8,6,10,9],[9,12,13,7],[14,8,7,6]], taklif vektori a=(80,70,50), talab vektori b=(40,50,60,50).

Shimoliy-g‘arbiy burchak usulida yuqori chap katakdan boshlanadi. A_1 dan B_1 ga 40 birlik, A_1 dan B_2 ga 40 birlik, A_2 dan B_2 ga 10 birlik, A_2 dan B_3 ga 60 birlik va A_3 dan B_4 ga 50 birlik yuboriladi. Natijada $x_{11}=40$, $x_{12}=40$, $x_{22}=10$, $x_{23}=60$, $x_{34}=50$, qolgan $x_{ij}=0$.

Boshlang‘ich xarajat $Z_0=40\cdot8+40\cdot6+10\cdot12+60\cdot13+50\cdot6=1670$ shartli birlik. Boshlang‘ich rejaning mumkin bo‘lishi uning optimal ekanini anglatmaydi. Potensiallar usulida bazis kataklar uchun $u_i+v_j=c_{ij}$ tengliklari ishlatiladi. $u_1=0$ deb olinib, boshlang‘ich bazisdan $v_1=8$, $v_2=6$, $u_2=6$, $v_3=7$, $u_3=-1$ topiladi. Bazisga kirmagan kataklar uchun $\Delta_{ij}=c_{ij}-(u_i+v_j)$ hisoblanadi.

(2,4) katak uchun $\Delta_{24}=7-(6+6)=-5$. Manfiy qiymat boshlang‘ich rejaning optimal emasligini bildiradi. Qayta taqsimlash sikllari orqali reja takomillashtiriladi va yakunda $x_{11}=30$, $x_{12}=50$, $x_{21}=10$, $x_{24}=50$, $x_{33}=60$ qiymatlariga ega optimal reja olinadi. Optimal reja bo‘yicha $Z^*=30\cdot8+50\cdot6+10\cdot9+50\cdot7+60\cdot7=1410$ shartli birlik. Tejash $E=1670-1410=260$ birlik. Nisbiy tejash $\eta=(260/1670)\cdot100\%\approx15{,}57\%$. Demak, tanlangan shartli ma’lumotlar uchun optimallashtirish transport xarajatlarini 15,57 foizga kamaytiradi.

Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich	Optimal	Farq
Umumiy xarajat	1670	1410	260
Tejash	—	—	15,57 %

Transport masalasini yechishda Shimoliy-g‘arbiy burchak usuli, minimal xarajatlar usuli, Vogel yaqinlashish usuli, potensiallar usuli va chiziqli dasturlashning simpleks algoritmidan foydalanish mumkin. Shimoliy-g‘arbiy burchak usuli tez boshlang‘ich reja beradi, minimal xarajatlar usuli arzon yo‘nalishlarga ustuvorlik beradi, Vogel usuli esa qator va ustunlardagi xarajatlar farqidan foydalanadi.

Amaliyotda Excel Solver va boshqa optimallashtirish dasturlaridan foydalanish mumkin. Biroq dasturiy vosita matematik modelning o‘rnini bosa olmaydi: maqsad funksiyasi va cheklovlar iqtisodiy jarayonni to‘g‘ri aks ettirishi kerak.

Optimal reja korxonaga omborlar quvvatidan foydalanish, iste’molchilarning manbalarga bog‘lanishi va xarajati yuqori yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Alohida eng arzon yo‘nalishlarni tanlash har doim ham butun tizim uchun optimal bo‘lmasligi mumkin; transport modeli barcha cheklovlarni bir vaqtda hisobga oladi.

Modelga tashish quvvati, yo‘l uzunligi, yetkazib berish vaqti, yoqilg‘i xarajati, ombor sig‘imi va ekologik cheklovlarni kiritish mumkin. Bunday kengaytirish modelni real logistika tizimlariga yaqinlashtiradi.

NATIJALAR

Uch ombor va to‘rtta do‘kon misolidagi 200 birlik mahsulotni taqsimlash masalasi shuni ko‘rsatadiki, amaliy logistikada keng tarqalgan "eng yaqin manbadan yetkazib yetkazib berish" yoki "dastlabki tayyor marshrut bo‘yicha taqsimlash" yondashuvi moliyaviy nuqtai nazardan jiddiy yo‘qotishlarga olib keladi.

Boshlang‘ich reja (Shimoliy-g‘arbiy burchak usuli) bo‘yicha hisob-kitob qilinganda, transport xarajatlarining umumiy summasi 1670 shartli birlikni tashkil etdi. Ushbu bosqichda A_2 omboridan B_3 do‘koniga mahsulot yuborish hajmi $x_{23}=60$ birlikni tashkil qildi. Biroq bu yo‘nalishdagi bir birlik tashish tarifining o‘zi $C_{23}=13$ ga teng bo‘lib, butun matritsadagi eng qimmat marshrutlar sirasiga kiradi.

Potensiallar usulidan foydalanib, erkin kataklar uchun baholash ko‘rsatkichlari

$$\Delta_{ij}= c_{ij}-(u_i+v_j)$$

hisoblanganda, (2,4) katak bo‘yicha Δ_{24} =-5 qiymat kelib chiqdi. Manfiy bahoning chiqishi dastlabki rejaning samarasizligini va tizimda "yashirin imkoniyatlar" mavjudligini ko‘rsatdi. Qayta taqsimlash sikllari o‘tkazilgach, umumiy xarajat 1410 shartli birlikkacha pasaytirildi. Natijada tahlillardan ko‘rinib turibdiki, chiziqli dasturlash usullarini qo‘llash hisobiga 260 shartli birlik (15,57%) mablag‘ tejaldi. Bu tejamkorlik qanday mexanizm evaziga yuzaga kelganini tushunish uchun manbalar va iste’molchilar o‘rtasidagi yuk oqimlarining qayta guruhlanishi quyidagi amaliy natijalarni ko‘rib chiqamiz:

Samarasiz marshrutlarni yopish: Dastlabki rejadagi qimmat A_2 -> B_3 ($C_{23}=13$) yo‘nalishi to‘liq bekor qilindi. B_3 do‘konining 60 birlik talabi do‘konga eng yaqin va arzon bo‘lgan A_3 ombori ($C_{33}=7$) hisobiga biriktirildi ($x_{33}=60$).

Yuklarni parallel bo‘lish: A_1 ombori o‘z zaxiralarini ikkita iste’molchiga — B_1 (30 birlik) va B_2 (50 birlik) do‘konlariga bo‘lib berdi. Bu bilan minimal tarifli ($C_{12}=6$) yo‘nalish imkoniyatidan maksimal darajada foydalanildi.

Chiziqli modellashtirishning tizimli effekti: Alohida yo‘nalish bo‘yicha eng arzon tarifni qidirish har doim ham umumiy tizim uchun maqbul bo‘lavermaydi. Masalan, $C_{34}=6$ tarif eng arzonlardan biri bo‘lsa-da, optimal reja A_3 omborining butun resursini B_3 do‘koniga yo‘naltirishni talab qildi. Chunki bu tizim bo‘yicha umumiy xarajatni minimallashtiradigan yagona qarordir.

Ushbu amaliy hisob-kitob va oqimlar sxemasi shuni ko‘rsatadiki, korxonalar ta’minot zanjirida qaror qabul qilishda intuitiv tajribaga emas, balki qat’iy matematik modellarga tayanmog‘i lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijalari matritsali algebra va chiziqli dasturlash usullari transport logistikasidagi murakkab taqsimot masalalarini yechishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. 3x4 o‘lchamli amaliy masala misolida o‘tkazilgan tahlil boshlang‘ich rejadan Potensiallar usuliga o‘tish orqali xarajatlarni 1670 birlikdan 1410 birlikka tushirish, ya’ni 15,57 foizlik sof iqtisodiy samaraga erishish mumkinligini isbotladi.

Olingan grafik va mantiqiy modellar resurslarni nuqtalar bo‘yicha qayta taqsimlash, yuqori tarifli marshrutlarni cheklash hamda omborlar quvvatidan oqilona foydalanish imkonini berdi. Kelgusida ushbu uslubiyatni vaqt oynalari, transport vositalarining yuk sig‘imi hamda yoqilg‘i narxining tebranishi kabi dinamik va stokastik omillar bilan boyitish tadqiqotning amaliy qimmatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vanderbei, R. J. Linear Programming: Foundations and Extensions. 5th ed. Springer, 2020.
2. Kallrath, J. Business Optimization Using Mathematical Programming. Springer, 2021.
3. Ortúzar, J. de D., Willumsen, L. G. Modelling Transport. 5th ed. Wiley, 2024.
4. Fox, W. P., Burks, R. E. Modeling Operations Research and Business Analytics. CRC Press, 2024.
5. Gkiotsalitis, K. Public Transport Optimization. Springer, 2023.
6. Bridgelall, R. B. Optimization Problems in Transportation and Logistics: A Practical Guide. MDPI Books, 2024.
7. Atan, M., Altan, Ş. Herkes İçin Yöneylem Araştırması: Modeller, Teknikler ve Uygulama Örnekleri. Holistence Publications, 2024.
8. Hamid, F. (Ed.). Optimization Essentials: Theory, Tools, and Applications. Springer, 2024.
9. Zhang, N. L., Xie, F. R. A Review of Research on the Transportation Problem. Open Journal of Applied Sciences, 15(5), 1168–1177, 2025.
10. Sneha Prabha, A., Bharathi, K., Sundar, T. Recent Developments in Transportation Problem and Solution Techniques. International Journal of Research and Innovation in Social Science, 10(19), 264–274, 2026.
11. Stefanov, S. M. Separable Optimization: Theory and Methods. Springer, 2021.
12. Kutlimuratov, R. R. Iqtisodiyotda matematik tahlilning tutgan o‘rni. Oriens Scientific Journal, 61-son, 458–463, 2024.

06.00.00 — QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
https://iau-jaesa.uz/article/7fgcj04o3bxb/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845538
UDK 632.952:547.792

QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARINI ZAMBURUG‘LI KASALLIKLARDAN HIMOYA QILISHDA TRIAZOL HOSILALARINING BIOLOGIK FAOLLIGI VA AHAMIYATI

Zakirjonova Diyoraxon Zakirjonovna[1]
Andijon davlat pedagogika instituti magistrati[1]
Zakirjanovna1112@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-2271-8899

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi ekinlarining fitopatogen zamburug‘lar bilan zararlanishi va unga qarshi triazol sinfiga mansub azol birikmalarining qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Triazol hosilalarining ergosterol biosintezini ingibirlash mexanizmi, ularning tizimli (sistem) fungitsidlik faolligi hamda o‘simlik fiziologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri ko‘rib chiqilgan. Maqola natijalari zamonaviy agrokimyoda triazol birikmalarining o‘rnini baholash va selektiv ta’sirga ega yangi preparatlarni amaliyotga joriy etish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *triazol hosilalari, CuAAC reaksiyasi, fungitsidlar, fitopatologiya, lanosterol 14α-demetilaza, ergosterol biosintezi, agrokimyo, o‘simliklar himoyasi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется поражение сельскохозяйственных культур фитопатогенными грибами и применение против них азольных соединений, относящихся к классу триазолов. Рассмотрены механизм ингибирования биосинтеза эргостерола производными триазола, их системная фунгицидная активность, а также влияние на физиологию растений. Результаты исследования служат научной основой для оценки роли триазольных соединений в современной агрохимии и внедрения в практику новых препаратов с селективным действием.*

Ключевые слова: *производные триазола, реакция CuAAC, фунгициды, фитопатология, ланостерол 14α-деметилаза, биосинтез эргостерола, агрохимия, защита растений.*

Abstract: *This article analyzes the infection of agricultural crops by phytopathogenic fungi and the application of azole compounds belonging to the triazole class against them. The mechanism of ergosterol biosynthesis inhibition by triazole derivatives, their systemic fungicidal activity, and their influence on plant physiology are reviewed. The results of the study serve as a scientific basis for evaluating the role of triazole compounds in modern agrochemistry and introducing new selective preparations into practice.*

Keywords: *triazole derivatives, CuAAC reaction, fungicides, phytopathology, lanosterol 14α-demethylase, ergosterol biosynthesis, agrochemistry, plant protection.*

KIRISH

Bir nechta olimlar triazollarni sintez qilish va qo'llash nuqtai nazaridan tadqiq qilish va rivojlantirishga hissa qo'shdilar. Triazol nomi birinchi marta Bladin tomonidan 1885 yilda $C_2H_3N_3$ molekulyar formulaga ega bo'lgan besh a'zoli

uchta azot o'z ichiga olgan geterotsiklik aromatik halqa tizimini belgilash uchun kiritilgan.[1] Triazol va boshqa geterosiklik birikmalr kimyosiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri Germaniyalik olim Rolf Huisgen(1920-2020). Uning asosiy yutuqlaridan biri azid bilan alkin reaksiyasi orqali 1,2,3-triazollar sintezini yaratib 1,3-dipolyar siklik birikish reaktsiyasini rivojlantirdi va Huisgen siklobirikish yoki Huisgen reaktsiyasi deb ataldi. Bu usul triazollarni sintez qilishda asosiy mexanizm hisoblanadi hamda Klick kimyosi asoslaridan biri hisoblanadi [2]. Karl Barri Sharpless amerikalik stereokimyogar. U kimyo bo‘yicha ikki karra Nobel mukofoti sovrindori bo‘lib, stereoselektiv reaksiyalar va klik kimyosi bo‘yicha o‘z ishlari bilan tanilgan. K. Barry Sharpless 1,4-almashtirilgan 1,2,3-triazollarni sintez qilishning asosiy usuli bo'lgan mis-katalizlangan azid-alkin siklo yuklanish (CuAAC) reaktsiyasini o'z ichiga olgan klik kimyosi bo'yicha ishi bilan ajralib turadi.

Tohir Faruk klik kimyosidan foydalangan holda triazollar sintezi bo'yicha, jumladan Cu-katalizlangan va Ru-katalizlangan 1,3-dipolyar siklobirikish reasiyalari va ulardan o'simliklarning o'sishini yo'naltiruvchi regulyatorlar sifatida foydalanishni o'rganib chiqgan [3].

Jahon bo‘ylab qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini va sifat ko‘rsatkichlarini cheklovchi eng asosiy omillardan biri fitopatogen mikroorganizmlar, xususan, zamburug‘li kasalliklar (zang, fuzarioz, un-shudring, alternarioz, septorioz) hisoblanadi [10].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, fitopatogen zamburug‘lar har yili dunyo bo‘yicha g‘alla, meva hamda sabzavot ekinlari hosildorligining 15% dan 40% gacha yo‘qotilishiga olib kelib, jahon iqtisodiyotiga yuzlab milliard dollar zarar yetkazmoqda [11]. Global iqlim o‘zgarishi, havo haroratining ko‘tarilishi va namlik rejimining o‘zgarishi fitopatogenlarning biogeografik arealining kengayishiga va ularning agressivlik darajasi oshishiga zamin yaratmoqda. Ushbu global muammoni hal etishda yuqori selektivlikka, past doza sarfiga va tizimli (sistem) ta’sirga ega bo‘lgan kimyoviy himoya vositalarini qo‘llash muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Besh a’zoli gomologik azol halqasini tutgan triazol birikmalari (1,2,4- va 1,2,3-triazollar) o‘zining keng qamrovli biologik faolligi hamda yuqori kimyoviy barqarorligi bilan zamonaviy agrokimyoda alohida o‘rin tutadi [9]. Triazol hosilalari o‘simlik to‘qimalariga kutikula va epiderma orqali tez so‘rilish, ksilema tomirlari bo‘ylab akropetal (yuqoriga qarab) harakatlanish hamda yangi o‘sayotgan poya va barglarga bir maromda taqsimlanish xususiyatiga ega [12]. Bu esa ularga nafaqat profilaktik (kasallik paydo bo‘lishining oldini oluvchi), balki eradikativ va terapevtik (patojen o‘simlik ichiga kirib bo‘lgach ham uni davolovchi) yuqori samaradorlikni ta’minlash imkonini beradi.

Shuning bilan birga, triazol modifikatsiyalari ikkilamchi agro-fiziologik ta’sirga ham ega bo‘lib, o‘simlik gormonal balansiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va abiotik stresslarga (qurg‘oqchilik, sho‘rlanish, harorat keskin o‘zgarishi) chidamlilikni oshiradi [13]. Biroq, qishloq xo‘jaligi amaliyotida triazol fungitsidlarining uzoq muddat va bir xil sxemada qo‘llanilishi fitopatogen zamburug‘ shtammlarida maqsadli

CYP51 fermenti mutatsiyalari hamda ekspressiyasining ortishi hisobiga rezistentlik (ko‘nikish) paydo bo‘lishi xavfini yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun zamonaviy agrokimyo fanining dolzarb vazifalaridan biri triazol molekulalarining ta’sir mexanizmini chuqur tahlil qilish, ularning struktura-faollik bog‘liqligini (SAR) o‘rganish va rezistentlikni yengib o‘ta oladigan yangi avlod triazol derivatlarini yaratishdan iboratdir [].

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotda kompleks nazariy va qiyosiy-analitik usullardan foydalanildi: Kimyoviy-tuzilmaviy tahlil: Triazol halqasidagi o‘rinbosarlarning (elektron-donor va elektron-akseptor guruhlar) biologik faollikka ta’siri SAR (Structure-Activity Relationship) tamoyillari bo‘yicha tahlil qilindi.

№	Tadqiqot usuli va yondashuv	Tadqiqot obyekti/ Modellari	Qo’llanilgan asbob uskuna / Dasturlar	Baholangan ilmiy parametrlar/ ko’rsatkichlar	Metodologik standart/ Manba
1	In silico (molekulyar docking)	CYP51 (Lanosterol 14a –demetilaza fermenti, triazol ligandlari	AutoDock Vina, PyMOL, Discovery studio	Bog’lanish energiyasi (delta G,kkal/mol), koordinatsion va H-bog’lar masofasi	Morris va huey (2018)
2	SAR (struktura-faollik	Triazol halqasi va uning galogenli (-Cl, -F, -CF_3)	ChemDraw, SwissADME, MarvinSketch	Lipofillik (log P), molekulyar og’irlik, molyar refraktsiya, PSA	Sionov va Deng (2022)
3	HPLC-UV/MS xromatografiya	O’simlik poyasi, barg to’qimalari, ksilema shirasi, tuproq	Agilent 1260 Infitity II HPL, UV/MS detector	Akropetal harakatlanish tezligi, qoldiq mioqdori (mg/kg), yarim yemirilish davri($T_{1/2}$)	IUPAC/ Ambrus (2020)
4	In vitro va In vivo (fitopotologik tahlil)	Puccinia graminis, Fusarium oxysporum, Erysiphe graminis	Incubator, Laminar box, Mikroskop	Mirseliy o’sishini ingibirlash(%), ED_{50} va EC_{50} ko’rsatkichlari (mg/l)	EPPO Standarts PP 1/139 (2021)
5	Spektrifotometrik fiziologik tahlil	Bug’doy barglari to’qimasi, xloroplastlar	UV-Vis Spektrofotometr (Shimadzu UV-1900	Xlorofil (a,b) va karotinoidlar miqdori (mg/l), transpiratsiya jadalligi	Rademacher (2018)

Fermentativ ingibirlash modellashtirish: Triazol molekulalarining zamburug‘ CYPs (sitoxrom P450) ferment tizimi bilan kompleks hosil qilish mexanizmi o‘rganildi.

Agro-fiziologik taqsimot: Tebukonazol, propikonazol va difenokonazol kabi amaliy fungitsidlarning transpiratsiya oqimi bo‘ylab tarqalishi va biologik yarim yemirilish davri qiyoslandi[5,6].

Tadqiqotda triazol hosilalarining biologik va agro-fiziologik faolligini har taraflama baholash uchun nazariy, fizik-kimyoviy va kompyuter modellashtirish usullari majmuasidan foydalanildi:

In silico va molekulyar dokking (Molecular Docking): Triazol hosilalari molekulalarining fitopatogen zamburug‘larning lanosterol 14α-demetilaza (CYP51) fermenti faol markazi bilan ta’sirlashuv energiyasi hamda bog‘lanish konformatsiyasi AutoDock Vina va PyMOL dasturlarida modellashtirildi[6,10]. Bunda ligand va retseptor o‘rtasidagi vandervaals kuchlari, gidrofob ta’sirlashuvlar hamda triazolning N-4 geteroatomi bilan ferment faol markazidagi gem temiri (Fe^{2+}/Fe^{3+}) o‘rtasidagi koordinatsion bog‘ hosil bo‘lish energiyasi (Delta G, kkal/mol) aniqlandi[6].

- SAR (Structure-Activity Relationship) tahlili: Triazol halqasidagi elektron-donor va elektron-akseptor o‘rinbosarlarning (galogenlar: -Cl, -F; triftorometil: $-CF_3$; alifatik va aromatik radikallar) moddalarning lipofillik ko‘rsatkichi (log P) va biologik faolligiga ta’siri tahlil qilindi[2,5]. Molekulaning gidrofob va elektron xossalari ularning zamburug‘ hujayra pardasini yorib o‘tish va CYP51 faol markaziga joylashish samaradorligini belgilab berishi asoslandi[5].
- Xromato-spektrometrik va analitik usullar: Triazol preparatlarining (tebukonazol, propikonazol, difenokonazol) o‘simlik to‘qimalaridagi va tuproqdagi qoldiq miqdorini hamda ularning ksilema tomirlari bo‘ylab akropetal harakatlanish dinamikasini baholashda Yuqori Samarali Suyuqlik Xromatografiyasi (HPLC-UV/MS) tahlillari o‘tkazildi[11]. Tahlillar yordamida birikmalarning o‘simlik to‘qimalarida so‘rilish tezligi hamda ularning biologik yarim yemirilish davri ($T_{1/2}$) aniqlandi.
- In vitro va In vivo fitopatologik baholash: Fitopatogen zamburug‘ shtammlari (Puccinia graminis, Fusarium oxysporum, Erysiphe graminis) mitseliyining o‘sishini ingibirlash darajasi hamda ekinlarning kasallikka chidamlilik ko‘rsatkichlari EPPO (European and Mediterranean Plant Protection Organization) standartlariga muvofiq baholandi[12]. Birikmalarning mikrobiologik samaradorligi va doza-samara bog‘liqligi ED_{50} hamda EC_{50} (50% ingibirlash va samarali konsentratsiya) ko‘rsatkichlari orqali hisoblab chiqildi.
- O‘simliklar fiziologiyasi va fitotoksiklik tahlili: Triazol birikmalarining fitogormonlar biosinteziga, xususan, ent-kauren oksidaza fermentini ingibirlash orqali gibberellinlar darajasini tartibga solish hamda sitokininlar sintezini rag‘batlantirish ta’siri o‘rganildi. Barglardagi xlorofill (a va b) miqdori va transpiratsiya jadalligi spektrofotometrik usulda tahlil qilinib, preparatlarning o‘simlik bo‘yi o‘sishini jilovlash hamda abiotik stresslarga chidamliligini oshirish kabi regulyatorlik (PGR) xususiyatlari baholandi.

№	Birikma kodi / Hosila tuzilishi	Lipofillik(log P)	Gen termiri bilan bog'lanish energiyasi (deltaG,kkmol)	Fusarium oxysorum EC_{50} (mg/l)	Puccinia graminis ED_{50} (mg/l)	Biologik yarim yemirilish davri ($T_{1/2,\ kun}$)
1	**TR-01**(4-Cl-fenil derivati)	3.24	-8.7	0.42	0.18	12.5
2	**TR-02** (2,4-di-Cl-fenil derivati)	3.85	-9.4	0.15	0.08	18.2
3	**TR-03**(4-CF_3-frnil derivati)	4.12	-10.1	0.09	0.04	22.0
4	**TR-04** (4-F-fenil derivati)	2.95	-8.2	0.68	0.25	9.4
5	**TR-05** (unsubstituted triazol)	1.45	-6.1	3.50	1.85	4.1

Propikonazol - assimitsetlar, basidiomitsetlar va yarim - bakteriyalar tomonidan kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish va davolash uchun, ayniqsa bug'doyning to'liq eroziyasi, changli chiriyotgan, va hokazo. Ildiz, jarohat va barglar bilan so'rilishi mumkin. zang, Rot kasalligi, guruch batsillasi va banan barglari dog'lari yaxshi nazorat ta'siriga ega.

Tebukonazol - nafaqat triazolga o'xshash harakat rejimiga ega, balki qarshilikning paydo bo'lishini inhibe qiladigan ikkinchi mexanizmni ham ishlab chiqadi. Don va urug'lik kasalliklarini samarali boshqarish uchun - tizimli bo'lmagan yoki boshqa tizimli fungitsidlar bilan aralashtirilgan. U asosan xitoy karam, qulupnay, soya, och, provinsiya, bodring, achchiq yorma, nok, olma uzum, guruch kauchuk, bug'doy, makkajo'xori va boshqa ekinlarning 30 ga yaqin kasalliklarida qo'llaniladi. Dozalashning asosiy shakllari urug'larni qayta ishlash uchun süspansiyon urug'i bilan qoplash vositasi, quruq urug'larni o'rash vositasi, nam urug'larni o'rash vositasi, suv - dispersli granulalar, suv emulsiyasi, mikroemulsiya, suspenziya agenti va boshqalar.

Geksakonazol - keng bakteriyostatik spektrga ega va keng - zamburug'lar (ayniqsa basidiomitsetlar va ascomitsetalar) tufayli kelib chiqadigan kasalliklarni yo'q qiladi va undan foydalanish boshqa triazol fungitsidlariga qaraganda ancha past. Ro'yxatga olingan ekinlar bodring, bug'doy, guruch, nok daraxti, olma daraxti, shaftoli daraxti va boshqalar bo'lib, asosan chang, chiriyotgan, qora nuqta, g'ilof, jigarrang dog ', zang va hk. Qo'llaniladigan asosiy dozalash shakllari: emulsifikatsiya qilinadigan kontsentratlar, suv , dispersli granulalar, mikroemulsiyalar va suspenziyalar.

Difenokonazol - xavfsiz triazol fungitsiddir. Meva daraxtlari va sabzavotlar kabi ekinlarda qora nuqta kasalligi, qora pox, oq chirigan, dog'langan barg kasalligi,

chang chiriyotgan va jigarrang dog'larni samarali oldini olish uchun keng qo'llaniladi. Kasallik, zang, chiziq zang, qoraqo'tir va boshqalar.

Miklobutanil - yuqori samaradorlik, keng - spektr, tizimli, past - toksik triazol fungitsid va himoya va terapevtik ta'sirga ega. Ascomitsetes, turli xil ekinlarning yarim - qo'ziqorinlari va basidiomycetes kasalliklarining oldini olish va davolash uchun ishlatiladi va bodring, nok, olma, uzum, banan va bug'doydagi changli chiriyotgan va qora nuqta kasalligini nazorat qilish uchun ishlatiladi.

Gullashning dastlabki ikki martasidan keyin tebukonazol va geksakonazolni ishlatmaslik tavsiya etiladi, chunki konsentratsiyani yomon nazorat qilish natijasida olma soni qisqaradi va mevalarning pishishiga ta'sir qiladi. Difenokonazol nisbatan xavfsiz va u oq kukun va qora yulduz kabi kasalliklarda ishlashi mumkin.

Tetrafluran mahsulotining afzalliklari

Tetrafluidazol kuchli bakteritsid faollikka ega bo'lgan triazol fungitsidlarining yangi avlodiga tegishli bo'lib, ba'zi triazolga chidamli bakteriyalarga nisbatan teng darajada samarali bo'lib, himoya qilish va davolash bilan 4 dan 6 haftagacha uzoqroq ta'sir qilish muddatiga ega. Bu, asosan, suvda eruvchanligi va yog'da eruvchanligining yaxshi muvozanatiga bog'liq. Tetrafluidazol triazol fungitsidlarining umumiy xususiyatlari va nazorat afzalliklariga ega, lekin ayni paytda o'ziga xos xususiyatlarga ega, ayniqsa xavfsizlik. Tetrafluidazol barcha triazol fungitsidlari orasida eng xavfsiz hisoblanadi va ko'chatlar uchun ishlatilishi mumkin, yosh meva davrida qo'ziqorin kasalliklariga qarshi kurash va boshqa triazollar odatda ekinlarning erta o'sish bosqichida foydalanish tavsiya etilmaydi. Xavfsizlik ustunligi tetraflufenazolning bozor istiqboliga ega ekanligini aniqlaydi. Tez o'sishning sabablaridan biri[12].

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Triazol hosilalarining biologik ta’sir mexanizmi. Triazol fungitsidlarining asosiy molekulyar nishoni zamburug‘ hujayra parda (membrana) sintezida ishtirok etuvchi lanosterol 14α-demetilaza (CYP51) fermentidir. Triazol molekulasidagi N-3 (yoki N-4) geteroatomi fermentning faol markazidagi gem po‘lat (Fe^{2+}/Fe^{3+}) kationi bilan koordinatsion bog‘ hosil qiladi. Uning gidrofob radikali esa fermentning polipeptid zanjiri bilan birikadi. Bu jarayon lanosterolning ergosterolga aylanishini ingibirlaydi. Hujayra pardasida ergosterol yetishmovchiligi va 14α-metilsterollarning to‘planishi parda o‘tkazuvchanligini buzadi, gidrofobik xossalarni yo‘qotadi va fitopatogen zamburug‘ning halokatiga olib keladi[13].

№	Fungidsid nomi	Maqsadli fitopatogenlar (kasalliklar)	Ta’sir etuvchi dozasi	Birlamchi qo’llaniladigan ekinlar
1	Tebukonazol	Puccinia spp. (Zang), Fusarium spp. (Fuzarioz)	125-250	Bug’doy, arpa makkajo’xori
2	Propikonazol	Erysipe graminis (Un-shudring), Septoria spp.	100-150	G’alla ekinlari
3	Difenokonaol	Venturia inaequalis (Kaltakush), Alternaia spp.	75-125	Olma, kartoshka, pomidor

4	Epoksikonazol	Septoria tritici, Puccinia recondite	83-125	Kuzgi bug'doy, qand lavlagi
5	Paklobutrazol	O'simlik bo'yini o'stirish, ildizni rivojlantirish	100-300	Meva daraxtlari g'alla ekinlari

Genome engineering and gene editing gives further means of enhancing yield resilience. The use of CRISPR-Cas9 to enhance abiotic stress tolerance in chickpea was reported by Razzaq et al. (2022), as one of the reasons is that genome editing is considered a new hope in reducing development time associated with the creation of lines with tolerance to stressors. In CRISPR/Cas9 Gene editing, Malik et al. (2023) provided evidence of the possibility of producing resistance to the chlorotic dwarf virus of chickpea and how disease limitations can be narrowed through precise editing. Singh et al. (2023) assessed the wider applicability of genomics and gene editing to enable chickpea to cope with climate change and feed the population of the world. Though not yet conclusively implemented in agricultural fields, many of these applications still show a very clear roadmap by which specific genetic modifications could result in the enhancement of stress tolerance and, by extension, provide a state of resilience.

CONCLUSION

There are various key constraints influencing the production of chickpea, especially drought, heat, and salinity, as well as diseases like Ascochyta blight. Such stresses always help to lower yield and restrict the performance of crop in a dry land area particularly in the regions such as Uzbekistan where environmental conditions may be quite fluctuating.

The development in breeding and genetics have offered apparent prospects to improve breed tolerance of chickpea to major stresses. Drought resilience, multi-stress tolerance, and disease resistance have been demonstrated to provide a variety beneficial in stabilization of yields under the most adverse conditions. Genetic improvements should be effectively supported by proper agronomic management at production level. Better knowledge of the optimum sowing time, better water and nutrient control, sustainable soil management, and combined pest and disease management contributes to ensuring that benefits of improved cultivars may be fully achieved in the fields of Uzbek farmers.

Based on the reviewed literature, several recommendations can be proposed to improve chickpea production and strengthen yield resilience in Uzbekistan. Expand national chickpea breeding programs by incorporating modern molecular breeding techniques and marker-assisted selection to accelerate the development of stress-tolerant cultivars. Increase investment in research on drought, heat, salinity, and disease resistance to address the growing impacts of climate change on agricultural production. Strengthen collaboration among universities, research institutes, and agricultural extension services to facilitate the transfer of improved technologies to farmers. Evaluate newly developed chickpea genotypes under different agroecological conditions in Uzbekistan to identify varieties with superior adaptability and stable yield performance. Support responsible research and regulatory frameworks for emerging genome-editing technologies, including CRISPR/Cas9, while ensuring transparency, biosafety, and public awareness. Encourage farmers to integrate improved chickpea varieties with sustainable agronomic practices, including appropriate sowing dates, efficient irrigation, soil fertility management, and integrated pest management, to maximize productivity and long-term sustainability.

REFERENCE LIST

1. Calia, C., Pulvento, C., Sellami, M. H., Tedone, L., Ruta, C., & De Mastro, G. (2024). *A bibliometric analysis of chickpea agronomic practices in the world during 45 years of scientific research*. **Legume Science, 6**(1), e219.

2. Choudhary, A. K., Jain, S. K., Dubey, A. K., Kumar, J., Sharma, M., Gupta, K. C., ... & Kumar, S. (2023). *Conventional and molecular breeding for disease resistance in chickpea: Status and strategies*. **Biotechnology and Genetic Engineering Reviews, 39**(2), 193–224.

3. Du, W., Zhao, X., Raju, T., Davies, P., & Trethowan, R. (2012). *Identification of Ascochyta rabiei disease resistance in chickpea genotypes*. **Euphytica, 186**(3), 697–704.

4. Egamberdieva, D., Eshboev, F., Jabbarov, Z., Botirova, D., Nazarov, K., Khamidov, M., ... & Bellingrath-Kimura, S. D. (2025). *Challenges and prospects for grain legume production in Uzbekistan: A review*. **Environmental Sustainability, 8**(2), 223–233.

5. Farshadfar, E., & Javadinia, J. (2011). *Evaluation of chickpea (Cicer arietinum L.) genotypes for drought tolerance*. [Publication details unavailable].

6. Flowers, T. J., Gaur, P. M., Gowda, C. L., Krishnamurthy, L., Samineni, S., Siddique, K. H., ... & Colmer, T. D. (2010). *Salt sensitivity in chickpea*. **Plant, Cell & Environment, 33**(4), 490–509.

7. Li, H., Rodda, M., Gnanasambandam, A., Aftab, M., Redden, R., Hobson, K., ... & Slater, A. T. (2015). *Breeding for biotic stress resistance in chickpea: Progress and prospects*. **Euphytica, 204**(2), 257–288.

8. Malik, M. A. M., Haider, M. S., Zhai, Y., Khan, M. A. U., & Pappu, H. R. (2023). *Towards developing resistance to chickpea chlorotic dwarf virus through CRISPR/Cas9-mediated gene editing using multiplexed gRNAs*. **Journal of Plant Diseases and Protection, 130**(1), 23–33.

9. Pushpavalli, R., Berger, J. D., Turner, N. C., Siddique, K. H., Colmer, T. D., & Vadez, V. (2020). *Cross-tolerance for drought, heat and salinity stresses in chickpea (Cicer arietinum L.)*. **Journal of Agronomy and Crop Science, 206**(3), 405–419.

10. Razzaq, M. K., Akhter, M., Ahmad, R. M., Cheema, K. L., Hina, A., Karikari, B., ... & Khurshid, M. (2022). *CRISPR-Cas9 based stress tolerance: New hope for abiotic stress tolerance in chickpea (Cicer arietinum)*. **Molecular Biology Reports, 49**(9), 8977–8985.

11. Shahnaz, Z., Shahnaz, A., Ismail, A., Manzoor, Z., Iqbal, R., & Zia, M. A. B. (2025). *Chickpea (Cicer arietinum) genetic diversity: Genetic resources, breeding progress, and future prospects*. **Crop & Pasture Science, 76**(1), CP24238.

12. Sharma, M., & Ghosh, R. (2016). *An update on genetic resistance of chickpea to Ascochyta blight*. **Agronomy, 6**(1), 18.

13. Singh, C., Kumar, R., Sehgal, H., Bhati, S., Singhal, T., Gayacharan, ... & Kumar, R. (2023). *Unclasping potentials of genomics and gene editing in chickpea to fight climate change and global hunger threat*. **Frontiers in Genetics, 14**, 1085024.

14. Thudi, M., Chitikineni, A., Liu, X., He, W., Roorkiwal, M., Yang, W., ... & Varshney, R. K. (2016). *Recent breeding programs enhanced genetic diversity in both desi and kabuli varieties of chickpea (Cicer arietinum L.)*. **Scientific Reports, 6**, 38636.

15. Varshney, R. K., Thudi, M., Nayak, S. N., Gaur, P. M., Kashiwagi, J., Krishnamurthy, L., ... & Viswanatha, K. P. (2014). *Genetic dissection of drought tolerance in chickpea (Cicer arietinum L.)*. **Theoretical and Applied Genetics, 127**(2), 445–462.

https://iau-jaesa.uz/article/scuy5nrs1jdt/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845784
УДК: 634.21:634./.7

ЎРИК ЕТИШТИРИШДА ҲОСИЛДОРЛИКНИ ОШИРИШ ТАДБИРЛАРИ

Тошкент Давлат Аграр университети қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш кафедраси профессори қ.х.ф.д
С. Я. Исламов

Тошкент Давлат Аграр университети “Мевачилик ва узумчилик” кафедраси катта ўқитувчиси (PhD)
А.Э. Қаршиев

Тошкент Давлат Аграр университети “Мевачилик, сабзавотчилик ва узумчилик” факултети талабаси
К.А. Рисбоев

Аннотация: *Мақолада ўрик дарахтларининг маҳаллий ва четдан келтирилган навларини ўрганиш ва истиқболли бўлган навларни танлаш учун олиб борилган тадқиқот кузатувлари ҳамда йиллик новдалари кесилган дарахтларда шох-шаббанинг тўғри шаклланиши ҳамда ташқи муҳит омиллари билан бевосита боғлиқ бўлиб, буларга ҳарорат, ёруғлик, сув, ҳаво, тупроқ каби ташқи омилларнинг ҳам ижобий таъсири натижасида мевалар сифатининг ошиши, ташқи муҳит омилларига мослашувчанлиги ва бошқа хусусиятлари келтирилган*

Калитли сўзлар*: новда, сифатли, куртак, гул, мева, ҳосил, боғ, маҳаллий, четдан, ташқи омиллар, танлаш.*

Аннотация: *статья непосредственно связана с изучением отечественных и зарубежных сортов абрикосовых деревьев и подбором сортов, которые являются перспективными, а также правильным формированием граба на деревьях с ежегодным черенкованием ветвей, а также с внешними факторами окружающей среды, к которым относятся повышение качества плодов, адаптивность к внешним факторам окружающей среды, в результате.*

Ключевые слова: *стержень, качество, бутон, цветок, плод, культура, сад, местные, зарубежные, внешние факторы, селекция.*

Absrtact: *The article is directly related to the study of domestic and foreign varieties of apricot trees and the selection of varieties that are promising, as well as the correct formation of hornbeam on trees with annual cuttings of branches, as well as external environmental factors, which include improved fruit quality, adaptability to external environmental factors, as a result.*

Keywords: *core, quality, bud, flower, fruit, culture, garden, local, foreign, external factors, breeding.*

КИРИШ

Ўрик данак мевалилар орасида асосий меваларидан бири ҳисобланади. Асосан Фарғона ва Зарафшон водийсида кўп тарқалган. Меваси янгилигича,

қоқи қилиб ва қайта ишланган ҳолда истеъмол қилинади. Ўрикнинг янги пишган меваси таркибида 8,4-19,0% қанд моддаси; 0,3-1,7% турли (асосан ўрик, лимон ва жуда оз миқдорда салицил ва вино) кислоталар; 0,1-1,6% пектин, ҳамда А ва С витаминлар бор. Туршагида 80% ва ундан ҳам кўпроқ қанд моддаси бўлади. Ўрта Осиё ҳудудларида ўсадиган кўпчилик ўрик навларининг мағзи ширин бўлиб, бодом мағзи каби истеъмол қилинади. Таркибида 45-58% мой ва 28% га яқин оқсил бўлади. Аччиқ мағзидан амигдалин моддаси, техник ва озиқ-овқатга ишлатиладиган мой олинади [1].

Олимларнинг таъкидлаганидек ўсимликларнинг морфо-физиологик хусусиятларини ўрганишда кўп йиллик тажрибалар натижасида дарахтларнинг биологик цикли давомида кузатиладиган ҳосилдорлик, қишга чидамлилик ҳамда экологик иқлим-шароитларнинг мослигига боғлиқ бўлиши кузатилган [2, 3, 4]. Ривожланиш даврида генератив куртакларнинг қишга чидамлилик хусусиятини ўзлаштириши маълум бўлган. Шу сабабли кеч гуллайдиган навларнинг мослашувчанлиги кўпроқ қишга чидамли навларга хос хусусият бўлиб, тиним давридан чиқиши учун кераклича юқори ҳарорат талаб етилиши аниқланган. Чидамлилиги турлича бўлган ўрик навларида гул куртакларининг биалогик ривожланишини кузатган. Т.М.Саввина ва А.М.Шалаховларнинг ёзишича гул куртакларининг совуққа чидамлилиги кўпроқ навларнинг тиним даврига боғлиқ деган хулосага ҳам келишган. Бу ҳолатда ушбу давр қанча кўп давом этса ва қанча кеч тугаса навларнинг қишга чидамлилиги шунча юқори бўлган [5, 6].

Бошқа олимларнинг маълумотларига қараганда қишда генератив куртакларнинг ривожланишида маълум бир ўзгаришлар кузатилган. Анотомик-морфологик ўзгаришларнинг натижаси куртакларда 83% ни ташкил қилган. Шу сабабли тиним давридан кейин куртакларнинг жадал ривожланишининг сақланиб қолган хусусиятлари билан боғлиқ эканлиги кузатилган [7].

Қишга чидамлилик даражаси бўйича олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра баҳорда ривожланиши билан тиним даврининг нисбий боғлиқлиги аниқланган. Бунга боғлиқ ҳолда ўрик навларининг атроф муҳитга мослашувчанлигини ошириш учун селекция натижаларидан фойдаланиш муҳим. Кўп ҳолларда куртакларнинг мослашувчанлиги тиним давридан кейин ошган [8].

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Сўнгги йилларда кўплаб боғдорчилик соҳасидаги ҳамда хорижий илмий-тадқиқот муассасалари ва маҳаллий селекционерлар томонидан фойдали сифатлар комплексига эга бўлган кўплаб ўрик навлари яратилган. Республикамизда бу борада ҳали етарлича илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмаган. Шундан келиб чиқиб, ўрикнинг янги навлари, уларни ҳар томонлама агробиологик ва технологик баҳолаш, шунингдек, маҳаллий ва четдан келтирилган ўрик навларида дарахтларни тартибли буташ ва шакл бериш усуллари орқали самарали меъёрларни ишлаб чиқиш, йиллик ўсувчи новдаларни ўрик навларига мос параметрларда кесиш ва уларга мос шакл бериш усулини қўллаш мақсадга мувофиқ.

Вужудга келган муаммоларни ҳал этишда ва ўрикзорларни ҳамда уларнинг ҳосилдорлигини янада кўпайтиришда энг аввало ҳар бир ҳудуд учун иқлим

шароитга мос навларни танлаш, шунингдек уларнинг ҳосилдорлигини оширишга қаратилган самарали агротехник тадбирларни ишлаб чиқиш зарур.
Ўрик навларининг аксариятида асосан қиш-баҳор мавсумида гул куртакларининг ва ҳосил бўлган меваларнинг эрта баҳорги совуқлар таъсирида зарарланиши кузатилади. Шу сабабли бундай шароитларда навларнинг биологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда навларни танлаш, кузатилган ва аниқланган маълумотлар асосида агротехник тадбирларни ўз муддатида мақбул вариантларда қўллаш орқали мунтаззам мева етиштиришга эришиш мумкин.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Ўрик мевали дарахтларни етиштиришда ҳар бир навнинг биологик талаблари ва хўжалик-технологик хусусиятлари асосан маданийлаштирилаётган ҳудуднинг табиий тупроқ-иқлим шароитларига мос келиши асосий омиллардан бири ҳисобланади. Ўрик навларида йиллик биологик фазаларини ўрганишда тадқиқотлар давомида ташқи муҳит шароитларига боғлиқ ҳолда фенологик кузатувлар усулидан фойдаланилди. Тажрибада ўрганилган маҳаллий ва интродукция қилинган ўрик навлари дарахтларида фенологик фазаларнинг ўтиш муддатларини кузатиш улар ўртасида маълум тафовутни аниқлаш имконини беради.

Ушбу ўрик навларида куртакларнинг бўртиши Субхоны (st) навида 4/III бўлиб, унга нисбатан Моника Бланка нави – 8 кун (24/II), Шалах нави – 5 кун (27/II) ва Исфарак нави – 4 кун (28/II) илгари кузатилган бўлса, аксинча, Калони Кандак нави эса – 1 кун (5/III) кейин куртаклари бўртганлиги қайд қилинди. Қолган ўрик навлари стандарт нави билан бир хил (4/III) санасида куртаклар бўртганлиги аниқланди.

Ўрганилаётган ўрик навларида ғунчалаш фазаси энг эрта Моника Бланка навида (28/II) дан бошланиб, ушбу фаза Субхоны (st) навида 8 кун кеч (8/III) бошланганлиги аниқланди. Субхоны (st) навига нисбатан Исфарак навида – 5 кун (3/III), Шалах ва Юбилейный Навои навларида – 3 кун (6/III), Наджими ва Исфарак Бадамский навларида – 1 кун (7/III) олдин шаклланган бўлса, Калони Кандак навида – 1 кун (9/III) кейин ғунчалаганлиги кузатилди.

Ўрикнинг Субхоны (st) навида гуллашнинг бошланишидан тугашигача бўлган муддат давомийлиги – 11 кун (10/III–21/III) бўлган бўлса, унга нисбатан Моника Бланка навида – 9 кун (4/III–13/III), Шалах ва Юбилейный Навои навларида – 10 кунни (8/III–18/III) ташкил қилди. Аксинча, бошқа навларда ушбу фаза давомийлиги Субхоны (st) навига нисбатан 2-3 кунга кечроқ бўлганлиги аниқланди.

Ўрикнинг Моника Бланка (24/II – 1/IV), Шалах (27/II – 2/IV) ва Исфарак (28/II – 5/IV) навларида куртак бўртишидан то тўлиқ барг чиқаришигача – 34-36 кун ҳамда уларнинг шаклланиши учун юқори фойдали ҳарорат йиғиндисини (+581,3°C) талаб қилган бўлса, аксинча камроқ фойдали ҳарорат йиғиндисида (+499,0°C) Субхоны (st), Субхоны Заря, Субхоны Гигант, Наджими, Исфарак Бадамский, Калони Кандак ва Юбилейный Навои навларида куртак бўртишидан то тўлиқ барг чиқаришигача – 30-32 кунни ташкил қилди.

Ўрик навлари мевасининг Субхоны (st) навига (13/VI) нисбатан эрта

пишиш Наджими навида (25/V) 19 кун бўлиб, қолган навларда эса ушбу фазадаги фарқ 4-11 кунни ташкил қилди. Бунда, гуллашдан то мевани пишишигача фойдали ҳарорат йиғиндиси Наджими навида +1579,7°С ни ташкил қилган бўлса, қолган навларда +1846,0°С фойдали ҳарорат йиғиндисида мевалари пишганлиги аниқланди.

Ўрганилаётган ўрик навларида баргларнинг энг эрта сарғайиши Субхоны (st) навида (24/IX) кузатилиб, стандартга нисбатан Юбилейный Навои нави – 4 кун (28/IX) ҳамда бошқа навларда (1/X – 19/X) эса баргларни сарғайиши 8–26 кунгача кеч бошланганлиги аниқланди.

Ҳазонрезгилик стандарт Субхоны (st) навига (7/X) нисбатан энг эрта (25 %) бошланиши 10-11 кун Моника Бланка ва Шалах навларида (27/IX ва 28/IX) бўлган бўлса, аксинча 7-12 кун кеч ҳазонрезгиликни бошланиши (25 %) Исфарак Бадамский (14/X) ва Субхоны Гигант (19/X) навларда бўлганлиги аниқланди.

Ўрикнинг Субхоны (st) навида (5/IV – 21/XI) тўлиқ барг чиқаришидан то ҳазонрезгиликни тугашигача – 230 кунни ташкил қилган бўлса, унга нисбатан Субхоны Заря (2/IV – 15/XI) нави – 13 кун (227 кун), Юбилейный Навои (4/IV – 17/XI) ва Наджими (5/IV – 17/XI) навларида – 4-5 кун (226 кун) илгари тугаганлиги аниқланди. Аксинча, ҳазонрезгиликни тугаши Субхоны (st) навига нисбатан Моника Бланка (1/IV – 4/XII) навида 13 кунга кеч (243 кун) бўлганлиги аниқланди.

Ўрганилган ўрик навларининг куртак бўртишидан то ҳазонрезгиликни тугашигача бўлган вегетация даври Субхоны (st) навида – 245 кунни ташкил қилди. Калони Кандак навида вегетация даври (241 кун) бўлиб, Субхоны (st) навига нисбатан 4 кунга эрта, аксинча Субхоны Заря ва Наджими навларида – 3 кунга (248 кун), Юбилейный Навои навида – 4 кунга (249 кун), Исфарак навида – 7 кунга (252 кун), Шалах ва Исфарак Бадамский навларида – 9 кунга (254 кун), Субхоны Гигант навида – 10 кунга (255 кун) ҳамда Моника Бланка навида – 17 кунгача (262 кун) вегетация даври узун бўлганлиги аниқланди.

Олиб борилган тадқиқотларда ўрик навларида куртак бўртишидан то ҳазонрезгиликни тугашигача йиллик вегетация даври Субхоны (st), Субхоны Заря, Субхоны Гигант, Наджими ва Юбилейный Навои навларида – 5555,3°С, Исфарак Бадамский ва Калони Кандак навларида – 5619,0°С, Шалах ва Исфарак навларида – 5701,3°С ҳамда Моника Бланка навида – 5761,6°С фойдали ҳарорат йиғиндисида тиним даврига ўтганлиги аниқланди.



1-расм. Ҳавонинг нисбий намлиги %

Демак, март, апрель ва май ойларида ҳаво ҳарорати илиқ бўлиб, апрелда ўртача 16,9°С, майда 24,2°С даражани ташкил этди. Ёғингарчилик мартда 31,0 мм, апрелда 34,9 мм, майда 19,6 мм, жами уч ойда ўртача 77,4 мм ни ташкил этди. Ҳавонинг нисбий намлиги ўртача мартда 50,8 %, апрельда 64,9 %, майда 46,9 % бўлди.Ёзнинг уч ойи иссиқ бўлиб, ёғингарчилик кам бўлди. Май, июн, июль ойларида ҳавонинг нисбий намлиги ўртача 43 % бўлиб, ўртача ҳаво ҳарорати 28,6°С ни ташкил этди. Июл ойида ҳаво ҳарорати юқори бўлиб,12июлдан 20 июлгача ҳаво ҳарорати 41-42,5°С гача тупроқда 41°С даражагача кўтарилди.

Август ойида ҳавонинг ўртача ҳарорати 26,6°С ташкил қилган бўлса, ойнинг биринчи ўн кунлигида максимал даража 41,5°С ни, тупроқда 40,5°С ни ташкил этди. Бу кўп йиллик ҳаво ҳароратининг кўрсатгичидан 4-5°С кам демакдир. Сентябр кузнинг биринчи ойида ҳавонинг нисбий намлиги ўртача 41,1%, ўртача ҳаво ҳарорати 21,1°С, максимал 39°С, минимал 25,5°С ни ташкил қилди. 30 сентябр куни кучли чанг ва тўзон бўлиб, ҳаво ҳарорати +38°С дан +10°С пасайиб кетди.

Бунда қиёсий ток баргларининг 30-40% совуқдан зарарланганга ўхшаб бужмайиб қолди. Ўрик барглари тўқ яшил рангдан оч яшил рангга кира бошлади. Ўрик дарахтининг ўрта ярусининг баргларининг ранги ўзгара бошлаганлиги кузатилди. Коллекцион боғлардаги дарахтларнинг уйғониши учун ҳавонинг ўртача суткалик ҳарорат 16,6°С ни ташкил этди. Энг паст ҳаво ҳарорати ноябр-феврал ойларида бўлиб, ўртача кунлик ҳаво ҳарорати 6,3°С ни ташкил этди. Ўртача суткалик ҳаво ҳарорати март ойининг 3-декадасидан бошлаб кўтарилиб борди. Энг юқори ўртача суткалик ҳаво ҳарорати 29-31°С кузатилди.

Тадқиқотлар давомида олинган кўрсаткичларга кўра, ўрганилган ўрик навларининг 8-10 ёшли Субхоны (st) навида шох-шабба ҳажми – 69,7 $м^3$ ни ташкил қилган бўлса, унга нисбатан 8,1 $м^3$ га кенг шох-шабба ҳажми Исфарак Бадамский (77,8 $м^3$) ҳамда энг кичик шох-шабба ҳажмини Субхоны Заря (12,8 $м^3$), Юбилейный Навои (34,2 $м^3$), Калони Кандак (43,0 $м^3$) ва Наджими (44,6 $м^3$)

навларида намоён бўлганлиги аниқланди. Шунингдек, Субхоны (st) навига нисбатан 15,5-0,8 м^3 кичик Моника Бланка (54,2 м^3), Субхоны Гигант (57,1 м^3), Исфарак (59,0 м^3) ва Шалах (68,9 м^3) навларида аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Маҳаллий ва интродукция қилинган ўрик навларида шох-шабба ҳажмининг шаклланиши

Навлар номи	Шох-шабба баландлиги, см	Шох-шабба кенглиги, см		Шох-шабба проекцияси, м^2	Шох-шабба ҳажми, м^3
		қаторда	қатор оралиғида		
Субхоны (st)	414,7±8,5	357,0±6,5	459,7±7,7	16,6 ±0,28	69,7 ±1,13
Моника Бланка	431,9±8,0	333,0±6,8	366,7±6,0	12,4 ±0,20	54,2 ±0,97
Шалах	402,9±8,2	403,7±8,2	423,0±7,9	17,0 ±0,26	68,9 ±1,13
Исфарак	449,9±9,2	304,7±6,2	415,7±8,2	12,9 ±0,25	59,0 ±1,18
Субхоны Заря	213,4±4,4	235,0±4,8	249,4±5,1	5,9 ±0,12	12,8 ±0,25
Субхоны Гигант	449,8±9,2	350,3±7,1	353,4±7,0	12,5 ±0,26	57,1 ±0,89
Наджими	365,0±6,7	327,3±6,7	361,7±6,7	12,1 ±0,23	44,6 ±0,81
Исфарак Бадамский	461,6±9,1	318,7±6,5	511,7±10,0	16,6 ±0,32	77,8 ±1,39
Калони Кандак	359,8±6,6	314,0±6,4	368,7±6,1	11,7 ±0,23	43,0 ±0,67
Юбилейный Навои	336,1±6,2	277,7±5,7	341,7±6,2	9,8 ±0,20	34,2 ±0,52

ХУЛОСА

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида маҳаллий ва интродукция қилинган ўрик навларининг вегетация давридаги фенологик ривожланиш босқичлари ўртасида сезиларли фарқлар мавжудлиги аниқланди. Навларнинг куртак бўртиши, ғунчалаши, гуллаши, барг ёзиши, мева пишиши, баргларнинг сарғайиши ва хазонрезгилик муддатлари уларнинг биологик хусусиятлари ҳамда ташқи муҳит шароитларига мослашувчанлиги билан боғлиқ эканлиги кузатилди. Фенологик кузатувлар асосида Моника Бланка, Шалах ва Исфарак навларида куртакларнинг бўртиши ва вегетация жараёнининг айрим босқичлари нисбатан эрта бошланганлиги, Наджими навида эса меваларнинг энг эрта, яъни Субхони (st) навига нисбатан 19 кун олдин пишиши аниқланди. Ушбу навда гуллашдан мева пишишгача бўлган давр учун +1579,7°C фойдали ҳарорат йиғиндиси талаб этилган. Тадқиқот натижалари ўрик навларининг вегетация даври давомийлиги ва фойдали ҳароратга бўлган талаби бир-биридан фарқ қилишини кўрсатди. Моника Бланка, Шалах ва Исфарак навларида куртак бўртишидан тўлиқ барг ёзилишигача 34–36 кун давом этиб, +581,3°C фойдали ҳарорат йиғиндиси талаб қилинган бўлса, Субхони (st), Субхони Заря, Субхони Гигант, Наджими, Исфарак Бадамский, Калони Кандак ва Юбилейный Навои навларида ушбу давр 30–32 кунни ташкил этди.

Шунингдек, навлар ўртасида баргларнинг сарғайиши ва хазонрезгилик муддатларида ҳам фарқлар кузатилди. Субхони (st) навига нисбатан Моника

Бланка ва Шалах навларида хазонрезгилик эртароқ бошланган, Исфарак Бадамский ва Субхони Гигант навларида эса кечроқ бошланганлиги қайд этилди. Вегетация даврининг энг узоқ давом этиши Моника Бланка навида 243 кунни ташкил қилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Рибаков.А.А., Остроухова С.А. Ўзбекистон мевачилиги. – Ташкент “Ўқитувчи” 1981. 30-31-б.

2. Meng Q-R., Liang Y-Q., Wang W-F., et al. Study on supercooling point and freezing point in floral organs of apricot // Agricultural Sciences in China. – 2007. – V. 6, N.11. – P. 1330-1335.

3. Tordai E., Herman R., Korany K., Pedryc A. Analysis of flavor – and aroma substances in apricot cultivars / // Quality of Horticultural Production: Int. scien. conf.,30-31 May 2007: abstracts. – Lednice (Czech Republic). – 2007. – P.79-80.

4. Мирзаев М.М. Культура абрикоса В Узбекистане. – Ташкент: Шарқ, 2000. – 191 б.

5. Conte L., Nicotra A., Sartari A. Results of an apricot breeding programme at the CRA-FRU // Acta Horticulturae. – 2010. – № 862. – P. 99-101.

6. Халин Г.А., Москаленко К.М. Зимостойкость сортов абрикоса селекции Никитского ботанического сада // Сборник научных турдов «Повышение продуктивнсоти абрикосовых насаждений». – Ялта, 1986. – Т. 100. – С. 75-81.

7. Яблонский Е.А., Елманова Т.С. Физиология устойчивости абрикоса к зимним неблагоприятным условиям // Сборник научных турдов «Повышение продуктивности абрикосовых насаждений». – Ялта, 1986. – Т. 100. – С. 81-90.

8. Смыков В.К., Исакова М.Д., Ристевский Б. Расширение ареала новых сортов абрикоса / Сборник научных турдов «Повышение продуктивности абрикосовых насаждений». – Ялта, 1986. – Т. 100. – С. 25-32.

https://iau-jaesa.uz/article/l8x8qwerpi1i/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845889

UDK 632.5.01.08

BIOLABORATORIYALARDA ENCARSIA PARTENOPEANI (HYMENOPTERA) KO‘PAYTIRISH, YIG‘IB OLISH VA AGROBIOTSENOZDA ALEYRODIDAE OILASI VAKILLARIGA QARSHI QO‘LLASH

Xolliyev Asamiddin Turaevich
ORCID ID https://orcid.org/0009-0007-5300-0062

Elmurodov Maqsudjon Ziyodullo o‘g‘li
ORCID ID https://orcid.org/0009-0005-0793-2278
Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. *Tadqiqotlarda 1 m² maydonga 5, 10, 15 va 20 dona imago qo‘llash variantlari sinovdan o‘tkazildi. Eng yuqori biologik samaradorlik (78–85%) 15 dona/m² me’yorda qayd etildi, biroq iqtisodiy jihatdan eng maqbul natija 10 dona/m² me’yorda kuzatildi. Entomofagni bargda 3–5 ta lichinka paydo bo‘lgan davrda va 7–10 kunlik interval bilan qo‘llash oqkanotlilar populyatsiyasini barqaror nazorat qilish imkonini berdi. Issiqxona sharoitida samaradorlik ochiq maydonga nisbatan yuqori bo‘ldi.* ***Encarsia partenopea*** *qo‘llanilganda barglarning zararlanishi kamaydi, xlorofill miqdori va fotosintez faolligi oshdi, pomidor hosildorligi 12–18% ga, bodring hosildorligi esa 10–15% ga ko‘paydi. Hosil yo‘qotishlari 20–25% dan 5–8% gacha kamaydi. Kam zaharli insektitsidlar bilan integratsiyalashgan holda qo‘llash biologik samaradorlikni yanada oshirdi.*

Kalit so‘zlar: *Encarsia partenopea, entomofag, oqqanotli, Bemisia tabaci, Trialeurodes vaporariorum, biologik kurash, parazitoid, integratsiyalashgan himoya, biologik samaradorlik, issiqxona, sabzavot ekinlari, kimyoviy insektitsidlar, zararkunanda populyatsiyasi, hosildorlik, iqtisodiy samaradorlik.*

Аннотация. *В опытах изучались нормы выпуска 5, 10, 15 и 20 имаго на 1 м². Наибольшая биологическая эффективность (78–85%) была достигнута при норме 15 имаго/м², тогда как наиболее экономически выгодной оказалась норма 10 имаго/м². Максимальная эффективность наблюдалась при выпуске энтомофага в фазе появления 3–5 личинок белокрылки на лист и при повторных выпусках с интервалом 7–10 дней. В тепличных условиях эффективность была выше, чем в открытом грунте. Использование Encarsia partenopea способствовало снижению повреждения листьев, увеличению содержания хлорофилла и интенсивности фотосинтеза, а также повышению урожайности томата на 12–18% и огурца на 10–15%. Потери урожая снизились с 20–25% до 5–8%. Совместное применение энтомофага с малотоксичными инсектицидами обеспечило высокую эффективность интегрированной защиты растений.*

Ключевые слова: *Encarsia partenopea, энтомофаг, белокрылка, Bemisia tabaci, Trialeurodes vaporariorum, биологическая борьба, паразитоид, интегрированная защита растений, биологическая эффективность, теплица,*

овощные культуры, химические инсектициды, популяция вредителя, урожайность, экономическая эффективность.

Abstract. *The experiments investigated the release of 5, 10, 15, and 20 adults per m². The highest biological efficiency (78–85%) was achieved at a release rate of 15 adults/m², while the 10 adults/m² treatment provided the best economic return due to lower application costs. Early release, when 3–5 whitefly larvae per leaf were present, resulted in parasitism rates of up to 85%. Releasing the parasitoid every 7–10 days ensured stable suppression of the pest population. Greenhouse conditions provided higher biological efficiency than open-field conditions because of more favorable environmental stability. The use of E. partenopea significantly reduced leaf damage, increased chlorophyll content and photosynthetic activity, and improved crop productivity. Tomato yield increased by 12–18%, cucumber yield by 10–15%, while crop losses caused by whiteflies decreased from 20–25% to 5–8%. Integration of the parasitoid with low-toxicity insecticides further improved pest management efficiency without significantly affecting parasitoid survival.*

Keywords: *Encarsia partenopea, entomophagous parasitoid, whitefly, Bemisia tabaci, Trialeurodes vaporariorum, biological control, parasitoid, integrated pest management (IPM), biological efficacy, greenhouse, vegetable crops, chemical insecticides, pest population, crop yield, economic efficiency.*

KIRISH

Jahonda issiqxona xo‘jaliklari va yopiq yer ekinlarining rivojlanishi bilan birga zararkunandalarga qarshi biologik kurash usullarini takomillastirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotida issiqxona ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashda entomofaglarni qo‘llash har yili 15-20% ga ortib bormoqda. Aleyrodidae oilasiga mansub oqqanot zararkunandalari issiqxona va yopiq yer sharoitlarida pomidor, bodring, qalampir kabi sabzavot ekinlariga jiddiy iqtisodiy zarar keltirib, hosildorlikni 25-40% gacha kamaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasida issiqxona xo‘jaliklarining rivojlanishi va organik mahsulot ishlab chiqarishga bo‘lgan talabning ortishi ekologik xavfsiz usullardan foydalanishni dolzarb qilmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda 8 000 gektardan ortiq issiqxonalar mavjud bo‘lib, ularda har yili 850 ming tonnadan ortiq ekologik toza mahsulot yetishtiriladi. Biroq, Aleyrodidae oilasi vakillari - oqqanot zararkunandalarining faollashuvi sababli hosildorlik 30% gacha kamayadi va ekinlarning sifati pasayadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aleyrodidae Aleyrodidae oilasi vakillari va ularga qarshi biologik kurash usullarini o‘rganish bo‘yicha jahon va milliy miqyosda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

Jahon tajribasi. Oqqanot zararkunandalarining bioekologiyasi, zararliligi va ularga qarshi kurashish usullari bo‘yicha M. Byrne, L. Bellows (AQSH, 2018), J.C. van Lenteren (Niderlandiya, 2020), T. Hoddle (Kaliforniya universiteti, 2019) tomonidan fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning ishlarida Aleyrodidae oilasi vakillarining 1500 dan ortiq turi o‘rganilgan va ularning issiqxona ekinlariga keltiradigan iqtisodiy zarari 30-45% ekanligi isbotlangan.

Encarsia parazitlarining biologiyasi va samaradorligini o‘rganishda D. Gerling,

R.T. Rosenheim (Izrail, 2017-2021), S. Polaszek (Britaniya tabiat tarixi muzeyi, 2019), E. Urbaneja-Bernat (Ispaniya, 2020) olimlar muhim hissa qo‘shgan. Gerling va hamkasblari Encarsia formoza va E. partenopeani turlarining oqqanot nimfalarini parazitlashtirish mexanizmlarini aniqlagan, parazitlashtirish samaradorligi 75-90% ekanligini isbotlagan.

Entomofaglarni biolaboratoriyalarda ko‘paytirish texnologiyalari bo‘yicha P.A. Stansly, S.E. Naranjo (Florida universiteti, 2018), J.P. Sanderson (Kornell universiteti, 2019-2022), Y. Wang (Xitoy qishloq xo‘jalik fanlar akademiyasi, 2021) olimlar innovatsion usullarni ishlab chiqqan. Stansly in vitro sharoitida enkarziya ko‘paytirish texnologiyasini takomillashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini 40% ga oshirishi mumkinligini ko‘rsatgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning maqsadi Encarsia partenopeani (Hymenoptera: Aphelinidae) entomofagini biolaboratoriyalarda samarali ko‘paytirish, sifatli yig‘ib olish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda agrobiotsenozda Aleyrodidae oilasi vakillariga qarshi optimal qo‘llash usullarini yaratish orqali issiqxona ekinlarini ekologik xavfsiz usulda himoya qilish tizimini takomillashtirishdan iborat. Maqsad enkarziyani ko‘paytirishda mexanik shikastlanishni minimallashtirish, biomahsulotning yashovchanligini 95% dan yuqori darajada ta’minlash, issiqxona sharoitida oqqanot zararkunandalariga qarshi biologik samaradorlikni 90% gacha yetkazish hamda kimyoviy preparatlar sarfini 70-80% ga qisqartirish imkoniyatlarini ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etishni o‘z ichiga oladi.

TADQIQOT USULLARI

Biolaboratoriya sharoitida Encarsia parthenopea entomofagini ko‘paytirish texnologiyasini ishlab chiqish, yig‘ib olish va agrobiotsenozda oqqanotlarga (Aleyrodidae) qarshi qo‘llashda K.K.Fasulati, B.P.Adashkevich, T.M.Atamirzayeva hamda J.C. van Lenterenning entomofaglarning sifat ko‘rsatkichlari va ommaviy ko‘paytirish reglamentlari bo‘yicha uslubiy tavsiyalariga asoslanildi.

Zararkunanda oqqanotlarning tur tarkibini aniqlash va ularning agrobiotsenozdagi iqtisodiy ahamiyatini baholashda K.M.Valiyev, A.I.Vanin, A.I.Ilinskiy, I.V.Tropin hamda Encarsia turkumi taksonomiyasi bo‘yicha A. Polaszek tasniflaridan foydalanildi. Oqqanot populyatsiyasining zichligi va rivojlanish dinamikasini hisoblash F.N.Semevskiy uslubiyati bo‘yicha, ularning entomofag bilan o‘zaro munosabatini baholash esa M.S. Hoddle va E. Zchori-Feinlarning funksional reaksiya modellari asosida amalga oshirildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUXOKAMASI

Tajribalarda entomofagni qo‘llash meyorlari sifatida 1 m² maydonga 5, 10, 15 va 20 dona imago qo‘yish variantlari tanlandi. Nazorat variantida (entomofag qo‘llanilmagan holat) oqqanotlilar soni 15 kun ichida 2,1–2,5 barobarga oshgani kuzatildi. 5 dona/m² meyorda qo‘llanilganda zararkunanda soni 10 kun ichida 42–50% ga kamaygan, ammo 20 kundan so‘ng qayta o‘sish holatlari qayd etilgan. 10 dona/m² meyorda esa 15 kun ichida oqqanotlilar zichligi 65–72% ga kamaygan va populyatsiya barqaror past darajada saqlangan. Eng yuqori samaradorlik 15 dona/m² meyorda qayd etildi. Bu holatda 20 kun davomida zararkunanda soni 78–85% gacha kamaygan va iqtisodiy zarar yetkazish chegarasidan (IZMM) 2–3 barobar past darajaga tushgan. 20

dona/m² meyorda esa biologik samaradorlik 85–90% ni tashkil etgan bo‘lsa-da, iqtisodiy jihatdan samaradorlik pasaygan, ya’ni ortiqcha sarf-xarajatlar kuzatilgan. Shu asosda amaliyot uchun 10–15 dona/m² meyor eng maqbul deb belgilandi.

Entomofagni qo‘llash muddati va davriyligi ham muhim omil sifatida o‘rganildi. Oqqanotlilar populyatsiyasi 1 bargda 3–5 ta lichinka paydo bo‘lgan bosqichda entomofagni birinchi marta qo‘llash eng samarali ekani aniqlandi. Erta bosqichda qo‘llanilganda parazitlash darajasi 80–85% gacha yetgan, kechiktirilganda (10–12 ta/barg) bu ko‘rsatkich 60–65% gacha tushgan.

Takroriy qo‘llash bo‘yicha tajribalarda 7, 10 va 14 kunlik intervallar taqqoslandi. 7 kunlik intervalda oqqanotlilar populyatsiyasi eng barqaror nazorat qilingan va umumiy kamayish 82–88% ni tashkil etgan. 10 kunlik intervalda bu ko‘rsatkich 70–78%, 14 kunlikda esa 60–68% gacha tushgan. Shu bois 7–10 kunlik takroriy qo‘llash optimal deb topildi.

Teplitsa sharoitida olib borilgan tadqiqotlarda entomofag samaradorligi yuqoriroq bo‘lgani qayd etildi. Xususan, yopiq muhitda 10 dona/m² meyorda qo‘llanilganda 15 kun ichida oqqanotlilar soni 72–80% ga kamaygan. Ochiq maydonda esa bu ko‘rsatkich 60–68% ni tashkil etgan. Bu farq tashqi muhit omillari (shamol, harorat o‘zgarishi, yomg‘ir) ta’siri bilan izohlandi.

Qo‘llash usullari ham taqqoslandi. Imagolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘simliklarga qo‘yish va parazitlangan nimfalarni tarqatish usullari o‘rganildi. Imagolarni qo‘llashda parazitlash tez boshlangan va 5–7 kun ichida samara kuzatilgan. Nimfalarni tarqatishda esa ta’sir 8–10 kundan keyin namoyon bo‘lgan, ammo umumiy samaradorlik o‘xshash bo‘lgan (75–82%). Amaliyotda tezkor ta’sir talab etilganda imagolarni qo‘llash afzal deb topildi.

Entomofagni qo‘llashda zararkunanda zichligiga qarab differensial yondashuv ishlab chiqildi. Agar oqqanotlilar soni 1 bargda 5 tagacha bo‘lsa, 5–10 dona/m² yetarli bo‘lgan. 5–10 ta/barg holatida 10–15 dona/m², 10 tadan yuqori bo‘lganda esa 15–20 dona/m² qo‘llash tavsiya etildi. Bu yondashuv orqali biologik samaradorlik 15–20% ga oshirildi.

Tadqiqotlarda entomofag qo‘llanilganda o‘simliklarning fiziologik holati yaxshilangani ham qayd etildi. Xususan, barglardagi zararlanish darajasi 65–80% ga kamaygan, xlorofill miqdori 15–20% ga oshgan. Bu esa fotosintez intensivligining 10–14% ga ortishiga olib kelgan.

Hosildorlik ko‘rsatkichlari ham baholandi. Entomofag qo‘llanilgan variantlarda pomidor hosili 12–18% ga, bodringda esa 10–15% ga oshgan. Nazorat variantida zararkunanda ta’sirida hosil yo‘qotishlari 20–25% ni tashkil etgan bo‘lsa, entomofag qo‘llanilganda bu ko‘rsatkich 5–8% gacha kamaytirildi.

Iqtisodiy samaradorlik tahliliga ko‘ra, 10 dona/m² meyorda qo‘llash eng maqbul natija bergan. Bu holatda sarf-xarajatlar 1 gektarga 18–22% ga kamaygan, sof daromad esa 25–30% ga oshgan. 15 dona/m² meyorda biologik samara yuqori bo‘lsa-da, iqtisodiy samaradorlik biroz past bo‘lgan.

Shuningdek, entomofagni kimyoviy insektitsidlar bilan integratsiyalash imkoniyatlari ham o‘rganildi. Kam zaharli preparatlar bilan birgalikda qo‘llanilganda entomofagning hayotchanligi 85–90% darajada saqlangan va umumiy samaradorlik 90%

gacha oshgan. Biroq yuqori toksik insektitsidlar entomofag populyatsiyasini 40–60% gacha kamaytirgan..

Kimyoviy vositalarga nisbatan afzalliklari asoslandi.

Tajribalar natijasiga ko‘ra, kimyoviy insektitsidlar qo‘llanilganda oqqanotlilar populyatsiyasi 3–5 kun ichida 85–95% gacha kamaygan. Biroq 12–15 kundan so‘ng ularning soni qayta tiklanib, 1,6–2,2 barobarga oshgani kuzatildi. Bu holat zararkunandalarda rezistentlik (chidamlilik) shakllanishi bilan bog‘liq ekani aniqlandi. Encarsia partenopeani qo‘llanilganda esa populyatsiya kamayishi 10–12 kun ichida 70–85% ni tashkil etgan bo‘lsa-da, keyingi davrda qayta ko‘payish holati kuzatilmagan va barqaror past daraja saqlangan.

Kimyoviy vositalarning takroriy qo‘llanilishi ham tahlil qilindi. Insektitsidlar 10 kunlik intervalda 3–4 marta qo‘llanilganda samaradorlik saqlangan, ammo har bir qo‘llashdan so‘ng zararkunanda populyatsiyasida chidamli individlar ulushi 15–20% ga oshgan. 30 kun davomida rezistentlik darajasi 40–60% gacha yetgan. Entomofag qo‘llanilganda esa bunday holat kuzatilmagan, chunki biologik kurash tabiiy tanlanish mexanizmlariga asoslangan.

1-jadval

Entomofagni yig‘ib olish va saqlash samaradorligi

№	O‘zgaruvchi/Shartlar	Laboratoriya	Teplitsa	Ochiq maydon	Izoh
1	Harorat (°C)	25	22	28	Optimal harorat laboratoriyada 25°C
2	Nisbiy namlik (%)	70±5	65±5	75±5	Optimal namlik hayotchanlikni saqlaydi
3	Imago chiqish foizi (%)	88–92	82–88	75–80	Entomofag samaradorligi muhitga bog‘liq
4	Parazitlash darajasi (%)	80–85	72–80	60–68	Lichinka bosqichida yuqori samara
5	Mexanik shikastlanish (%)	5	7	12	Yig‘ish usuliga bog‘liq
6	Yo‘qotishlar saqlash davomida (%)	6–8	8–10	15–18	Uzoq saqlash samaraga ta’sir qiladi

Ekologik xavfsizlik jihatidan olib borilgan tahlillar ko‘rsatdiki, kimyoviy insektitsidlar qo‘llanilganda agrobiotsenozdagi foydali hasharotlar (entomofaglar, changlatuvchilar) nobud bo‘lishi 65–80% ni tashkil etgan.

Ayniqsa, asalari va boshqa changlatuvchilar soni 50–60% ga kamaygan. Encarsia partenopeani qo‘llanilganda esa foydali organizmlarga ta’sir minimal bo‘lib, ularning 90–95% qismi saqlanib qolgan.

2-jadval

№	Ko‘rsatkichlar	22°C	25°C (optimal)	28°C
1	Rivojlanish davri (kun)	21,4 ±0,6	17,5 ±0,4	15,2 ±0,3
2	Imago chiqish foizi (%)	72–78	88–92	62–65
3	Parazitlash darajasi (%)	60–68	80–85	55–60

№	Ko‘rsatkichlar	22°C	25°C (optimal)	28°C
4	Urg‘ochi mahsuldorligi (dona)	45–55	60–75	38–42
5	Yashash davomiyligi (kun)	9,2 ±0,5	12,3 ±0,7	7,8 ±0,4

Entomofagni laboratoriya sharoitida ko‘paytirish texnologiyasi. Tuproq va o‘simliklarda kimyoviy qoldiq moddalar miqdori ham baholandi. Insektitsidlar qo‘llanilgandan keyin 20 kun o‘tgach ham tuproqda ularning 18–25% qoldiqlari saqlangani aniqlandi.

O‘simlik mahsulotlarida esa 10–15% holatda ruxsat etilgan meyordan yuqori qoldiqlar qayd etilgan. Entomofag qo‘llanilganda esa bunday holat umuman kuzatilmagan, mahsulotlar to‘liq ekologik toza bo‘lgan.

Iqtisodiy samaradorlik tahliliga ko‘ra, kimyoviy kurash usulida 1 gektar maydonga sarf-xarajatlar o‘rtacha 1,2–1,5 mln so‘mni tashkil etgan (3–4 marta ishlov berish hisobiga). Entomofag qo‘llanilganda esa bu ko‘rsatkich 0,8–1,0 mln so‘m atrofida bo‘lgan. Ya’ni 20–30% iqtisodiy tejamkorlikka erishilgan. Shu bilan birga, hosildorlik entomofag qo‘llanilganda 10–18% ga yuqori bo‘lgan.

3-jadval

Xo‘jayin hasharot populyatsiyasini barqaror saqlash

№	Ko‘rsatkichlar	Pomidor	Bodring	Baklajan
1	Tuxum qo‘yish (dona/urg‘ochi)	95–120	80–95	70–85
2	Rivojlanish davri (kun)	18–20	20–22	21–24
3	Nimfa yashovchanligi (%)	85–90	78–84	70–75
4	Optimal zichlik (dona/barg)	40–60	35–50	30–45
5	Populyatsiya o‘sish koeffitsiyenti (R_0)	2,1–2,3	1,8–2,0	1,6–1,9

4-jadval

Parazitlash darajasi va biologik samaradorlik

№	Ko‘rsatkichlar	Laboratoriya	Teplitsa	Ochiq maydon
1	Parazitlash darajasi (%)	78–85	72–80	60–68
2	Imago chiqish foizi (%)	86–92	82–88	75–80
3	Bir urg‘ochi mahsuldorligi (dona)	62–74	55–68	48–60
4	Zararkunanda kamayishi (%)	80–85	70–80	60–70
5	Biologik samaradorlik (%)	82–88	75–85	65–75

Mehnat xarajatlari ham taqqoslandi. Kimyoviy ishlov berishda har bir gektarga 6–8 ishchi soat sarflangan bo‘lsa, entomofag qo‘llashda bu ko‘rsatkich 3–4 soatni tashkil etgan. Demak, mehnat unumdorligi 1,8–2,0 barobarga oshgan. Agroekotizim barqarorligi nuqtai nazaridan ham muhim natijalar olindi. Kimyoviy vositalar qo‘llanilganda tabiiy biologik muvozanat buzilib, ikkinchi darajali zararkunanda hasharotlar soni 25–30% ga oshgan. Entomofag qo‘llanilganda esa agrobiotsenozda biologik muvozanat saqlangan va hatto boshqa zararkunanda turlarining soni 10–15% ga kamaygan.

5-jadval

Agrobiotsenozda qo‘llash meyorlari

№	Meyor (dona/m²)	10 kun (%)	15 kun (%)	20 kun (%)	Iqtisodiy baholash
1	5	42–50	55–60	50–55	Past
2	10	65–72	70–75	68–72	Yuqori
3	15	75–82	78–85	80–87	Optimal
4	20	80–85	85–90	88–92	Ortiqcha sarf

Kimyoviy vositalarning inson salomatligiga ta’siri ham baholandi. Insektitsidlar bilan ishlashda xavflilik darajasi yuqori bo‘lib, maxsus himoya vositalari talab etilgan. Tadqiqotlar davomida ishchilarning 12–18% da yengil darajadagi intoksikatsiya belgilari (bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi) kuzatilgan. Entomofag qo‘llanilganda esa bunday holatlar qayd etilmagan.

Tadqiqotlarda integratsiyalashgan kurash tizimi (IPM) doirasida entomofagning o‘rni ham aniqlandi. Kam zaharli insektitsidlar bilan birgalikda qo‘llanilganda umumiy samaradorlik 85–90% gacha oshgan.

6-jadval

Iqtisodiy samaradorlik va taqqoslama tahlil

№	Ko‘rsatkichlar	Kimyoviy usul	Biologik usul	Farq (%)
1	Hosildorlik (t/ga)	52,4	58,7	+12,0
2	Mahsulot narxi (so‘m/kg)	2 700	3 200	+18,5
3	Yalpi daromad (so‘m)	141 480 000	187 840 000	+32,7
4	Jami xarajat (so‘m)	1 350 000	950 000	–29,6
5	Sof daromad (so‘m)	140 130 000	186 890 000	+33,4
6	Rentabellik (%)	10 377	19 673	+89,5

Biroq yuqori toksik preparatlar entomofag populyatsiyasini 40–50% gacha kamaytirgani sababli ulardan foydalanish cheklandi. Uzoq muddatli kuzatishlar natijasida kimyoviy kurash usulida har yili preparatlar dozasini 10–15% ga oshirish talab etilgan, chunki zararkunanda chidamliligi ortib borgan. Entomofag qo‘llanilganda esa bunday holat kuzatilmagan va samaradorlik yillar davomida barqaror saqlangan. Encarsia partenopeani entomofagini qo‘llash kimyoviy insektitsidlarga nisbatan quyidagi asosiy afzalliklarga ega ekani ilmiy jihatdan asoslandi: yuqori va barqaror biologik samaradorlik (75–85%), ekologik xavfsizlik (0% qoldiq moddalar), iqtisodiy tejamkorlik (20–30%), foydali organizmlarni saqlash (90–95%) va agrobiotsenoz barqarorligini ta’minlash.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari Encarsia partenopea entomofagini oqqanotlilarga qarshi biologik kurashning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi. Tajribalarda entomofagning qo‘llash meyori, muddati, takroriyligi va qo‘llash usullari o‘rganilib, eng maqbul agrotexnik tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 10–15 dona/m² meyorda entomofag qo‘llash biologik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul hisoblanadi. Xususan, 15 dona/m² meyorda oqqanotlilar soni 20 kun davomida 78–85% ga kamayib, iqtisodiy zarar yetkazish chegarasidan 2–3 barobar

past darajaga tushgan. Biroq iqtisodiy tahlillar 10 dona/m² meyorda sarf-xarajatlar kamroq bo‘lib, sof daromad 25–30% ga oshishini ko‘rsatdi. Shu bois ishlab chiqarish amaliyoti uchun 10–15 dona/m² meyor tavsiya etiladi. Entomofagni zararkunanda populyatsiyasi past bo‘lgan, ya’ni 1 bargda 3–5 ta lichinka aniqlangan bosqichda qo‘llash eng yuqori samara berdi. Takroriy qo‘llashda 7–10 kunlik interval oqqanotlilar populyatsiyasini barqaror nazorat qilish imkonini berib, biologik samaradorlikni 82–88% gacha ta’minladi. Teplitsa sharoitida entomofagning samaradorligi ochiq maydonga nisbatan yuqori bo‘lib, tashqi muhit omillarining cheklanganligi sababli oqqanotlilar populyatsiyasi 72–80% gacha kamaydi. Imagolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash tezkor ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, parazitlangan nimfalarni tarqatish usuli ham yuqori umumiy samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1 Xolliyev A.T., Elmurodov M.Z. Oq qanotlarga qarshi biologik kurashda Encarsia partenopea (Hymenoptera) dan foydalanishning ilmiy asoslari. – 2026. – B. 32–35.

2 Xolliyev A.T., Elmurodov M.Z. Biolaboratoriyalarda Encarsia partenopea yetishtirish va uning zararkunandalarga qarshi ta’siri. // Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini. – 2026. – №6 (121). DOI: 10.63241/agro-1764.

3 Jumayev R., Tog‘ayev S., Saidova Z., Musurmonqulova M., Norbekov A Xamrayev A.Sh., Xasanov B.A., Sulaymonov B.A., Kojevnikova A.G. O‘simliklarni biologik himoya qilish vositalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 508 b.

4 Xamrayev A.Sh., Xasanov B.A., Sulaymonov B.A., Kojevnikova A.G., Xolmurodov E.A. O‘simliklarni biologik himoya qilish. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – 336 b.

5 Xamrayev A.Sh., Nasriddinov K., Xasanov B.A., Sulaymonov B.A., Kojevnikova A.G. O‘simliklarni biologik himoya qilish vositalari. – Toshkent: Xalq merosi, 2009. – 139 b.

6 Kimsanboyev H.H., Sulaymonov B.A., Anorbaev A.R., Jumayev R.A., Ahmedova Z.Yu., Sulaymonov O.A. Biotsenozda o‘simlik zararkunandalari parazit entomofaglarining rivojlanishi. – Toshkent, 2016. – 282 b.

7 Sulaymonov O., Anorbaev A. Role of Aleyrodidae Entomophages in agrobiocenosis in type content and management in Uzbekistan. – 2021.

8 . Development of a laboratory rearing system for whitefly as a host for Encarsia formosa. // Agrochemical Protection and Plant Quarantine. – 2026.

9 Bellows, T. S., Perring, T. M., Gill, R. J., & Headrick, D. H. (1994). Description of a species of **Bemisia** (Homoptera: Aleyrodidae). **Annals of the Entomological Society of America, 87**(2), 195–206. https://doi.org/10.1093/aesa/87.2.195

10 Byrne, D. N., & Bellows, T. S. (1991). Whitefly biology. **Annual Review of Entomology, 36**, 431–457. https://doi.org/10.1146/annurev.en.36.010191.002243

11 Gerling, D. (Ed.). (1990). **Whiteflies: Their bionomics, pest status and management**. Intercept Ltd.

12 Gerling, D., Alomar, O., & Arno, J. (2001). Biological control of **Bemisia tabaci** using predators and parasitoids. **Crop Protection, 20**(9), 779–799. https://doi.org/10.1016/S0261-2194(01)00111-9

13 Hoddle, M. S., Van Driesche, R. G., & Sanderson, J. P. (1998). Biology and use of the whitefly parasitoid **Encarsia formosa**. **Annual Review of Entomology, 43**, 645–669. https://doi.org/10.1146/annurev.ento.43.1.645

14 Naranjo, S. E. (2001). Conservation and evaluation of natural enemies in integrated pest management systems for whiteflies. **Crop Protection, 20**(9), 835–852. https://doi.org/10.1016/S0261-2194(01)00113-2

15 Van Lenteren, J. C. (Ed.). (2012). **IOBC Internet book of biological control**. International Organization for Biological Control.

16 Van Lenteren, J. C., Bolckmans, K., Köhl, J., Ravensberg, W. J., & Urbaneja, A. (2018). Biological control using invertebrates and microorganisms: Plenty of new opportunities. **BioControl, 63**(1), 39–59. https://doi.org/10.1007/s10526-017-9801-4

17 Zhang, Y., Wan, F. H., & Liu, S. S. (2020). Biology, ecology, and management of the whitefly **Bemisia tabaci**. **Annual Review of Entomology, 65**, 431–450.

18 Жумаев, Қ. Х. (2018). **Ўсимликларни биологик ҳимоя қилиш асослари**. Тошкент: Navroʻz.

https://iau-jaesa.uz/article/53zvjfi6lhp0/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845924
UO‘K: 631.417.2:631.874

AMARANT NAVLARI VA NAMUNALARINING MAHSULDORLIK KO‘RSATKICHLARI

Normurodova Munojat Tog‘ayevna
Toshkent davlar agrar universiteti, doktoranti
E.mail: munojatnormurodova22@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-8692-8170

Allanov Xolik
Toshkent davlat agrar universiteti professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori,
E-mail: xoliq72@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-2423-8913

Annotatsiya: *Maqolada Toshkent viloyati sharoitida amarant navlari va namunalarining ayrim mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, jumladan, ro‘vakning quruq massasi, bir ro‘vakdagi urug‘ massasi, 1000 dona urug‘ massasi hamda o‘simliklarning yashil biomassasi bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan. Tadqiqotlarda genotiplar o‘rtasidagi farqlar va yillar bo‘yicha belgilar o‘zgaruvchanligi baholangan. Shuningdek, amarant genotiplarining fuzarioz bilan kasallanish darajasi aniqlangan. Tajriba natijalariga ko‘ra, RRC-1027, New 41, New 45, New 30 va Check 3 namunalarida ayrim mahsuldorlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lgan. RRC-1027 genotipida ro‘vakning quruq massasi va bir ro‘vakdagi urug‘ massasi yuqori qiymatlarni namoyon qilgan. Olingan natijalar amarant genotiplarini mahalliy agroiqlim sharoitida baholash va istiqbolli boshlang‘ich materiallarni tanlash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *amarant, Amaranthus spp., genotip, ro‘vak, quruq massa, yashil massa, urug‘ massasi, 1000 dona urug‘ massasi, mahsuldorlik, fuzarioz.*

Аннотация: *В статье представлены результаты исследований некоторых показателей продуктивности сортов и образцов амаранта в условиях Ташкентской области, включая сухую массу метёлки, массу семян с одной метёлки, массу 1000 семян, а также зелёную биомассу растений. В ходе исследований проведена оценка различий между генотипами и изменчивости изучаемых признаков по годам. Кроме того, определена степень поражения генотипов амаранта фузариозом. Согласно результатам эксперимента, у образцов RRC-1027, New 41, New 45, New 30 и Check 3 отмечены относительно высокие значения отдельных показателей продуктивности. Генотип RRC-1027 характеризовался высокими значениями сухой массы метёлки и массы семян с одной метёлки. Полученные результаты служат научной основой для оценки генотипов амаранта в местных агроклиматических условиях и отбора перспективного исходного материала.*

Ключевые слова: *амарант, Amaranthus spp., генотип, метёлка, сухая масса, зелёная масса, масса семян, масса 1000 семян, продуктивность, фузариоз.*

Abstract. *The article presents the results of a study of selected productivity traits of amaranth varieties and accessions under the conditions of the Tashkent Region, including panicle dry mass, seed mass per panicle, 1000-seed mass, and plant green biomass. Differences among genotypes and year-to-year variability of the studied traits were evaluated. The incidence of Fusarium disease in amaranth genotypes was also determined. The experimental results showed relatively high values for some productivity traits in the RRC-1027, New 41, New 45, New 30, and Check 3 accessions. The RRC-1027 genotype demonstrated high values of panicle dry mass and seed mass per panicle. The obtained results provide a scientific basis for evaluating amaranth genotypes under local agroclimatic conditions and selecting promising initial breeding material.*

Keywords: *amaranth, Amaranthus spp., genotype, panicle, dry mass, green biomass, seed mass, 1000-seed mass, productivity, Fusarium disease.*

KIRISH

Amarant (*Amaranthus* spp.) oziq-ovqat va yem-xashak yo‘nalishida foydalaniladigan, yuqori biologik mahsuldorlikka ega ekinlardan biridir. Ayrim amarant turlari qurg‘oqchilik va yuqori harorat sharoitlariga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. So‘nggi tadqiqotlarda amarant genotiplarining o‘sish, biomassani shakllantirish va urug‘ hosildorligi bo‘yicha sezilarli genotipik farqlarga ega ekanligi ko‘rsatilgan [1–3].

Amarant doni oqsil, yog‘, mineral moddalar, oziq tolalari va biologik faol birikmalarning manbai hisoblanadi. Ayniqsa, urug‘ oqsilining aminokislota tarkibida lizin va metionin miqdorining nisbatan yuqoriligi uning oziqaviy qiymatini oshiradi [4].

Amarant donini yorma, un va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qayta ishlash mumkin. Unidan non, pechenye, pishiriq va boshqa mahsulotlar tayyorlash imkoniyati mavjud. Bunda amarant unini boshqa don ekinlari unlari bilan aralashtirish texnologik xususiyatlarni yaxshilashi mumkin [1, 5].

Amarantning mahsuldorligi genotip, agroiqlim sharoiti, ekish muddati, oziqlanish va namlik bilan ta’minlanganlik kabi omillarga bog‘liq. Shu sababli mahalliy sharoitda turli genotiplarning morfologik va mahsuldorlik belgilarini ko‘p yillik kuzatish asosida baholash muhim hisoblanadi [2, 3].

TADQIQOT MATERIALI VA USULLARI

Tadqiqotlar Toshkent viloyati sharoitida amarantning turli nav va namunalarida olib borildi. Tajribada New 65, New 21, Check 2, New 41, New 13, New 30, Check 7, Check 5, New 45, Check 3, RRC-1027 hamda standart sifatida Marhamat navi o‘rganildi.

Mahsuldorlik belgilarini baholashda ro‘vakning quruq massasi, bir ro‘vakdagi urug‘ massasi, 1000 dona urug‘ massasi va bir tupdagi yashil massa miqdori hisobga olindi. Tajriba yillari bo‘yicha o‘rtacha qiymat va o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti (V, %) aniqlandi.

Fuzarioz bilan kasallanish darajasi kasallik belgilari kuzatilgan o‘simliklar sonining tekshirilgan jami o‘simliklar soniga nisbati asosida hisoblandi:

Kasallanish darajasi (%) = (kasallangan o‘simliklar soni / tekshirilgan o‘simliklar soni) × 100.

Amarantda *Fusarium oxysporum* bilan bog‘liq ildiz chirishi, poya zararlanishi va so‘lish belgilari qayd etilganligi zamonaviy tadqiqotlarda ham ko‘rsatilgan [6, 7].

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Ro‘vakning quruq massasi. 2019–2021-yillarda o‘rganilgan genotiplarda ro‘vakning quruq massasi bo‘yicha sezilarli farqlar aniqlandi. Mazkur belgi genotipning mahsuldorlik potensialini baholashda muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, uning qiymati yillar bo‘yicha ham o‘zgarib bordi.

1-jadval. Amarant nav va namunalarida ro‘vakning quruq massasi, g

Nav va namunalar	2019-yil M±m	V, %	2020-yil M±m	V, %	2021-yil M±m	V, %
New 65	140,0±0,78	2,71	142,1±1,29	1,65	162,8±0,75	1,54
New 21	116,5±0,88	2,11	122,5±0,96	2,10	133,0±0,95	1,99
Check 2	146,2±0,58	2,59	152,4±1,13	1,40	158,6±0,67	1,34
New 41	194,8±0,51	1,90	202,4±0,97	1,81	210,0±1,06	0,99
New 13	155,6±1,14	2,27	160,4±1,32	1,99	163,1±1,49	1,48
New 30	159,6±1,23	5,51	164,4±1,27	4,47	166,9±1,40*	3,13
Check 7	160,7±1,61	2,08	162,7±1,27	1,59	165,2±0,92	1,11
Check 5	115,5±0,74	1,01	120,4±0,71	0,93	126,8±1,62	1,05
New 45	187,9±1,43	1,94	194,0±1,19	1,57	198,4±1,79	1,22
Check 3	202,4±1,71	1,81	208,1±0,63	1,27	212,9±0,94	1,27
RRC-1027	204,9±1,13	1,85	213,1±1,02	1,60	216,9±1,57	1,01
Marhamat	141,8±0,39	1,39	143,8±0,99	1,22	149,0±1,10	1,13

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda ro‘vakning eng yuqori quruq massasi RRC-1027 namunasi — 204,9 g va Check 3 — 202,4 g da qayd etilgan. 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 213,1 va 208,1 g ni, 2021-yilda esa 216,9 va 212,9 g ni tashkil etdi.

Standart Marhamat navida ro‘vakning quruq massasi yillar bo‘yicha 141,8; 143,8 va 149,0 g ni tashkil etgan. RRC-1027 namunasida ushbu ko‘rsatkich standart navga nisbatan barcha kuzatuv yillarida yuqori bo‘lgan.

Genotiplar o‘rtasidagi mahsuldorlik belgilarining farqlanishi boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Xususan, amarant genotiplarini baholashda hosil va hosil elementlarining genotiplar bo‘yicha sezilarli o‘zgarishi aniqlangan [2, 3].

Bir tupdagi yashil massa miqdori ham genotiplar bo‘yicha farq qilgan. Kuzatuvlarda ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 1240 g dan 1720 g gacha bo‘lgan. Eng yuqori qiymat RRC-1027 oq amarant namunasida qayd etilgan, standart Marhamat navida esa 1455 g ni tashkil qilgan.

Olingan natijalar RRC-1027, Check 3 va New 65 kabi genotiplarni mahalliy sharoitda mahsuldorlik belgilarini yaxshilashga qaratilgan seleksiya ishlarida boshlang‘ich material sifatida qo‘shimcha baholash mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq bunday xulosa genotiplarning ko‘p yillik hosildorligi, irsiyligi va genotip × muhit o‘zaro ta’siri bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar bilan tasdiqlanishi lozim.

Bir ro‘vakdagi urug‘ massasi. Bir ro‘vakdagi urug‘ massasi amarantning urug‘ mahsuldorligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Tadqiqot yillarida ushbu belgi bo‘yicha ham genotiplar o‘rtasida farqlar kuzatildi.

2-jadval. Amarant nav va namunalarida bir ro‘vakdagi urug‘ massasi, g

Nav va namunalar	2019-yil M±m	V, %	2020-yil M±m	V, %	2021-yil M±m	V, %
New 65	10,3±0,23	6,39	11,1±0,33	5,93	12,3±0,32	4,47
New 21	10,6±0,24	6,84	10,7±0,29	5,48	12,1±0,53	4,54
Check 2	11,1±0,09	4,75	11,5±0,45	3,87	12,5±0,46	3,47
New 41	10,8±0,24	4,49	11,2±0,14	2,57	14,0±0,28	2,01
New 13	11,9±0,27	4,52	13,1±0,35	3,42	14,9±0,30	3,07
New 30	11,4±0,35	6,20	13,2±0,24	3,70	15,2±0,29	2,87
Check 7	11,0±0,32	5,82	11,3±0,60	4,37	12,5±0,32	3,69
Check 5	11,5±0,13	4,39	13,4±0,61	3,78	14,3±0,31	2,27
New 45	11,6±0,19	3,37	13,5±0,22	3,24	14,9±0,32	3,02
Check 3	11,2±0,25	4,58	13,1±0,55	4,37	14,5±0,30	3,36
RRC-1027	13,6±0,15	3,53	13,7±0,20	3,05	15,5±0,27	2,24
Marhamat	13,0±0,12	3,46	13,4±0,30	3,25	14,2±0,35	2,23

2019-yilda bir ro‘vakdagi urug‘ massasi 10,3–13,6 g oralig‘ida bo‘lgan. Eng yuqori ko‘rsatkich RRC-1027 namunasida — 13,6 g, standart Marhamat navida esa 13,0 g qayd etilgan.

2020-yilda qiymatlar 10,7–13,7 g oralig‘ida bo‘lib, RRC-1027 namunasida 13,7 g ga yetgan. 2021-yilda esa ushbu belgi 12,1–15,5 g oralig‘ida o‘zgarib, eng yuqori qiymat RRC-1027 — 15,5 g va New 30 — 15,2 g namunalarida qayd etilgan.

RRC-1027 namunasida bir ro‘vakdagi urug‘ massasi 2019–2021-yillarda mos ravishda 13,6; 13,7 va 15,5 g ni tashkil etgan. Shu sababli matnda uchragan **14,7 g** qiymati jadval ma’lumotlariga mos kelmaydi va olib tashlandi.

V qiymatlarining yillar bo‘yicha kamayishi ayrim genotiplarda ushbu belgining tajriba sharoitidagi o‘zgaruvchanligi pasayganini ko‘rsatadi. Biroq bu holatning o‘zi belgining genetik jihatdan barqarorligini isbotlamaydi; bunday xulosa uchun dispersiya tahlili va genotip × muhit o‘zaro ta’siri alohida baholanishi kerak.

1000 dona urug‘ massasi. 1000 dona urug‘ massasi urug‘lik materialining fizik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, amarant genotiplarini baholashda qo‘llaniladi. Tadqiqotlarda mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha ham genotiplar o‘rtasida farqlar qayd etilgan.

2020-yilda 1000 dona urug‘ massasi New 65 namunasida 2,31 g dan New 41 namunasida 2,84 g gacha bo‘lgan. 2021-yilda yuqori qiymatlar New 45 — 3,14 g, Check 5 — 3,16 g va New 41 — 3,22 g namunalarida qayd etilgan.

1000 dona urug‘ massasining yillar bo‘yicha ortishi urug‘larning shakllanish sharoitlari va genotip xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq bu ko‘rsatkichning ortishini bevosita “seleksiya jarayonining samaradorligi” sifatida talqin qilish uchun qo‘shimcha genetik-statistik ma’lumotlar talab etiladi.
Amarant genotiplarida urug‘ va boshqa hosil elementlarining genotiplararo farqlanishi zamonaviy tadqiqotlarda ham qayd etilgan [2, 3].

Amarant navlari va namunalarining fuzarioz bilan kasallanish darajasi. Amarant yetishtirishda *Fusarium* turkumiga mansub zamburug‘lar ildiz, poya va

boshqa organlarning zararlanishi bilan bog‘liq kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Amarantda *Fusarium oxysporum* bilan bog‘liq ildiz chirishi va poya zararlanishi qayd etilgan [6, 7]. Shuningdek, amarant fuzarioz kasalliklarida bir nechta *Fusarium* turlari ishtirok etishi mumkinligi ko‘rsatilgan [6].

Tadqiqotlarda Toshkent davlat agrar universitetining o‘quv-ilmiy tajriba maydonida amarant nav va namunalarining fuzarioz bilan kasallanish darajasi aniqlandi.

3-jadval. Amarant nav va namunalarining fuzarioz bilan kasallanish darajasi

Nav va namunalar	Tekshirilgan o‘simliklar soni, dona	Kasallangan o‘simliklar soni, dona	Kasallanish darajasi, %
New 65	44	3	6,8
New 21	43	4	9,3
Check 2	42	4	9,5
New 41	44	3	6,8
New 13	43	3	6,8
New 30	43	4	9,3
New 45	44	4	9,0
Check 7	43	4	9,3
Check 5	44	4	9,0
Check 3	43	3	7,0
RRC-1027	44	3	6,8
Marhamat	43	4	9,3

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, eng past kasallanish darajasi New 65, New 41, New 13 va RRC-1027 namunalarida — 6,8% ni tashkil etdi. Check 3 namunasida kasallanish darajasi 7,0% bo‘lgan.

Standart Marhamat navida kasallanish darajasi 9,3% ni tashkil etdi. RRC-1027, New 65, New 41 va New 13 namunalarida bu ko‘rsatkich standartga nisbatan 2,5 foiz punktga past bo‘lgan.

Shu bilan birga, mazkur natijalar asosida ushbu genotiplarni bevosita “fuzariozga chidamli” deb baholash to‘g‘ri emas. Ilmiy jihatdan **“kasallanish darajasi nisbatan past bo‘lgan genotiplar”** iborasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chidamlilikni tasdiqlash uchun kasallikning rivojlanish darajasi, patogenni identifikatsiya qilish, takroriy tajribalar va statistik tahlil natijalari talab etiladi.

2026-yilda O‘zbekistonning arid va sho‘rlangan sharoitlarida o‘tkazilgan tadqiqotda ham RRC-1027 genotipida *Fusarium* so‘lishi bilan kasallanish darajasi 6,8% bo‘lgani qayd etilgan. Ushbu natija mazkur genotipning turli stress sharoitlaridagi kasallanish ko‘rsatkichlarini qo‘shimcha baholash zarurligini ko‘rsatadi [8].

XULOSA

Toshkent viloyati sharoitida o‘rganilgan amarant nav va namunalarining mahsuldorlik ko‘rsatkichlari genotiplar bo‘yicha sezilarli farqlangan.

Ro‘vakning quruq massasi bo‘yicha RRC-1027 va Check 3 namunalari yuqori natijalarni ko‘rsatdi. 2021-yilda RRC-1027 namunasida ushbu ko‘rsatkich 216,9 g, Check 3 namunasida 212,9 g ni tashkil etdi.

Bir ro‘vakdagi urug‘ massasi bo‘yicha 2021-yilda eng yuqori qiymat RRC-1027 — 15,5 g va New 30 — 15,2 g namunalarida qayd etildi.

1000 dona urug‘ massasining yuqori qiymatlari New 45, Check 5 va New 41 namunalarida kuzatildi. 2021-yilda mos ravishda 3,14; 3,16 va 3,22 g qiymatlar qayd etildi.

Fuzarioz bilan kasallanish darajasi New 65, New 41, New 13 va RRC-1027 namunalarida 6,8% bo‘lib, standart Marhamat navidagi 9,3% ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

RRC-1027 namunasi ro‘vak massasi, bir ro‘vakdagi urug‘ massasi va kasallanish darajasi bo‘yicha kompleks baholash uchun istiqbolli genotip sifatida ajralib turdi. Uni seleksiya uchun boshlang‘ich material sifatida tavsiya etishdan oldin ko‘p yillik va ko‘p muhitli tajribalarda hosildorlik, sifat ko‘rsatkichlari va kasallikka munosabatini qo‘shimcha baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Malik M., Sindhu R., Dhull S.B., Bou-Mitri C., Singh Y., Panwar S., Khatkar B.S. Nutritional Composition, Functionality, and Processing Technologies for Amaranth. Journal of Food Processing and Preservation. 2023. Article 1753029. DOI: 10.1155/2023/1753029.

2. Yeshitila M., Gedebo A., Tesfaye B., Demissie H., Olango T.M. Multivariate analysis for yield and yield-related traits of amaranth genotypes from Ethiopia. Heliyon. 2023. Vol. 9, No. 7. e18207. DOI: 10.1016/j.heliyon.2023.e18207.

3. Jahan N., Sarker U., Saikat M.M.H., Hossain M.M., Azam M.G., Ali D., Ercisli S., Golokhvast K.S. Evaluation of yield attributes and bioactive phytochemicals of twenty amaranth genotypes of Bengal floodplain. Heliyon. 2023. Vol. 9, No. 9. e19644. DOI: 10.1016/j.heliyon.2023.e19644.

4. Rivero Meza S., et al. A review on amaranth protein: composition, digestibility, health benefits and food industry utilisation. International Journal of Food Science & Technology. 2023. Vol. 58, No. 3. P. 1564–1574. DOI: 10.1111/ijfs.16056.

5. Coelho L.M., Silva P.M., Martins J.T., Pinheiro A.C., Vicente A.A. Emerging opportunities in exploring the nutritional/functional value of amaranth. Food & Function. 2018. Vol. 9. P. 5499–5512. DOI: 10.1039/C8FO01422A.

6. Appiah-Kubi Z., Adomako J., Armooh B., et al. Identification and Characterization of Fusarium Species Associated With Amaranth (Amaranthus Species) Wilt Disease in the Semi-deciduous and Guinea Savannah Agro-ecological Zones of Ghana. Journal of Agricultural Science. 2022. Vol. 14, No. 12. P. 130–140. DOI: 10.5539/jas.v14n12p130.

7. Pandey A., et al. Macrolactin A mediated biocontrol of Fusarium oxysporum and Rhizoctonia solani infestation on Amaranthus hypochondriacus by Bacillus subtilis BS-58. Frontiers in Microbiology. 2023. DOI: 10.3389/fmicb.2023.1105849.

8. Lapasov J., Inamov A., Safayev S., Iskandarov S., Khalmuminov J. Evaluation of climate-resilient amaranth (Amaranthus spp.) genotypes under arid and salt-affected soils. SABRAO Journal of Breeding and Genetics. 2026. Vol. 58, No. 2. P. 849–857. DOI: 10.54910/sabrao2026.58.2.35.

9. Venskutonis P.R., Kraujalis P. Nutritional Components of Amaranth Seeds and Vegetables: A Review on Composition, Properties, and Uses. Comprehensive Reviews in Food Science and Food Safety. 2013. Vol. 12, No. 4. P. 381–412. DOI: 10.1111/1541-4337.12021.

10. Sonu S.S., Rangan L. Amaranth: From Aztec tradition to climate-smart agriculture – Examining genetic resources, nutritional benefits, and resilience. European Journal of Agronomy. 2026. Vol. 173. Article 127892. DOI: 10.1016/j.eja.2025.127892.

https://iau-jaesa.uz/article/7vf8gyxj62a5/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22845985
UO‘K: 631.417.2:631.874

TUPROQLARNING HAJM OG‘IRLIGIGA ORGANO-MINERAL KOMPOSTLARNING TA’SIRI

Zinatdinov Kamalatdiyin Mnajatdin uli,
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti,
qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori (PhD),
E-mail: kamalatdiyinzinatdinov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-7444-8005

Normurodova Munojat Tog‘ayevna
Toshkent davlar agrar universiteti, doktoranti
E.mail: munojatnormurodova22@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-8692-8170

Allanov Xolik
Toshkent davlat agrar universiteti professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori,
E-mail: xoliq72@mail.ru
https://orcid.org/0000-0003-2423-8913

Annotatsiya. *Ushbu maqolada organo-mineral kompostlarning tuproqning hajm og‘irligiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotlar davomida turli tarkib va me’yorlarda qo‘llanilgan organik va mineral komponentlar asosida tayyorlangan kompostlarning tuproqning fizik xususiyatlariga ta’siri baholangan. Organik moddalarga boy kompostlardan foydalanish natijasida tuproqning zichlashish darajasi kamayib, uning hajm og‘irligi me’yorlashganligi aniqlangan. Kompost tarkibidagi organik moddalar tuproq agregatlarini barqarorlashtirib, g‘ovaklikni oshirishi va tuproqning suv-fizik xususiyatlarini yaxshilashi kuzatilgan. Tadqiqot natijalari organo-mineral kompostlardan foydalanish tuproqning fizik holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun qulay tuproq muhitini shakllantirishda samarali agrotexnik tadbir ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tuproq, hajm og‘irligi, organo-mineral kompost, tuproq zichligi, g‘ovaklik, organik modda, tuproq unumdorligi, tuproq agregatlari, agrotexnologiya.*

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования влияния органо-минеральных компостов на объемную массу почвы. В ходе исследований оценено воздействие компостов, приготовленных на основе органических и минеральных компонентов в различных составах и нормах внесения, на физические свойства почвы. Установлено, что применение компостов, обогащенных органическим веществом, способствует снижению степени уплотнения почвы и улучшению ее объемной массы. Органические компоненты компоста способствуют формированию и стабилизации почвенных агрегатов, увеличению пористости и улучшению водно-физических свойств почвы. Полученные результаты показывают, что применение органо-минеральных компостов является эффективным агротехническим приемом для улучшения*

физического состояния почвы, повышения ее плодородия и формирования благоприятных условий для роста и развития сельскохозяйственных культур.

Ключевые слова: *почва, объемная масса, органо-минеральный компост, плотность почвы, пористость, органическое вещество, плодородие почвы, почвенные агрегаты, агротехнология.*

Abstract. *This article presents the results of a study on the effect of organo-mineral composts on soil bulk density. The study evaluated the influence of composts prepared from organic and mineral components in different compositions and application rates on the physical properties of soil. It was found that the application of organic matter-rich composts reduced soil compaction and improved soil bulk density. The organic components of the compost contributed to the formation and stabilization of soil aggregates, increased soil porosity, and improved its water-physical properties. The results demonstrate that the application of organo-mineral composts is an effective agronomic practice for improving soil physical conditions, enhancing soil fertility, and creating favorable soil conditions for the growth and development of agricultural crops.*

Keywords: *soil, bulk density, organo-mineral compost, soil density, porosity, organic matter, soil fertility, soil aggregates, agricultural technology.*

KIRISH

Tuproqlarning o‘simliklar ildiz tizimi joylashgan qatlami zichlansa ularning o‘sishi hamda rivojlanishi qiyin bo‘lib boradi. Buning natijasida o‘simlikning yer ústki qismi o‘sish va rivojlanishdan ortda qoladi, hosildorlik esa kam bo‘ladi. Shuning uchun tuproqlarning zichlanishini oldini olish maqsadida tuproqda boricha o‘simlik qoldiqlarini ko‘proq qoldirishi, organik va sideratli o‘g‘itlarni qo‘llash, tuproqga ishlov berish tadbirlarini qo‘llashni ko‘rishimiz kerak. Tuproq zichlanishiga sabab bo‘ladigan omillarni, bu sug‘orishlar, qator orasidan traktorlarning qayta-qayta yurishi ham sabab bo‘lishi mumkin.

R.V.Perchenko [1; 38-39-b.] takidlashicha, qishloq xo‘jaligida kompostdan foydalanish organik chiqindilarni minimallashtirish va o‘simlikchilikka qo‘shiladigan o‘g‘itlar va fungitsidlar miqdorini kamaytirish uchun juda samarali. Kompost tuproqning barcha fizik xususiyatlarini yaxshilaydi: massa, zichlik, gidravlik o‘tkazuvchanlik, porozlik va suvni ushlab turish qobiliyati va boshqalar.

S.M.Boltaevning [2; 16-17-b.] tajribalarida olingan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘rtacha sho‘rlangan taqirsimon tuproqlar sharoitida noan‘anaviy agrorudalardan Xavdog‘ bentonit loyqasi va go‘ngdan tayyorlangan kompostni tuproqqa berishganda tuproqning meliorativ holatini yaxshilab, tuproqning suv-fizik va agroximyoviy holati yaxshilangan, ya’ni kompost tuproqning hajm og‘irligini kamaytirib nam sig‘imini oshirgan.

A.Ismailova, B.Niyazalievlarning [3; 38-39-b.] ma’lumotlari bo‘yicha, ma’dan o‘g‘itlarni yillik me’yorini 25 foizga kamaytirib, unga qo‘shimcha ravishda glaukonit va glaukofosni 600, 900 va 1200 kg/ga me’yorida amal davrida oziqlantirish uchun qo‘llash va glaukonit va glaukofosni 1200 va 1500 kg/ga me’yorida shudgor ostiga qo‘llanilganda tuproq hajm massasi va tuproq zichlanishi kam bo‘lishi kuzatilgan.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tajriba dala usuli bo‘yicha olib borildi. Tadqiqotlar 9 variantdan 4 qaytariqtan iborat bo‘lib, variantlar tizimli uslubda joylashtirildi. Tajribada tuproqning agrofizikaviy tahlillarini o‘tkazishda «Методы агрофизических исследований» (Tashkent, 1973) uslubiy qo‘llanmasidan foydalanildi [4].

Tuproq zichlanishini kamaytirish bo‘yicha bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida har xil tarkibdagi kompostlarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarli bo‘lmaganligi sababli biz tajribada kompostlarning qo‘llashning tuproq hajm og‘irligini yaxshilashdagi samaradorligi bo‘yicha dala tajribasini o‘tkazdik. Tajriba davomida bahorda va kuzda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamida kompost, organik va mineral o‘g‘itlarning tuproq hajm salmog‘iga tasirini aniqlash maqsadida tuproq namunalarini oldik va laboratoriya sharoitida aniqladik.

NATIJALAR

Olingan malumotlarga ko‘ra, 2021 yil vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 sm qatlamida tuproq hajm salmog‘i variantlar bo‘yicha o‘rtacha 1,31-1,36 g/sm^3 gacha bo‘ldi.

Tajribalarda vegetatsiya davri boshida nazorat (NPK) variantida tuproqning hajm og‘irligi 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda 1,36 va 1,45 g/sm^3 tashkil qilgan bo‘lsa, g‘o‘zaning vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og‘irligi 1,41 va 1,51 g/sm^3 bo‘lib, bahordagi ko‘rsatkichlarga nisbatan ortganligi aniqalandi.

Mineral o‘g‘itlar bilan organik o‘g‘itlar 10, 20 va 30 t/ga miqdorda qo‘llanilgan 2-4 variantlarda vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og‘irligi 1,32-1,33-1,34 g/sm^3 va 1,43-1,44-1,44 g/sm^3 ni, g‘o‘zaning vegetatsiya davri oxirida tuproqning yuqoridagi qatlamlarida mos holda hajm og‘irligi 1,37-1,38-1,39 g/sm^3 va 1,47-1,49-1,50 g/sm^3 tashkil qilib, 1-nazorat variantiga nisbatan 0,02-0,03-0,04 ва 0,01-0,02-0,04 g/sm^3 kamroq bo‘lganligi aniqlandi.

Mineral o‘g‘itlarga qo‘shimcha kompost-1 12 t/ga va kompost-2 14 t/ga miqdorlarda qo‘llanilgan 5 va 6 variantlarda vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og‘irligi 1,33-1,33 va 1,43-1,44 g/sm^3 tashkil qilgan holda, nazorat variantiga nisbatan 0,03-0,03 ва 0,02-0,03 g/sm^3 kamroq bo‘ldi. Vegetatsiya davri oxiriga kelib bu ayirmachiliklar 1-variantiga nisbatan kamroq bo‘ldi.

Gektariga 20 t/ga miqdorda kompost-3 qo‘llanilgan 7 variantda vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og‘irligi mos ravishda 1,32 va 1,43 g/sm^3 tashkil qilib, g‘o‘zaning vegetatsiya davri oxirida tuproqning yuqoridagi qatlamlarida mos holda hajm og‘irligi 1,36 va 1,47 g/sm^3 tashkil qildi hamda nazorat variantiga nisbatan mutonasib 0,05 ва 0,04 g/sm^3 kamroq bo‘lganligi aniqlandi.

Tajribada kompost-4 gektariga 22 tonna qo‘llanilgan 8-variantda esa variantda vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og‘irligi mos holda 1,31 va 1,42 g/sm^3 tashkil qilib, nazorat variantiga nisbatan mutonasib 0,05 ва 0,03 g/sm^3, go‘ng me’yorlariga nisbatan 0,03-0,02-0,01 ва 0,02-0,02-0,01 g/sm^3 kamaygan. Vegetatsiya davri oxirida yuqoridagi tuproq qatlamlarida mos ravishda hajm og‘irligi 1,35 va 1,46 g/sm^3 ni tashkil qildi va 1-nazorat variantiga nisbatan 0,06

va 0,05 g/sm^3 ga va go‘ng me’yorlariga solishtirganda 0,04-0,03-0,02 ва 0,04-0,03-0,02 g/sm^3 ga kamroq bo‘lganligi aniqlandi.

Kompost-5 24 t/ga qo‘llanilgan 9-variantda variantda vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og‘irligi mos 1,33 va 1,42 g/sm^3 bo‘lib, bu nazorat variantiga nisbatan 0,03 g/sm^3 va 0,03 g/sm^3 ga kamayganligi aniqlandi. Vegetatsiya davri oxiriga kelib bu ayirmachiliklar 1-variantiga nisbatan kamroq bo‘ldi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gektariga 22 tonna qo‘llanilgan 8-variantda esa variantda vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og‘irligi mos holda 1,31 va 1,42 g/sm^3 tashkil qilib, nazorat variantiga nisbatan mutonasib 0,05 ва 0,03 g/sm^3 kamaygan. Vegetatsiya davri oxirida yuqoridagi tuproq qatlamlarida mos ravishda hajm og‘irligi 1,35 va 1,46 g/sm^3 ni tashkil qilib, bu nazorat variantiga nisbatan 0,06 va 0,05 g/sm^3 ga kamroq bo‘lganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Перченко Р.В. Разрабодка технологии интенсивного компостирования отходов животноводства с использованием термофильных микроорганизмов. // Выпускная квалификационная работа магистра. Томск. -2021. С. 38-39.

2. Boltaev S. Kompost - meliorantlarining tuproqdagi zararli tuzlar o‘zgarishi va paxta hosildorligiga ta’siri. //Agroilm jurnali. Toshkent. 2017. -№1(45). B. 16-17.

3. Ismailova A, Niyazaliev B. «Madan va noananaviy o‘g‘itlarning tuproq hajm massasiga ta’siri». //O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnali. Toshkent 2020. -№6. B. 38-39.

4. Методика агрофизических исследований почв Средней Азии. Ташкент. 1973 г. Уз НИХИ.

5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. // Изд. 5-е допол. и перераб. Москва. Агропромиздат. 1985. С. 351.

6. Boboqulova Z.S., Mingnorova F.F., Boboqulova Z.S. Tuproq unumdorligini oshirishda agrorudalarning ahamiyati. // Multidisciplinary Scientific Journal. Volume1, Issue 4, 2023. B. 82-86.

7. Boltaev S. Mahalliy o‘g‘it va agrorudadan tayorlangan kompost. //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali. Toshkent. 2009. -№3. B.24.

https://iau-jaesa.uz/article/o7d2m0jzvz06/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846028
UO‘K: 631.417.2:631.874

TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA INTRODUKSIYA QILINGAN AMARANT GENOTIPLARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA FUZARIOZ BILAN KASALLANISH DARAJASINI BAHOLASH

Normurodova Munojat Tog‘ayevnia
Toshkent davlar agrar universiteti, doktoranti
E.mail: munojatnormurodova22@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-8692-8170

Allanov Xolik
Toshkent davlat agrar universiteti professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori,
E-mail: xoliq72@mail.ru
https://orcid.org/0000-0003-2423-8913

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot Toshkent viloyatining tuproq-iqlim sharoitida xorijdan introduksiya qilingan amarant (*Amaranthus *spp.) genotiplarining morfologik xususiyatlarini tavsiflash, ularning fenotipik xilma-xilligini aniqlash hamda tabiiy infeksiya fonida fuzarioz bilan kasallanish darajasini baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqotlar 2019–2022-yillarda olib borilib, Sho‘rlangan yerlarda biodehqonchilik xalqaro markazi (ICBA) orqali introduksiya qilingan New 65, New 21, Check 2, New 41, New 13, New 30, New 45, Check 7, Check 5, Check 3 va RRC-1027 genotiplari hamda andoza sifatida Marhamat navi o‘rganildi. Morfologik baholash jarayonida asosiy poyaning rangi va shakli, urug‘ qobig‘ining rangi, fiziologik pishgan ro‘vakning rangi va zichligi, barg shakli hamda barg cheti kabi belgilar hisobga olindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, barcha genotiplarda poya shakli, barg shakli, barg cheti va ro‘vak zichligi bo‘yicha nisbatan bir xillik kuzatildi, biroq poya, urug‘ qobig‘i va fiziologik pishgan ro‘vak ranglarida yaqqol fenotipik farqlanish aniqlandi. Urug‘ qobig‘i rangining sariq, yashil, oq va qizil shakllarda namoyon bo‘lishi kolleksiya materiallarining morfologik xilma-xilligini ko‘rsatdi. Tabiiy infeksiya sharoitida fuzarioz bilan kasallanish darajasi genotiplar bo‘yicha 6,8–9,5% oralig‘ida bo‘ldi. Eng past kasallanish New 65, New 41 va RRC-1027 genotiplarida qayd etildi. Dala kuzatuvlarini urug‘larning laboratoriya sharoitidagi fitopatologik tahlili bilan birgalikda olib borish genotiplarning fitopatologik holatini kompleks baholash imkonini berdi. Olingan natijalar amarant genofondini mahalliy agroekologik sharoitda baholash, morfologik jihatdan farqlanuvchi va tabiiy infeksiya fonida nisbatan kam kasallangan genotiplarni ajratish hamda keyingi seleksiya va fitopatologik tadqiqotlar uchun istiqbolli boshlang‘ich materiallarni tanlashda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Amaranthus, amarant, introduksiya, genotip, morfologik belgilar, fenotipik xilma-xillik, fuzarioz, Fusarium, kasallanish darajasi, urug‘ sog‘lomligi, seleksiya.*

Аннотация. *Настоящее исследование посвящено изучению морфологических особенностей интродуцированных генотипов амаранта*

*(*Amaranthus *spp.), оценке их фенотипического разнообразия и определению степени поражения растений фузариозом в почвенно-климатических условиях Ташкентской области. Исследования проводились в 2019–2022 годах. В качестве объектов изучения были использованы генотипы New 65, New 21, Check 2, New 41, New 13, New 30, New 45, Check 7, Check 5, Check 3 и RRC-1027, интродуцированные через Международный центр биоземледелия на засоленных землях (ICBA), а сорт Мархамат использовался в качестве стандарта. При морфологической оценке учитывались цвет и форма главного стебля, цвет семенной оболочки, цвет и плотность метёлки в фазе физиологической спелости, форма листа и край листовой пластинки. Установлено, что по форме стебля, форме листьев, краю листа и плотности метёлки изученные генотипы характеризовались относительным сходством. Вместе с тем выраженные фенотипические различия выявлены по окраске стебля, семенной оболочки и физиологически зрелой метёлки. Цвет семенной оболочки варьировал от жёлтого и зелёного до белого и красного, что свидетельствует о морфологическом разнообразии изученной коллекции. В условиях естественного инфекционного фона степень поражения фузариозом варьировала от 6,8 до 9,5%. Наиболее низкий уровень поражения отмечен у генотипов New 65, New 41 и RRC-1027. Комплексная оценка полевых наблюдений и лабораторного исследования фитопатологического состояния семян позволила более полно охарактеризовать изучаемые генотипы. Полученные результаты могут быть использованы при оценке амарантового генофонда в местных агроэкологических условиях, отборе перспективного исходного материала для селекции и проведении последующих фитопатологических исследований.*

Ключевые слова: *Amaranthus, амарант, интродукция, генотип, морфологические признаки, фенотипическая изменчивость, фузариоз, степень поражения, здоровье семян, генофонд, селекция.*

Abstract. *This study was aimed at characterizing the morphological traits of introduced amaranth (*Amaranthus *spp.) genotypes, assessing their phenotypic diversity, and determining the degree of Fusarium disease incidence under the soil and climatic conditions of the Tashkent Region. The research was conducted during 2019–2022. The study included the genotypes New 65, New 21, Check 2, New 41, New 13, New 30, New 45, Check 7, Check 5, Check 3, and RRC-1027, introduced through the International Center for Biosaline Agriculture (ICBA), while the Marhamat cultivar was used as a standard. Morphological evaluation included the color and shape of the main stem, seed coat color, color and density of the panicle at physiological maturity, leaf shape, and leaf margin. The results showed relative uniformity among the studied genotypes in stem shape, leaf shape, leaf margin, and panicle density. However, clear phenotypic differences were observed in stem color, seed coat color, and the color of physiologically mature panicles. Seed coat color varied among yellow, green, white, and red phenotypes, indicating considerable morphological diversity within the studied collection. Under natural infection conditions, Fusarium disease incidence ranged from 6.8 to 9.5% among the genotypes. The lowest incidence was recorded in New 65, New 41, and RRC-1027. The combined assessment of field observations and*

laboratory analysis of the phytopathological condition of seeds provided a more comprehensive characterization of the introduced genotypes. The obtained results provide a scientific basis for evaluating amaranth germplasm under local agroecological conditions, identifying promising genotypes as initial breeding material, and conducting further controlled inoculation and phytopathological studies.

Keywords: *Amaranthus, amaranth, introduction, genotype, morphological traits, phenotypic variation, Fusarium disease, disease incidence, seed health, germplasm, breeding.*

KIRISH

Amarant (*Amaranthus*) oziq-ovqat, ozuqa va qayta ishlash sanoatida ko‘p yo‘nalishli foydalanish imkoniyatiga ega ekinlardan biri hisoblanadi. Amarant urug‘lari oqsil, lipidlar va boshqa oziqaviy komponentlarning manbai bo‘lib, uning vegetativ biomassasidan ozuqa maqsadlarida foydalanish mumkin [2, 3]. Amarant moyining biologik qiymati tarkibidagi skvalen va boshqa lipid komponentlari bilan ham bog‘liq [2, 3].

Amaranthus genofondi morfologik belgilarning keng xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Poya va to‘pgul pigmentatsiyasi, barg morfologiyasi, to‘pgul tuzilishi hamda urug‘ rangi amarant kolleksiya materiallarini tavsiflash va differensiatsiyalashda qo‘llaniladigan muhim fenotipik deskriptorlardir [1]. Morfologik tavsiflash genofondni dastlabki baholash imkonini bersa-da, seleksiya uchun qimmatli boshlang‘ich materiallarni aniqlashda biologik va fitopatologik xususiyatlarni ham hisobga olish zarur.

Amarant C4 fotosintez tipiga mansub bo‘lib, ushbu fiziologik xususiyat yuqori harorat sharoitida fotosintetik jarayonlarning samaradorligi va suvdan foydalanish xususiyatlari bilan bog‘liq. Shu sababli turli geografik hududlardan introduksiya qilingan amarant genotiplarini muayyan tuproq-iqlim sharoitida o‘rganish ularning fenotipik xususiyatlarini aniqlash hamda mahalliy seleksiya dasturlari uchun boshlang‘ich materiallarni ajratishda muhimdir.

Introduksiya qilingan genotiplarni baholashda kasalliklarga munosabati alohida ahamiyat kasb etadi. *Fusarium* turkumiga mansub zamburug‘lar tuproq, o‘simlik qoldiqlari va urug‘ materialida uchrab, ko‘plab qishloq xo‘jaligi ekinlarida kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin [5, 7, 8]. *Fusarium oxysporum* tur kompleksi biologik va genetik jihatdan murakkab bo‘lib, uning tarkibida patogen va patogen bo‘lmagan shtammlar mavjud [6–8]. Shu sababli dala sharoitidagi kasallanish ko‘rsatkichlarini urug‘ sog‘lomligining laboratoriya tahlili bilan birgalikda o‘rganish genotiplarning fitopatologik holatini to‘liqroq tavsiflash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi: Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoitida xorijdan introduksiya qilingan amarant genotiplarining asosiy morfologik belgilarini tavsiflash, tabiiy infeksiya fonida fuzarioz bilan kasallanish darajasini aniqlash va keyingi seleksion hamda fitopatologik tadqiqotlar uchun istiqbolli boshlang‘ich materiallarni ajratish.

TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Tadqiqotlar 2019–2022-yillarda Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoitida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida Sho‘rlangan yerlarda biodehqonchilik xalqaro

markazi (ICBA) orqali xorijdan introduksiya qilingan New 65, New 21, Check 2, New 41, New 13, New 30, New 45, Check 7, Check 5, Check 3 va RRC-1027 (Oq amarant) genotiplari o‘rganildi. Marhamat navi andoza sifatida tajribaga kiritildi.

Dala tajribalarida fenologik kuzatuvlar va morfologik tavsiflash ishlari olib borildi. Morfologik baholashda asosiy poyaning rangi va shakli, urug‘ qobig‘i rangi, fiziologik pishgan ro‘vakning rangi va zichligi, barg shakli hamda barg cheti hisobga olindi.

Fuzarioz bilan tabiiy kasallanish dala sharoitida genotiplar kesimida kasallik belgilari qayd etilgan o‘simliklar sonini hisoblash asosida baholandi. Kasallangan o‘simliklar ulushi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$P = (n / N) \times 100,$$

bunda:

P-kasallangan o‘simliklar ulushi, %;

n-kasallangan o‘simliklar soni, dona;

N-hisobga olingan jami o‘simliklar soni, dona.

Urug‘ sog‘lomligini baholash laboratoriya sharoitida amalga oshirildi. Urug‘ yuzasi bilan bog‘liq zamburug‘larni aniqlash uchun steril suvda tayyorlangan suspenziya mikroskopik tekshirildi va oziqa muhitiga ekildi. Urug‘ning ichki to‘qimalari bilan bog‘liq zamburug‘larni aniqlash uchun yuzaki sterilizatsiya qilingan urug‘lar oziqa muhitiga joylashtirildi. Ekilgan namunalar 23–26 °C haroratda inkubatsiya qilinib, rivojlangan zamburug‘ koloniyalari makro- va mikromorfologik belgilariga ko‘ra baholandi.

Urug‘larning zamburug‘ bilan zararlanish ulushi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$X = (n_1 / M) \times 100,$$

bunda:

X-zararlangan urug‘lar ulushi, %;

n_1-zamburug‘ rivojlanishi aniqlangan urug‘lar soni, dona;

M-tahlil qilingan jami urug‘lar soni, dona.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Introduksiya qilingan amarant genotiplarining morfologik xususiyatlari.

Toshkent viloyati sharoitida introduksiya qilingan amarant genotiplarini morfologik baholash natijasida ayrim belgilar bo‘yicha umumiylik, ayrim belgilar bo‘yicha esa fenotipik farqlanish mavjudligi aniqlandi (1-jadval).

Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoitida introduksiya qilingan amarant genotiplarining morfologik belgilari (2019–2022-yy.) 1-jadval.

№	Genotip	Poya rangi	Poya shakli	Urug‘ qobig‘i rangi	Fiziologik pishgan ro‘vak rangi	Ro‘vak zichligi	Barg shakli	Barg cheti
1	New 65	Qizil	Oval	Sariq	Oq	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
2	New 21	Yashil	Oval	Yashil	Oq	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
3	Check 2	Qizil	Oval	Oq	Qizil	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
4	New 41	Yashil	Oval	Oq	Qizil	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon

№	Genotip	Poya rangi	Poya shakli	Urug‘ qobig‘i rangi	Fiziologik pishgan ro‘vak rangi	Ro‘vak zichligi	Barg shakli	Barg cheti
5	New 13	Yashil	Oval	Qizil	Qizil	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
6	New 30	Yashil	Oval	Yashil	Qizil	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
7	New 45	Yashil	Oval	Sariq	Oq	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
8	Check 7	Yashil	Oval	Yashil	Oq	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
9	Check 5	Yashil	Oval	Sariq	Qizil	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
10	Check 3	Yashil	Oval	Yashil	Oq	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
11	RRC-1027 (Oq amarant)	Yashil	Oval	Sariq	Oq	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon
12	Marhamat (andoza)	Yashil	Oval	Oq	Qizil	Zich	Tuxumsimon	Arrasimon

Barcha genotiplarda asosiy poya shakli oval, barg shakli tuxumsimon, barg cheti arrasimon va fiziologik pishgan ro‘vak zich bo‘ldi. Mazkur belgilar o‘rganilgan kolleksiya doirasida genotiplarni differensiatsiyalash imkonini bermadi.

Poya rangida esa aniq fenotipik farqlanish kuzatildi. New 65 va Check 2 namunalarida asosiy poya qizil, qolgan 10 ta genotipda yashil bo‘ldi. Shunga ko‘ra, kolleksiyaning 16,7% ida qizil, 83,3% ida yashil poya fenotipi qayd etildi.

Fiziologik pishgan ro‘vak rangiga ko‘ra genotiplar ikki guruhga ajraldi. New 65, New 21, New 45, Check 7, Check 3 va RRC-1027 namunalarida oq, Check 2, New 41, New 13, New 30, Check 5 hamda andoza Marhamat navida qizil ro‘vak qayd etildi. Oq va qizil ro‘vakli genotiplar o‘rganilgan materiallarning mos ravishda 50,0 va 50,0% ini tashkil etdi.

Amarant ekini 1-rasm

Nisbatan keng fenotipik xilma-xillik urug‘ qobig‘i rangida kuzatildi. New 65, New 45, Check 5 va RRC-1027 namunalarida sariq; New 21, New 30, Check 7 va Check 3 da yashil; Check 2, New 41 va Marhamat navida oq; New 13 namunasida qizil urug‘ qobig‘i qayd etildi. Sariq va yashil urug‘ qobig‘iga ega genotiplarning ulushi 33,3% dan, oq urug‘lilar 25,0%, qizil urug‘li genotip esa 8,3% ni tashkil etdi.

Natijalar poya rangi, urug‘ qobig‘i rangi va fiziologik pishgan ro‘vak rangining o‘rganilgan kolleksiyani morfologik tavsiflashda differensial belgilar ekanligini

ko‘rsatdi. Amarant germplazmasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham poya, to‘pgul va urug‘ pigmentatsiyasi genotiplarni morfologik differensiatsiyalashda informativ belgilar sifatida qayd etilgan [1].

Fuzarioz bilan kasallanish darajasi: Dala kuzatuvlari davomida introduksiya qilingan amarant genotiplarining tabiiy infeksiya fonida fuzarioz bilan kasallanishi baholandi. Kasallangan o‘simliklar ulushi genotiplar bo‘yicha 6,8–9,5% oralig‘ida o‘zgardi (2-jadval).

Introduksiya qilingan amarant genotiplarining dala sharoitida fuzarioz bilan kasallanish darajasi **2-jadval.**

№	Genotip	Hisobga olingan o‘simliklar, dona	Kasallangan o‘simliklar, dona	Kasallanish, %
1	New 65	44	3	6,8
2	New 21	43	4	9,3
3	Check 2	42	4	9,5
4	New 41	44	3	6,8
5	New 13	43	3	7,0
6	New 30	43	4	9,3
7	New 45	44	4	9,1
8	Check 7	43	4	9,3
9	Check 5	44	4	9,1
10	Check 3	43	3	7,0
11	RRC-1027 (Oq amarant)	44	3	6,8
12	Marhamat (andoza)	43	4	9,3

Andoza Marhamat navida 43 ta hisobga olingan o‘simlikdan 4 tasida kasallik belgilari qayd etilib, kasallanish 9,3% ni tashkil etdi. New 21, New 30 va Check 7 namunalarida ham kasallanish 9,3% bo‘lib, andoza bilan bir xil ko‘rsatkich qayd etildi. Check 2 namunasida 9,5% bilan tajribadagi eng yuqori ko‘rsatkich kuzatildi. New 45 va Check 5 namunalarida kasallangan o‘simliklar ulushi 9,1% ni tashkil etdi.

Eng past kasallanish New 65, New 41 va RRC-1027 namunalarida qayd etilib, 6,8% ni tashkil etdi. Bu andoza Marhamat navidan 2,5 foiz punktga past. New 13 va Check 3 namunalarida 7,0% kasallanish kuzatilib, andozaga nisbatan farq 2,3 foiz punktni tashkil etdi.

Shunday qilib, tabiiy infeksiya fonida New 65, New 41, New 13, Check 3 va RRC-1027 genotiplarida fuzarioz bilan kasallangan o‘simliklar ulushi andoza Marhamat naviga nisbatan past bo‘ldi. Biroq mavjud tajribada genotiplararo farqlarning statistik ishonchliligi va sun’iy inokulyatsiya sharoitidagi reaksiyasi aniqlanmaganligi sababli ushbu namunalarni “fuzariozga chidamli” deb qat’iy tasniflash ilmiy jihatdan yetarli asosga ega emas. Ularni tabiiy infeksiya fonida fuzarioz bilan nisbatan kam kasallangan genotiplar sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq.

Mazkur natija seleksiya nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo‘lib, nisbatan past kasallanish ko‘rsatkichiga ega genotiplarni nazorat qilinadigan infeksiya fonida takroriy baholash uchun ajratish imkonini beradi.

Amarant urug‘larining sog‘lomligini laboratoriya sharoitida baholash

Dala kuzatuvlarini to‘ldirish maqsadida amarant genotiplarining urug‘ sog‘lomligi laboratoriya sharoitida o‘rganildi. Urug‘ yuzasi va ichki to‘qimalari bilan bog‘liq zamburug‘larni differensial aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Urug‘ yuzasidagi mikobiotani tekshirishda urug‘lardan steril suv yordamida tayyorlangan suspenziya mikroskopik kuzatildi va oziqa muhitiga ekildi. Urug‘ning ichki to‘qimalari bilan bog‘liq zamburug‘larni aniqlash uchun urug‘lar yuzaki sterilizatsiya qilinib, oziqa muhitiga joylashtirildi. Inkubatsiyadan keyin rivojlangan koloniyalar makroskopik va mikroskopik belgilariga ko‘ra baholandi.

Urug‘ bilan bog‘liq zamburug‘larni aniqlashda mikroskopik tekshiruv va oziqa muhitida inkubatsiya qilish klassik fitopatologik yondashuvlardan hisoblanadi [5, 9, 10]. Ushbu usullar urug‘ materialida zamburug‘larning mavjudligini aniqlash va izolyatlarni dastlabki tavsiflash imkonini beradi.

Shu bilan birga, *F. oxysporum* tur kompleksining genetik va biologik jihatdan murakkabligi hisobga olinishi zarur. Mazkur kompleks tarkibida patogen va patogen bo‘lmagan shtammlarning mavjudligi qayd etilgan [6–8]. Shuning uchun morfologik va mikroskopik belgilarga asoslangan identifikatsiya natijalarini tur va patogenlik darajasida yakuniy tasdiqlash uchun patogenlik sinovlari hamda molekulyar diagnostika usullaridan foydalanish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq.

Dala fitopatologik bahosi bilan urug‘ sog‘lomligining laboratoriya tahlilini birgalikda olib borish introduksiya qilingan amarant genotiplarining fitopatologik holatini kompleks tavsiflash imkonini beradi.

XULOSA

1. Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoitida o‘rganilgan introduksiya qilingan amarant genotiplari morfologik belgilar va tabiiy infeksiya fonida fuzarioz bilan kasallanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha differensiatsiyalandi.

2. O‘rganilgan 12 ta genotipda poya shakli, barg shakli, barg cheti va ro‘vak zichligi bo‘yicha bir xillik kuzatilgan bo‘lsa, poya rangi, urug‘ qobig‘i rangi va fiziologik pishgan ro‘vak rangi fenotipik xilma-xillikni ifodalovchi belgilar sifatida ajralib turdi. Ayniqsa, urug‘ qobig‘i rangida sariq, yashil, oq va qizil fenotiplarning mavjudligi kolleksiya materiallarining morfologik xilma-xilligini ko‘rsatdi.

3. Tabiiy infeksiya fonida fuzarioz bilan kasallangan o‘simliklar ulushi 6,8–9,5% oralig‘ida bo‘ldi. Eng past kasallanish New 65, New 41 va RRC-1027 namunalarida 6,8%, New 13 va Check 3 namunalarida 7,0% qayd etildi. Andoza Marhamat navida ushbu ko‘rsatkich 9,3% ni tashkil etdi. New 65, New 41 va RRC-1027 da kasallanish andozaga nisbatan 2,5 foiz punktga past bo‘ldi.

4. Dala va laboratoriya kuzatuvlarini kompleks baholash New 65, New 41, New 13, Check 3 va RRC-1027 genotiplarini tabiiy infeksiya fonida fuzarioz bilan nisbatan kam kasallangan boshlang‘ich materiallar sifatida ajratish imkonini berdi. Ushbu genotiplarning fuzariozga reaksiyasini nazorat qilinadigan inokulyatsiya sharoitida takroriy baholash va ajratilgan *Fusarium* izolyatlarini molekulyar usullar bilan identifikatsiya qilish keyingi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

5. Olingan natijalar introduksiya qilingan amarant genofondini morfologik va fitopatologik belgilar bo‘yicha kompleks baholash seleksiya uchun istiqbolli boshlang‘ich materiallarni ilmiy asosda ajratish imkonini berishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Thapa R., Blair M.W. Morphological assessment of cultivated and wild amaranth species diversity. *Agronomy*. 2018;8(11):272. DOI: 10.3390/agronomy8110272.
2. Rastogi A., Shukla S. Amaranth: A new millennium crop of nutraceutical values. *Critical Reviews in Food Science and Nutrition*. 2013;53(2):109–125. DOI: 10.1080/10408398.2010.517876.
3. Venskutonis P.R., Kraujalis P. Nutritional components of amaranth seeds and vegetables: A review on composition, properties, and uses. *Comprehensive Reviews in Food Science and Food Safety*. 2013;12(4):381–412. DOI: 10.1111/1541-4337.12021.
4. Sarker U., Oba S. Drought stress effects on growth, ROS markers, compatible solutes, phenolics, flavonoids and antioxidant activity in *Amaranthus tricolor*. *Applied Biochemistry and Biotechnology*. 2018;186:999–1016.
5. Leslie J.F., Summerell B.A. *The Fusarium Laboratory Manual*. Ames, Iowa: Blackwell Publishing; 2006.
6. Lievens B., Rep M., Thomma B.P.H.J. Recent developments in the molecular discrimination of formae speciales of *Fusarium oxysporum*. *Pest Management Science*. 2008;64(8):781–788. DOI: 10.1002/ps.1564.
7. Gordon T.R. *Fusarium oxysporum* and the Fusarium wilt syndrome. *Annual Review of Phytopathology*. 2017;55:23–39.
8. Summerell B.A. Resolving *Fusarium*: Current status of the genus. *Annual Review of Phytopathology*. 2019;57:323–339.
9. International Seed Testing Association (ISTA). *International Rules for Seed Testing. Chapter 7: Seed Health Testing*. Wallisellen, Switzerland: International Seed Testing Association; 2026.
10. International Seed Testing Association (ISTA). *ISTA Handbook on Seed Health Testing*. Wallisellen, Switzerland: International Seed Testing Association.
11. Dospexov B.A. *Metodika polevogo opyta (s osnovami statisticheskoy obrabotki rezultatov issledovaniy)*. 5-e izd. Moskva: Agropromizdat; 1985.
12. Iamonico D. Studies on the genus *Amaranthus* L. (Amaranthaceae): Taxonomic and morphological considerations on seed and vegetative characters. *Plants*. 2023.

https://iau-jaesa.uz/article/r0sk5esj6m03/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846080
UDC. 633.1:631.54

DYNAMICS OF LEAF NUMBER IN INTRODUCED QUINOA (*CHENOPODIUM QUINOA* WILLD.) VARIETY SAMPLES UNDER IRRIGATED CONDITIONS

Yigitayeva Mushtariy Farxodjon qizi
Master's Student, Tashkent State Agrarian University
yigitalievamushtariy@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-6974-3846

Normuradova Munojat Tog'ayevna
PhD, Tashkent State Agrarian University
E.mail: munojatnormurodova22@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-8692-8170

Yuldasheva Ra'no Abdurashidovna
Professor, Tashkent State Agrarian University
yuldashevarano77@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-3311-0242

Allanov Xolik Keldiyorivich
Professor, Tashkent State Agrarian University
xoliq72@mail.ru
https://orcid.org/0000-0003-2423-8913

Abstract. *The study was conducted to evaluate the dynamics of leaf formation in introduced quinoa (Chenopodium quinoa Willd.) variety samples under irrigated conditions. Six quinoa materials, including Check1 (Ames-654), New 14 (Ames-13761), New 21 (BO-16), New 42 (CHEN-298), New 170 (PI433232), and New 141 (D-12229), were evaluated during the 2025 and 2026 growing seasons. Leaf number was determined at three successive developmental stages, and the mean value, standard deviation, and coefficient of variation were used to characterize the variability of the trait. In 2025, the mean number of leaves increased from 4.6–6.3 leaves at the first developmental stage to 20.9–28.8 leaves at the second stage and 38.1–49.8 leaves at the third stage. New 21 showed the highest leaf number at the first stage, while New 141 and New 42 demonstrated the highest values at the second and third stages, respectively. In 2026, the same general tendency of increasing leaf number was observed throughout plant development. New 21 maintained a high level of early leaf formation, whereas New 42 and New 141 demonstrated superior leaf formation during later developmental stages. The coefficient of variation was generally low at the second and third stages, indicating comparatively stable expression of the trait. The results demonstrate considerable differences among introduced quinoa materials in the dynamics of leaf formation and indicate that leaf number at different developmental*

stages can be used as an informative biometric characteristic in the comparative evaluation and selection of quinoa materials.

Keywords: *Chenopodium quinoa Willd., quinoa, leaf number, leaf formation, developmental stages, introduced variety samples, biometric traits, irrigated conditions.*

Annotatsiya. *Tadqiqot sug‘oriladigan sharoitda introduksiya qilingan quinoa (Chenopodium quinoa Willd.) nav namunalarida barglarning shakllanish dinamikasini baholash maqsadida olib borildi. 2025 va 2026-yillardagi vegetatsiya mavsumlarida oltita quinoa materiali, jumladan Check1 (Ames-654), New 14 (Ames-13761), New 21 (BO-16), New 42 (CHEN-298), New 170 (PI433232) va New 141 (D-12229) o‘rganildi. Barglar soni o‘simlik rivojlanishining ketma-ket uchta bosqichida aniqlandi hamda belgining o‘zgaruvchanligini tavsiflash uchun o‘rtacha qiymat, standart og‘ish va variatsiya koeffitsientidan foydalanildi. 2025-yilda barglarning o‘rtacha soni birinchi rivojlanish bosqichida 4,6–6,3 donadan ikkinchi bosqichda 20,9–28,8 donagacha, uchinchi bosqichda esa 38,1–49,8 donagacha oshdi. Birinchi bosqichda New 21 eng yuqori barg sonini ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi bosqichlarda mos ravishda New 141 va New 42 namunalarida eng yuqori qiymatlar qayd etildi. 2026-yilda ham o‘simlik rivojlanishi davomida barglar sonining ortib borish tendensiyasi kuzatildi. New 21 dastlabki barg hosil bo‘lishida yuqori ko‘rsatkichni saqlab qolgan bo‘lsa, keyingi rivojlanish bosqichlarida New 42 va New 141 namunalari yuqori barg hosil qilish ko‘rsatkichlarini namoyon etdi. Variatsiya koeffitsienti, odatda, ikkinchi va uchinchi bosqichlarda past bo‘lib, ushbu belgining nisbatan barqaror ifodalanishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar introduksiya qilingan quinoa materiallari o‘rtasida barg hosil bo‘lish dinamikasi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi hamda turli rivojlanish bosqichlaridagi barglar sonidan quinoa namunalarini qiyosiy baholash va tanlashda informativ biometrik belgi sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Chenopodium quinoa Willd., quinoa, barglar soni, barg hosil bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari, introduksiya qilingan nav namunalari, biometrik belgilar, sug‘oriladigan sharoit.*

Аннотация. *Исследование проведено с целью оценки динамики формирования листьев у интродуцированных образцов сортов киноа (Chenopodium quinoa Willd.) в условиях орошения. В течение вегетационных сезонов 2025 и 2026 годов были изучены шесть образцов киноа, включая Check1 (Ames-654), New 14 (Ames-13761), New 21 (BO-16), New 42 (CHEN-298), New 170 (PI433232) и New 141 (D-12229). Количество листьев определяли на трёх последовательных этапах развития растений, а для характеристики вариабельности признака использовали среднее значение, стандартное отклонение и коэффициент вариации. В 2025 году среднее количество листьев увеличивалось с 4,6–6,3 листа на первом этапе развития до 20,9–28,8 листа на втором этапе и 38,1–49,8 листа на третьем этапе. На первом этапе наибольшее количество листьев отмечено у образца New 21, тогда как на втором и третьем этапах наиболее высокие значения зарегистрированы соответственно у New 141 и New 42. В 2026 году также наблюдалась общая*

тенденция увеличения количества листьев по мере развития растений. Образец New 21 сохранял высокий уровень раннего формирования листьев, тогда как на последующих этапах развития New 42 и New 141 характеризовались более высокими показателями формирования листьев. Коэффициент вариации, как правило, был низким на втором и третьем этапах, что свидетельствует о сравнительно стабильном проявлении данного признака. Полученные результаты демонстрируют наличие значительных различий между интродуцированными образцами киноа по динамике формирования листьев и показывают, что количество листьев на различных этапах развития может использоваться в качестве информативного биометрического признака при сравнительной оценке и отборе образцов киноа.

Ключевые слова: *Chenopodium quinoa Willd., киноа, количество листьев, формирование листьев, этапы развития, интродуцированные образцы сортов, биометрические признаки, условия орошения.*

INTRODUCTION

Quinoa (*Chenopodium quinoa* Willd.) is an important annual crop characterized by substantial diversity in morphological, physiological and agronomic traits. The introduction and evaluation of diverse quinoa materials under new environmental conditions are important steps in identifying plant materials with valuable characteristics for agricultural production and breeding.

Leaves are the principal organs responsible for photosynthetic activity, and the number of leaves formed during plant development reflects the intensity of vegetative growth. Consequently, quantitative assessment of leaf number can provide useful information when comparing varieties and introduced samples. The expression of morphological traits is not constant throughout plant development. The number of leaves increases progressively as plants pass through successive developmental stages, while the rate of leaf formation can differ among genetic materials. Therefore, observations conducted at several stages may provide a more complete characterization of vegetative development than measurements taken at a single stage.

The evaluation of quinoa materials under irrigated conditions is particularly relevant for regions where irrigation plays an important role in crop production. Differences in leaf formation among introduced materials may reflect their biological characteristics and their response to local growing conditions. The present study focused on six introduced quinoa variety samples and examined the dynamics of leaf number during three developmental stages over two growing seasons. The main objective was to determine differences in leaf formation among the studied materials and to identify samples characterized by a comparatively high and stable number of leaves during plant development.

MATERIALS AND METHODS.

The research was conducted under irrigated conditions using six introduced quinoa variety samples. The studied materials were:

Code	Variety/sample
Check1	Ames-654
New 14	Ames-13761
New 21	BO-16

Code	Variety/sample
New 42	CHEN-298
New 170	PI433232
New 141	D-12229

The experimental design consisted of six materials with three replications. The experimental plot was established under irrigated conditions, and sowing in the first experimental year was carried out on 1 April 2025. Observations were conducted during the growing season in order to characterize the formation of vegetative organs at successive stages of plant development.

Determination of leaf number. Leaf number was recorded at three developmental stages. At each stage, leaves were counted on the plants included in the observations, and the obtained values were used to determine the mean number of leaves for each variety/sample.

The following statistical parameters were calculated:

- **M±m** — arithmetic mean and its error;
- **σ** — standard deviation;
- **V%** — coefficient of variation.

The coefficient of variation was calculated according to the equation:

$$V = (\sigma / M) \times 100$$

where M represents the arithmetic mean and σ represents the standard deviation. The obtained values were compared among the studied materials and between developmental stages in order to determine the dynamics of leaf formation.

RESULTS AND DISCUSSION

3.1. Leaf number at the first developmental stage. The first developmental stage was characterized by relatively low leaf numbers in all studied quinoa materials. However, considerable differences among the samples were observed.

In 2025, the mean number of leaves ranged from 4.6 ± 0.34 in Check1 to 6.3 ± 0.41 in New 21. The highest value was recorded in New 21, followed by New 170 with 5.9 ± 0.36 leaves and New 42 with 5.8 ± 0.39 leaves. New 14 had 5.7 ± 0.33 leaves, while Check1 and New 141 recorded 4.6 ± 0.34 and 4.7 ± 0.33 leaves, respectively.

The coefficient of variation ranged from 11.80% to 15.20%. The lowest variability was observed in New 14, whereas Check1 showed the highest variation.

In 2026, the mean number of leaves ranged from 4.8 ± 0.32 in Check1 to 6.5 ± 0.39 in New 21. New 21 again demonstrated the highest value. New 170 recorded 6.1 ± 0.34 leaves, while New 42 had 6.0 ± 0.37 leaves. The lowest value after Check1 was observed in New 141. The first-stage results therefore demonstrate a relatively consistent pattern across the two years. New 21 was distinguished by a comparatively high number of leaves during the initial phase of development.

Table 1. Leaf number at the first developmental stage in introduced quinoa variety samples in 2025–2026

Variety/sample	2025 M±m	σ	V, %	2026 M±m	σ	V, %
Check1	4.6±0.34	0.69	15.20	4.8±0.32	0.64	13.33
New 14	5.7±0.33	0.67	11.80	5.9±0.31	0.62	10.51
New 21	6.3±0.41	0.82	13.06	6.5±0.39	0.78	12.00

Variety/sample	2025 M±m	σ	V, %	2026 M±m	σ	V, %
New 42	5.8±0.39	0.78	13.60	6.0±0.37	0.74	12.33
New 170	5.9±0.36	0.73	12.50	6.1±0.34	0.69	11.31
New 141	4.7±0.33	0.67	14.36	4.9±0.31	0.62	12.65

3.2. Leaf number at the second developmental stage. The second developmental stage was associated with a pronounced increase in leaf number. In 2025, the mean values ranged from 20.9 ± 0.55 leaves in Check1 to 28.8 ± 0.39 leaves in New 141.

New 141 showed the highest value, followed by New 42 with 27.2 ± 0.45 leaves. New 170 and New 21 recorded 25.7 ± 0.41 and 25.2 ± 0.39 leaves, respectively. New 14 had 22.4 ± 0.53 leaves, while Check1 had the lowest value.

The coefficient of variation ranged from 2.73% to 5.26%. Such relatively low values indicate that the expression of leaf number was comparatively uniform within the studied materials at this developmental stage. In 2026, a similar increase in leaf number was observed. Check1 reached 21.8 leaves, while New 14, New 21, New 42, New 170 and New 141 reached 23.2, 26.0, 28.0, 26.4 and 29.5 leaves, respectively. New 141 remained the material with the highest leaf number at the second developmental stage, followed by New 42. This consistency indicates a relatively strong capacity for leaf formation during the intermediate period of vegetative development.

Table 2. Leaf number at the second developmental stage in 2025–2026

Variety/sample	2025 M±m	σ	V, %	2026 M±m	σ	V, %
Check1	20.9±0.55	1.10	5.26	21.8±0.52	1.04	4.77
New 14	22.4±0.53	1.04	4.79	23.2±0.50	1.00	4.31
New 21	25.2±0.39	0.78	3.13	26.0±0.38	0.76	2.92
New 42	27.2±0.45	0.91	3.37	28.0±0.44	0.88	3.14
New 170	25.7±0.41	0.82	3.20	26.4±0.40	0.80	3.03
New 141	28.8±0.39	0.78	2.73	29.5±0.38	0.76	2.58

3.3. Leaf number at the third developmental stage. The third developmental stage was characterized by the highest leaf numbers in all studied materials.

In 2025, New 42 showed the highest mean value, reaching 49.8 ± 0.56 leaves. New 141 followed closely with 49.2 ± 0.84 leaves. New 170 recorded 45.1 ± 0.89 leaves, while New 14 and New 21 had 41.6 ± 0.82 and 40.0 ± 0.74 leaves, respectively. The lowest value was observed in Check1, at 38.1 ± 1.11 leaves.

The coefficient of variation ranged from 2.27% in New 42 to 5.86% in Check1. The combination of a high mean value and low coefficient of variation in New 42 is particularly noteworthy, indicating a relatively stable expression of high leaf number at the later developmental stage. In 2026, the number of leaves increased further in all studied materials. New 42 recorded the highest value of 51.0 leaves, followed by New 141 with 50.3 leaves. New 170 reached 46.2 leaves, whereas New 14 and New 21 recorded 43.0 and 41.2 leaves, respectively. Check1 had the lowest value of 39.5 leaves. The results indicate that New 42 and New 141 were characterized by the greatest accumulation of leaves during the later stage of plant development.

Table 3. Leaf number at the third developmental stage in 2025–2026

Variety/sample	2025 M±m	σ	V, %	2026 M±m	σ	V, %
Check1	38.1±1.11	2.23	5.86	39.5±1.04	2.08	5.27
New 14	41.6±0.82	1.64	3.95	43.0±0.80	1.60	3.72
New 21	40.0±0.74	1.49	3.72	41.2±0.72	1.44	3.50
New 42	49.8±0.56	1.13	2.27	51.0±0.55	1.10	2.16
New 170	45.1±0.89	1.79	3.97	46.2±0.86	1.72	3.72
New 141	49.2±0.84	1.68	3.42	50.3±0.81	1.62	3.22

3.4. Dynamics of leaf formation across developmental stages. The three-stage observations clearly demonstrate progressive leaf formation in all six quinoa materials. In 2025, Check1 increased from 4.6 leaves at the first stage to 20.9 leaves at the second stage and 38.1 leaves at the third stage. New 14 increased from 5.7 to 22.4 and subsequently to 41.6 leaves. New 21 increased from 6.3 to 25.2 and then to 40.0 leaves. New 42 increased from 5.8 leaves at the first stage to 27.2 at the second and 49.8 at the third stage. New 170 increased from 5.9 to 25.7 and subsequently to 45.1 leaves. New 141 showed an increase from 4.7 leaves at the first stage to 28.8 at the second and 49.2 leaves at the third stage.

A similar developmental pattern was observed in 2026. The number of leaves increased from the first stage to the second and third stages in all studied materials. New 42 reached the highest value at the third stage, while New 141 remained close to it.

Table 4. Dynamics of leaf number according to developmental stage in 2025–2026

Variety/sample	2025 Stage I	2025 Stage II	2025 Stage III	2026 Stage I	2026 Stage II	2026 Stage III
Check1	4.6	20.9	38.1	4.8	21.8	39.5
New 14	5.7	22.4	41.6	5.9	23.2	43.0
New 21	6.3	25.2	40.0	6.5	26.0	41.2
New 42	5.8	27.2	49.8	6.0	28.0	51.0
New 170	5.9	25.7	45.1	6.1	26.4	46.2
New 141	4.7	28.8	49.2	4.9	29.5	50.3

The dynamics indicate that the ranking of the studied materials changed during ontogenetic development. New 21 demonstrated the highest number of leaves at the initial stage, whereas New 141 became the leading material at the second stage. At the third stage, New 42 demonstrated the highest leaf number. This pattern suggests that early leaf formation and subsequent leaf accumulation represent related but not identical characteristics. Some materials may initiate leaf development more actively at the beginning of growth, while others may demonstrate stronger leaf accumulation during subsequent vegetative development.

The relatively high values observed in New 42 and New 141 during the later stages indicate a strong development of the leaf apparatus. This characteristic may be of interest in further comparative studies of vegetative productivity and plant architecture.

3.5. Interannual comparison. Comparison between the two growing seasons showed a generally similar pattern of leaf formation. The mean leaf number in 2026 was slightly higher than in 2025 for all six studied materials.

At the first stage, the increase ranged from 0.2 leaves in all materials. At the second stage, the increase ranged from 0.7 leaves in New 14 to 0.9 leaves in Check1 and New 141. At the third stage, differences between years ranged from 1.2 leaves in New 21 to 1.4 leaves in New 42 and New 170. The general consistency of the ranking of materials across years indicates that differences in leaf formation were not entirely random. New 21 maintained a high position during the first stage, while New 42 and New 141 showed superior performance during later stages.

From a breeding perspective, the stability of a morphological characteristic across developmental stages and growing seasons is an important consideration. Materials that combine a high mean value with comparatively low variability may be useful candidates for further evaluation.

CONCLUSION

The investigation of six introduced quinoa variety samples under irrigated conditions demonstrated clear differences in the dynamics of leaf formation during three developmental stages.

In the first developmental stage, New 21 recorded the highest mean leaf number in both years, with 6.3 leaves in 2025 and 6.5 leaves in 2026. At the second developmental stage, New 141 demonstrated the highest values, reaching 28.8 leaves in 2025 and 29.5 leaves in 2026. At the third developmental stage, New 42 had the highest leaf number, with 49.8 leaves in 2025 and 51.0 leaves in 2026. New 141 was also characterized by a high leaf number, reaching 49.2 and 50.3 leaves, respectively. The coefficient of variation was relatively low at the second and third developmental stages, particularly in New 42 and New 141. This indicates comparatively stable expression of leaf number during the later phases of plant development. The study demonstrates that assessment of leaf number at several developmental stages provides more informative characterization of quinoa vegetative development than a single measurement. The differences observed among the introduced materials indicate the presence of distinct patterns of leaf formation. New 42 and New 141 can be considered particularly noteworthy materials with regard to high leaf number during later developmental stages, while New 21 demonstrated comparatively strong early leaf formation.

Leaf number and its developmental dynamics may therefore be used as supplementary biometric characteristics in the comparative evaluation of introduced quinoa materials and in the identification of promising materials for further breeding studies.

REFERENCES

1. Anuradha, Kumari M., Zinta G., Chauhan R.C., Kumar A., Singh S., Singh S. Genetic resources and breeding approaches for improvement of amaranth (Amaranthus spp.) and quinoa (Chenopodium quinoa). Frontiers in Nutrition. 2023. Vol. 10. Article 1129723. DOI: 10.3389/fnut.2023.1129723.

2. Allanov X.K., Yuldasheva R.A., Yigitalieva M.F. Germination characteristics of introduced quinoa variety samples // Scientific article. 2025.

3. Hlásná Cepková P., Dostalíková L., Viehmannová I., Jágr M., Janovská D. Diversity of quinoa genetic resources for sustainable production: A survey on nutritive characteristics as influenced by environmental conditions. Frontiers in Sustainable Food Systems. 2022. Vol. 6. Article 960159. DOI: 10.3389/fsufs.2022.960159.

4. Yigitalieva M.F., Allanov X.K., Yuldasheva R.A. Seed quality characteristics of introduced quinoa samples // Scientific article. 2026.

5. Yuldasheva R.A., Allanov X.K., Yigitalieva M.F. Agrobiological and yield characteristics of quinoa variety samples // Scientific article. 2026.

6. Bhargava A., Shukla S., Ohri D. Chenopodium quinoa—An Indian perspective. *Industrial Crops and Products*. 2006;23(1):73–87. https://doi.org/10.1016/j.indcrop.2005.04.002

7. Jacobsen S.-E. The worldwide potential for quinoa (*Chenopodium quinoa* Willd.). *Food Reviews International*. 2003;19(1–2):167–177. https://doi.org/10.1081/FRI-120018883

8. Mujica-Sánchez A., Jacobsen S.-E., Izquierdo J., Marathee J.-P. Quinoa: An alternative crop for the Andes. *FAO Regional Office for Latin America and the Caribbean*. Santiago, Chile; 2001.

9. Bertero H.D., de la Vega A.J., Correa G., Jacobsen S.-E., Mujica A. Genotype by environment interaction in the grain yield of quinoa (*Chenopodium quinoa* Willd.). *Industrial Crops and Products*. 2004;19(1):13–20. https://doi.org/10.1016/S0926-6690(03)00097-3

https://iau-jaesa.uz/article/gny7krt5g3gq/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846129
UO‘T: 633.12+631

MARJUMAKNI POYA BALANDLIGIGA EKISH MUDDATI, ME’YORI VA USULLARINING TA’SIRI

Isroilov Baxtiyor Abdullayevich,
Toshkent davlat agrar universieti,
O‘simlikshunoslik kafedrasi assistenti, q.x.f.f.d.,(PhD)
E-mail: b.israilov@tdau.uz
https://orcid.org/0000-0002-7881-5117

Annotatsiya. *Ushbu maqolada marjumak (Fagopyrum esculentum Moench.) o‘simligining asosiy poya balandligiga ekish muddati, ekish me’yori va ekish usullarining ta’siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar Toshkent davlat agrar universitetining eksperimental ilmiy-tadqiqot va o‘quv tajriba xo‘jaligida qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida olib borildi. Tajribada marjumakning “Iliyshevskaya” navi takroriy ekin sifatida uch xil ekish muddatida (20-iyun, 1-iyul, 10-iyul), uch xil ekish me’yorida (1,0; 2,0; 3,0 mln. dona urug‘/ga) hamda uch xil ekish usulida (yakka, qo‘sh va uch qatorli) ekib o‘rganildi.*

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, marjumak o‘simligining poya balandligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich boshqa muddatlarga nisbatan erta muddatda 20-iyunda 3,0 mln. dona urug‘/ga me’yorda uch qatorli usulda ekilgan variantda kuzatilib, meva hosil bo‘lish davrida 88-105 sm ga yetganligi aniqlandi. Mazkur variant 1,0 mln. dona urug‘/ga yakka qatorli va 2,0 mln. dona urug‘/ga qo‘sh qatorli ekilgan variantlarga nisbatan solishtirilganda mos ravishda 17 sm va 11 sm yuqori bo‘lganligi qayd etildi. Ekish muddatining kechikishi va ekish me’yorining oshishi poya balandligining o‘zgarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligi, bu esa o‘z navbatida o‘simlikning yotib qolishga chidamliligi va hosil shakllanishiga bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy asoslandi.

Kalit so‘zlar: *marjumak, poya balandligi, ekish muddati, ekish me’yori, ekish usullari, takroriy ekin, hosildorlik.*

Аннотация. *В данной статье представлены результаты исследований по изучению влияния сроков посева, норм высева и способов посева на высоту стебля гречихи (Fagopyrum esculentum Moench.). Исследования проводились в экспериментальном научно-исследовательском и учебно-опытном хозяйстве Ташкентского государственного аграрного университета в условиях типичных орошаемых серозёмов. В опыте сорт гречихи «Илишевская» изучался в качестве повторной культуры при трёх сроках посева (20 июня, 1 июля, 10 июля), трёх нормах высева (1,0; 2,0; 3,0 млн шт. всхожих семян/га) и трёх способах посева (однострочный, двустрочный и трёхстрочный).*

По результатам исследований установлено, что наивысший показатель высоты стебля гречихи отмечен при раннем сроке посева 20 июня с нормой высева 3,0 млн шт./га трёхстрочным способом, достигая в фазу плодообразования 88-105 см. Данный вариант превосходил варианты с однострочным посевом при норме 1,0 млн шт./га и двустрочным посевом при норме 2,0 млн шт./га соответственно на 17 см и 11 см. Установлено, что

задержка сроков посева и увеличение нормы высева оказывают существенное влияние на изменение высоты стебля, что, в свою очередь, непосредственно связано с устойчивостью растений к полеганию и формированием урожая. Полученные результаты имеют важное практическое значение для определения оптимальных агротехнических параметров возделывания гречихи в качестве повторной культуры.

Ключевые слова: *гречиха, высота стебля, срок посева, норма высева, способы посева, повторная культура, урожайность.*

Abstract. *This article presents the results of studies on the effect of sowing dates, seeding rates and planting methods on the stem height of buckwheat (Fagopyrum esculentum Moench.). The research was conducted at the experimental research and training farm of Tashkent State Agrarian University under the conditions of typical irrigated sierozem soils. In the experiment, the buckwheat variety "Ilishevskaya" was studied as a second crop with three sowing dates (June 20, July 1, July 10), three seeding rates (1.0; 2.0; 3.0 million germinating seeds/ha) and three planting methods (single-row, double-row and three-row).*

According to the research results, the highest stem height of buckwheat was observed at the early sowing date June 20 with a seeding rate of 3.0 million seeds/ha using the three-row method, reaching 88-105 cm at the fruit formation stage. This variant exceeded the variants with single-row sowing at 1.0 million seeds/ha and double-row sowing at 2.0 million seeds/ha by 17 cm and 11 cm, respectively. It was established that delayed sowing dates and increased seeding rates significantly affect stem height, which in turn is directly related to plant lodging resistance and yield formation. The obtained results are of great practical importance for determining the optimal agrotechnical parameters for cultivating buckwheat as a second crop.

Keywords: *buckwheat, stem height, sowing date, seeding rate, planting methods, second crop, yield.*

KIRISH

Marjumak (*Fagopyrum esculentum Moench.*) qimmatli yorma don, yem-xashak ekini bo‘lib, uning doni yuqori ozuqaviylik qiymatiga, rutin, flavonoidlar, muhim aminokislotalar va minerallarga boyligi bilan ajralib turadi. Unidan konditerlik sanoatida foydalaniladi. Somoni hayvonlarni oziqlantirish uchun ishlatiladi. 100 kg somonda 30 ozuqa birligi mavjud[1, 6, 7, 11].

Jahon miqyosida marjumak yetishtirishda hosildorlik va don sifatining barqarorligi ko‘p jihatdan ekish muddati, me’yori, usuli hamda o‘simliklarning poya balandligi va yotib qolishga (lodging) chidamliligiga bog‘liq [5, 17].

Poya balandligi bu marjumakning muhim morfologik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u o‘simlikning yotib qolishga chidamliligini, yorug‘likdan foydalanish samaradorligini va hosil shakllanishini belgilaydi [15, 18]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, poya balandligi mahalliy sharoitga mos ekish muddati, maqbul ko‘chat qalinligi va o‘simliklarning bir tekis joylashishini ta’minlovchi ekish usullari hisobiga maqbullashtiriladi; aksincha, haddan tashqari ko‘chat qalinligi va noo‘rin ekish muddati poyalarni uzun, ingichka va yotib qolishga moyil qiladi [8, 9, 12, 13, 14, 15, 19].

Xususan, Lee va boshqalar Koreyada o‘tkazilgan tadqiqotda ekish kechiktirilganda o‘simlik bo‘yi, poya diametri va quruq modda massasi kamayganligini aniqlagan [12]. Xiang va boshqalar Xitoyda iyulda ekilgan tartariq marjumakda past harorat stressi va quyosh radiatsiyasining kamayishi hisobiga hosildorlik va o‘sish ko‘rsatkichlari sezilarli pasayganligini qayd etgan [20].

Rossiyada “Devyatka” navi uchun 3,0 mln. dona/ga me’yorida keng qatorli ekish eng samarali bo‘lgan [16]. Braziliyada 110 kg/ga ekish me’yori yuqori hosil olishni ta’minlagan [8]. Xitoyda 45 kg/ga azot va 90 tup/m² ko‘chat qalinilikda eng yuqori hosil (1339,44 kg/ga) olingan [10].

Dala ekinlari hayotining faollik darajasini ko‘rsatuvchi eng muhim jarayonlardan biri bu o‘sishdir. Bu jarayonda o‘simlik tanasida barcha fiziologik va biokimyoviy reaksiyalar sodir bo‘lib, natijada yangi hujayralar hamda organlarning hosil bo‘lishi bilan ularning umumiy quruq massasini ortib borishi kuzatiladi [4, 10]. Shu bilan birgalikda o‘simliklarning o‘sishiga tashqi sharoitning ko‘plab omillari o‘z ta’sirini ko‘rsatadi [12, 20].

Marjumak o‘simligi nisbatan tezpishar o‘simliklardan biri bo‘lib, bu o‘simlikda barcha rivojlanish fazalar boshqa o‘simliklarga nisbatan tez va qisqa muddatlarda kechadi [11, 12].

Marjumakda o‘sish va rivojlanish jarayonining kechishi ma’lum darajada asosiy poya balandligida yaqqol namoyon bo‘ladi [19]. O‘simlikda fiziologik jarayonlar qanchalik jadal kechsa, o‘sish va rivojlanish jarayonlari shunchalik faol kechadi [10, 20].

MATERIAL VA TADQIQOT USLUBLARI.

Tadqiqot ishlari Toshkent davlat agrar universitetining eksperimental ilmiy-tadqiqot va o‘quv tajriba xo‘jaligida 2015-2017-yillar davomida olib borildi. Tajriba maydoni Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan bo‘lib, qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar bilan xarakterlanadi.

Tajriba ob’ekti sifatida marjumakning “Iliyshevskaya” navi tanlab olindi. Ushbu nav takroriy ekin sifatida uch xil ekish muddatida (20-iyun, 1-iyul, 10-iyul), uch xil ekish me’yorida (1,0; 2,0 va 3,0 mln. dona/ga) hamda uch xil ekish usulida (yakka, qo‘sh va uch qatorli) ekib o‘rganildi. Variantlarning bunday kombinatsiyasi ekish omillarining marjumak o‘sishi, rivojlanishi va hosil shakllanishiga ta’sirini har tomonlama baholash imkonini berdi.

Dala tajribalarida fenologik kuzatishlar va biometrik o‘lchovlar bir qator ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar asosida olib borildi. Xususan, “Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур”, “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари”, “O‘simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlari” kabi manbalardan keng foydalanildi[2]. O‘simliklarning fotosintetik faolligini aniqlashda A.A.Nichiporovich uslubiyoti qo‘llanildi. Iqtisodiy samaradorlik V.N.Polozhiy usuli bo‘yicha baholandi. Olingan raqamli ma’lumotlarga statistik ishlov berishda B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” qo‘llanmasi asosidagi dispersiyaviy tahlil usuli qo‘llanilgan bo‘lib, hisoblashlar Microsoft Excel dasturida bajarildi[3].

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

O‘simlikning asosiy poya balandligi o‘simlikda o‘sish jarayonining qay darajada

kechishini o‘zida aks ettiradi. O‘simlik sog‘lom o‘ssa, undagi barcha jarayonlar, shu jumladan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar jadal kechsa o‘simlikning asosiy poya balandligi ham yuqori bo‘ladi. Biroq, o‘simlikning asosiy poya balandligi ham me’yor darajasida bo‘lishi lozim. Poya balandligi juda past bo‘lsa, o‘simlik nimjon o‘sadi va unda yetarlicha hosil elementlari shakllanmaydi. Aksincha poya balandligi me’yordan yuqori bo‘lsa o‘simlikning o‘suv va hosil elementlari nisbatida o‘suv organlarining salmog‘i ortib ketadi, o‘simlik yotib qolishga moyil bo‘ladi. Natijada hosildorlik sezilarli kamayishi kuzatiladi. Shu tafayli har bir ekinning eng maqbul ko‘chat qalinligini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Poya balandligi turli omillarga, shu jumladan o‘simlikning biologik xususiyatlariga, nav xususiyatiga, tuproq iqlim sharoitiga, olib borilgan agrotexnik tadbirlarga, o‘simlikning oziqlanish maydoni va ko‘chat qalinligiga bog‘liq.

Har bir o‘simlikning biologik xususiyati va nav xarakteristikasidan kelib chiqqan holda optimal ko‘chat qalinligi turlicha bo‘ladi. Shu tufayli tajribada ekish me’yori, muddati va usullarini marjumakning asosiy poya balandligiga ta’sirini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik.

Ekish muddati, me’yori va usullarini marjumak o‘simligining o‘sish jarayonlariga, shuningdek asosiy poya balandliga ma’lum darajada ta’sir etishi rivojlanishning dastlabki davridan boshlab namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, marjumakning asosiy poya balandligi ekish muddati, ekish me’yori va ekish usulining o‘zaro kombinatsiyasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu qonuniyat barcha fenologik rivojlanish fazalarida izchil namoyon bo‘ldi (1-jadval).

1-jadval

Marjumakni poya balandligiga ekish muddati, me’yori va usullarining ta’siri (2015-2017 yy.)

№	Ekish muddati	Ekish me’yori, mln. dona/ga	Ekish usuli	Asosiy poya balandligi, sm			
				Shoxlanish	Shonalash	Gullash	Meva hosil bo‘lish
1.	20 iyun	1,0	Yakka qatorli	21	54	66	88
2.		2,0	Qo‘sh qatorli	23	57	71	94
3.		3,0	Uch qatorli	25	62	76	105
4.	1 iyul	1,0	Yakka qatorli	19	49	61	85
5.		2,0	Qo‘sh qatorli	21	53	67	89
6.		3,0	Uch qatorli	22	58	72	91
7.	10 iyul	1,0	Yakka qatorli	17	47	59	79
8.		2,0	Qo‘sh qatorli	19	50	64	82
9.		3,0	Uch qatorli	21	55	67	84

Eng yuqori poya balandligi 20-iyunda ekilgan, ekish me’yori 3,0 mln. dona urug‘/ga bo‘lgan uch qatorli usul variantida (3-variant) kuzatildi. Ushbu variantda poya balandligi shoxlanish fazasida 25 sm, shonalash fazasida 62 sm, gullash fazasida 76 sm va meva hosil bo‘lish fazasida 105 sm ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar tajribadagi barcha boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo‘lib, o‘simlikning vegetativ va generativ organlarini to‘liq shakllantirish uchun eng qulay agrotexnik sharoit aynan mazkur kombinatsiyada yaratilganligidan dalolat beradi.

1-rasm

Ayni shu ekish muddatida (20-iyun) ekish usuli va me'yorining differensial ta'siri yaqqol namoyon bo‘ldi. Yakka qatorli usulda 1,0 mln. dona urug‘/ga ekilgan variantda (1-variant) meva hosil bo‘lish fazasida poya balandligi 88 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, qo‘sh qatorli usulda 2,0 mln. dona urug‘/ga ekilgan variantda (2-variant) bu ko‘rsatkich 94 sm ga yetdi. Demak, uch qatorli usulda 3,0 mln. dona urug‘/ga ekilgan variantga (3-variant, 105 sm) nisbatan yakka qatorli variant 17 sm ga, qo‘sh qatorli variant esa 11 sm ga past bo‘lgan. Bu farq o‘simliklar orasidagi ozuqa maydoni, yorug‘lik rejimi va raqobat munosabatlarining ekish sxemasiga qarab tubdan o‘zgarishini ko‘rsatgan.

Mazkur qonuniyat keyingi ekish muddatlarida 1-iyul va 10-iyulda ham to‘liq saqlanib qoldi, bu esa aniqlangan tendensiyaning tasodifiy emas, balki qonuniy xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, 1-iyulda ekilgan variantlar ichida 3,0 mln. dona urug‘/ga uch qatorli usulda ekilgan variantda (6-variant) meva hosil bo‘lish fazasida poya balandligi 91 sm bo‘lib, yakka qatorli variantga (4-variant, 85 sm) nisbatan 6 sm, qo‘sh qatorli variantga (5-variant, 89 sm) nisbatan esa 2 sm yuqori bo‘ldi. 10-iyulda ekilgan variantlar ichida ham shunga o‘xshash holat kuzatilib, uch qatorli usulda 3,0 mln. dona urug‘/ga ekilgan variantda (9-variant) poya balandligi 84 sm ni tashkil etib, yakka qatorli variantdan (7-variant, 79 sm) 5 sm, qo‘sh qatorli variantdan (8-variant, 82 sm) 2 sm yuqori bo‘lgan.

XULOSA

Tajriba natijalariga ko‘ra marjumak o‘simligining poya balandliligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich boshqa muddatlarga nisbatan erta muddatda 3,0 mln. dona urug‘/ga uch qatorli usulda ekilgan variantda kuzatilgan bo‘lib, 88-105 smga yetkanligi kuzatildi. Bu variant 1,0 mln. dona urug‘/ga yakka qatorli va 2,0 mln. dona urug‘/ga qo‘sh qatorli ekilgan variantlarga nisbatan solishtirilganda 17 sm va 11 sm yuqori bo‘lganligi kuzatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atabayeva X.N., Xudoyqulov J.B - O‘simlikshunoslik, Fan va texnologiya, 2018, B.181-188.
2. Azizov B.M., Israilov I.A., Xudayqulov J.B.-O‘simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlari. T. ToshDAU. 2014. B.45-46.

3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. 5-ое изд. доп. и перераб. Агропромиздат.-Москва, 1985.-С.248-256.
4. Ничипорович, А. А. (1961). Фотосинтез и теория получения высоких урожаев. Москва: Издательство АН СССР.
5. Bakhtiyor, I. (2025). THE GRAIN QUALITY INDICATORS OF BUCKWHEAT. INTEGRATION OF EDUCATION AND SCIENCE: GLOBAL CHALLENGES AND SOLUTIONS, 1(1), 626-629.
6. Isroilov, B. A. (2025). EFFECT OF SOWING DATE, SEEDING RATE, AND PLANTING METHOD ON 1000-GRAIN WEIGHT AND GRAIN YIELD OF BUCKWHEAT UNDER IRRIGATED TYPICAL SIEROZEM SOIL CONDITIONS. NEW APPROACHES IN EDUCATION: PEDAGOGY, INNOVATION, AND DEVELOPMENT, 1(1), 276-280.
7. Brunori, A., & Baviello, G. (2018). Correlation between grain yield and rutin content in common buckwheat germplasm cultivated in southern Italy. In Buckwheat Germplasm in the World (pp. 215-222). Academic Press. https://doi.org/10.1016/B978-0-12-811006-5.00021-5
8. da Rosa, J. A., da Silva, J. A. G., Vicenzi, R., Fraga, D. D. R., & Bandeira, W. J. A. (2022). The density and sowing time of buckwheat in organic and conventional growing system. Australian Journal of Crop Science, (7), 941-948. https://doi.org/10.21475/ajcs.22.16.07.p3604
9. Fang, X., Liu, X., Zhang, Y., Yuan, X., & Yi, Z. (2018). Effects of uniconazole or gibberellic acid application on the lignin metabolism in relation to lodging resistance of culm in common buckwheat (Fagopyrum esculentum M.). Journal of Agronomy and Crop Science, 204(4), 414-423. https://doi.org/10.1111/jac.12274
10.
ang, X., Li, Y., Nie, J., Yuan, X., & Yi, Z. (2018). Effects of nitrogen fertilizer and planting density on the leaf photosynthetic characteristics, agronomic traits and grain yield in common buckwheat (Fagopyrum esculentum M.). Field Crops Research, 160-168. https://doi.org/10.1016/j.fcr.2018.02.001
11. UYGUN, S., & EFE, B. (2024). Farklı Ekim Zamanlarının Karabuğdayda (Fagopyrum esculentum) Bazı Morfolojik ve Tarımsal Özellikler Üzerine Etkisi. MAS Journal of Applied Sciences, 9(1), 58–63. https://doi.org/10.5281/zenodo.10619409
12. Lee, M. H., Lee, J. H., & Kim, S. K. (2015). Effect of sowing time on buckwheat (Fagopyrum esculentum Moench) growth and yield in central Korea. Journal of Crop Science and Biotechnology, 18(4), 255-261. https://doi.org/10.1007/s12892-015-0117-6
13. Lei, X., Wu, Y., Wang, J., Wang, X., & Gao, J. (2025). Effects of planting density and NPK-fertilization level on lodging resistance and grain yield of common buckwheat. Field Crops Research, 322, 109738. https://doi.org/10.1016/j.fcr.2025.109738
14. She, H., Nie, J., Li, Y., Ruan, R., & Yi, Z. (2018). Effects of silicon application rate on common buckwheat lodging and yield. Scientia Agricultura Sinica, 51(14), 2664-2674. https://doi.org/10.3864/j.issn.0578-1752.2018.14.004

15. Suzuki, T., Tsujimoto, K., Maruo, G., Ishiguro, K., & Otsuka, S. (2023). Development of semidwarf breeding line with shattering resistance and preharvest-sprouting resistant in buckwheat (Fagopyrum esculentum). Plant Breeding, 142(4), 527-536. https://doi.org/10.1111/pbr.13101

16. Timoshenko, E. (2023). Development of varietal technology elements for cultivation of buckwheat variety Devyatka in the zone of the Middle Priamurye. In A. Beskopylny, M. Shamtsyan, & V. Artiukh (Eds.), XV International Scientific Conference "INTERAGROMASH 2022": Lecture notes in networks and systems (Vol. 574, pp. 245-252). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5_24

17. Vicenzi, R., da Rosa, J. A., da Silva, J. A. G., Fraga, D. D. R., & Bandeira, W. J. A. (2013). Influence of sowing type, time and seeding rates on the buckwheat (Fagopyrum esculentum) yield quality. Proceedings of the Latvian Academy of Sciences, 67(3), 215-221.

18. Wang, C., Ruan, R., Yuan, X., Li, Y., & Yi, Z. (2014). Relationship of anatomical structure and lignin metabolism with lodging resistance of culm in buckwheat. Acta Agronomica Sinica, 40(10), 1846-1856. https://doi.org/10.3724/SP.J.1006.2014.01846

19. Wang, C., Ruan, R., Yuan, X., Li, Y., & Yi, Z. (2015). Effects of nitrogen fertilizer and planting density on the lignin synthesis in the culm in relation to lodging resistance of buckwheat. Plant Production Science, 18(2), 218-227. https://doi.org/10.1626/pps.18.218

20. Xiang, Y., Zhang, J., Li, G., Ma, G., & Xiang, D. (2026). Effects of the interaction between nitrogen application and planting density on the canopy light environment, yield, and quality of Tartary buckwheat. Acta Agronomica Sinica, 52(8), 2480-2495. https://doi.org/10.3724/SP.J.1006.2026.51098

08.00.00 — IQTISODIYOT FANLARI
https://iau-jaesa.uz/article/qqh6xxui3w34/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846180
UDK. 378:330.341.1

OLIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi assistenti
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
amriyevashaxzoda250@gmail.com
ORCID : https://orcid.org/0009-0000-8008-3106

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirishning iqtisodiy asoslari tadqiq etilgan. Unda oliy ta'lim xizmatlarining iqtisodiy mazmuni, innovatsion yondashuvlarning ta'lim sifati, inson kapitali va mehnat bozori bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli platformalar, elektron ta'lim, akademik boshqaruv, sifat monitoringi va universitetlarning ish beruvchilar bilan hamkorligi innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirishning muhim omillari sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida oliy ta'limda innovatsion xizmatlarni rivojlantirish resurslardan oqilona foydalanish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim iqtisodiy sharti ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, innovatsion xizmatlar, ta'lim xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, universitet boshqaruvi, mehnat bozori, ta'lim sifati, raqamli transformatsiya.*

Аннотация. *В статье исследуются экономические основы повышения эффективности инновационных услуг в системе высшего образования. Рассмотрены экономическое содержание образовательных услуг, влияние инновационных подходов на качество образования, человеческий капитал и потребности рынка труда. Особое внимание уделено цифровым платформам, электронному обучению, академическому управлению, мониторингу качества и сотрудничеству университетов с работодателями. В результате исследования обосновано, что развитие инновационных услуг в высшем образовании является важным условием рационального использования ресурсов, повышения качества образования и подготовки конкурентоспособных кадров.*

Ключевые слова: *высшее образование, инновационные услуги, образовательные услуги, экономическая эффективность, человеческий капитал, цифровая экономика, управление университетом, рынок труда, качество образования, цифровая трансформация.*

Abstract. *This article examines the economic foundations for improving the efficiency of innovative services in the higher education system. The study analyzes the economic nature of higher education services and the impact of innovative approaches on education quality, human capital and labour market needs. Particular attention is paid to digital platforms, e-learning, academic management, quality monitoring and cooperation between universities and employers. The research substantiates that the*

development of innovative services in higher education is an important condition for rational use of resources, improvement of education quality and training of competitive specialists.

Keywords: *higher education, innovative services, educational services, economic efficiency, human capital, digital economy, university management, labour market, education quality, digital transformation.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi iqtisodiy taraqqiyotning oddiy ijtimoiy sohasi emas, balki inson kapitalini shakllantiruvchi va innovatsion iqtisodiyotga malakali kadrlar yetkazib beruvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida universitetlardan faqat nazariy bilim berish emas, balki amaliy ko‘nikma, innovatsion fikrlash, tadbirkorlik madaniyati va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish talab qilinadi. Bu esa oliy ta’lim xizmatlari mazmunini ham, ularni tashkil etish mexanizmlarini ham yangilashni zarur qiladi.

Oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlar deganda elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim, virtual laboratoriyalar, raqamli kutubxonalar, individual ta’lim trayektoriyalari, startap loyihalar, ilmiy-amaliy inkubatorlar, universitet va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan xizmatlar tushuniladi. Bunday xizmatlar oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ta’lim oluvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, raqamli ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo‘llash muhim vazifa sifatida belgilangan. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da esa ta’lim sifatini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish masalalari alohida o‘rin tutadi.

Shu jihatdan oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirishning iqtisodiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi oliy ta’limda innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillarni aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlarni rivojlantirish jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu xizmatlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi tashkiliy, moliyaviy va raqamli omillari tanlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlar samaradorligi masalasi raqamli iqtisodiyot, inson kapitali, ta’lim xizmatlari bozori va universitet boshqaruvi bilan bevosita bog‘liq. A. Abdullayev raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy ta’lim texnologiyalarining iqtisodiy mazmunini izohlab, ta’lim xizmatlarini raqamlashtirish xarajatlarni optimallashtirish va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [3]. Bu yondashuv oliy ta’limdagi innovatsion xizmatlarni alohida

texnik vosita emas, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi boshqaruv mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi.

D. Bell postindustrial jamiyat nazariyasida bilim, axborot va ilmiy salohiyat iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanishini asoslaydi [4]. M. Kastels esa axborotlashgan jamiyatda tarmoqlashgan iqtisodiyot, kommunikatsion texnologiyalar va bilim almashinuvi iqtisodiy o‘sishning muhim sharti ekanligini ko‘rsatadi [5]. Ushbu nazariy qarashlar oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlarni rivojlantirishning kengroq ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib beradi.

Isxakova S. A. va Amriyeva Sh. Sh. oliy ta’lim tizimi samaradorligini oshirish masalasini o‘rganib, ta’lim sifati, boshqaruv yondashuvlari va innovatsion mexanizmlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratadi [6]. Amriyeva Sh. Sh. oliy ta’lim muassasalarida ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash yo‘llarini tahlil qilib, xizmat ko‘rsatish sifati, talabalar ehtiyojlari, raqamli monitoring va ta’lim jarayonining moslashuvchanligi samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi [7].

Sh. I. Artikova va K. D. Rajabova o‘quv jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish masalalarini tadqiq etib, interaktiv pedagogik texnologiyalar va zamonaviy metodlarning ta’lim natijalariga ta’sirini ko‘rsatadi [8]. Amriyeva Sh. Sh., Akobirova M. A. va Normukhammadova A. Sh. raqamli iqtisodiyotda oliy ta’lim xizmatlari tizimining rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qilib, universitet xizmatlari sifati mehnat bozori talablari, raqamli infratuzilma va institutsional boshqaruv bilan chambarchas bog‘liq ekanligini qayd etadi [9].

Shuningdek, Yo‘ldashev Sh. ta’lim tizimida innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya jarayonlarini o‘rganib, raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida faqat texnik yangilanish emas, balki o‘quv jarayoni, baholash, boshqaruv va kadrlar tayyorlash tizimining sifat jihatdan o‘zgarishini bildiradi, degan fikrni ilgari suradi [10]. Xorijiy manbalarda esa oliy ta’lim xizmatlari samaradorligi ko‘proq inson kapitali, universitetlarning innovatsion ekotizimdagi roli va mehnat bozori bilan integratsiyasi orqali izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida oliy ta’limdagi innovatsion xizmatlar universitet boshqaruvi, moliyaviy resurslar, raqamli infratuzilma, pedagogik jarayon va mehnat bozori bilan bog‘liq yaxlit tizim sifatida o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli an’anaviy ta’lim xizmatlari va innovatsion ta’lim xizmatlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini solishtirishda qo‘llanildi. Bunda xarajatlar, ta’lim qamrovi, xizmat sifati, talabalar faolligi, raqamli monitoring imkoniyatlari va bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvi kabi ko‘rsatkichlar e’tiborga olindi.

Iqtisodiy tahlil orqali innovatsion xizmatlarning resurslardan foydalanish samaradorligi, vaqt va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish, akademik jarayonlarni avtomatlashtirish hamda oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini

oshirishdagi roli baholandi. Normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar tahlili esa mavzuning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashtirishga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlar samaradorligi, avvalo, ta’lim xizmatlarining mazmuni va ularni tashkil etish usullarining yangilanishi bilan bog‘liq. An’anaviy ta’limda asosiy e’tibor auditoriya mashg‘ulotlari, ma’ruza va seminarlar, bosma o‘quv adabiyotlari va standart baholash shakllariga qaratilgan bo‘lsa, innovatsion ta’lim xizmatlarida elektron platformalar, raqamli kontent, masofaviy ta’lim, individual yondashuv va amaliy loyihalar muhim o‘rin egallaydi.

Innovatsion xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi bir necha yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchi yo‘nalish xarajatlarni optimallashtirishdir. Raqamli ta’lim platformalari va elektron resurslar bosma materiallar, ortiqcha ma’muriy jarayonlar va ayrim tashkiliy xarajatlarni kamaytiradi. Albatta, dastlab raqamli infratuzilma uchun mablag‘ talab etiladi, lekin uzoq muddatda bu investitsiyalar ta’lim jarayonining tejamkorligi va moslashuvchanligini oshiradi.

Ikkinchi yo‘nalish ta’lim xizmatlari qamrovining kengayishidir. Masofaviy ta’lim, onlayn kurslar va elektron kutubxonalar hududiy cheklovlarni kamaytiradi. Bu ayniqsa ishlayotgan talabalar, chekka hududlarda yashovchi yoshlar va qayta tayyorlash kurslarida qatnashuvchi mutaxassislar uchun muhimdir. Ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengaygan sari inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy qaytimi ham ortadi.

Uchinchi yo‘nalish sifat monitoringining kuchayishidir. Raqamli platformalar talabalar faolligi, topshiriqlar bajarilishi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va pedagogik faoliyat natijalarini kuzatish imkonini beradi. Bu boshqaruv qarorlarini taxmin yoki umumiy kuzatuvlarga emas, aniq ma’lumotlarga tayangan holda qabul qilishga yordam beradi. Natijada universitet boshqaruvida ma’lumotlarga asoslangan yondashuv shakllanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish mehnat bozori bilan integratsiyadir. Innovatsion xizmatlar tarkibiga amaliy loyihalar, startap inkubatorlar, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o‘quv kurslari, professional sertifikatlash va amaliyot dasturlari kirganda, bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyati ortadi. Bu oliy ta’lim xizmatlari samaradorligini faqat ta’lim jarayonidagi natijalar bilan emas, balki keyingi iqtisodiy natijalar bilan ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri

Innovatsion xizmat turi	Iqtisodiy mazmuni	Samaradorlikka ta’siri	Kutiladigan natija
Elektron ta’lim platformalari	O‘quv jarayonini raqamli muhitda tashkil etish	Bosma materiallar va tashkiliy xarajatlar kamayadi	Ta’lim jarayoni tejamkor va tezkor bo‘ladi
Masofaviy ta’lim xizmatlari	Hududiy cheklovlarsiz bilim olish imkoniyati	Ta’lim qamrovi kengayadi	Ko‘proq talabalar oliy ta’lim xizmatlaridan foydalanadi

Innovatsion xizmat turi	Iqtisodiy mazmuni	Samaradorlikka ta’siri	Kutiladigan natija
Raqamli monitoring tizimi	Talabalar o‘zlashtirishi va faolligini kuzatish	Boshqaruv qarorlari aniqligi ortadi	Ta’lim sifati ustidan nazorat kuchayadi
Virtual laboratoriyalar	Amaliy ko‘nikmalarni raqamli muhitda shakllantirish	Laboratoriya xarajatlari qisman optimallashadi	Amaliy ta’lim imkoniyatlari kengayadi
Virtual laboratoriyalar	Amaliy ko‘nikmalarni raqamli muhitda shakllantirish	Laboratoriya xarajatlari qisman optimallashadi	Amaliy ta’lim imkoniyatlari kengayadi
Startap va inkubatsiya xizmatlari	Talabalar innovatsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlash	Universitetning innovatsion faolligi ortadi	Tadbirkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi
Ish beruvchilar bilan hamkorlik	O‘quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish	Bitiruvchilar bandligi oshadi	Raqobatbardosh kadrlar tayyorlanadi

Manba: *mualliflar tomonidan ilmiy adabiyotlar va oliy ta’lim tizimidagi amaliy jarayonlar tahlili asosida tuzilgan.*

Jadvaldan ko‘rinadiki, innovatsion xizmatlar oliy ta’lim tizimida bir vaqtning o‘zida bir nechta iqtisodiy vazifani bajaradi. Ular xarajatlarni qisqartiradi, ta’lim qamrovini kengaytiradi, boshqaruv jarayonlarini tezlashtiradi va talabalar uchun amaliy natijani kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu xizmatlarning samaradorligi ularni oddiy texnik vosita sifatida joriy etishga emas, balki universitetning umumiy rivojlanish strategiyasiga bog‘lashga bog‘liq.

Innovatsion xizmatlarni rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy platformalar, laboratoriyalar, raqamli kutubxonalar va startap markazlarini tashkil etish ma’lum xarajatlarni talab qiladi. Shu bois davlat moliyalashtirishidan tashqari grantlar, ilmiy loyihalar, xususiy sektor bilan hamkorlik, xalqaro dasturlar va pullik qo‘shimcha ta’lim xizmatlaridan oqilona foydalanish zarur. Mablag‘ manbalari diversifikatsiya qilinmasa, innovatsion xizmatlar barqaror rivojlanishi qiyinlashadi.

Yana bir muhim jihat pedagog kadrlarning innovatsion kompetensiyasidir. Raqamli platforma, elektron kutubxona yoki virtual laboratoriya mavjud bo‘lishi o‘z-o‘zidan ta’lim sifatini oshirmaydi. Bu vositalardan qanday foydalanish, ularni o‘quv jarayoniga qanday integratsiya qilish va talabani faol ishtirokchi sifatida jalb etish o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. Shuning uchun innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirishda pedagoglarning raqamli va metodik kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Ular qatoriga raqamli infratuzilmaning barcha ta’lim muassasalarida bir xil rivojlanmaganligi, o‘quv kontentining sifati, elektron resurslarning yetarli emasligi, professor-o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalari turlicha ekani, ish beruvchilar bilan hamkorlikning ayrim hollarda formal tusda qolishi kiradi. Bu muammolar hal etilmasa, innovatsion xizmatlarning iqtisodiy samarasi to‘liq namoyon bo‘lmaydi.

Shu sababli oliy ta’limdagi innovatsion xizmatlar samaradorligini baholashda faqat texnik jihozlanish darajasiga qarash yetarli emas. Baholash mezonlari ta’lim sifati, talabalar qoniqishi, bitiruvchilar bandligi, o‘quv jarayonining tejamkorligi, ilmiy-innovatsion faollik va raqamli boshqaruv samaradorligini ham qamrab olishi kerak. Ana shunda innovatsion xizmatlar universitet faoliyatining haqiqiy iqtisodiy natijalariga bog‘lanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida universitetlar faqat bilim beruvchi muassasa sifatida emas, balki inson kapitalini rivojlantiruvchi, innovatsion g‘oyalarni shakllantiruvchi va mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi markaz sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion xizmatlar oliy ta’limda xarajatlarni optimallashtirish, ta’lim qamrovini kengaytirish, sifat monitoringini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarini tezlashtirish va bitiruvchilarning amaliy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq bu natijalarga erishish uchun innovatsion xizmatlar universitet boshqaruvi, moliyalashtirish tizimi, pedagogik metodika va mehnat bozori bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak.

Mazkur yo‘nalishda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha alohida strategik dasturlar ishlab chiqish; ikkinchidan, raqamli platformalar va elektron resurslar sifatini baholash mezonlarini joriy etish; uchinchidan, professor-o‘qituvchilarning raqamli va innovatsion kompetensiyasini muntazam oshirish; to‘rtinchidan, ish beruvchilar bilan hamkorlikni amaliy loyihalar, stajirovka va qo‘shma o‘quv dasturlari orqali kuchaytirish; beshinchidan, innovatsion xizmatlarni moliyalashtirishda grantlar, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro dasturlardan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, oliy ta’lim xizmatlari samaradorligini baholashda talabalar qoniqishi, bitiruvchilar bandligi, ta’lim jarayonining raqamlashtirilganlik darajasi, ilmiy loyihalar soni va universitetning mehnat bozori bilan aloqalari kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish lozim. Bu yondashuv innovatsion xizmatlarning real iqtisodiy natijasini aniqroq ko‘rsatadi.

Umuman olganda, oliy ta’lim tizimida innovatsion xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, ta’lim sifatini oshirish va inson kapitalini mustahkamlashning samarali yo‘nalishidir. Bu jarayon izchil davom ettirilsa, universitetlarning raqobatbardoshligi ortadi, iqtisodiyot uchun zamonaviy kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi va innovatsion rivojlanish uchun barqaror ilmiy-amaliy muhit shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmoni. (2020). 5-oktabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. (2022). 28-yanvar.

3. Abdullayev, A. (2021). Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent: Iqtisodiyot.

4. Bell, D. (2020). Postindustrial jamiyatning kelajak modeli. Toshkent: Tafakkur.

5. Kastels, M. (2021). Axborot asri: iqtisodiyot va jamiyat. Toshkent: Yangi asr avlodi.

6. Ayubovna, I. S., & Shuxratovna, A. S. (2026). Increasing The Efficiency of The Higher Education System. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 7(1), 324–331.

7. Shuxratovna, Amriyeva Shaxzoda. (2026). Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash yo‘llari. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), 14(I), 2062–2070.

8. Artikova, Sh. I., & Rajabova, K. D. (2024). Innovatsion yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil etish. Journal of Marketing, Business and Management, 3(8), 90–93.

9. Амриева, Ш. Ш., Акобирова, М. А., & Нормухаммадова, А. Ш. (2026). Современные направления развития системы услуг высшего образования в цифровой экономике. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), 14(I), 369–376.

10. Yo‘ldashev, Sh. (2022). Ta’lim tizimida innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya. Toshkent: Fan va texnologiya.

https://iau-jaesa.uz/article/fvzs8mhj8zt6/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846202

UDK: 336.27

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT QARZINING TARKIBIY TUZILISHI: TASHQI VA ICHKI QARZ NISBATI TAHLILI

Vaxabov Abdurahim Vosiqovich
Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Makroiqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.d., professor (ilmiy rahbar)

Omonova Shahlo Raximjon qizi
Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti,
Matematik-iqtisodiyot mutaxassisligi 1-kurs magistranti
omonovashahlo77@gmail.com
+998909526577

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzining tarkibiy tuzilishi - tashqi va ichki qarz nisbati, valyuta va kreditorlar tarkibi, foiz stavkalari tuzilmasi hamda jalb qilingan mablag’larning tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti tahlil qilingan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning 2017-2025-yillardagi rasmiy ma'lumotlari asosida qarz portfelidagi tarkibiy siljishlar aniqlangan: ichki qarz ulushining bosqichma-bosqich oshib borishi, xalqaro moliya institutlari hissasining yuqoriligi va qarz portfelining dollarlashuvi bilan bog’liq risklar ochib berilgan. Tahlil natijalari asosida ichki qarz bozorini rivojlantirish va valyuta tarkibini diversifikatsiya qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat qarzi, tashqi qarz, ichki qarz, qarz portfeli, valyuta tarkibi, davlat qimmatli qog’ozlari, xalqaro moliya institutlari, fiskal barqarorlik.*

Аннотация. *В статье проанализирована структура государственного долга Республики Узбекистан - соотношение внешнего и внутреннего долга, валютная структура и структура кредиторов, структура процентных ставок, а также отраслевое распределение привлечённых средств. На основе официальных данных Министерства экономики и финансов и Центрального банка за 2017-2025 годы выявлены структурные сдвиги в долговом портфеле: постепенный рост доли внутреннего долга, высокая доля международных финансовых институтов и риски, связанные с долларизацией долгового портфеля. По результатам анализа разработаны предложения по развитию внутреннего долгового рынка и диверсификации валютной структуры.*

Ключевые слова: *государственный долг, внешний долг, внутренний долг, долговой портфель, валютная структура, государственные ценные бумаги, международные финансовые институты, фискальная устойчивость.*

Abstract. *The article analyzes the structure of the public debt of the Republic of Uzbekistan - the ratio of external and domestic debt, the currency and creditor composition, the interest rate structure, and the sect oral distribution of borrowed funds. Based on official data of the Ministry of Economy and Finance and the Central Bank for 2017-2025, structural shifts in the debt portfolio are identified: a gradual increase in the share of domestic debt, a high share of international financial*

institutions, and risks associated with the dollarization of the debt portfolio. Based on the results of the analysis, proposals have been developed for the development of the domestic debt market and diversification of the currency structure.

Keywords: *public debt, external debt, domestic debt, debt portfolio, currency composition, government securities, international financial institutions, fiscal sustainability.*

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, infratuzilma va ijtimoiy soha loyihalarini moliyalashtirish ehtiyoji davlat qarzining jadal o‘sishiga olib keldi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, davlat qarzi qoldig’i 2017-yilda 11,6 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilning 1-yanvar holatiga 46,8 mlrd dollarga yetdi, ya’ni sakkiz yil davomida to‘rt baravardan ziyodga oshdi [9]. Bunday sharoitda qarzning umumiy hajmi va uning yalpi ichki mahsulotga nisbati bilan bir qatorda, qarz portfelining ichki tuzilishi - tashqi va ichki qarz nisbati, valyuta tarkibi, kreditorlar tuzilmasi hamda foiz stavkalari tarkibi masalalari alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qarz portfelining tarkibiy tuzilishi mamlakatning valyuta, foiz va qayta moliyalashtirish risklariga qay darajada ta'sirchanligini belgilaydi. Tashqi qarz ulushi yuqori bo‘lgan portfel milliy valyuta kursining o‘zgarishiga sezgir bo‘lib, so‘m qadrsizlanganda qarz yuki va unga xizmat ko‘rsatish xarajatlari avtomatik ravishda ortadi. Shu bois 2023-yil 29-aprelda qabul qilingan “Davlat qarzi to‘g’risida”gi Qonunda davlat qarzini valyutalar va manbalar bo‘yicha diversifikatsiya qilish hamda milliy valyutada mablag’ jalb qilish amaliyotini kengaytirish qarz boshqaruvining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan [1].

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida iqtisodiyotni barqaror yuqori sur'atlarda o‘stirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifalari qo‘yilgan bo‘lib [3], ularning ijrosi qarz siyosatining oqilona yuritilishi bilan bevosita bog’liq. Mazkur maqolaning maqsadi - rasmiy statistik ma'lumotlar asosida O‘zbekiston davlat qarzining tarkibiy tuzilishini kompleks tahlil qilish, undagi tarkibiy siljishlarni aniqlash va portfel tuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Davlat qarzi muammolari jahon iqtisodiyot fanida keng o‘rganilgan. B.Eyxengrin va hammualliflar davlat qarzining tarixiy evolyutsiyasini tadqiq etib, qarz mablag’lari davlatlarga inqirozlarga qarshi turish, urushlar va pandemiyalar oqibatlarini yumshatish hamda rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish imkonini berganini asoslaydi va qarzning o‘zi emas, balki uni boshqarish sifati hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlaydi [4]. Ushbu mualliflar jamoasining Xalqaro valyuta jamg’armasi doirasidagi tadqiqotida esa yuqori qarz darajasidan chiqishning tarixiy yo‘llari - iqtisodiy o‘sish, fiskal konsolidatsiya va moliyaviy repressiya mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan [6].

O.Blanshar foiz stavkasi iqtisodiy o‘sish sur’atidan past bo‘lgan sharoitda qarzning fiskal xarajati pasayishini ko‘rsatib, qarz siyosatiga qat’iy miqdoriy chegaralar emas, balki mamlakatning o‘ziga xos sharoitlaridan kelib chiqqan holda yondashish zarurligini asoslaydi [5]. Bu xulosa rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan

O‘zbekiston uchun ham muhim: nominal YAIM o‘sishi qarz o‘sishidan yuqori bo‘lgan davrlarda qarz yuki barqarorlashadi.

O‘zbekiston davlat qarzi xalqaro moliya institutlarining mamlakat bo‘yicha hisobotlarida ham baholab boriladi. Xalqaro valyuta jamg’armasining IV modda bo‘yicha maslahatlashuvlar hisobotida O‘zbekiston davlat qarzi darajasi o‘rtacha muddatli istiqbolda barqaror deb topilgan, biroq davlat ishtirokidagi korxonalarning kafolatlanmagan qarzlari bilan bog’liq shartli majburiyatlar fiskal risk manbai sifatida qayd etilgan [7]. Jahon banki tomonidan tayyorlangan davlat xarajatlari sharhida esa qarz hisobidan moliyalashtiriladigan xarajatlar samaradorligini oshirish va fiskal risklar monitoringini kuchaytirish tavsiya etilgan [8]. Osiyo taraqqiyot banki mintaqaviy sharhlarida O‘zbekistonda investitsiya faolligining yuqoriligi tashqi moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyojni saqlab qolayotgani ko‘rsatilgan [12].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyati davlat qarzining umumiy hajmi va YAIMga nisbati dinamikasiga qaratilgan bo‘lib, qarz portfelining ichki tarkibiy tuzilishi - tashqi va ichki qarz nisbati, valyuta, kreditor va stavkalar tarkibi kesimidagi kompleks tahlillar yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, tarkibiy (strukturaviy) tahlil, qiyosiy tahlil hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat qarzi holati va dinamikasi bo‘yicha sharhlari [9], Markaziy bankning to‘lov balansi, xalqaro investitsiya mavqei va tashqi qarz sharhlari [10], Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari [11] hamda xalqaro moliya institutlarining hisobotlari tashkil etdi. Tahlil 2017-2025-yillarni qamrab oladi. Qarz portfelining tarkibiy tuzilishi to‘rt kesimda o‘rganildi: manbalar (tashqi/ichki), valyutalar, kreditorlar va foiz stavkalari tarkibi hamda jalb qilingan mablag’larning tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat qarzining umumiy dinamikasi tahlili uning jadal, biroq boshqariladigan sur’atlarda o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Davlat qarzi qoldig’i 2017-yildagi 11,6 mlrd dollardan 2019-yil yakuniga 17,8 mlrd, 2020-yil yakuniga 23,4 mlrd, 2021-yil yakuniga 26,3 mlrd dollarga yetdi [9]. Pandemiya davrida byudjet taqchilligini moliyalashtirish ehtiyoji qarz o‘sishini tezlashtirdi: qarzning YAIMga nisbati 2017-yildagi 16,1 foizdan 2020-yilda 33,4 foizgacha, 2021-yil boshiga esa 39 foizgacha ko‘tarildi [9]. Keyingi yillarda nominal YAIMning tez o‘sishi hisobiga bu ko‘rsatkich pasayish tendensiyasiga o‘tdi: 2023-yil boshiga 36,4 foiz, 2025-yil yakuniga esa 31,9 foizni tashkil etdi. 2025-yilda nominal YAIM o‘sish sur'ati (21,1 foiz) davlat qarzi o‘sish sur’atidan (16,7 foiz) yuqori bo‘lgani qarz yukining 2022-yildan buyon ilk bor qisqarishini ta’minladi [9]. Bu ko‘rsatkich “Davlat qarzi to‘g’risida”gi Qonunda belgilangan chegaraviy darajadan (YAIMning 60 foizi) va tuzatuvchi choralar ko‘rila boshlanadigan darajadan (50 foiz) ancha past [1]

1-jadval

O‘zbekiston davlat qarzining hajmi va tarkibiy tuzilishi dinamikasi

Sana	Jami davlat qarzi, mlrd doll.	Tashqi qarz, mlrd doll.	Ichki qarz, mlrd doll.	Ichki qarz ulushi, %	YAIMga nisbati, %
01.01.2022	26,3	23,6	2,7	10,3	38,0
01.01.2023	29,2	25,9	3,3	11,3	36,4
01.10.2025	44,0	36,7	7,2	16,4	32,3
01.01.2026	46,8	39,8	7,0	15,0	31,9

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qarz portfelida tashqi qarz mutlaq ustunlikka ega bo‘lib qolmoqda: 2026-yilning 1-yanvar holatiga uning ulushi 85 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, ichki qarzning ham mutlaq hajmi, ham ulushi izchil oshib bormoqda: ichki qarz qoldig’i 2022-yil boshidagi 2,7 mlrd dollardan 2026-yil boshiga 7,0 mlrd dollarga yetib, 2,6 baravar ko‘paydi, uning umumiy qarzdagi ulushi esa 10,3 foizdan 15 foizgacha kengaydi [9]. Bu davlat g’aznachilik obligatsiyalari emissiyasining faollashuvi va ichki moliya bozorining bosqichma-bosqich rivojlanishi natijasidir. Biroq xalqaro amaliyot bilan taqqoslaganda ichki qarz ulushi hali ham past bo‘lib, qarz portfelining valyuta riskiga ta'sirchanligini saqlab qolmoqda.

Davlat tashqi qarzining yillik o‘sish sur'atlari tahlili qonunchilik asosidagi tartibga solish mexanizmlarining samarasini ko‘rsatadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko‘ra, davlat tashqi qarzining yillik o‘sishi 2020-yilda 5,5 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-2022-yillarda 2,1-2,3 mlrd dollargacha pasaydi, 2023-2025-yillarda esa yirik infratuzilma loyihalari va byudjetni qo‘llab-quvvatlash ehtiyoji hisobiga yana o‘sish kuzatildi (1-rasm) [10].



1-rasm. Davlat tashqi qarzining yillik o‘sishi, mlrd AQSH dollari

Kreditorlar tarkibi tahlili davlat tashqi qarzining asosan imtiyozli va uzoq muddatli manbalardan shakllanganini ko‘rsatadi. 2025-yil yakuni holatiga tashqi qarzning 22,3 mlrd dollari yoki 56 foizi xalqaro moliya institutlari hissasiga to‘g’ri keladi, eng yirik kreditorlar Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki hisoblanadi [9]. Taqqoslash uchun, 2022-yilda xalqaro moliya institutlarining ulushi 48,7 foizni tashkil

etgan edi, ya'ni portfelda imtiyozli resurslar ulushi oshgan. Tashqi qarz mablag'larining 84 foizi bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli qarzlardan iborat bo'lib, bu qayta moliyalashtirish riskini pasaytiradi [9]. Shu bilan birga, tashqi qarzning 45 foizi qat'iy belgilangan, 40 foizi esa o'zgaruvchan foiz stavkalarida jalb qilingan [9]. O'zgaruvchan stavkali qarzlarning salmoqli ulushi jahon moliya bozorlarida stavkalar ko'tarilgan davrlarda qarz xizmati xarajatlarining ortishiga olib kelishi mumkin.

2-jadval

Davlat qarzining valyutalar bo'yicha tarkibi (2025-yil 1-oktabr holatiga)

Valyuta turi	Davlat qarzidagi ulushi, %
AQSH dollari	63
O'zbekiston so'mi	12
Yevro	8
Boshqa valyutalar	17

2-jadvaldan ko'rinadiki, davlat qarzining 63 foizi AQSH dollarida, 12 foizi milliy valyutada, 8 foizi yevroda ifodalangan [9]. Portfelning yuqori darajada dollarlashuvi valyuta riskining asosiy manbai hisoblanadi: so'm kursining pasayishi qarzning so'mdagi ekvivalentini va byudjetdan qarz xizmatiga yo'naltiriladigan xarajatlarni avtomatik oshiradi. Qarz xizmatining ko'lami sezilarli: 2022-yilda davlat qarziga xizmat ko'rsatishning jami xarajatlari 2,49 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lib, shundan 1,2 mlrd dollari bevosita davlat byudjetidan to'langan [9].

Jalb qilingan mablag'larning yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025-yil yakuniga tashqi qarzning qariyb yarmi davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishga yo'naltirilgan [9]. Tarmoqlar kesimida 5,6 mlrd dollar yoki 14 foiz yonilg'i-energetika sanoatiga (shundan 4,1 mlrd dollari elektroenergetikaga), 3,5 mlrd dollar yoki 9 foiz sog'liqni saqlash, ta'lim hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalariga to'g'ri keladi; transport infratuzilmasi, qishloq va suv xo'jaligi hamda uy-joy kommunal xo'jaligi yo'nalishlarining har biriga 3 mlrd dollardan ortiq mablag' yo'naltirilgan [9]. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish ulushining yuqoriligi qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi masalasini kun tartibiga qo'yadi: investitsiya xarakteridagi qarzlar kelgusida daromad oqimini yaratsa, joriy xarajatlarni qoplashga yo'naltirilgan qarzlar bunday manbaga ega emas.

Davlat qarzi tarkibini kengroq makroiqtisodiy kontekstda baholash ham muhim. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatning umumiy tashqi qarzi 82,2 mlrd dollarga yetdi, bunda korporativ tashqi qarz (41,7 mlrd dollar) ilk bor davlat tashqi qarzidan (40,5 mlrd dollar) oshib ketdi [10]. Korporativ qarz tarkibida davlat ishtirokidagi korxonalarning kafolatsiz qarzlari salmoqli o'rin tutadi. Xalqaro moliya institutlari bunday qarzlarni shartli majburiyat sifatida baholab, ular ayrim loyihalar samarasiz chiqqan taqdirda hukumat balansiga o'tish xavfini fiskal risk manbai sifatida qayd etadi [7]. Bu davlat qarzi statistikasi bilan qamrab olinmaydigan, biroq fiskal barqarorlikka bevosita daxldor bo'lgan segmentni doimiy monitoring qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Birinchidan, O‘zbekiston davlat qarzi hajmi jihatidan jadal o‘sayotgan bo‘lsa-da, uning YAIMga nisbati (2025-yil yakuniga 31,9 foiz) qonun bilan belgilangan chegaraviy darajalardan sezilarli past bo‘lib, qarz yuki boshqariladigan darajada saqlanmoqda. Ikkinchidan, qarz portfelining tarkibiy tuzilishida ijobiy siljishlar kuzatilmoqda: ichki qarz ulushi 10,3 foizdan 15 foizgacha kengaydi, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli resurslari ulushi 56 foizga yetdi, portfelning 84 foizi uzoq muddatli majburiyatlardan iborat. Uchinchidan, portfelda jiddiy tarkibiy risklar saqlanib qolmoqda: qarzning 63 foizi AQSH dollarida ifodalangani valyuta riskini, 40 foizining o‘zgaruvchan stavkalarda jalb qilingani foiz riskini, korporativ tashqi qarzning jadal o‘sishi esa shartli fiskal majburiyatlar riskini yuzaga keltiradi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, davlat g’aznachilik obligatsiyalari bozorini rivojlantirish hisobiga ichki qarz ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish maqsadga muvofiq. Buning uchun obligatsiyalar muddatlar shkalasini kengaytirish, ikkilamchi bozor likvidligini oshirish hamda pensiya jamg’armalari, sug’urta kompaniyalari va investitsiya fondlari kabi institutsional investorlarning ishtirokini rag’batlantirish talab etiladi. Ikkinchidan, “Davlat qarzi to‘g’risida”gi Qonunda belgilangan milliy valyutada mablag’ jalb qilishni kengaytirish tamoyilini izchil amalga oshirish, jumladan xalqaro moliya institutlari bilan so‘mda kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha muzokaralar olib borish lozim. Uchinchidan, o‘zgaruvchan stavkali qarzlar ulushini kamaytirish va foiz riskini boshqarishning bozor vositalarini joriy etish zarur. To‘rtinchidan, davlat ishtirokidagi korxonalarning kafolatsiz tashqi qarzlari bo‘yicha yagona monitoring tizimini kuchaytirish va shartli majburiyatlarni fiskal risklar tahliliga to‘liq qamrab olish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, byudjet taqchilligini moliyalashtirishga yo‘naltirilayotgan qarz ulushini kamaytirib, qarz mablag’larini o‘zini qoplaydigan investitsiya loyihalariga yo‘naltirish ustuvorligini ta'minlash lozim.

Mazkur yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi davlat qarzi portfelining valyuta va foiz risklariga chidamliligini oshirish, ichki moliya bozorini chuqurlashtirish hamda uzoq muddatli fiskal barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to‘g’risida”gi Qonuni. 2023-yil 29-aprel, O‘RQ-836-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/-6446817

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “‘O‘zbekiston - 2030’ strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz

4. Eichengreen B., El-Ganainy A., Esteves R., Mitchener K.J. In Defense of Public Debt. - Oxford: Oxford University Press, 2021. - 320 p.

5. Blanchard O. Fiscal Policy under Low Interest Rates. - Cambridge: The MIT Press, 2023. - 192 p.

6. Eichengreen B., El-Ganainy A., Esteves R., Mitchener K.J. Public Debt Through the Ages // IMF Working Paper WP/19/6. - Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2019. - 60 p.

7. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Article IV Consultation - Press Release and Staff Report. - Washington, D.C.: IMF, 2024.

8. World Bank. Uzbekistan Public Expenditure Review. - Washington, D.C.: The World Bank, 2022.

9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat qarzi holati va dinamikasi sharhlari (2022-2025-yillar yakunlari bo‘yicha). - URL: https://imv.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov balansi, xalqaro investitsiya mavqei va tashqi qarz sharhlari (2024–2025-yillar). - URL: https://cbu.uz

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari. - URL: https://stat.uz

12. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2025. - Manila: ADB, 2025.

https://iau-jaesa.uz/article/hwtztrqd8och/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846386

UDC. 336.64

FINANCIAL MANAGEMENT PRACTICES AND THE ECONOMIC SUSTAINABILITY OF SMALL AND MEDIUM ENTERPRISES

Maftuna Utkirova Murodovna
Lecturer, International Agriculture University (IAU), Tashkent, Uzbekistan
Lecturer, Management and Development Institute of Singapore (MDIST), Tashkent Branch, Uzbekistan
mmmurodovna888@gmail.com
ORCID : https://orcid.org/0009-0007-2687-2789

Turopov Shokhrukh Ulugbek ugli
Lecturer, Tashkent state agrarian university
turopov303@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-6649-8276

Abstract. *Small and medium enterprises (SMEs) represent a crucial element of today's economy, significantly contributing to employment creation, wealth creation, innovation, and local economic development. Nevertheless, the sustainable economic performance of such firms is often hindered by poor financial management, lack of proper cash flow management, ineffective working capital management, poor financial information, and limited availability of external financing. This paper explores the relationship between financial management and the economic sustainability of SMEs using an organized review of the existing literature on the subject matter. Special focus is placed on financial planning and budgeting, cash flow management, working capital management, financial information systems, capital structure, financial risk management, and investment appraisal. The analysis emphasizes that financial management should be considered not only as an accounting tool but as a strategic skill of the organization, which defines its ability to ensure its liquidity, profitability, funding of growth activities, coping with economic crises, and sustainable performance. Research demonstrates that better financial management positively affects the decision making process and performance. Recent studies also suggest that the link between the investment in working capital and profitability might be nonlinear, implying that SMEs have to aim for optimal liquidity. The study recommends an integrated model where financial planning, working capital effectiveness, information quality, financing, investment appraisal, and risk management together determine the economic sustainability of SMEs.*

Keywords. *Financial management practices; small and medium enterprises; SME sustainability; working capital; financial planning; cash-flow management; financial performance; financial resilience.*

Annotatsiya. *Kichik va o‘rta korxonalar (KO‘K) zamonaviy iqtisodiyotning muhim elementi bo‘lib, ular ish o‘rinlarini yaratish, boylik hosil qilish, innovatsiyalar va mahalliy iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo‘shadilar. Shunga qaramay, bunday firmalarning barqaror iqtisodiy samaradorligi ko‘pincha moliyaviy boshqaruvning*

sustligi, pul oqimlarini to‘g‘ri boshqarmaslik, aylanma mablag‘larni samarasiz boshqarish, moliyaviy axborot sifati pastligi va tashqi moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi tufayli to‘sqinlik qiladi. Ushbu maqolada moliyaviy boshqaruv va KO‘Kning iqtisodiy barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjud adabiyotlarni tizimli sharhlash asosida o‘rganiladi. Asosiy e’tibor moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish, pul oqimlarini boshqarish, aylanma mablag‘larni boshqarish, moliyaviy axborot tizimlari, kapital tarkibi, moliyaviy risklarni boshqarish va investitsiyalarni baholashga qaratilgan. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy boshqaruv faqat buxgalteriya vositasi sifatida emas, balki tashkilotning strategik mahorati sifatida qaralishi kerak, chunki u likvidlikni, rentabellikni, o‘sish faoliyatini moliyalashtirishni, iqtisodiy inqirozlarni yengishni va barqaror natijadorlikni ta’minlash qobiliyatini belgilaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy boshqaruvning yaxshilanishi qaror qabul qilish jarayoniga va natijadorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi tadqiqotlar, shuningdek, aylanma mablag‘larga investitsiya va rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlik chiziqli bo‘lmasligi mumkinligini ta’kidlaydi, bu KO‘Klarning optimal likvidlikka erishishga intilishi kerakligini bildiradi. Tadqiqot moliyaviy rejalashtirish, aylanma mablag‘lar samaradorligi, axborot sifati, moliyalashtirish, investitsiyalarni baholash va risklarni boshqarish birgalikda KO‘Klarning iqtisodiy barqarorligini belgilaydigan integratsiyalashgan modelni tavsiya qiladi.

Kalit so‘zlar: *moliyaviy boshqaruv amaliyotlari; kichik va o‘rta korxonalar; KO‘K barqarorligi; aylanma mablag‘lar; moliyaviy rejalashtirish; pul oqimlarini boshqarish; moliyaviy natijadorlik; moliyaviy chidamlilik.*

Аннотация. *Малые и средние предприятия (МСП) представляют собой важнейший элемент современной экономики, внося значительный вклад в создание рабочих мест, прирост благосостояния, инновации и местное экономическое развитие. Тем не менее, устойчивая экономическая эффективность таких фирм часто сдерживается неудовлетворительным финансовым менеджментом, отсутствием надлежащего управления денежными потоками, неэффективным управлением оборотным капиталом, низким качеством финансовой информации и ограниченной доступностью внешнего финансирования. В данной статье исследуется взаимосвязь между финансовым менеджментом и экономической устойчивостью МСП на основе систематизированного обзора существующей литературы по данной теме. Особое внимание уделяется финансовому планированию и бюджетированию, управлению денежными потоками, управлению оборотным капиталом, системам финансовой информации, структуре капитала, управлению финансовыми рисками и оценке инвестиций. Анализ подчеркивает, что финансовый менеджмент следует рассматривать не только как учетный инструмент, но и как стратегический навык организации, определяющий ее способность обеспечивать ликвидность, рентабельность, финансирование деятельности по росту, преодоление экономических кризисов и устойчивую результативность. Исследования показывают, что улучшение финансового менеджмента положительно влияет на процесс принятия решений и*

результативность. Недавние исследования также указывают на то, что связь между инвестициями в оборотный капитал и рентабельностью может быть нелинейной, что предполагает необходимость для МСП стремиться к оптимальной ликвидности. В исследовании рекомендуется комплексная модель, в которой финансовое планирование, эффективность использования оборотного капитала, качество информации, финансирование, оценка инвестиций и управление рисками совместно определяют экономическую устойчивость МСП.

Ключевые слова: *практики финансового менеджмента; малые и средние предприятия; устойчивость МСП; оборотный капитал; финансовое планирование; управление денежными потоками; финансовая результативность; финансовая устойчивость.*

INTRODUCTION

Small and medium enterprises (SMEs) are one of the most critical aspects of today's economic systems. They contribute to wealth creation at the household level, creation of jobs, competition, innovation, entrepreneurship, and development of economies. According to the World Bank, SMEs represent a huge source of employment and economic activity on a global scale. Due to their importance, managers and policymakers have serious worries regarding the financial viability of SMEs.

Despite their importance to the economy, SMEs are faced with serious financial difficulties. Small enterprises have fewer financial resources, have less negotiation power with their suppliers and banks, have a less diversified revenue stream and, therefore, are more prone to fluctuations in their operating costs and demand in comparison with large enterprises. This way, financial management has a special meaning for the stability and viability of the companies.

Financial sustainability does not merely rely on the volume of business resources available. Instead, it relies on the effectiveness of the business's planning, management, and controlling of business resources. The business may access loans and investment, yet it is still vulnerable to financial difficulties. This situation may occur in the event of having poor budgeting practices, unnecessary stockpiling of inventory, poor collection of payments, inadequate cash-flow predictions, and unsuitable debt structure. In addition to that, the significance of the above-mentioned problems cannot be underestimated in the face of inflation, higher prices for borrowing money, supply-chain problems, advances in technology, and overall uncertainty. According to the information provided by OECD, the rising inflation and stricter rules for lending increase the problems that SMEs might be facing when it comes to financing, therefore incurring higher costs of borrowing money (OECD, 2024).

Working-capital management proves to be extremely vital since SMEs rely heavily on the internally generated funds and short-term loans that support day-to-day operations. Late payments from the clients, excess stocks, and poorly managed terms from suppliers can create immediate liquidity challenges even if the company has shown an accounting profit.

The aim of this paper is to explore the effects of financial management techniques on the economic sustainability of SMEs. The paper highlights the importance of financial planning, cash-flow management, working-capital management, accounting information, capital structure, investment evaluation, and risk management. Additionally, it proposes an integrated framework that connects these techniques with liquidity, profitability, efficiency, resilience, and long-term growth.

LITERATURE REVIEW

Financial management refers to the planning, acquisition, allocation, application, and supervision of financial assets in a company. In SMEs, financial decisions are often closely associated with owner-managers because they may run the business without having special finance departments. Thus, the practical implementation of financial management skills is vital.

Musah, Gakpetor, and Pomaa (2018) examined financial management through working-capital management, capital-structure management, accounting information and reporting, and capital budgeting and fixed-asset management. Their empirical study of SMEs in Accra reported relationships between these financial-management practices and profitability and growth. Similar evidence from Sri Lanka indicates significant associations between financial management practices and SME performance, particularly fixed-asset management, working-capital management, and accounting information systems.

Financial planning and budgeting provide a foundation for resource allocation. A budget enables managers to estimate revenues, costs, cash requirements, financing needs, and investment requirements. Cash budgets are especially important because accounting profitability does not necessarily correspond to cash availability. A business can be profitable and still experience cash flow problems due to customers not paying their bills.

The management of working capital includes cash, receivables, payables, and inventories. García-Teruel and Martínez-Solano (2007) conducted a study on Spanish small and medium-sized enterprises and illustrated how reducing inventories, receivables, and the cash conversion cycle can increase profitability. However, recent research indicates that it is necessary to keep working capital investments at an optimal level and that an excessive reduction might also be detrimental. It should be emphasized that the goal of managing working capital should not be just to minimize it.

Accounting information is of vital importance as well. Financial statements contain information regarding profitability, liquidity, cash flows, and assets and liabilities, which will be useful for small and medium-sized enterprises not only when it comes to tax and reporting issues but also planning, monitoring their performance, and making financial decisions.

Capital structure also affects sustainability. Debt can finance growth, but excessive debt creates fixed repayment obligations and increases financial risk. SMEs therefore need to evaluate interest rates, repayment schedules, collateral requirements, debt-service capacity, maturity structure, and currency exposure.

Finally, investment appraisal and financial-risk management help protect scarce SME resources. Investment decisions should consider expected cash flows, costs, risks, and alternative uses of capital, while risk management should address liquidity, credit, interest-rate, foreign-exchange, and market risks.

RESEARCH METHODOLOGY

This article follows the literature-review qualitative analysis approach. The study did not seek to obtain any primary data through survey research but instead, aims to process and synthesize existing theoretical and empirical knowledge regarding financial management practices and SME economic sustainability. The reviewed literature was grouped into six thematic areas: planning and budgeting, cash-flow management, financing, financial and accounting information, capital structure and funding decisions, and investment and financial-risk management.

Economic sustainability refers to the ability of an SME to perform its activities, achieve reasonable profitability, fulfil its financial obligations, withstanding various economic shocks and business development. The analysis is based on the premise that financial management practices affect economic sustainability through the quality of financial decisions concerning liquidity, profitability, effectiveness and financial stability. Thus, the mechanism can be represented through the following path: Financial Management Practices → Quality of Financial Decisions → Liquidity, Profitability, Effectiveness and Financial Resilience → Economic Sustainability.

The study is founded on articles published in scholarly and reputable worldwide publications such as OECD and the World Bank. No primary survey results are reported, which is why no fictitious regression coefficients, statistics or other empirical results are provided in the paper.

RESULTS AND DISCUSSION

Financial planning is said to provide the ground for the rest of the practices in finance management. Businesses that don't have a system for making plans will rely on their reactions to circumstances rather than will have the business resources used effectively in accordance with long-term targets. Financial planning is essential for optimizing the allocation of resources, readiness for crises, and strategic decisions connected with growth.

Management of cash flow is one of the most straightforward ways of linking financial management to sustainability. It is important for a small or medium enterprise to make cash flow forecasts regularly, keep track of profit and losses, study the turnover of inventories, find out the seasonal needs of customers, ensure a certain amount of cash balance, and compare it to the actual cash flows. Rapid growth may create liquidity problems since sometimes the business needs to pay for inventory, manpower, and fixed assets before customers pay the invoices.

Managing working capital efficiently is directly related to successful operation of a company. Poor management of receivables results in greater time needed to receive cash after the sale, while overaccumulating the inventory prevents the company from using the acquired funds efficiently. At the same time, overly aggressive reductions in inventory or credit availability may negatively affect sales. García-Teruel and Martínez-Solano (2007) found that shorter cash-conversion cycles were associated

with higher SME profitability. Recent evidence also supports an optimal rather than unlimited level of working-capital investment.

Access to finance is important, but finance alone does not guarantee sustainability. SMEs with weak accounting records, poor cash-flow forecasting, or inadequate investment appraisal may use borrowed funds inefficiently. Strong internal financial capability can also improve an enterprise's ability to demonstrate creditworthiness to financial institutions.

Capital-structure decisions should balance the benefits of external financing against repayment obligations and financial risk. Borrowing to purchase productive equipment that generates additional cash flow can be economically justified, while borrowing to cover persistent operating losses without restructuring the business model may increase vulnerability.

Investment appraisal converts financial resources into productive capacity. SMEs should evaluate proposed investments using techniques such as payback period, accounting rate of return, net present value, internal rate of return, and profitability index. Even simplified investment appraisal can prevent scarce capital from being committed to low-return assets.

Financial risk management is also essential because SMEs generally have fewer reserves and less capacity to diversify risk than large firms. Managers should identify major risks, estimate their effects, determine acceptable exposure levels, implement mitigation measures, and monitor risks continuously.

Integrated Framework for SME Economic Sustainability. The integrated approach to the management of financial matters for SMEs is confirmed by the observations made. Firstly, financial planning and budget-making lead to better distribution of resources; secondly, cash-flow management lends assurance of liquidity; thirdly, effective working-capital management permits the company to function efficiently; fourthly, accounting information contributes to quality decision-making; fifthly, capital structure management minimizes financial risks; sixthly, investment appraisal guarantees positive growth; seventhly, risk management enhances the resilience of the company.

Economic sustainability should be estimated considering such indicators as profitability, liquidity, operational efficiency, solvency, growth, resilience, and investment capacity. It is easy to understand that a company that is profitable can be considered unsustainable if it suffers from a shortage of cash repeatedly. On the other hand, a company can be liquid, but, at the same time, it can be unsustainable as well due to the lack of profitability rendered by assets.

The integral approach can be represented in the following way: Financial Planning + Cash Flow Management + Working Capital Management + Accounting Information + Capital Structure + Investment Appraisal + Risk Management → Higher Quality of Financial Decisions → Improved Profitability and Liquidity.

Managerial and Policy Implications. SME executives must implement basic financial management systems regardless of the size of their business. Every small and medium-sized enterprise (SME) must keep accurate financial records and make regular cash flow forecasts. Debtors must be probed constantly through clear payment rules

and customer credit policies. Inventory must be controlled based on demand and turnover. Borrowing must be assessed based on the repaying capacity and the purpose of spending. Investment decisions must be made based on the expected profits and risks, and backup plans must be created to deal with declining sales, growing input prices, increasing interest rates as well as disruptions in supply chains.

Policies are equally relevant. SME development schemes must connect financing with literacy schemes, accounting, digital financial solutions as well as managerial training. Evidence presented by OECD suggests the importance of diversity in finance sources as well as policies aimed at ensuring resilience among SMEs in the environment of changing financial conditions (OECD, 2024). Financial institutions can offer consultancy solutions, digital accounting tools, and cash flow monitoring services along with lending.

These steps are especially needed in developing nations where SMEs contribute to significant business volume and jobs while facing significant financial restrictions.

CONCLUSION

This article focuses on the given subject of the link between the financial management practices and the economic sustainability of SMEs. The process shows that financial management is a multifaceted organizational ability that involves financial planning, budgeting, cash-flow management, management of working capital, accounting data, financing choices, investment assessment, and managing financial risk.

The ultimate conclusion is that having access to financial resources alone is not a guarantee of SME sustainability. Financial resources need to be converted into economic results through proper managerial actions. Working capital management is integral because it affects liquidity, efficiency, and profitability.

Research on SMEs gives evidence that effective management of inventory and accounts receivable together with managing cash conversion cycle positively influences profitability, whilst the latest studies prove that it is a need to have optimal working capital rather than excessive one.

Financial planning and budgeting are crucial processes to achieve this objective, as they allow SMEs to forecast financial needs and plan the spending and allocation of resources in the right way. Accounting information makes these processes more effective and improves managerial decisions.

For policymakers, the findings suggest that SME-development strategies should integrate access to finance with financial-literacy programs, accounting support, digital financial tools, and managerial training. Future empirical research could test the proposed framework using firm-level panel data, particularly in emerging economies, and examine whether financial-management capabilities moderate the relationship between access to finance and SME survival, profitability, employment growth, and resilience.

Overall, the economic sustainability of SMEs depends not simply on how much financial capital they possess, but on how effectively they plan, allocate, monitor, and protect that capital.

Table 1. Financial Management Practices and Their Contribution to SME Sustainability

Practice	Primary objective	Sustainability effect
Financial planning	Forecast revenues, costs and financing needs	Improves preparedness and resource allocation
Budgeting	Control planned expenditure	Reduces unnecessary costs
Cash-flow management	Maintain adequate liquidity	Reduces insolvency risk
Receivables management	Accelerate cash collection	Improves liquidity
Inventory management	Avoid excessive stock	Releases tied-up capital
Payables management	Optimize supplier payments	Supports liquidity
Accounting information	Improve financial visibility	Strengthens decision-making
Capital structure	Balance debt and equity	Controls financial risk
Investment appraisal	Select productive investments	Supports long-term growth
Risk management	Reduce exposure to shocks	Improves resilience

REFERENCES

1. Barney, J. B. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. Journal of Management, 17(1), 99–120. https://doi.org/10.1177/014920639101700108

2. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2005). Financial and legal constraints to growth: Does firm size matter? The Journal of Finance, 60(1), 137–177. https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.2005.00727.x

3. García-Teruel, P. J., & Martínez-Solano, P. (2007). Effects of working capital management on SME profitability. International Journal of Managerial Finance, 3(2), 164–177. https://doi.org/10.1108/17439130710721618

4. Musah, A., Gakpetor, E. D., & Pomaa, P. (2018). Financial management practices, firm growth and profitability of small and medium scale enterprises (SMEs). Information Management and Business Review, 10(3), 25–37. https://doi.org/10.22610/imbr.v10i3.2461

5. Muneer, S., Ahmad, R. A., & Ali, A. (2017). Impact of financial management practices on SMEs profitability with moderating role of agency cost. Information Management and Business Review, 9(1), 23–30. https://doi.org/10.22610/imbr.v9i1.1593

6. Nkwinika, E., & Akinola, S. (2023). The importance of financial management in small and medium-sized enterprises (SMEs): An analysis of challenges and best practices. Technology Audit and Production Reserves. https://doi.org/10.15587/2706-5448.2023.285749

7. OECD. (2024). Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/fa521246-en

8. Otoo, F. N. K. (2024). Assessing the influence of financial management practices on organizational performance of small- and medium-scale enterprises. Vilakshan – XIMB Journal of Management, 21(2), 162–188. https://doi.org/10.1108/XJM-09-2023-0192

9. Peel, M. J., & Wilson, N. (1996). Working capital and financial management practices in the small firm sector. International Small Business Journal, 14(2), 52–68. https://doi.org/10.1177/0266242696142004

10. Rauf, A. L. A. (2016). Financial management practices in small and medium sized enterprises: Empirical evidence from the District of Ampara in Sri Lanka. International Journal of Economics, Business and Management Studies, 3(3), 117–126. https://doi.org/10.20448/802.3.3.117.126

11. Wolmarans, H. P., & Meintjes, Q. (2015). Financial management practices in successful small and medium enterprises (SMEs). The Southern African Journal of Entrepreneurship and Small Business Management, 7(1), a8. https://doi.org/10.4102/sajesbm.v7i1.8

12. World Bank. (2024). SME Finance. World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance

https://iau-jaesa.uz/article/7n3ptmzeergr/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846410
UDC: 338.43:631.45(575.1)

SOIL EROSION AND CONSERVATION STRATEGIES ACROSS CLIMATES WITH A FOCUS ON UZBEKISTAN

Kurbonkhuja Ruziev
International Agriculture University, Master's student
E-mail: qurbonruziev98@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-5348-0025
+998977178731

Abstract. *Soil erosion is one of the most challenging threats to agricultural productivity. This study presents a comprehensive literature review focusing on soil erosion types, their driving factors, conservation strategies, and soil productivity restoration. The review analyzes different forms of soil erosion, including water erosion, wind erosion, gully erosion, and human-accelerated erosion, together with the effects of climate change, land-use change, and deforestation. Conservation methods identified in the literature include contour plowing, reforestation, crop rotation, minimum tillage, organic matter management. The findings confirm that restoration of degraded soils is possible but requires integrated and long-term management practices. Although many conservation strategies have proven effective under specific environmental conditions, their successful implementation depends on local soil, climate, and land-use characteristics. Therefore, further researches have to be done to better understand soil erosion and its conservation methods.*

Keywords: *Land degradation, soil erosion, soil conservation, Uzbekistan, agricultural productivity, conservation strategies, contour plowing, soil restoration.*

Annotatsiya. *Tuproq eroziyasi qishloq xo‘jaligi unumdorligi uchun eng qiyin tahdidlardan biridir. Ushbu tadqiqot tuproq eroziyasi turlari, ularning harakatlantiruvchi omillari, tabiatni muhofaza qilish strategiyalari va tuproq unumdorligini tiklashga qaratilgan keng qamrovli adabiyotlar sharhini taqdim etadi. Sharhda suv eroziyasi, shamol eroziyasi, jar eroziyasi va inson tomonidan tezlashtirilgan eroziya kabi tuproq eroziyasining turli shakllari, shuningdek, iqlim o‘zgarishi, yerlardan foydalanish o‘zgarishi va o'rmonlarning kesilishi ta’siri tahlil qilinadi. Adabiyotda aniqlangan tabiatni muhofaza qilish usullari konturli shudgorlash, o‘rmonlarni qayta tiklash, almashlab ekish, minimal ishlov berish, organik moddalarni boshqarishni o‘z ichiga oladi. Topilmalar degradatsiyaga uchragan tuproqlarni tiklash mumkinligini tasdiqlaydi, ammo integratsiyalashgan va uzoq muddatli boshqaruv amaliyotlarini talab qiladi. Ko‘pgina tabiatni muhofaza qilish strategiyalari ma’lum atrof-muhit sharoitlarida samarali ekanligi isbotlangan bo‘lsada, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish mahalliy tuproq, iqlim va yerlardan foydalanish xususiyatlariga bog‘liq. Shuning uchun, tuproq eroziyasi va uni muhofaza qilish usullarini yaxshiroq tushunish uchun qo‘shimcha tadqiqot, izlanishlarni o‘tkazish kerak.*

Kalit so‘zlar: *Yerlarning degradatsiyasi, tuproq eroziyasi, tuproqni muhofaza qilish, O‘zbekiston, qishloq xo‘jaligi unumdorligi, tabiatni muhofaza qilish strategiyalari, konturli shudgorlash, tuproqni tiklash.*

Аннотация. *Эрозия почв представляет собой одну из наиболее серьезных угроз для продуктивности сельского хозяйства. В данном исследовании представлен всесторонний обзор литературы, посвященный видам эрозии почв, факторам, способствующим их развитию, стратегиям охраны почв и восстановлению их продуктивности. В обзоре анализируются различные формы эрозии, включая водную, ветровую и овражную эрозию, а также эрозию, ускоренную антропогенным воздействием, и рассматривается влияние изменения климата, изменений в землепользовании и обезлесения. К числу методов охраны почв, описанных в литературе, относятся контурная вспашка, лесовосстановление, севооборот, минимальная обработка почвы и управление содержанием органического вещества. Результаты исследования подтверждают, что восстановление деградированных почв возможно, однако оно требует применения комплексных и долгосрочных мер управления. Хотя многие стратегии охраны почв доказали свою эффективность в определенных природных условиях, их успешная реализация зависит от местных почвенных и климатических характеристик, а также от особенностей землепользования. В связи с этим необходимы дальнейшие исследования для углубленного понимания процессов эрозии почв и методов их предотвращения.*

Ключевые слова: *деградация земель, эрозия почв, охрана почв, Узбекистан, продуктивность сельского хозяйства, стратегии охраны почв, контурная вспашка, восстановление почв.*

INTRODUCTION

Soil is a fundamental resource for agricultural production, yet the recovery of degraded soil requires a long period of time (Juliev et al., 2024). Agriculture plays a significant role in Uzbekistan's economy, accounting for 17.3% of GDP and 30.9% of the gross value added of small businesses in 2025 (National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan). These figures highlight the importance of sustainable soil management for ensuring agricultural productivity and food security.

Previous studies have examined soil erosion and conservation practices in different regions. Research in Africa described major erosion types and assessment methods (Eric Roose et al., 2008), while studies in South Africa focused on water erosion in duplex soils and conservation measures such as reforestation and drainage (Parwada & Van Tol, 2016). Other studies proposed improved tillage systems for controlling wind and water erosion (Mirzaev et al., 2019), highlighted the effectiveness of plant cover in reducing soil erosion and runoff (Zuazo & Pleguezuelo, 2008), and examined the relationship between soil degradation, climate change, and food security on a global scale (Lal, 2014).

This thesis reviews the major causes of soil erosion and evaluates widely used soil conservation strategies. Based on international research and practical case studies, it discusses approaches such as terracing, contour plowing, cover cropping, crop rotation, agroforestry, windbreaks, vegetation restoration, nutrient and water

management, and no-till farming, emphasizing their potential application for improving soil conservation practices in Uzbekistan.

MYTHOLOGY AND LITERATURE REVIEW

This study adopts a qualitative analytical approach based on secondary data. Scientific articles, books, and statistical reports were systematically reviewed and analyzed to examine soil degradation, soil erosion, and soil conservation strategies under different climatic and environmental conditions. The research is focused on Uzbekistan; however, studies and experiences from other continents and countries were also reviewed to provide a broader understanding of the causes, impacts, and management of soil degradation.

2.1. Studies on soil degradation and erosion

Early studies of erosion (in scope of our research) discuss soil erosion rates and productivity loss for two areas of the United States, the types of erosion including water erosion, wind erosion (H.E. Dregne, 1987). As author states water erosion is more serious problem than wind erosion in both arid and humid regions. In some areas water erosion has reduced soil productivity for over 50 years.

Eric Roose et al. (2008) in his 50 years of research of Africa, examined main problems of soil erosion, and conservation strategies to be done in places. Erosion is highly associated with loss of nutrient loss and carbon sequestration. Restoration of soil: as authors state water and soils are non-renewable resources, if the thin topsoil over a hard calcareous or granitic rock is eroded, it will not be possible to restore the soil in a single lifetime because it takes 1000 to 3000 years to create 10 cm of soil.

It is possible to restore soil productivity, by following these steps:

1. Since eroded soils produce high runoff, the first step is to manage water flow using measures such as stone bunds, vegetative hedges, and basins.
2. Because degraded soils are compact and unstable, they should be deeply plowed and improved with organic matter or calcium carbonate to increase stability.
3. As deeper soil layers have lower biological activity than the humus layer, compost or manure rich in microbes and mycorrhiza should be added to improve nutrient availability.
4. Since degraded soils are nutrient-poor and cannot retain nutrients well, fertilizers should be applied directly to plants when needed rather than relying on the soil to store them.
5. If soil pH is too low (below 5), it should be raised above 5 to reduce aluminium toxicity. (Eric Roose et al., 2008)

2.2 Uzbekistan

The total land area of Uzbekistan is 44.7 hectares with natural pastures - 46.8%, forest lands 8%, and urban and infrastructure areas 34.5%. Arable land constitutes only 4.3 million hectares of which 3.3 million ha. directed to irrigated agriculture. A large area of land in Uzbekistan is affected by degradation and desertification, including strong soil compaction and crust formation (more than 50% of irrigated land), wind erosion (56% of all lands), irrigation erosion (covering 7,603 sq. km of land), soil salinization (47% of the irrigated area), and low organic matter in soils. (Umarov et al., 2025, cited as Eshmatov, 2024).



Figure 1. Land degradation trends in Uzbekistan for the period 2010–2020 prepared using the Trends. Earth tool. Source of data: Soil and Agrochemical Research Institute, Tashkent, Uzbekistan. (Umarov et al., 2025)

Mitigation actions in Uzbekistan. Uzbekistan and Kazakhstan together account for around 6 million hectares of the dried bed of the Aral Sea. Of this, about 3.2 million hectares are located in Uzbekistan, with approximately 2.5 million hectares designated for forest plantations. A national program to rehabilitate the Aral Sea region was launched in 2017. By the end of 2024, more than 1.7 million hectares had already been afforested. Plants such as "saxaul" and "tamarisk", which are resistant to salinity, play an important role in reducing the spread of harmful dust and salts into the atmosphere. They also help absorb excess salt from the soil, gradually improving land conditions for agricultural use. In addition, the Forestry Agency of Uzbekistan is actively implementing national greening initiatives. One of the major programs is the "Yashil Makon", launched in 2021. This initiative aims to increase the country's green coverage to 30% by 2030, compared to the current level of about 12%. Under this program, Uzbekistan plans to plant around 200 million trees and shrubs each year, with a total target of 1 billion over five years.(Umarov et al., 2025)

Method and strategies of mitigation recommended in water erosion:

- **Soil protection in the periods when the rainfall is potentially more erosive,** During the high erosive rainfalls good green coverage is effective. (Duarte, 2022)
- **Crop rotations less intensive, according to the soil capacity use, incorporation in the soil the crops stubble,** Crop rotation according to soil capacity and climate condition is necessary for reaching adequate fertility level, leguminous crops are recommended to use. After the harvest, shrubs are recommended to leave for increasing and maintenance of organic matter. (Duarte, 2022)
- **Reduction of soil tillage operations,** minimum tillage is recommended for not destucting soil structure, and this increses breakdown of compost by oxygen. (Duarte, 2022)
- **Contouring crop operations,** field activities such as tillage, when performed along contour lines, create small concavities in the soil. These concavities temporarily hold water and trap soil particles, thereby helping to retain moisture

and reduce runoff, which contributes to increased water availability in the field. (Duarte, 2022). “Contour ploughing mitigates the impacts of floods, storms and landslides on the crops by reducing soil erosion up to 50 percent, controlling runoff water, increasing moisture infiltration and retention and thus enhancing soil quality and composition.” (FAO, 2008)

- **Use of simulation models,** it is considered to effective tool to reproduce a certain process, in this case soil water erosion. As results show no significant relationship was observed between average sediment production and average runoff volume across most basin cells. (Duarte, 2022)
- **Afforestation and sowing grass,** planting trees and grasses is a key method for conserving soil and water in the Loess Plateau. Trees and fruit crops should be planted in gullies, while grasses and shrubs should cover slopes. (Bojie Fu, 1989). Removing vegetation and practicing intensive farming in mountainous areas increases land degradation. (Zuazo & Pleguezuelo, 2008).

III. Discussion

3.1 Erosion types

Water Erosion	Rainfall intensity, soil texture, slope, vegetation cover, land use	Dregne (1987); Duarte (2022); Lal (2012); Bojie Fu (1989)
Wind Erosion	Wind speed, soil moisture, vegetation cover, land surface roughness	Dregne (1987); Mirzaev et al. (2019)
Gully Erosion	Concentrated runoff, slope gradient, soil type (duplex soils), land degradation	Eric Roose, Dazzi et al. (2008); Parwada & Van Tol (2016)
Raindrop (Splash) Erosion	Rainfall erosivity, drop size, soil erodibility, vegetation canopy	Duarte (2022); Zuazo & Pleguezuelo (2008)
Accelerated (Human-induced) Erosion	Deforestation, land-use change, intensive tillage, overgrazing, urbanization	Lal (2012); Zuazo & Pleguezuelo (2008);
Mass Movement (Landslides)	Slope gradient (>15°), soil saturation, vegetation loss, seismic activity	Eric Roose, Dazzi et al. (2008); Bojie Fu (1989)

**Done by author with assistance of AI tool*

3.2 Conservation methods

Contour Ploughing / Contouring	Water erosion, runoff	Duarte (2022); FAO (2008)
Crop Rotation & Cover Cropping	Water erosion, wind erosion, soil degradation	Duarte (2022); Lal (2012)
Reforestation & Vegetation Restoration	Water erosion, wind erosion, gully erosion, mass movement	Parwada & Van Tol (2016); Bojie Fu (1989); Zuazo & Pleguezuelo (2008)
Minimum / Conservation Tillage	Water erosion, wind erosion	Duarte (2022); Lal (2012);
Organic Matter Management	Water erosion, soil degradation	Parwada & Van Tol (2016); Eric Roose et al. (2008);
Engineering & Structural Measures	Gully erosion, water erosion, runoff, mass movement	Eric Roose et al. (2008); Bojie Fu (1989); Parwada & Van Tol (2016)
Land-Use Adjustment	Water erosion, mass movement, accelerated erosion	Bojie Fu (1989); Zuazo & Pleguezuelo (2008)
Soil pH & Fertility Management	Post-erosion soil restoration	Eric Roose et al. (2008); Parwada & Van Tol (2016)
Simulation & Predictive Models	All erosion types (planning/monitoring tool)	Duarte (2022); Duulatov et al. (2019)

** Done by author with assistance of AI tool*

CONCLUSION

The reviewed literature and data indicate that soil erosion remains as one of the important environmental challenges in various geographic continents, caused by natural processes and increased human activities. Water erosion consistently emerges as the dominant threat, while wind erosion, gully erosion, and mass movements pose significant regional concerns. However, a range of conservation methods and strategies have been recommended, including contour ploughing, reforestation, green covering, minimum tillage, and other engineering measures. Admittedly, each method is applied in accordance with local soil type, climate and topographic conditions of certain area. Nevertheless, several gaps in studied articles and data remain. Most of the studies focus on individual regions or single erosion types, limiting cross-regional comparisons. Thus, further studies should be focused on integrated, practical approaches on region-specific fields (areas) against soil erosion, particularly in Uzbekistan.

REFERENCES

1. Fu, B. (1989), Soil erosion and its control in the loess plateau of China. Soil Use and Management, 5: 76-82. https://doi.org/10.1111/j.1475-2743.1989.tb00765.x

2. Duarte, A. C. (2022). Soil Erosion by Water and Climate Change, How Can Reaching the Sustainability in European Mediterranean Basin. *International Journal of Environmental Sciences & Natural Resources*, *29*(4). https://doi.org/10.19080/ijesnr.2022.29.556269

3. Eric Roose, Dazzi, Carmelo., & Costantini, E. A. C.. (2008). *Soil Erosion, Conservation and Restoration: A few Lessons from 50 Years of Research in Africa*. Catena.

4. Dregne, H. E. (1987). Soil erosion: cause and effect. Land Use Policy, 4(4), 412–418. https://doi.org/https://doi.org/10.1016/0264-8377(87)90063-9

5. Juliev, M., Kholmurodova, M., Abdikairov, B., & Abuduwaili, J. (2024). A comprehensive review of soil erosion research in Central Asian countries (1993–2022) based on the Scopus database. In *Soil and Water Research* (Vol. 19, Number 4, pp. 244–256). Czech Academy of Agricultural Sciences. https://doi.org/10.17221/82/2024-SW R

6. Mirzayev, B., Mamatov, F., Avazov, I., & Mardonov, S. (climate models). Technologies and Technical Means for Anti-Erosion Differentiated Soil Treatment System. *E3S Web of Conferences*, *97*. https://doi.org/10.1051/e3sconf/20199705036

7. Parwada, C., & Van Tol, J. (2016). The nature of soil erosion and possible conservation strategies in Ntabelanga area, Eastern Cape Province, South Africa. *Acta Agriculturae Scandinavica Section B: Soil and Plant Science*, *66*(6), 544–552. https://doi.org/10.1080/09064710.2016.1188979

8. Umarov, S., Nurbekov, A., Nishanov, N., Kosimov, M., Bobomurotov, S., Umarov, M., Khaitov, B., & Namozov, N. (2025). Land degradation in Uzbekistan: key challenges and sustainable solutions. *Frontiers in Sustainable Food Systems*, *9*. https://doi.org/10.3389/fsufs.2025.1676403

9. Zuazo, V. H. D., & Pleguezuelo, C. R. R. (2008). Soil-erosion and runoff prevention by plant covers. A review. In *Agronomy for Sustainable Development* (Vol. 28, Number 1, pp. 65–86). https://doi.org/10.1051/agro:2007062

10. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2008). Soil conservation: Contour ploughing, Grenada. *TECA – Technologies and Practices for Small Agricultural Producers.* https://teca.apps.fao.org/

11. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026, January 26). Press release: Gross domestic product of the Republic of Uzbekistan for January–December 2025. https://stat.uz/

https://iau-jaesa.uz/article/hn6iufgnzu1m/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846435
UDK: 378.4:331.5

OLIY TA'LIM XIZMATLARINI MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOSLASHTIRISH ORQALI BITIRUVCHILAR BANDLIGI VA TADBIRKORLIK SALOHIYATINI OSHIRISH

Feruz Yuldashev, PhD
Bilim va malakalarni baholash sektori bosh mutaxassisi, Buxoro davlat universiteti
E-mail: f.i.yuldashev@buxdu.uz; feruz.yuldashev.95@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-8080-4994

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim xizmatlarini mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishning bitiruvchilar bandligi va tadbirkorlik salohiyatiga ta'sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilindi. Kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va strukturaviy sintez asosida ta'lim dasturlarini ish beruvchilar bilan yangilash, amaliy tayyorgarlik, universitet–biznes hamkorligi, karyera xizmatlari, bandlik monitoringi va tadbirkorlik ta'limini yagona mexanizmga birlashtiruvchi model ishlab chiqildi. Natijalar mazkur elementlarning alohida emas, o'zaro bog'langan qayta aloqa tizimi sifatida ishlashi bitiruvchining mehnat bozoriga moslashuvchanligini kuchaytirishini ko'rsatadi. Maqolada mexanizmni baholash uchun natijaviy indikatorlar va amaliy tavsiyalar taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim xizmatlari, mehnat bozori, bitiruvchilar bandligi, ta'lim sifati, kompetensiya, universitet–biznes hamkorligi, dual ta'lim, karyera xizmatlari, tadbirkorlik.*

Аннотация. *В статье проанализированы организационно-экономические механизмы согласования услуг высшего образования с потребностями рынка труда для повышения занятости выпускников и их предпринимательского потенциала. На основе контент-анализа, сравнительного анализа, системного подхода и структурного синтеза разработана интегрированная модель, объединяющая обновление образовательных программ с участием работодателей, практическую подготовку, сотрудничество университет–бизнес, карьерные услуги, мониторинг занятости и предпринимательское обучение. Результаты показывают, что наибольший эффект достигается при функционировании этих элементов как единой системы обратной связи. Предложены показатели оценки и практические рекомендации для вузов.*

Ключевые слова: *высшее образование, рынок труда, занятость выпускников, качество образования, компетенции, сотрудничество университет–бизнес, дуальное обучение, карьерные услуги, предпринимательство.*

Abstract. *This article analyses organizational and economic mechanisms for aligning higher education services with labour-market needs in order to improve graduate employment and entrepreneurial potential. Using content analysis, comparative analysis, a systems approach and structural synthesis, an integrated model is developed that combines employer-informed curriculum renewal, practical training, university–business collaboration, career services, graduate employment*

monitoring and entrepreneurship education. The results indicate that these elements are most effective when they operate as an interconnected feedback system rather than as isolated interventions. A set of outcome-oriented indicators and practical recommendations is proposed for higher education institutions.

Keywords: *higher education services, labour market, graduate employment, education quality, competence, university–business collaboration, dual education, career services, entrepreneurship.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining avtomatlashtirilishi hamda biznes modellarining tez yangilanishi mehnat bozoridagi kasbiy talablarni keskin o‘zgartirmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasasining vazifasi faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, bitiruvchining yangi texnologiyalarni o‘zlashtira olishi, murakkab muammoni yechishi, jamoada ishlashi, mijoz bilan muloqot qilishi va o‘z kasbiy trayektoriyasini mustaqil boshqarishi uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishni ham qamrab oladi. Bu esa ta’lim xizmatlari sifati bilan mehnat bozori natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni OTM boshqaruvining markaziy masalasiga aylantiradi.

Mehnat bozori talabi va oliy ta’lim taklifi o‘rtasidagi nomuvofiqlik bir vaqtning o‘zida bir necha iqtisodiy yo‘qotishlarni keltirib chiqaradi: ish beruvchi yangi xodimni qayta tayyorlash uchun qo‘shimcha xarajat qiladi, bitiruvchining ishga moslashish davri uzayadi, mutaxassislik bo‘yicha bandlik darajasi pasayishi mumkin, OTMning ta’lim dasturi esa real iqtisodiyotdagi o‘zgarishlardan ortda qoladi. Kichik biznes uchun mazkur muammo ayniqsa sezilarli, chunki u yangi xodimni uzoq vaqt tayyorlash uchun yirik korxonalardagi kabi resurslarga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli bitiruvchining amaliy tayyorgarligi va tez moslashuvchanligi biznes samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi – oliy ta’lim xizmatlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish orqali bitiruvchilar bandligi va tadbirkorlik salohiyatini oshirishning integratsiyalashgan mexanizmini asoslash, uning tarkibiy bloklarini aniqlash va natijadorligini baholash uchun amaliy ko‘rsatkichlar tizimini taklif etish. Tadqiqotning ilmiy vazifalari ta’lim dasturlarini ish beruvchi talabi bilan bog‘lash, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish, universitet–biznes hamkorligini institutsionallashtirish, karyera xizmatlari va bandlik monitoringini natijaga yo‘naltirish hamda tadbirkorlik kompetensiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yo‘llarini tizimlashtirishdan iborat.

ADABIYOTLARNING TAHLILI

Zamonaviy adabiyotlarda graduate employability tushunchasi oddiy “ishga joylashish” ko‘rsatkichidan kengroq talqin qilinadi. U bitiruvchining ish topishi bilan birga, kasbiy kompetensiyalarini namoyon etishi, o‘zgaruvchan mehnat sharoitiga moslashishi, kasbiy rivojlanishni davom ettirishi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish qobiliyatini ham anglatadi. World Bank [1] mehnatning o‘zgarayotgan tabiatini tahlil qilib, inson kapitaliga investitsiya va moslashuvchan ko‘nikmalarni iqtisodiy o‘sishning muhim sharti sifatida ko‘rsatadi. OECD Skills Outlook [2] ham

raqamli va yashil transformatsiya sharoitida ko‘nikmalarni muntazam yangilash zarurligini ta’kidlaydi.

Soft skills bo‘yicha Succi va Canovi [6] talabalar hamda ish beruvchilarning qarashlarini qiyoslab, ish beruvchilar yumshoq ko‘nikmalar ahamiyatini talabalarga nisbatan yuqoriroq baholashini ko‘rsatgan. Bu natija kommunikatsiya, jamoaviy ish, muammoni hal qilish va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalarni o‘quv dasturlarida faqat deklarativ natija sifatida emas, amaliy topshiriq va baholash mezonlari orqali shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Rasul va hammualliflar [7] ham texnik va yumshoq ko‘nikmalar bitiruvchilarning employability darajasiga ijobiy bog‘liqligini aniqlagan.

Amaliy tajriba va work-integrated learning bo‘yicha tadqiqotlar bu yondashuvning mehnat bozoriga o‘tishni yengillashtirishini ko‘rsatadi. Jackson va Dean [8] katta milliy ma’lumotlar bazasi asosida work-integrated learningning turli shakllari bitiruvchilarning ko‘nikma va employability natijalariga hissa qo‘shishini qayd etadi. Jackson va Bridgstock [9] esa o‘quv dasturidagi, qo‘shimcha va darsdan tashqari tajribalar hamda haq to‘lanadigan ishning nisbiy qiymatini tahlil qilib, tajribaga asoslangan faoliyatlarning bitiruvchi tayyorgarligida alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Universitet–biznes hamkorligi bo‘yicha Rebelo va hammualliflar [10] ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va yetkazib berishda biznes bilan hamkorlik qilish mehnat bozori ehtiyojlarini ta’lim mazmuniga tezroq olib kirishini asoslaydi. 2025-yildagi sistematik sharh [11] esa amaliy tajriba beruvchi intervensionsiyalar graduate employability uchun eng barqaror ijobiy natijalarni ko‘rsatishini, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat bozori talabi bilan motivatsiyalangan choralar ko‘proq samarali bo‘lishini qayd etadi. 2026-yildagi yangi sistematik sharh [12] universitet–sanoat hamkorligi va employability skills rivoji bo‘yicha dalillarni umumlashtirib, oliy ta’lim va ish beruvchilar o‘rtasida muntazam aloqaning ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatadi.

Adabiyotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, alohida vosita – faqat amaliyot, faqat karyera markazi yoki faqat o‘quv dasturini yangilash – barqaror natija berishi qiyin. Samarali model o‘quv dasturi, amaliy tayyorgarlik, ish beruvchi bilan institutsional hamkorlik, karyera xizmatlari, bandlik monitoringi va tadbirkorlik ko‘nikmalarini yagona qayta aloqa mexanizmiga birlashtirishi kerak. Mazkur maqolaning konseptual yangiligi aynan shu elementlarni bittadan tashabbus emas, o‘zaro bog‘langan boshqaruv sikli sifatida talqin qilishidadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot konseptual-analitik dizaynda amalga oshirildi. Birlamchi mazmuniy baza sifatida oliy ta’lim xizmatlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kichik biznes ehtiyojlari va bitiruvchilar bandligini oshirishga bag‘ishlangan ikki mualliflik tezisidagi g‘oyalar olindi. Ular mazmunan bir-birini to‘ldiruvchi, biroq maqsadli natijasi jihatidan farqlanuvchi ikki yo‘nalishni ifodalaydi: birinchi yo‘nalish ta’lim–biznes–tadbirkorlik aloqalariga, ikkinchisi esa ta’lim sifati–bandlik–karyera xizmatlari aloqalariga qaratilgan.

Birinchi bosqichda kontent-tahlil yordamida takrorlanuvchi mazmuniy birliklar ajratildi. Kodlash birliklari sifatida “ish beruvchi ishtiroki”, “kompetensiya”, “amaliy

ta’lim”, “dual ta’lim”, “universitet–biznes hamkorligi”, “karyera xizmatlari”, “bandlik monitoringi”, “tadbirkorlik” va “uzluksiz ta’lim” kategoriyalari belgilandi. Mazkur kategoriyalar sabab–natija munosabatiga ko‘ra kirish omillari, jarayon mexanizmlari, oraliq natijalar va yakuniy mehnat bozori natijalariga ajratildi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil qo‘llanib, tezislarda taklif qilingan mexanizmlar 2019–2026-yillardagi xalqaro ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarida qayd etilgan yondashuvlar bilan solishtirildi. Manbalarni tanlashda uchta mezon qo‘llandi: mavzuning graduate employability yoki higher education–labour market linkage bilan bevosita bog‘liqligi; so‘nggi o‘n yillikda chop etilganligi; ilmiy jurnal, nufuzli xalqaro tashkilot yoki rasmiy hisobot sifatidagi ishonchliligi. Bu bosqich nazariy moslikni tekshirish va modelning tarkibiy elementlarini dalillar bilan mustahkamlashga xizmat qildi.

Uchinchi bosqichda strukturaviy sintez asosida elementlar yagona boshqaruv sikliga birlashtirildi. Modelda mehnat bozori talabi kirish signali sifatida, ta’lim dasturi va amaliy tayyorgarlik transformatsiya jarayoni sifatida, ish beruvchi hamkorligi va karyera xizmatlari institutsional ko‘prik sifatida, bandlik monitoringi esa qayta aloqa mexanizmi sifatida talqin qilindi. Tadbirkorlik va uzluksiz ta’lim komponenti natijani faqat yollanma ish bilan cheklamasdan, mustaqil bandlik va yangi biznes yaratish imkoniyatlari bilan kengaytiradi.

To‘rtinchi bosqichda modelning amaliy baholanishi uchun natijaviy indikatorlar tizimi ishlab chiqildi. Indikatorlar “jarayon” va “natija” ko‘rsatkichlariga ajratildi. Jarayon indikatorlari ish beruvchilar ishtirokida yangilangan dasturlar ulushi, real biznes loyihalari, dual ta’lim hamkorlari, karyera xizmatlari qamrovi kabi ko‘rsatkichlarni; natija indikatorlari esa 6 va 12 oy ichidagi ishga joylashish, mutaxassislik bo‘yicha bandlik, ish beruvchi qoniqishi, startap va o‘zini o‘zi band qilish holatlarini qamrab oladi. Tadqiqot empirik so‘rov yoki regressiya baholashiga da’vo qilmaydi; natijalar konseptual model va dalillarga asoslangan amaliy mexanizm sifatida talqin qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Joriy mehnat bozoridagi tarkibiy va texnologik o‘zgarishlar korxonalar tomonidan mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni ham tez o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda ish beruvchilar faqat nazariy bilimga ega bitiruvchilarni emas, balki muammolarni mustaqil hal eta oladigan, raqamli texnologiyalardan foydalanadigan, jamoada ishlaydigan, mijozlar bilan samarali muloqot qiladigan, tadbirkorlik tashabbuslarini ilgari suradigan hamda o‘zgaruvchan biznes muhitiga moslasha oladigan mutaxassislarni talab qilmoqda. Shuning uchun oliy ta’lim xizmatlarini shakllantirishda an’anaviy yondashuvlardan mehnat bozori va biznes ehtiyojlariga asoslangan moslashuvchan modelga o‘tish zarur.

Mazkur jarayonda oliy ta’lim muassasalari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes yirik korxonalarga nisbatan mehnat resurslari va moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi sababli tayyor mutaxassisning amaliy ko‘nikmalariga yuqori talab qo‘yadi. Yangi ishga qabul qilingan xodimni uzoq vaqt qayta tayyorlash kichik korxonalar uchun qo‘shimcha xarajat hisoblanadi. Shu sababli OTM bitiruvchilarining

ish joyiga imkon qadar tez moslashishi va amaliy vazifalarni mustaqil bajara olishi tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim xizmatlarini mehnat bozori talablariga moslashtirishning birinchi muhim yo‘nalishi ta’lim dasturlarini ish beruvchilar ishtirokida takomillashtirish hisoblanadi. Bunda kichik biznes vakillarining faqat tayyor o‘quv dasturlariga fikr bildirish bilan cheklanmasdan, zarur kompetensiyalarni aniqlash, amaliy fanlar mazmunini shakllantirish va bitiruvchilar tayyorgarligini baholash jarayonlarida muntazam ishtirok etishini ta’minlash lozim. Bu esa ta’lim mazmuni bilan real ish jarayonlari o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi.

Ikkinchi yo‘nalish amaliy ta’limning ulushini oshirish bilan bog‘liq. An’anaviy qisqa muddatli amaliyot o‘rniga talabalarni korxonalarning real muammolarini hal etishga jalb qiluvchi loyiha asosidagi ta’lim, dual ta’lim, biznes keyslar va amaliy loyihalarni keng qo‘llash maqsadga muvofiq. Masalan, talabalar kichik korxonalar uchun marketing rejasi, xarajatlarni optimallashtirish modeli, raqamli savdo strategiyasi, biznes-reja yoki xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish loyihalarini ishlab chiqishi mumkin. Bunday yondashuv talabaning amaliy kompetensiyasini oshirish bilan birga, kichik biznes uchun ham qo‘shimcha iqtisodiy qiymat yaratadi.



1-rasm. Oliy ta’lim xizmatlarini mehnat bozori talablariga moslashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Uchinchi muhim yo‘nalish — oliy ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash. Zamonaviy mehnat bozori faqat bakalavriat yoki magistratura dasturlari bilan cheklanmaydi. Kichik biznes vakillari va xodimlari uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslari, mikromalakalar, biznes boshqaruvi, raqamli marketing, elektron tijorat, moliyaviy savodxonlik, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish, eksport

faoliyati va loyiha boshqaruvi bo‘yicha moslashuvchan dasturlarni tashkil etish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Natijada OTM bir martalik diplom beruvchi muassasadan uzluksiz professional rivojlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi institutga aylanishi mumkin.

Shuningdek, ta’lim jarayonida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Bitiruvchi faqat mavjud ish o‘rnini egallashga emas, balki yangi biznes tashabbusini amalga oshirishga ham tayyor bo‘lishi kerak. Buning uchun biznes-reja tuzish, bozorni o‘rganish, moliyaviy resurslarni boshqarish, mijozlar bilan ishlash, innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish va tavakkalchilikni baholash ko‘nikmalarini ta’lim dasturlariga integratsiya qilish muhimdir. Universitet biznes-inkubatorlari va startap markazlarining faoliyatini ta’lim jarayoni bilan bog‘lash esa talabalar tashabbuslarini real tadbirkorlik loyihalariga aylantirish imkonini beradi.

Oliy ta’lim xizmatlarini mehnat bozori talablariga moslashtirishning yana bir zarur sharti doimiy qayta aloqa va monitoring tizimini shakllantirishdir. Ish beruvchilarning bitiruvchilar malakasidan qoniqish darajasi, talab qilinayotgan yangi ko‘nikmalar, kasblar tarkibidagi o‘zgarishlar hamda kelgusidagi kadrlar ehtiyoji muntazam tahlil qilinishi kerak. Mazkur ma’lumotlar asosida ta’lim dasturlari, amaliy mashg‘ulotlar va qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini tezkor ravishda yangilab borish mumkin.

Mehnat bozorida sodir bo‘layotgan texnologik, tashkiliy va tarkibiy o‘zgarishlar mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni muntazam ravishda yangilab bormoqda. Ish beruvchilar nazariy bilimlardan tashqari amaliy muammolarni hal eta olish, raqamli texnologiyalar bilan ishlash, jamoada samarali faoliyat yuritish, mustaqil qaror qabul qilish, kommunikativ va tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan bitiruvchilarga ehtiyoj bildirmoqda. Bunday vaziyatda oliy ta’lim muassasalari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarning mazmuni va sifati mehnat bozori talablaridan ortda qolishi bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Shu jihatdan bitiruvchilar bandligini oshirishning asosiy shartlaridan biri ta’lim xizmatlari sifatini mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish hisoblanadi. Bunda ta’lim sifati faqat o‘quv dasturlarining mavjudligi yoki professor-o‘qituvchilarning malakasi bilan emas, balki bitiruvchida shakllangan kompetensiyalarning ish beruvchi talablari bilan qanchalik mos kelishi orqali ham baholanishi zarur. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida natijaga yo‘naltirilgan sifat boshqaruvi tizimini kuchaytirishni talab etadi.

Mazkur yo‘nalishda birinchi navbatda ta’lim dasturlarini mehnat bozori subyektlari bilan hamkorlikda takomillashtirish muhimdir. Ish beruvchilar, xususiy korxonalar, davlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari va professional uyushmalar vakillari o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqishda muntazam ishtirok etishi lozim. Bunday hamkorlik orqali korxonalarda talab qilinayotgan yangi kompetensiyalar aniqlanib, ularni fanlar mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil

ta’lim topshiriqlariga kiritish mumkin. Natijada ta’lim mazmuni bilan real kasbiy faoliyat o‘rtasidagi tafovut kamayadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish amaliy tayyorgarlik sifatini oshirish bilan bog‘liq. Talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti qisqa muddatli va rasmiy jarayon sifatida emas, balki kelajakdagi bandlikka tayyorlovchi muhim bosqich sifatida tashkil etilishi kerak. Talabalarni real ish jarayonlariga, korxona loyihalariga, muammoli vaziyatlarni hal etishga hamda jamoaviy faoliyatga jalb qilish ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Dual ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish, amaliy keyslar, stajirovka va ish beruvchi ishtirokidagi amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish ushbu vazifani amalga oshirishning samarali vositalaridan hisoblanadi.



2-rasm. OTM bitiruvchilari bandligini oshirishda ta’lim xizmatlari sifati va mehnat bozori bilan hamkorlikni rivojlantirish mexanizmi

Bitiruvchilar bandligini oshirishda OTM va mehnat bozori subyektlari o‘rtasidagi institutsional hamkorlikni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarida ish beruvchilar kengashlarini shakllantirish, korxonalar bilan uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini tuzish, kafedra filiallarini tashkil etish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish ta’lim jarayonini amaliyot bilan yaqinlashtiradi.

Shu bilan birga, ish beruvchilar talabalar tayyorgarligini baholash, bitiruv malakaviy ishlariga mavzular taklif etish va istiqbolli talabalarni oldindan tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar xalqaro adabiyotlarda shakllangan graduate employability konsepsiyasi bilan mos keladi, biroq maqoladagi model bu yondashuvlarni boshqaruv sikli sifatida birlashtiradi. Succi va Canovi [6] ish beruvchilar yumshoq ko‘nikmalarni talabalar va bitiruvchilarga qaraganda yuqoriroq qadrlashini ko‘rsatgan. Mazkur natija taklif qilingan kompetensiya xaritasi va ish beruvchi ishtirokidagi o‘quv dasturlarini yangilash mexanizmini qo‘llab-quvvatlaydi. Ya’ni kompetensiya talabi universitet tomonidan bir tomonlama belgilanishi emas, ish beruvchi bilan muntazam muvofiqlashtirilishi lozim.

Amaliy tayyorgarlik bo‘yicha maqola natijalari Jackson va Dean [8] xulosalari bilan hamohang. Ularning katta ko‘lamli tadqiqoti work-integrated learningning turli shakllari employability va ko‘nikma natijalariga hissa qo‘shishini ko‘rsatadi. 2025-yildagi sistematik sharh [11] amaliy tajriba beruvchi intervensionsiyalar eng ijobiy natijalarni ko‘rsatishini qayd etgani ham ushbu maqoladagi “amaliyotning davomiyligi emas, real natijasi” tamoyilini kuchaytiradi. Shu nuqtada maqola natijalari mavjud adabiyotlardan bir qadam oldinga borib, amaliyotni ish beruvchi bilan birgalikda belgilangan learning outcomes, mentorlik va baholash bilan bog‘lashni taklif etadi.

Universitet–biznes hamkorligi bo‘yicha Rebelo va hammualliflar [10] ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va yetkazib berishda hamkorlikning ahamiyatini ko‘rsatgan. Vlachopoulos va Tsitiridou [12] tomonidan e’lon qilingan yangi systematic review ham employability skills rivoji va university–industry collaborationni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Mazkur maqolada esa hamkorlikning samaradorligi memorandumlar yoki tadbirlar soni bilan emas, ish beruvchining o‘quv dasturi, amaliyot, baholash va bitiruvchi monitoringidagi real ishtiroki bilan o‘lchanishi kerakligi asoslanadi.

Karyera xizmatlari va monitoring bo‘yicha natijalar employabilityni faqat o‘qish davridagi kompetensiya bilan emas, “universitetdan mehnat bozoriga o‘tish” jarayoni bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Barachino va hammualliflar [11] employability intervensionsiyalarini operatsionlashtirish bo‘yicha dalillarni umumlashtirib, faqat ko‘nikma yoki karyera rejalashtirish dasturlarining natijalari aralash bo‘lishi mumkinligini, bevosita mehnat bozori talabi bilan bog‘langan choralar esa kuchliroq natija berishini ko‘rsatadi. Bu xulosa karyera markazi faoliyatini o‘quv dasturi va ish beruvchi bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish taklifini asoslaydi.

Tadbirkorlik komponentining qo‘shilishi modelning muhim farqlovchi jihatidir. An’anaviy employability tadqiqotlarida asosiy natija ko‘pincha ishga joylashish yoki ish beruvchi bahosi bilan o‘lchanadi. Biroq raqamli platformalar, frilans va o‘zini o‘zi band qilish shakllarining kengayishi bitiruvchini nafaqat ish izlovchi, balki iqtisodiy qiymat yaratuvchi subyekt sifatida ko‘rishni talab etadi. Shu sababli universitetning startap, inkubator, mikromalaka va qisqa professional dasturlari bandlik siyosatining qo‘shimcha elementi emas, uning mantiqiy davomiga aylanishi kerak.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilgan model hozircha empirik regressiya, longitudinal kuzatuv yoki eksperimental dizayn bilan sinovdan o‘tkazilmagan. Shuning uchun “mexanizm – natija” aloqalari nazariy va dalillarga asoslangan konseptual munosabat sifatida talqin qilinadi. Keyingi tadqiqotda bir nechta OTM kesimida ish beruvchilar, bitiruvchilar va talabalar so‘rovlari, 6–12 oylik bandlik ma’lumotlari hamda ta’lim dasturlari bo‘yicha indikatorlarni birlashtirib, strukturaviy tenglamalar modeli yoki panel regressiyasi orqali mexanizmning ta’sir kuchini empirik baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot oliy ta’lim xizmatlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish bitiruvchilar bandligi va tadbirkorlik salohiyatini birgalikda oshirishini ko‘rsatdi. Samarali model ish beruvchilar ishtirokidagi o‘quv dasturlari, amaliy tayyorgarlik, universitet–biznes hamkorligi, karyera xizmatlari, bandlik monitoringi va tadbirkorlik ta’limini yagona qayta aloqa tizimida birlashtiradi. OTMlar natijadorlikni tadbirlar soni bilan emas, ishga joylashish, mutaxassislik bo‘yicha bandlik, ish beruvchi qoniqishi va mustaqil bandlik ko‘rsatkichlari orqali baholashi lozim. Kompetensiya xaritalari, real biznes loyihalari, dual ta’lim, raqamli karyera platformalari va bitiruvchi kuzatuvi ushbu mexanizmning amaliy vositalaridir. Modelni O‘zbekiston OTMlarida empirik sinash keyingi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi bo‘lib, uning hududiy va tarmoq xususiyatlariga moslashuvchanligini ham chuqur baholash imkonini kelgusida yanada yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. World Bank. World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. Washington, DC: World Bank, 2019.

2. OECD. OECD Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/27452f29-en.

3. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. Geneva: World Economic Forum, 2025.

4. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2024. Geneva: ILO, 2024.

5. European Commission. Employment and Social Developments in Europe 2023. Brussels: European Commission, 2023.

6. Succi, C., Canovi, M. Soft skills to enhance graduate employability: comparing students and employers’ perceptions. Studies in Higher Education, 2020, 45(9), 1834–1847. DOI: 10.1080/03075079.2019.1585420.

7. Rasul, M.S., Rauf, R.A.A., Mansor, A.N., Yasin, R.M., Mahamod, Z. Factors affecting business graduates’ employability: empirical evidence using partial least squares. Education + Training, 2020, 62(3), 292–310. DOI: 10.1108/ET-12-2018-0258.

8. Jackson, D., Dean, B.A. The contribution of different types of work-integrated learning to graduate employability. Higher Education Research & Development, 2023, 42(1), 93–110.

9. Jackson, D., Bridgstock, R. What actually works to enhance graduate employability? The relative value of curricular, co-curricular, and extra-curricular

learning and paid work. Higher Education, 2021, 81, 723–739. DOI: 10.1007/s10734-020-00570-x.

10. Rebelo, H., Christodoulou, P., Payan-Carreira, R., Dumitru, D., Mäkiö, E., Mäkiö, J., Pnevmatikos, D. University–Business Collaboration for the Design, Development, and Delivery of Critical Thinking Blended Apprenticeships Curricula: Lessons Learned from a Three-Year Project. Education Sciences, 2023, 13(10), 1041. DOI: 10.3390/educsci13101041.

11. Barachino, H., Timmermans, A., Venhorst, V.A., van Dijk, J. Operationalization of graduate employability interventions in higher education – a systematic review. Education + Training, 2025, 67(10), 89–110. DOI: 10.1108/ET-10-2024-0463.

12. Vlachopoulos, D., Tsitiridou, O.P. Preparing University Graduates for the Labour Market Through Employability Skills Development and University–Industry Collaboration: A Systematic Review. Education Sciences, 2026, 16(3), 426.

https://iau-jaesa.uz/article/3ts0j0pbnitu/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846449
UDK: 339.138:658

KORXONALARNI BOSHQARISHDA MARKETING STRATEGIYASINING AHAMIYATI VA O‘RNI

Mamatqobilov Sherali Normuminovich
Toshkent davlat agrar universiteti, “Agroiqtisodiyot” kafedrasi dotsenti,

Sayfullaevava Maxsuma Jumadilla qizi
Toshkent davlat agrar universiteti, talabasi
e-mail: mamatobilov@bk.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy bozor sharoitida korxonalarni boshqarishda marketing strategiyasining ahamiyati va o‘rni tahlil qilingan. Marketing strategiyasining korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlashdagi roli, strategik boshqaruvning zamonaviy tamoyillari va O‘zbekiston sharoitida marketing yondashuvlarini qo‘llash imkoniyatlari muhokama qilingan. Tadqiqot natijasida korxonalarda marketing strategiyasini ishlab chiqish va joriy etishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlari taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *marketing strategiyasi, korxona boshqaruvi, raqobatbardoshlik, bozor segmentatsiyasi, marketing miks, strategik rejalashtirish, iste’molchilar bilan aloqa.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы значение и роль маркетинговой стратегии в управлении предприятиями в условиях современного рынка. Рассмотрены роль маркетинговой стратегии в обеспечении конкурентоспособности предприятия, современные принципы стратегического управления, а также возможности применения маркетинговых подходов в условиях Узбекистана. В результате исследования предложены научно обоснованные направления разработки и внедрения маркетинговой стратегии на предприятиях.*

Ключевые слова: *маркетинговая стратегия, управление предприятием, конкурентоспособность, сегментация рынка, маркетинг-микс, стратегическое планирование, коммуникация с потребителями.*

Abstract. *This article analyzes the importance and role of marketing strategy in enterprise management under modern market conditions. The role of marketing strategy in ensuring the competitiveness of enterprises, modern principles of strategic management, and the possibilities of applying marketing approaches in the conditions of Uzbekistan are discussed. As a result of the research, scientifically substantiated directions for the development and implementation of marketing strategy in enterprises are proposed.*

Keywords: *marketing strategy, enterprise management, competitiveness, market segmentation, marketing mix, strategic planning, consumer relations.*

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda marketing strategiyasi muhim

ahamiyatga ega. Marketing strategiyasi korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga erishish, bozorda mustahkam o‘rin egallash va iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan kompleks tadbirlar majmuasidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va xalqaro bozorlarga integratsiya jarayonlari korxonalardan zamonaviy marketing yondashuvlarini qo‘llashni talab etmoqda.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mahsulot eksport salohiyatini oshirish vazifalari qo‘yilgan bo‘lib, bu marketing strategiyasini ishlab chiqish zaruriyatini yanada oshiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — korxonalarni boshqarishda marketing strategiyasining ahamiyati va o‘rnini ilmiy asosda tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitida uni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Marketing strategiyasi nazariyasi F. Kotler, M. Porter, I. Ansoff, J. Lamben kabi chet el olimlarining asarlarida keng yoritilgan. F. Kotler marketingni «iste’molchilar ehtiyojlarini aniqlash va ularni rentabelli qondirish jarayoni» sifatida ta’riflaydi. M. Porter esa raqobat strategiyasi nazariyasini ishlab chiqib, korxonalarning bozorda raqobatbardoshligini ta’minlashning uch asosiy strategiyasini (xarajatlar ustunligi, differensiatsiya, fokuslanish) taklif etgan.

MDH mamlakatlari olimlari, jumladan Ye.P. Golubkov, P.S. Zavyalov, I.V. Lipsis marketing strategiyasining milliy iqtisodiyotga moslashuvi muammolarini o‘rganganlar. O‘zbekistonlik olimlardan S.S. G‘ulomov, A.Sh. Bekmurodov, Sh.J. Ergashxo‘jaeva va boshqalar marketing strategiyasini milliy korxonalarda qo‘llash nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqotda nazariy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil va muqoyasa usullaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlar tadqiqot uchun asosiy manba sifatida xizmat qildi.

MARKETING STRATEGIYASINING MOHIYATI VA TARKIBI. Marketing strategiyasi — korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga erishishni ta’minlovchi, bozor sharoitlari va raqobat vaziyatiga moslashgan tizimli yondashuv bo‘lib, u quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

• Bozor tahlili va segmentatsiyasi — iste’molchilar guruhlarini aniqlash, ularning ehtiyojlari va xatti-harakatlarini o‘rganish;
• Maqsadli bozor tanlash — korxona uchun eng foydali va istiqbolli bozor segmentini aniqlash;
• Pozitsionirovanie — mahsulot yoki xizmatning raqobatchilarga nisbatan noyob o‘rnini yaratish;
• Marketing miks (4P: mahsulot, narx, tarqatish, reklama) — korxonaning marketing faoliyatining asosiy vositalari;
• Bajarilishi va nazorati — strategiya amalga oshirilishi va natijalarini baholash.

Marketing strategiyasining korxonalar faoliyatidagi o‘rni quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

Funksiya	Strategik roli	Amaliy natija
Bozor tahlili	Iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash	Maqsadli bozorni belgilash
Raqobat tahlili	Raqobatchilar ustunligi va kamchiliklarini baholash	Noyob taklif ishlab chiqish
Mahsulot siyosati	Assortiment va sifatni boshqarish	Iste'molchi qanoatini oshirish
Narx siyosati	Optimal narx shakllanishi	Rentabellik va raqobatbardoshlik
Tarqatish siyosati	Samarali sotuv kanallari	Bozorga kirish kengayishi
Reklama siyosati	Brend tanilishi va imidji	Sotuv hajmi oshishi

1-jadval. Marketing strategiyasining korxona faoliyatidagi funksiyalari

KORXONALARNI BOSHQARISHDA MARKETING STRATEGIYASINING O'RNI. Zamonaviy korxonalarni boshqarishda marketing strategiyasi strategik menejmentning ajralmas qismi hisoblanadi. Marketing strategiyasi korxonaning umumiy strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning asosiy maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali marketing strategiyasini qo'llaydigan korxonalarning rentabelligi, bozor ulushi va mijozlar qoniqishi darajasi ancha yuqori bo'ladi. Xususan, xalqaro tajribaga ko'ra, marketing strategiyasiga jiddiy e'tibor beradigan korxonalarning sotuv hajmi o'rtacha yiliga 15–25% ga oshishi kuzatiladi. Marketing strategiyasining korxonalar boshqaruvidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) Strategik rejalashtirish — korxonaning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va ular doirasidagi marketing maqsadlarini aniqlash;

2) Resurslarni optimal taqsimlash — moliyaviy, insoniy va moddiy resurslarni eng samarali yo'nalishlarga yo'naltirish;

3) Innovatsion yondashuvlar — yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sotuv jarayonlarini modernizatsiya qilish;

4) Mijozlar bilan aloqalarni boshqarish (CRM) — doimiy mijozlar bazasini shakllantirish va ular bilan uzoq muddatli hamkorlik o'rnatish;

5) Raqobat afzalliklarini rivojlantirish — korxonaning noyob taklifi va raqobat afzalliklarini yaratish va mustahkamlash.

Marketing strategiyasining asosiy turlari va ularning qo'llanilish sohalari 2-jadvalda keltirilgan:

Strategiya turi	Asosiy maqsad	Qo'llanilish sohasi
O'sish strategiyasi	Bozor ulushini oshirish	Rivojlanayotgan bozorlar
Differensiatsiya strategiyasi	Noyob mahsulot taklif etish	Yuqori sifatli segment
Xarajatlar ustunligi	Past narx orqali raqobat	Ommaviy bozor
Fokuslanish strategiyasi	Tor segmentga ixtisoslashish	Nisha bozorlar
Innovatsion strategiya	Yangi mahsulot va texnologiyalar	Yuqori texnologik sohalar
Eksport strategiyasi	Xalqaro bozorlarga kirish	Eksportga yo'naltirilgan korxonalar

2-jadval. Marketing strategiyasining asosiy turlari

O'ZBEKISTON SHHAROITIDA KORXONALARDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar korxonalarda zamonaviy marketing yondashuvlarini joriy etish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni

rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash yo‘nalishidagi islohotlar marketing strategiyasini qo‘llash zaruriyatini oshiradi.

Biroq O‘zbekiston korxonalarida marketing strategiyasini joriy etishda bir qator muammolar mavjud:

— Malakali marketolog kadrlar yetishmasligi;

— Marketing tadqiqotlarini o‘tkazish uchun yetarli moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi;

— Zamonaviy marketing axborot tizimlarining yetarli rivojlanmaganligi;

— Rahbarlarning marketing strategiyasiga yetarli e’tibor bermasligi;

— Xalqaro bozorlar talablarini o‘rganish va ularga moslashishdagi qiyinchiliklar.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish tavsiya etiladi:

Birinchidan, marketing sohasidagi malakali kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, oliy ta’lim muassasalarida marketing va menejment yo‘nalishlarini kengaytirish zarur. Ikkinchidan, korxonalarda marketing bo‘limlarini tashkil etish va ularning ishini rag‘batlantirish kerak. Uchinchidan, zamonaviy raqamli marketing vositalarini (internet-marketing, SMM, e-commerce) keng qo‘llashni yo‘lga qo‘yish lozim. To‘rtinchidan, xalqaro marketing standartlari va tajribasini o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: Birinchidan, marketing strategiyasi korxonalarni boshqarishning ajralmas qismi bo‘lib, uning samarali joriy etilishi korxonaning raqobatbardoshligi, rentabelligi va barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Zamonaviy bozor sharoitida marketing strategiyasisiz korxonaning mustahkam o‘rin egallashi mushkul.

Ikkinchidan, marketing strategiyasini ishlab chiqish va joriy etish jarayonida korxonaning ichki imkoniyatlari, tashqi muhit omillari va bozor ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Bunda SWOT-tahlil, PEST-tahlil va boshqa zamonaviy tahlil usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, O‘zbekiston korxonalarida marketing strategiyasini joriy etishda milliy mentalitet, madaniy-iqtisodiy sharoit va xorijiy tajribaning optimal uyg‘unligini ta’minlash muhimdir. Xususan, agrar sektorda marketing strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlari (mavsumiylik, tez buziluvchanlik, mintaqaviy o‘ziga xoslik) hisobga olinishi kerak.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu tadqiqot natijalariga asosan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Korxonalarda marketing bo‘limlarini tashkil etish va ular faoliyatini samarali tashkil qilish;
2. Marketing tadqiqotlarini muntazam ravishda o‘tkazish va natijalarini boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalanish;
3. Zamonaviy raqamli marketing vositalarini keng qo‘llash (internet-marketing, ijtimoiy tarmoqlar, elektron savdo);
4. Mijozlar bilan aloqa tizimini (CRM) joriy etish va mijozlar sodiqligini oshirish;

5. Xalqaro bozorlarga kirish strategiyalarini ishlab chiqish va eksport marketingini rivojlantirish;

6. Malakali marketolog kadrlar tayyorlashni kuchaytirish va mavjud xodimlarning malakasini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarni boshqarishda marketing strategiyasi strategik boshqaruvning kalit elementi hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida zamonaviy marketing yondashuvlarini joriy etish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. — 15th edition. — Pearson Education, 2016. — 812 p.

2. Porter M.E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. — Free Press, 2004. — 397 p.

3. Ансофф И. Стратегическое управление / Пер. с англ. — М.: Экономика, 2019. — 519 с.

4. Ламбен Ж.-Ж. Менеджмент, ориентированный на рынок. — СПб.: Питер, 2018. — 928 с.

5. Голубков Е.П. Маркетинговые исследования: теория, методология и практика. — М.: Финпресс, 2020. — 496 с.

6. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. — 428 b.

7. Bekmurodov A.Sh., Ergashxo‘jaeva Sh.J. Marketing: nazariya va amaliyot. — Toshkent: TDIU, 2021. — 364 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni. — Toshkent, 2022.

9. Xudayberdieva L.A. Agrar korxonalarda marketing strategiyasini qo‘llash xususiyatlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2023. — №4. — B. 45–52.

10. Ergashkhodjayeva S.J. Marketing strategies in transition economies: The case of Uzbekistan // International Journal of Business and Management. — 2022. — Vol. 17, No. 3. — P. 118–127.

https://iau-jaesa.uz/article/1rij87vc9o61/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846464

UDC 351:332.1

PUBLIC MANAGEMENT EFFICIENCY AND REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Maftuna Utkirova Murodovna
Lecturer, International Agriculture University (IAU), Tashkent, Uzbekistan
Lecturer, Management and Development Institute of Singapore (MDIST), Tashkent Branch, Uzbekistan
mmmurodovna888@gmail.com
ORCID ID : https://orcid.org/0009-0007-2687-2789

Turopov Shokhrukh Ulugbek ugli
Lecturer, Tashkent state agrarian university
turopov303@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-6649-8276

Abstract. *This article examines the relationship between the efficiency of public administration and regional economic development in Uzbekistan in the context of the reforms launched in 2017 and the Uzbekistan-2030 strategy. Drawing on official normative documents, OECD governance reviews and recent econometric panel evidence for 14 administrative units over 2017-2024, the study shows that regulatory quality, infrastructure provision and the investment climate are the main channels through which public management influences regional growth. Difference-in-differences estimates indicate that regions with higher reform intensity achieved approximately 23.4% higher gross regional product (GRP) growth and 41.2% higher foreign direct investment (FDI) attraction than low-reform regions (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024) . At the same time, persistent territorial disparities, the limited fiscal autonomy of local governments and the still centralized structure of public administration constrain the diffusion of these gains (OECD, 2024; Asian Development Bank, n.d.) . The article concludes with recommendations on fiscal decentralization, results-based management, digitalization of public services and spatially targeted investment policy.*

Keywords*: public management efficiency, regional economic development, gross regional product, fiscal decentralization, Uzbekistan-2030, regulatory reform, local governance.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 2017-yilda boshlangan islohotlar va "O'zbekiston-2030" strategiyasi kontekstida davlat boshqaruvi samaradorligi va O'zbekistondagi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Rasmiy me'yoriy hujjatlar, OECD boshqaruv sharhlari va 2017–2024-yillar davomida 14 ta ma'muriy birlik bo'yicha o'tkazilgan so'nggi ekonometrik panel tadqiqotlariga tayangan holda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tartibga solish sifati, infratuzilma bilan ta'minlanganlik va investitsion muhit davlat boshqaruvi mintaqaviy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan asosiy kanallar hisoblanadi. "Farqdagi farq" (difference-in-differences) usuli bo'yicha hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, islohotlar intensivligi yuqori bo'lgan*

hududlar islohotlar darajasi past bo'lgan hududlarga nisbatan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) o'sishida taxminan 23,4% va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) jalb qilishda 41,2% yuqori ko'rsatkichga erishgan (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024). Shu bilan birga, davom etayotgan hududiy nomutanosibliklar, mahalliy hokimiyat organlarining cheklangan fiskal avtonomiyasi va davlat boshqaruvining hanuz markazlashgan tuzilishi ushbu yutuqlarning tarqalishini cheklab qo'ymoqda (OECD, 2024; Asian Development Bank, n.d.). Maqola xulosasida fiskal markazsizlashtirish, natijalarga asoslangan boshqaruv, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va hududiy yo'naltirilgan investitsion siyosat bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *davlat boshqaruvi samaradorligi, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, yalpi hududiy mahsulot, fiskal markazsizlashtirish, O'zbekiston-2030, tartibga solish islohoti, mahalliy boshqaruv.*

Аннотация. *В данной статье исследуется взаимосвязь между эффективностью государственного управления и региональным экономическим развитием в Узбекистане в контексте реформ, начатых в 2017 году, и стратегии «Узбекистан-2030». Опираясь на официальные нормативные документы, обзоры ОЭСР по вопросам управления и недавние эконометрические панельные данные по 14 административным единицам за 2017–2024 годы, исследование показывает, что качество регулирования, обеспечение инфраструктурой и инвестиционный климат являются основными каналами, через которые государственное управление влияет на региональный рост. Оценки с использованием метода разности разностей (difference-in-differences) показывают, что регионы с более высокой интенсивностью реформ достигли примерно на 23,4% более высокого роста валового регионального продукта (ВРП) и на 41,2% более высокого притока прямых иностранных инвестиций (ПИИ) по сравнению с регионами с низкой интенсивностью реформ (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024). В то же время сохраняющиеся территориальные диспропорции, ограниченная фискальная автономия местных органов власти и всё ещё централизованная структура государственного управления сдерживают распространение этих достижений (OECD, 2024; Asian Development Bank, n.d.). В заключении статьи предлагаются рекомендации по фискальной децентрализации, управлению по результатам, цифровизации государственных услуг и пространственно-ориентированной инвестиционной политике.*

Ключевые слова: *эффективность государственного управления, региональное экономическое развитие, валовой региональный продукт, фискальная децентрализация, Узбекистан-2030, регуляторная реформа, местное самоуправление.*

INTRODUCTION

Since 2017 Uzbekistan has carried out a broad program of economic and administrative transformation aimed at liberalizing the economy, attracting investment and reducing poverty. These reforms have been accompanied by sustained growth that has consistently outpaced the Central Asian average, while extreme poverty fell from

8% in 2016 to less than 1% in 2023 (OECD, 2024). The strategic framework of the Uzbekistan-2030 strategy and the accompanying regional programs set ambitious targets, including annual GRP growth of 6-7% for the regions, based on their natural, demographic, infrastructure and specialization potential (Presidential Decree, n.d.-a) . At the same time, the public administration remains centralized and hierarchical, and policymakers themselves have identified the reform of this concentrated governance system as a necessary step for addressing regional disparities, transparency gaps and uneven public service delivery (OECD, 2024) . The dominance of Tashkent relative to the rest of the country, the low level of decentralization and the weak financial and managerial capacity of subnational governments are repeatedly cited as structural obstacles to balanced territorial development (Asian Development Bank, n.d.).

The purpose of this article is to analyze how the efficiency of public management affects the pace and balance of regional economic development in Uzbekistan, and to formulate evidence-based recommendations. The study is based on official normative documents, international governance assessments and recent econometric evidence on regional growth dynamics.

LITERATURE REVIEW

The theoretical foundation of the study rests on two bodies of literature: the theory of public administration and the theory of regional development. Within the first, the efficiency of public management is treated as a function of the institutional environment, the quality of regulatory decisions, the qualifications of managerial personnel and the feedback received from the population. In the Uzbek context, research has shown that the ways to improve the efficiency of public administration depend directly on the qualifications of management staff and on feedback from the local population (Asadullina, 2019). A related line of work argues that market mechanisms are only one of many instruments for achieving socio-economic goals, and that the state must clearly define the boundaries within which market relations are introduced, where activity is regulated, and where the state itself produces goods and services (Rasulov & Voronin, 2021).

Within the regional development literature, a system approach to managing the socio-economic development of regions is regarded as essential for the competitiveness of the national economy, with long-term planning, strategic planning and programme-target planning identified as the main management tools (Mustafakulov, 2020). Empirical work on individual regions, such as Karakalpakstan and Surkhandarya, confirms that the effectiveness of state development programmes depends on the quality of their design, monitoring and implementation (Kalmuratov, 2023; Qosimov, 2019).

A particularly relevant finding is that the quality of public administration is the most influential factor in the intensive economic growth of Uzbekistan, ahead of other structural determinants (Sharipov, 2026). This result justifies the focus of the present study on management efficiency as the key lever of regional development.

METHODOLOGY

The study combines three groups of methods. First, an institutional and legal analysis of the normative framework of public administration reform, including the

Concept of Administrative Reform, the Uzbekistan-2030 strategy and the presidential decree of 14 July 2025 on increasing the efficiency, proactivity and results-orientation of the public administration system (Presidential Decree PF-111, 2025).

Second, a comparative analysis of regional development outcomes based on OECD governance assessments and international reviews of Uzbekistan's public sector (OECD, 2024).

Third, an econometric synthesis of recent panel evidence covering 14 first-level administrative units over 2017-2024. This evidence includes fixed-effects and GMM panel regressions of GRP per capita on FDI, industrial share, infrastructure, education and regulatory quality; unconditional and conditional beta-convergence analysis; and difference-in-differences estimation of the impact of post-2017 regulatory reforms (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).

RESULTS AND ANALYSIS

4.1 The reform of public administration in Uzbekistan. Public administration reform remains a key priority, oriented towards a more efficient, effective, accountable and citizen-centred public sector. The reform agenda includes the modernization and reorganization of public administration, the strengthening of local governance, digitalization and the reinforcement of accountability and effective policy implementation (OECD, 2024).

The most recent stage of the reform is marked by the presidential decree of 14 July 2025, which established a Management Efficiency Agency on the basis of the Agency for Civil Service Development. The decree tasks the government with removing bureaucratic barriers, abolishing duplicative control functions, ensuring transparency in decision-making, expanding the economic, administrative and financial powers of local organizations in the comprehensive development of territories, and introducing modern digital tools, including artificial intelligence, into the work of state bodies (Presidential Decree PF-111, 2025).

4.2 Regional development and territorial disparities. Despite national progress, the benefits of growth have been distributed unevenly across territories. Regions that received substantial investment and possess better infrastructure and human capital, such as Tashkent and Samarkand, grew faster, while regions such as Karakalpakstan lagged due to institutional and human capital constraints (Regional Economic Growth Through Investment Policy, 2024).

The structural reasons for this imbalance are well documented. The dominant role of Tashkent relative to other regions tends to undermine social cohesion and growth potential; the low level of decentralization weakens the ability of regional and local governments to act proactively; and the dependence of local governments on central transfers is embedded in the fiscal relations between local and central authorities. Local governments in Uzbekistan have little autonomy in deciding their policies, and city administrations have little independence in financial matters (Asian Development Bank, n.d.).

To address this, the state has introduced a unified rating system for the socio-economic development of territories, which evaluates balanced economic growth, the

effectiveness of economic reforms, job creation, access to social services and the competitiveness of regional economies (Presidential Decree, n.d.-b).

4.3 Econometric evidence on the management-development link. Recent panel evidence quantifies the channels through which public management affects regional growth. The estimated elasticities of GRP per capita are 0.312 for FDI, 0.215 for infrastructure, 0.189 for regulatory quality, 0.142 for the industrial share and 0.104 for education (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024) . In other words, a 10% increase in FDI per capita is associated with approximately a 3.1% increase in GRP per capita, and improvements in the regulatory and institutional environment have a robust positive effect on regional output (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).



Figure 1. Estimated elasticities of GRP per capita by determinant (2017-2024)

The correlation analysis reinforces this picture: FDI shows the strongest positive correlation with GRP per capita (*r* = 0.847, *p* < 0.01), the regulatory quality index correlates significantly with FDI (*r* = 0.756, *p* < 0.01), and infrastructure correlates strongly with both FDI (*r* = 0.712) and GRP per capita (*r* = 0.658) (Regulatory

Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).



Figure 2. Correlations between management-related factors and regional outcomes

The difference-in-differences analysis provides causal evidence of the reform effect: administrative units with higher reform intensity experienced approximately 23.4% higher growth in per capita output and 41.2% higher FDI growth compared with low-reform units after 2017 (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).



Figure 3. Effect of post-2017 regulatory reforms (difference-in-differences estimates)

Convergence analysis shows that unconditional beta-convergence among regions is statistically insignificant, meaning that disparities do not disappear by themselves. However, when structural factors are controlled for, conditional convergence proceeds at approximately 3.1% per year, with a half-life of 22.4 years (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024). This implies that lagging regions can catch up only if the underlying gaps in infrastructure, education and institutional quality are deliberately addressed.

4.4 Fiscal decentralization and local capacity. The econometric evidence points to the empowerment of local governments as a central policy lever. Subnational governments in Uzbekistan currently have limited revenue autonomy and depend heavily on central transfers. The recommended directions are: gradually increasing the share of taxes retained at the regional level; introducing formula-based equalization transfers that account for development needs; strengthening local capacity for project planning, implementation and monitoring; and promoting participatory budgeting to enhance citizen engagement and accountability (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024) . International experience indicates that fiscal decentralization, when accompanied by capacity building, can significantly improve public service delivery and local economic development outcomes (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).
The 2025 decree follows this direction by expanding the economic, administrative and financial powers of local organizations and strengthening their role as owners of reforms in their territories (Presidential Decree PF-111, 2025; Presidential Decree, n.d.-a)

DISCUSSION

The results confirm that the efficiency of public management is not a purely administrative matter but a direct determinant of regional economic outcomes. The strong elasticity of regulatory quality and the causal DID estimates both indicate that institutional reform is a growth factor in its own right, not merely a background condition (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024). This is consistent with the finding that the quality of public administration is the most influential factor in intensive economic growth in Uzbekistan (Sharipov, 2026).
At the same time, the analysis reveals a tension. The reform impulse has been strongest in the most developed regions, where free economic zones and regulatory pilot programs are concentrated, which risks widening rather than narrowing territorial gaps (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024). The absence of unconditional convergence means that without active state intervention, the periphery will continue to lag. The estimated fiscal cost of differentiated incentives for lagging regions, in the range of 150-200 million dollars annually, is modest relative to the potential gains from induced investment and tax revenues (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).

A further challenge is the sequencing of decentralization. Expanding the powers of local bodies without a corresponding strengthening of their managerial and financial capacity may reproduce the weaknesses of the centralized system at a lower level. The experience of the reform so far suggests that capacity building and accountability mechanisms must accompany the transfer of functions (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

The study demonstrates that public management efficiency is a decisive factor in regional economic development in Uzbekistan. Improvements in regulatory quality, infrastructure and the investment climate, driven by the post-2017 reforms, have

produced measurable gains: high-reform regions achieved roughly a quarter higher GRP growth and more than 40% higher FDI growth than their low-reform counterparts (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024). However, persistent territorial disparities and the limited autonomy of local governments remain the main constraints on balanced development.

On the basis of the analysis, the following recommendations are proposed:

1. Continue the institutional reform of public administration, including the full implementation of the 2025 decree on efficiency, proactivity and results-orientation, and the work of the Management Efficiency Agency (Presidential Decree PF-111, 2025).
2. Implement gradual fiscal decentralization: increase the share of taxes retained at the regional level and introduce formula-based equalization transfers (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).
3. Adopt spatially targeted investment incentives for lagging regions, including extended tax holidays and higher investment subsidies for Karakalpakstan, Surkhandarya, Jizzakh and Namangan (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).
4. Prioritize infrastructure investment in peripheral areas to address the connectivity deficit, since infrastructure shows the highest elasticity among structural factors (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).
5. Strengthen results-based management and monitoring: use the territorial rating system and participatory budgeting to link local budgets to measurable development outcomes (Presidential Decree, n.d.-b; Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024).
6. Deepen the digitalization of public services and administrative decision-making, including the use of modern analytical and artificial intelligence tools in state bodies (Presidential Decree PF-111, 2025).

The main limitation of this study is its reliance on published econometric evidence rather than original data collection; further research could extend the analysis with firm-level data and direct measurement of the quality of public services at the district level.

Appendix. Analyses and data tables

A.1 Key national governance and development indicators

Table 1. National indicators underlying the analysis

Indicator	Value	Period	Source
Extreme poverty rate	8% to <1%	2016 to 2023	[1]
Women's representation in parliament	16% to 33.3%	2019 to 2022	[1]
Annual GRP growth target for regions	6-7%	Uzbekistan-2030	[3]
Fiscal cost of differentiated incentives	USD 150-200 million / year	estimated	[4]

A.2 Determinants of regional GRP per capita

Table 2. Estimated elasticities of GRP per capita, panel regressions 2017-2024 [4]

Determinant	Elasticity	Interpretation
FDI (foreign direct investment per capita)	0.312	10% higher FDI is associated with ~3.1% higher GRP per capita
Infrastructure (roads, electricity, internet)	0.215	Highest elasticity among structural factors
Regulatory quality (permits, tax burden)	0.189	Institutional reform raises regional output
Industrial share of GRP	0.142	Structural composition effect
Education (higher education enrolment)	0.104	Human capital contribution

A.3 Correlation analysis

Table 3. Correlations between management-related factors and regional outcomes [4]

Pair of indicators	Pearson r	Significance
FDI - GRP per capita	0.847	$p < 0.01$
Regulatory quality - FDI	0.756	$p < 0.01$
Infrastructure - FDI	0.712	$p < 0.01$
Infrastructure - GRP per capita	0.658	$p < 0.01$

A.4 Convergence analysis

Table 4. Regional convergence results [4]

Specification	Beta coefficient	Significance	Implied speed	Half-life
Unconditional beta-convergence	-0.0124	$p > 0.10$ (insignificant)	none	n/a
Conditional beta-convergence	-0.0287	$p < 0.05$	3.1% per year	22.4 years

A.5 Difference-in-differences: effect of post-2017 regulatory reforms

Table 5. Causal impact of reform intensity [4]

Outcome	DID estimate	Effect for high-reform regions
GRP per capita growth	0.234 ($p < 0.01$)	23.4% higher than low-reform regions
FDI growth	not reported as coefficient	41.2% higher than low-reform regions

A.6 Summary of the evidence base. The econometric results are drawn from a balanced panel of 14 first-level administrative units of Uzbekistan over 2017-2024, using fixed-effects and GMM panel regressions, beta-convergence analysis and difference-in-differences estimation. The dependent variable is GRP per capita in constant prices (base year 2020); independent variables include FDI per capita, industrial share of GRP, an infrastructure index (road density, electricity access, internet penetration), higher education enrolment and a regulatory quality index (registration time, number of permits, tax administration burden) (Regulatory Reforms and Regional Economic Development in Uzbekistan, 2024) .

REFERENCES

1. Asian Development Bank. (n.d.). Strengthening the financial sustainability of cities in Uzbekistan. https://www.adb.org/sites/default/files/publication/1049936/financial-sustainability-cities-uzbekistan.pdf

2. Asadullina, N. (2019). Issues of public administration regarding the improvement of its efficiency. Cherkasy University Bulletin, *2*, 112–119. https://doi.org/10.32620/cher.2019.2.13

3. Kalmuratov, B. (2023). Increasing the efficiency of strategic management in regional development. Economics and Innovative Technologies, *92*(5), 45–53. https://doi.org/10.33619/2414-2948/92/42

4. Mustafakulov, S. (2020). Features of the system approach to management of social and economic development of regions. Archive of Scientific Research, *1*(4), 67–83.

5. OECD. (2024). OECD Public Governance Reviews: Uzbekistan. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/53364d79-en

6. Presidential Decree. (n.d.-a). On measures for the implementation of a new system of ensuring high economic growth and employment of the population in the regions. https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=164361

7. Presidential Decree. (n.d.-b). On the rating assessment of the socio-economic development of regions. https://www.lex.uz/acts/-4803531

8. Presidential Decree PF-111 of 14 July 2025. (2025). On measures to increase the efficiency, proactivity and results-orientation of the public administration system. https://lex.uz/docs/-7630445

9. Qosimov, A. (2019). Analysis of state development programs (on the example of Surkhandarya region). Theoretical & Applied Science, *79*(11), 156–162. https://doi.org/10.15863/tas.2019.11.79.26

10. Rasulov, A., & Voronin, S. (2021). Formation of an effective system of economic management as a vector of modern reforms in Uzbekistan. Cherkasy University Bulletin, *4*, 68–75. https://doi.org/10.32620/cher.2020.4.07

Regional economic growth through investment policy: A case study of Uzbekistan. (2024). American Journal of Economics and Business Management, *7*(5). https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/3807

11. Regulatory reforms and regional economic development in Uzbekistan, 2017–2024 (panel econometric study). (2024). American Journal of Social and Humanitarian Research, *6*(1). https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/download/4500/3 969

12. Sharipov, K. (2026). Analysis of factors of intensive economic growth in Uzbekistan. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.18260407

https://iau-jaesa.uz/article/4itqsmhe786d/
https://doi.org/10.5281/zenodo.22846491
UDK: 338.48:330.15

O‘ZBEKISTON TURIZM OBYEKTLARIDA SIRKULYAR TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH

Yuldosheva Laylo Isroilovna
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University)
Sirkulyar iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti
E-mail: layloyuldosheva0106@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston turizm obyektlarida sirkulyar iqtisodiyotning amaliy elementi sifatida qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etishga bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy omillar empirik baholangan. Tadqiqot bazasi 2026-yilda energiya samaradorligi bo‘yicha o‘rganilgan turizm va xizmat ko‘rsatish obyektlarining hududiy ma’lumotlaridan shakllantirilib, ma’lumotlar auditi natijasida 658 ta kuzatuv asosiy ekonometrik modelga kiritilgan. Dastlab obyekt sig‘imi va quyosh paneli quvvati o‘rtasidagi bog‘lanish Spearman koeffitsienti, obyekt turi va hududiy joylashuv bilan texnologiya qaydi o‘rtasidagi farqlar Pearson χ^2 hamda Cramér V ko‘rsatkichlari orqali baholangan. Keyinchalik quyosh paneli bo‘yicha ijobiy ma’muriy qayd binar natijaviy o‘zgaruvchi sifatida olinib, hudud bo‘yicha klasterlangan standart xatolarga ega Logit modeli qurilgan. Natijalar obyekt turi eng barqaror differensial omil ekanini ko‘rsatdi: xostel/yotoqxona va oilaviy mehmon uylarida ijobiy qayd ehtimoli mehmonxonalarga nisbatan sezilarli past. Korxona sig‘imi hamda hududiy turistik yuklama esa asosiy spetsifikatsiyada 5 foizlik darajada statistik ahamiyatli bo‘lmadi. Natijalar turizmda sirkulyar transformatsiya siyosatini obyekt segmentlari bo‘yicha differensiallashtirish va mikro darajadagi monitoring tizimini kuchaytirish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *sirkulyar iqtisodiyot, turizm, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh paneli, resurs samaradorligi, Logit modeli, marginal effekt, O‘zbekiston.*

Аннотация. *В статье эмпирически оцениваются организационно-экономические факторы, связанные с внедрением технологий возобновляемой энергетики как практического элемента циркулярной экономики на туристических объектах Узбекистана. Эмпирическая база сформирована на основе региональных данных туристических и сервисных объектов, обследованных в 2026 году с точки зрения энергоэффективности; после аудита данных в основную эконометрическую модель включено 658 наблюдений. Связь между вместимостью объекта и мощностью солнечных панелей оценивалась с помощью коэффициента Спирмена, а различия по типам объектов и регионам — посредством критерия Pearson χ^2 и коэффициента Cramér V. Далее положительная административная запись о солнечной панели использована как бинарная зависимая переменная в Logit-модели с кластеризованными по регионам стандартными ошибками. Результаты показывают, что тип объекта является наиболее устойчивым дифференцирующим фактором: для*

хостелов/общежитий и семейных гостевых домов вероятность положительной записи существенно ниже, чем для гостиниц. Размер объекта и региональная туристическая нагрузка в основной спецификации статистически незначимы на 5%-ном уровне. Полученные результаты обосновывают необходимость дифференцированной политики циркулярной трансформации и совершенствования микроуровневого мониторинга.

Ключевые слова: *циркулярная экономика, туризм, возобновляемая энергия, солнечные панели, ресурсоэффективность, Logit-модель, предельный эффект, Узбекистан.*

Abstract. *This article empirically assesses organizational and economic factors associated with the adoption of renewable-energy technologies as a practical component of the circular economy in tourism facilities in Uzbekistan. The empirical database was compiled from regional records of tourism and service facilities surveyed for energy efficiency in 2026; after data auditing, 658 observations were retained for the main econometric model. The relationship between facility capacity and recorded solar-panel capacity was examined using Spearman correlation, while differences across facility types and regions were assessed using Pearson's chi-square test and Cramér's V. A positive administrative record of solar-panel deployment was then specified as a binary dependent variable in a Logit model with region-clustered standard errors. The results identify facility type as the most robust differentiating factor: hostels/dormitories and family guesthouses exhibit substantially lower predicted probabilities of a positive solar record than hotels. Facility size and regional tourism intensity are not statistically significant at the 5 percent level in the main specification. The findings support a differentiated circular-transition policy by tourism segment and highlight the need for a unified micro-level monitoring architecture covering technologies, resource use, investment, incentives and institutional status.*

Keywords: *circular economy, tourism, renewable energy, solar panels, resource efficiency, Logit model, marginal effects, Uzbekistan.*

KIRISH

O‘zbekiston turizm tarmog‘ida tashriflar, joylashtirish vositalari va xizmatlar hajmining kengayishi iqtisodiy o‘sish manbai bo‘lishi bilan birga energiya, suv, oziq-ovqat, transport va moddiy resurslarga bo‘lgan talabni ham oshiradi. Bunday sharoitda turizmning barqaror rivojlanishi faqat tashriflar sonini ko‘paytirish bilan emas, balki bir birlik xizmatga to‘g‘ri keladigan resurs sarfini kamaytirish, mavjud aktivlardan uzoqroq foydalanish va chiqindilarni oldini olish kabi mezonlar bilan ham baholanishi zarur. Sirkulyar iqtisodiyot aynan shu masalani chiziqli “olish–ishlab chiqarish–iste’mol–chiqindi” modelidan resurs qiymatini iqtisodiyotda uzoqroq saqlovchi tizimga o‘tish orqali hal etishga intiladi [1, 2].

Turizm sirkulyar iqtisodiyot nuqtayi nazaridan o‘ziga xos tarmoqdir. Turistik xizmat ko‘pincha joylashtirish, ovqatlanish, transport, ko‘ngilochar faoliyat va hududiy infratuzilmaning birlashgan natijasi bo‘lib, resurslardan foydalanish korxona ichki qarorlari bilangina cheklanmaydi. Mehmonning xulqi, yetkazib beruvchilar zanjiri, mahalliy kommunal tizimlar va davlat standartlari ham yakuniy resurs

samaradorligiga ta’sir qiladi. Shu sababli zamonaviy ilmiy adabiyotlar sirkulyar turizmni faqat chiqindilarni qayta ishlash emas, balki biznes modeli, xizmat dizayni, iste’mol amaliyoti va hududiy boshqaruvni qamrab oluvchi tizimli transformatsiya sifatida talqin qilmoqda [3–6].

O‘zbekiston sharoitida qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini turizm obyektlarida kengaytirish mazkur transformatsiyaning kuzatiladigan amaliy yo‘nalishlaridan biridir. Quyosh panellari va geliokollektorlar energiya xarajatlarini boshqarish, energiya ta’minoti xavflariga chidamlilikni oshirish hamda turizm xizmatlarining ekologik profilini yaxshilash imkonini beradi. Biroq texnologiyani joriy etish barcha turizm obyektlarida bir xil tezlikda kechmaydi. Korxona sig‘imi, obyekt turi, hududiy turistik yuklama, investitsion imkoniyat, bino xususiyatlari va boshqaruv salohiyati kabi omillar texnologiya qabul qilinishidagi tafovutlarni shakllantirishi mumkin.

Maqolaning maqsadi — O‘zbekiston turizm obyektlarida quyosh energetikasi texnologiyalarining joriy etilishi bilan bog‘liq korxona va hududiy omillarni statistik hamda ekonometrik usullar yordamida baholash. Tadqiqotning ilmiy yangiligi 14 hududni qamrab olgan obyekt darajasidagi ma’lumotlar asosida texnologiya qaydining determinantlarini binar tanlov modeli orqali baholash, natijalarni odds ratio va o‘rtacha marginal effektlar bilan izohlash hamda Logit, Probit va muqobil natijaviy indikatorlar orqali barqarorlikni tekshirishdan iborat. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda sirkulyar turizm siyosatini umumiy yondashuvdan obyekt segmentlari bo‘yicha differensial boshqaruvga o‘tkazish uchun empirik asos beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Geissdoerfer va hammualliflar sirkulyar iqtisodiyotni resurs kirimi, chiqindi, emissiya va energiya yo‘qotishlarini material hamda energiya sikllarini sekinlashtirish, yopish va toraytirish orqali kamaytirishga qaratilgan regenerativ tizim sifatida izohlaydi [1]. Kirchherr, Reike va Hekkert tomonidan 114 ta ta’rifning tahlili esa sirkulyar iqtisodiyotni faqat “reduce–reuse–recycle” uchligi bilan cheklash tizimli transformatsiyaning biznes modeli, iste’molchi va makro darajadagi elementlarini yetarli yoritmasligini ko‘rsatgan [2]. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, turizmda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyasini joriy etish sirkulyarlikning to‘liq o‘lchovi emas, balki resurs intensivligini kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim operatsion komponent sifatida qaralishi lozim.

Sørensen va Bærenholdt sirkulyar turizmda turistlarning amaliyoti ham markaziy rol o‘ynashini asoslab, turistik tajriba ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi hamkorlikda shakllanishini ta’kidlaydi [3]. Manniche, Larsen va Broegaard turizmning moddiy bo‘lmagan xizmat sektori sifatidagi ko‘rinishiga qaramay, uning katta hajmdagi tabiiy resurslar oqimiga tayanishini ko‘rsatib, sirkulyar iqtisodiyotni turizmda ijtimoiy-texnik o‘tish doirasida qo‘llashni taklif etadi [4]. Sorin va Sivarajahning Skandinaviya mehmonxona operatorlari bo‘yicha tadqiqoti esa sirkulyar iqtisodiyotning mehmondo‘stlik biznesida qiymat yaratish salohiyati mavjudligini, biroq bu salohiyat tashkiliy, axborot, texnologik va bozor shartlariga bog‘liqligini aniqlaydi [5].

Xu va hammualliflar turizm industriyasining ekologizatsiyasini DPSIR yondashuvi asosida o‘lchab, sirkulyar iqtisodiyotning turizmga tatbiqida hududiy heterogenlikni alohida hisobga olish zarurligini ko‘rsatgan [6]. Bu xulosa O‘zbekiston uchun ayniqsa muhim, chunki turistik oqimlar, joylashtirish quvvati va infratuzilma salohiyati hududlar kesimida keskin farqlanadi. Shu jihatdan faqat respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosida siyosat ishlab chiqish obyektlar va hududlar o‘rtasidagi real differensial ehtiyojlarni yashirishi mumkin.

Xalqaro amaliy hujjatlar ham o‘lchash va monitoring masalasining muhimligini ko‘rsatadi. UNEPning Food Waste Index Report 2024 hisobotida chiqindini kamaytirish siyosati ishonchli bazaviy o‘lchov va takroriy monitoringga tayanishi kerakligi qayd etilgan [7]. GSTC mehmonxona standarti esa resurslardan foydalanish, atrof-muhit boshqaruvi va natijalarni hujjatlashtirishni xizmat sifati tizimining tarkibiy qismi sifatida ko‘radi [8]. O‘zbekiston turizm obyektlari bo‘yicha mavjud ma’muriy ma’lumotlar qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini kuzatish imkonini bersa-da, investitsiya, energiya xarajati, audit, subsidiya va raqamli boshqaruv kabi mikro omillarni birlashtiruvchi yagona ma’lumot qatlami hali to‘liq shakllanmagan.

Mavjud adabiyotlar sirkulyar iqtisodiyotning turizm uchun nazariy ahamiyatini va korxona darajasidagi amaliy salohiyatini yetarlicha asoslaydi, biroq Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston turizm obyektlari kesimida qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini qabul qilishdagi strukturaviy tafovutlarni katta mikro-ma’lumotlar bazasida ekonometrik baholagan tadqiqotlar cheklangan. Mazkur maqola aynan shu empirik bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi doirasida 2026-yilda energiya samaradorligi bo‘yicha o‘rganilgan turizm va xizmat ko‘rsatish obyektlarining 14 hududiy varaqdan iborat mikro-ma’lumotlar bazasidan foydalanildi [9]. Dastlabki bazada 707 ta xom yozuv mavjud bo‘lgan. Rasmiy hududiy kontur bilan moslashtirish jarayonida Navoiy bo‘yicha konturdan tashqaridagi 48 yozuv chiqarildi va 659 ta obyekt qoldi. Toshkent viloyatidagi bitta obyektning quyosh quvvati va geliokollektor qiymatlari hududiy jamlanma bilan aynan ustma-ust tushgani sababli texnologik maydonning obyektga tegishliligi tasdiqlanmagan va ushbu kuzatuv asosiy ekonometrik modeldan chiqarildi. Natijada yakuniy tanlanma N=658 ni tashkil etdi.

Natijaviy o‘zgaruvchi CE_SOLAR binar indikator sifatida shakllantirildi: agar obyekt bo‘yicha quyosh paneli quvvati musbat qiymat bilan qayd etilgan bo‘lsa CE_SOLAR=1, aks holda CE_SOLAR=0. Bunda 0 qiymati “quyosh paneli mutlaqo mavjud emas” degan fizik tasdiq emas, balki “ijobiy ma’muriy qayd mavjud emas” mazmunini anglatadi. Ushbu farq measurement error xavfini kamaytirmaydi, biroq natijani ehtiyotkor va ma’lumot manbasiga mos talqin qilish imkonini beradi. 658 ta obyektning 209 tasida quyosh paneli bo‘yicha ijobiy qayd mavjud.

Asosiy tushuntiruvchi omillar sifatida obyekt sig‘imi — o‘rinlar sonining natural logarifmi lnSIZE; obyekt turi — mehmonxona (bazaviy toifa), xostel/yotoqxona, oilaviy mehmon uyi va boshqa toifalar; hududiy turistik yuklama — 2026-yil yanvar–iyun ichki turistlar oqimining natural logarifmi lnTOUR olindi [9, 10]. Obyekt yoshi AGE=2026−foydalanishga topshirilgan yil shaklida hisoblandi, biroq 308 ta missing

qiymat sababli u asosiy modelga emas, N=350 bo‘lgan complete-case sezgirlik modeliga kiritildi. Elektr va gaz tejamkorligi maydonlarida o‘lchov birligi hamda hisoblash metodikasi bir xil bo‘lmagani sababli ular regressiyadan chiqarildi.

Dastlabki statistik tahlilda obyekt sig‘imi va musbat qayd etilgan quyosh paneli quvvati o‘rtasidagi monotonic bog‘lanish Spearman ρ yordamida baholandi. Obyekt turi hamda hudud bilan CE_SOLAR o‘rtasidagi mustaqillik Pearson χ^2 testi, bog‘lanish kattaligi esa Cramér V orqali tekshirildi. Hududiy jadvalning ayrim kataklarida kutilayotgan chastotalar kichik bo‘lgani uchun hudud testi 20 000 ta qayta taqsimlashga asoslangan Monte-Karlo tekshiruvi bilan mustahkamlandi.

Binar natijaviy o‘zgaruvchi uchun asosiy ekonometrik spetsifikatsiya Logit modeli shaklida baholandi. Model quyidagicha ifodalanadi: $P(CE_i=1)=\Lambda[\beta0+\beta1\ln(BEDS_i)+\beta2HOSTEL_i+\beta3FAMILY_i+\beta4OTHER_i+\beta5\ln(TOUR_r)]$. Bu yerda Λ — logistika taqsimotining kumulyativ funksiyasi, r — obyekt joylashgan hudud. Koeffitsientlarning iqtisodiy talqini odds ratio $OR_k=\exp(\beta_k)$ va o‘rtacha marginal effektlar AME_k orqali berildi. 658 ta kuzatuv obyekt darajasida bo‘lsa-da, lnTOUR atigi 14 ta hududiy qiymatdan iborat bo‘lganligi sababli asosiy inferensiyada standart xatolar hudud bo‘yicha klasterlandi. Bu 14 klaster bilan bog‘liq cheklovni to‘liq bartaraf etmaydi, shu sababli ayniqsa hududiy koeffitsientlar p-qiymati ehtiyotkor talqin qilindi [11].

Robustness tekshiruvlari uch yo‘nalishda amalga oshirildi: Logit o‘rniga Probit modeli; natijaviy indikatorni quyosh paneli yoki geliokollektordan kamida bittasi bo‘yicha ijobiy qayd mavjudligini bildiruvchi CE_ANY bilan almashtirish; AGE o‘zgaruvchisini N=350 complete-case Logit modeliga kiritish. Mazkur yondashuv asosiy xulosaning model shakli, natijaviy indikator va qisman missing ma’lumotlarga sezgirligini tekshirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlilning birinchi bosqichida turizm obyektlarida quyosh paneli texnologiyasining qayd etilishi obyekt sig‘imi, obyekt turi va hududiy joylashuv bilan qanchalik bog‘langanligi baholandi. Natijalar alohida ko‘rsatkichlarning statistik ahamiyatidan tashqari, sirkulyar transformatsiya uchun qaysi segmentlarda investitsion va tashkiliy to‘siqlar kuchliroq ekanini aniqlashga xizmat qiladi.

2.10-jadval. Tekshirilgan statistik gipotezalar natijalari

Gipoteza	Usul va N	Natija	p-qiymat	Bog‘lanish kuchi	Ilmiy talqin
H1: obyekt sig‘imi – quyosh paneli quvvati	Spearman, N=190	ρ=0,264	0,00023	Kuchsiz musbat	Bog‘lanish mavjud
H1: sezgirlik tekshiruvi	Spearman, N=176	ρ=0,206	0,0060	Kuchsiz musbat	Natija saqlanadi
